

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

G.B. Saidnazarova

TARBIYA FANINI

O‘QITISH METODIKASI

60220300 – Tarix (Islom tarixi va manbashunosligi) ta‘lim yo‘nalishi
talabalari uchun o‘quv qo‘llanma

“KAMOLOT” nashriyoti
Buxoro-2024

UO‘K: 378.147

KBK: 74.266

S16

Saidnazarova Gulshan Bolta qizi, Tarbiya fanini o‘qitish metodikasi. / [Matn]: o‘quv qo‘llanma / G.B. Saidnazarova - Buxoro: “BUXORO DETERMINANTI” MCHJning Kamolot nashriyoti, 2024. – 232 b.

Mazkur o‘quv qo‘llanma 60220300 – tarix (islom tarixi va manbashunosligi) ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, unda umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida “Tarbiya” fanini o‘qitish ijtimoiy – pedagogik hodisa ekanligi, mazkur fanni o‘qitishning predmeti, maqsad va vazifalari, hozirgi zamon tarbiya mazmuni hamda konsepsiyalari, tarbiya fanining jamiyat taraqqiyoti va o‘quvchi – yoshlar shaxsini shakillantirishdagi o‘rni, umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida tarbiya jarayoni va tarbiya fanining ilmiy – metodik xususiyatlari kabi masalalarni yoritish o‘z ifodasini topgan. Shuningdek, bo‘lajak tarbiya fani o‘qituvchilarning ilmiy - metodik jihatdan qurollantirish maqsadida, tarbiya texnologiyalari va ularni tarbiya fanini o‘qitish jarayoniga tadbiq etish yo‘llari, tarbiya fanini o‘qitish jarayonini loyihalashtirish va unga yondoshuvlar, o‘qitishda innovatsion texnologiyalar va ularni o‘rganadigan mavzular bo‘yicha qo‘llash kabi masalalar o‘z izohini topgan.

Taqrizchilar:

M.A.Jumayeva - Buxoro davlat universiteti pedagogika kafedrasida dotsenti, p.f.f.d. (PhD)

F.X.Ramazonova - Buxoro davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

ISBN: 978-9910-729-47-8

Ushbu o‘quv qo‘llanma Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 02-iyuldagi 452-sonli buyrug‘iga asosan nashrga ruxsat berildi. Ro‘yxatga olish raqami 452-16.



© “KAMOLOTT” nashriyoti

© Saidnazarova Gulshan Bolta qizi

KIRISH

Jahonda ilm-fan, texnika ishlab chiqarish hamda texnologiya sohalarida erishilayotgan yutuqlar, ta'lim tizimida faoliyat yurita oladigan bo'lajak mutaxassis o'qituvchilarni tarbiyalash va ta'lim berishlari uchun yangi avlod darsliklari va qo'llanmalarini yaratish davr talabadir. "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'lim-tarbiya va kadrlar tayyorlash tizimining tubdan isloh qilish, barkamol avlodni voyaga yetkazish to'g'risidagi farmonlari ta'lim muassasalarida amalga oshirilayotgan islohotlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Shunga ko'ra sifatli, yetuk mutaxassis tayyorlash bilan birga ularni xolisona, erkin fikr yuritadigan hamda ona vatanga dildan xizmat qila oladigan barkamol inson bo'lishlari uchun ularning ijodiy tafakkurini rivojlantirib, davlat oldida javobgarlikni his qiladigan har tomonlama yetuk, barkamol yoshlarni tarbiyalash, komil insonni voyaga yetkazish murabbiylarimizning asosiy burchidir.

Zamonaviy pedagogikada o'quv tarbiya jarayonining subyektiga ko'chiradi va jarayonni hamkorlikda ishlash, imkoniyatlardan oqilona foydalanish, yangiliklarni yaratishga yo'naltiriladi. Shu bois oliy ta'lim tizimida maxsus tahsil olib o'qituvchi murabbiylik mutaxassisligiga tayyorlanayotgan har qanday bo'lajak kasb egasini pedagogikaning ilmiy nazariy va amaliy asoslari bilan qurollantirish pedagogika fanining dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Shuni inobatga olib oliy ta'limning Islom tarixi va manbashunosligi ta'lim yo'nalishi talabalarga mo'ljallangan o'quv qo'llanma yaratishni maqsad qildik, unda ta'lim va tarbiya jarayonlarining nazariy va amaliy asoslari, pedagogik faoliyat mazmuni va uni amalga oshirish yo'llari, umumpedagogik bilimlar, pedagogik madaniyat, kasbiy-pedagogik kompetentlik, ilg'or pedagogik texnologiyalardan ta'lim va tarbiya jarayonida foydalanishning nazariy va amaliy jihatni yoritishga harakat qildik. Shunday o'quv manbalarining yaratilishiga qo'yilayotgan talablardan eng muhimi ularning mazmunida mavjud ilmiy bilimlar o'z ifodasini topibgina qolmay, shu bilan birga O'zbekiston Respublikasida, ta'lim sohasida olib borilayotgan davlat siyosatining mohiyatini ham ochib berishga xizmat qilmog'i lozim.

Zero, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning ta'kidlaganlaridek, "O'zbekistonda amalga oshirilayotgan e'tiborga molik ishlar, xususan, ilm-fan, ta'lim-tarbiya, madaniyat, san'at va adabiyot sohalarini izchil rivojlantirish, bozor iqtisodiyoti sharoitida ilm va ijod ahlini har

tomonlama qo‘llab-quvvatlash, kitobxonlik madaniyatini oshirish kabi vazifalar davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylangani” tahsinga sazovordir.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 15-iyun kuni poytaxtimizda o‘tkazilgan "Ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlash, muqaddas dinimizning sofliğini asrash – davr talabi" mavzuidagi anjumanda so‘zlagan nutqida yosh avlod tarbiyasiga alohida e‘tibor qaratdi.

"Bizni hamisha o‘ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so‘z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog‘liq. Bugun zamon shiddat bilan o‘zgaryapti. Bu o‘zgarishlarni hammadan ham ko‘proq his etadigan kim? – yoshlar. Mayli yoshlar o‘z davrining talablari bilan uyg‘un bo‘lsin. Lekin ayni paytda o‘zligini unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug‘ zotlarning avlodimiz, degan da‘vat ularning qalbida doim aks – sado berib, o‘zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimani hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan¹.

XXI asrda jahon miqyosida ta‘lim barqaror taraqqiyotni ta‘minlovchi asosiy omil sifatida e‘tirof etilib, 2030 yilgacha belgilangan xalqaro ta‘lim konsepsiyasida “Butun hayot davomida sifatli ta‘lim olishga imkoniyat yaratish” dolzarb vazifa sifatida belgilandi. Bu uzluksiz ta‘lim tizimida va butun hayot davomida har bir shaxsning ijodiy va tanqidiy tafakkurini rivojlantirishga yo‘naltirilgan zamonaviy axborot-kommunikatsiya va masofaviy o‘qitish texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatini kengaytirdi. Mustaqillik yillarida zamonaviy talablar asosida ta‘lim sifatini oshirish, kreativ usullarni qo‘llash orqali ta‘lim berish, ta‘lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, o‘quv dasturlari, o‘quv-metodik adabiyotlarini xalqaro talablar asosida yangilash, o‘quv jarayoniga ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etish kabi ishlarga alohida e‘tibor qaratildi.

Darhaqiqat, tarbiya o‘z mazmun mohiyatiga ko‘ra ijtimoiy – pedagog hodisa sifatida tarixiy, ma‘naviy – ma‘rifiy tajriba bilan xulq – odob me‘yorlari, axloqiy – huquqiy qoidalar hamda ma‘naviy qadriyatlar avloddan avlodga o‘tib kelishiga xizmat qiladi va shunday

¹Sh.M.Mirziyoev «Ijtimoiy barqarorlikni taminlash, muqaddas dinimizning sofliğini asrash – davr talabi» // Videoselektor yig‘ilishidagi nutq. – 15 iyun, 2017 yil./ <https://www.Google.com>.

bo‘lib qoladi. U odamni inson va shaxs bo‘lib shakllanishini, uni ijtimoiylashuvini ro‘yobga chiqaradigan hamda taminlaydigan omil hisoblanadi.

Shu bois tarbiya, barcha tarixiy – ijtimoiy taraqqiyot bosqichlarida jamiyat, oila, muayyan guruh va jamoalar uchun yoshlarni hayotga tayyorlash, ularni mehnatsevar, insonparvar, vatanparvar qilib o‘stirishning muhim quroli hisoblangan va shunday bo‘lib qolmaqda.

1-MAVZU. IJTIMOIIY TARAQQIYOT VA UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASALARIDA "TARBIYA" FANINI O'QITISHNING ILMIY – METODIK ASOSLARI



Tayanch tushunchalar: Ma'naviyat, xususiyat, aqliy tarbiya, axloqiy tarbiya Ijtimoiy taraqqiyot, barkamol avlod, taraqqiyot, tarbiya, o'qitish, ma'naviy va ma'rifiy ishlar, jamiyat.

Yaxshi va yomon xulqning hammasi sharoit, tarbiya, odatlanish natijasida vujudga keladi. Yaxshi xulqqa ham odat tufayli erishiladi.
(Ibn Sino)


1.1. "Tarbiya" fanini o'qitish ijtimoiy-pedagogik hodisa sifatida.

Zamonaviy maktab oldiga har tomonlama yetuk yangi shaxs, ma'naviy boylik, axloqiy poklik, jismoniy kamolotga ega shaxsni tarbiyalash vazifasi turibdi. Bu muhim masalani hal etish zamonaviy tarbiya usullari tizimidan keng foydalanishni taqozo etadi. Tarbiya metodlari va usullarini bilish nafaqat o'qituvchilar va tarbiyachilar uchun, balki ota-onalar va bolalarni tarbiyalash bilan shug'ullanadigan barcha kishilar uchun ham zarurdir.

Tarbiya metodlari va usullari o'z maqsadi, mazmuni va mohiyatiga ko'ra axloqiy-diniy usullardan butunlay farq qiladi. Mamlakatimizda bolalarni g'arazgo'ylik, molparastlik, ochko'zlikka qarshi tarbiyalash, ular ulg'aygach, umumiy manfaatni afzal ko'rishlari, "Bir kishi hamma uchun, hamma bir kishi uchun" tamoyili asosida ish yuritadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan 2020 yilda o'zbek "Pedagogika" fani tarixida ilk bor "Tarbiya" yangi fani ishlab chiqildi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 6 iyuldagi 422-sonli "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "Tarbiya" fanini bosqichma-bosqich 5 amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi

Mazkur qaror bilan “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilari uchun “Tarbiya” fani Konsepsiyasi” tasdiqlandi. Qarorga binoan “Tarbiya” fani amaldagi quyidagi fanlarni qo‘shish hisobiga tashkil etildi:



Tarbiya - bu ota-onalar, ta'lim muassasalari va jamiyat tomonidan bolalarni tarbiyalashning ongli va maqsadli jarayoni bo‘lib, u bolalarning yoshi, psixologik va individual xususiyatlarini hisobga olish asosida amalga oshiriladi.


Hozir biz texnologiya juda rivojlanayotgan davrda yashayapmiz. Mamlakatimizda amalga oshirilgan islohotlar tufayli xalqimizning turmushi yaxshilandi, barcha sohalarda o‘zgarishlar va rivojlanishlar ko‘zga tashlanmoqda, ammo shunga rivojlanishga qaramay ba’zi o‘smirlar va yoshlarning ma’naviyati pastligi, ota-onalarning farzandlarining xulq-atvoriga befarqligi nazarga tushmoqda.

Bu masalaning oldi olinmasa, savodsizlar safi ortishi mumkin. Bilimsizlik savodsizlikdan boshlanadi. Buning natijasida yangi fan shakllantirildi. Ushbu “Tarbiya” fanining metodologik asoslarini quyidagilar tashkil etadi:

- ta’lim-tarbiyaga oid me’yoriy hujjatlar;
- tarbiya asoslari va manbalari;
- tarbiya qonuniyatlari, metodlari va texnologiyalari;
- tarbiyaning amaliy masalalari.

Aynan mazkur asoslar o‘quv fanining negizini tashkil etadi. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari bu asoslarni talab darajasida o‘zlashtirishi kerak. Aks holda, ularning mazkur fan metodikasi bo‘yicha kasbiy tayyorgarligi talab darajasida bo‘lmaydi. Shuningdek, qaror bilan 2021-2022 o‘quv yilidan boshlab “Tarbiya” fani bo‘yicha pedagog kadrlar tayyorlash yo‘lga qo‘yildi. “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilari uchun “Tarbiya” fani Kontsepsiyasi”ga ko‘ra, mazkur fanning umumiy asoslarini quyidagilar tashkil etadi: - huquqiy asoslar; - tashkiliy asoslar; - ilmiy-metodik asoslar. Bunda huquqiy asoslar ta’lim-tarbiyaga oid me’yoriy-huquqiy hujjatlardan iborat, tashkiliy asoslar fanni umumta’lim maktablarida, jumladan,

boshlang'ich ta'limda talab darajasida o'qitishni va ilmiymetodik asoslar esa fanning metodologiyasini anglatadi. Qarorga ko'ra, "Tarbiya" fanining asosiy tamoyillarini quyidagilar tashkil etadi:



Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining fanga oid bu tamoyillarini chuqur o'zlashtirishi taqozo etiladi. Shu sababli oliy pedagogik ta'lim jarayonida, tarbiyaviy tadbirlarda va mustaqil ta'lim izlanishlarida ana shu tamoyillarni o'zlashtirish, faoliyatda qo'llash ko'nikmasiga ega bo'lish hamda kasbiy faoliyatda ularga amal qilish kompetentsiyasini egallash dolzarb masalalardan biridir. Buning uchun har bir talabaning individual shug'ullanishi, ustozlar bilan hamkorlikda faol ishlashi va tarbiya tamoyillarining hayotdagi ifodasini o'rganib borishi taqozo etiladi. Bunda oliy ta'lim muassasalarining imkoniyatlari, ta'lim jarayonining sharoitlari va faoliyatning amaliy samaradorligidan oqilona foydalanish kerak. Har bir talabaning mazkur fan tamoyillarini, asoslarini va istiqbolli maqsad-muddaolarini o'zlashtirishi kasbiy tayyorgarlikning negizlaridan biri hisoblanadi.

Shu bois, O'zbekiston Respublikasida "Tarbiya" fani konsepsiyasi mazkur fanni davlatning ta'lim-tarbiya sohasidagi siyosatini amalga oshirishda mavjud bo'lgan dolzarb muammolarni hal etishga yo'naltiriladi. Konsepsiya yosh avlod tarbiyasidagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan ustuvor vazifalar, asosiy maqsad va yo'nalishlarni belgilab beradi.

Shuningdek, Konsepsiyada belgilangan yo'nalishlar mamlakat yoshlarini ma'nan va jismonan barkamol qilib tarbiyalash, iqtidori va

salohiyatini ro'yobga chiqarish, ularni davlat va jamiyatning rivojiga keng jalb etish, tashabbuslarini yetarli darajada qo'llab-quvvatlash maqsadida huquqiy asoslar, iqtisodiy imkoniyatlar va tashkiliy mexanizmlarni yanada kengaytirishga xizmat qiladi.

Mazkur Konsepsiya O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi, "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonunlari, xalqaro huquqning umume'tirof etilgan hujjatlari, xususan "Bola huquqlari to'g'risida"gi, "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi konvensiyalar, Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Yoshlar-2030" strategiyasi hamda O'zbekiston Respublikasining ta'lim to'g'risidagi qonun

Konsepsiyada belgilangan vazifalar O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi talablari, Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi, milliy va jahondagi ilg'or tajribalar, mamlakatimizdagi ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar bilan uyg'un ravishda amalga oshiriladi.

Konsepsiya umumiy o'rta ta'lim tizimida o'quvchilarning yoshiga mos ma'naviy rivojlanishini ta'minlash va faol fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirish maqsadida umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitilayotgan "Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar" turkumiga kiruvchi fanlar "Odobnoma", "Vatan tuyg'usi", "Milliy istiqloq g'oyasi va ma'naviyat asoslari", "Ma'naviyat asoslari", "Dunyo dinlari tarixi" fanlarini birlashtirgan yagona Tarbiya fanining asosiy yo'nalishlarini belgilab beradi. Shu maqsadda, Xitoy Xalq Respublikasi, Singapur, Yaponiya, Koreya Respublikasi, Avstraliya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya va Rossiya Federatsiyasi kabi davlatlarning tajribalari o'rganildi, amaldagi fanlarning o'quv dasturlari har tomonlama qiyosiy tahlil qilindi.




Tarbiya – muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida shaxsni har tomonlama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni. Boshqacharoq talqin etilganda, tarbiya yosh avlodni muayyan maqsad yo'lida har tomonlama voyaga yetkazish, unda ijtimoiy ong va xulq-atvorni tarkib toptirishga yo'naltirilgan faoliyat jarayoni dir.

Ta'lim-tarbiya jamiyatning asosiy vazifalaridan biri bo'lib, u shaxsni maqsadli va tizimli shakllantirish, keksa avlod tajribasini kelajak avlodga o'zlashtirish, ularning ongi va ijobiy xulq-atvorini rivojlantirish jarayonidir. Keksav avlod bilimni ijtimoiy-tarixiy hayotda to'plangan tajribasi, yosh avlodni tarbiyalash jarayoni orqali beradi.

Pedagogika bolani o'qitish va tarbiyalash tajribalarini umumlashtiradi va ta'lim va rivojlanish uchun zarur shart-sharoitlarni belgilaydi.

Tarbiya jamiyatning tarixiy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlaridan kelib chiqadigan ob'ektiv jarayondir.

Tarbiyaning o'ziga xos xususiyatlari



Mamlakatimizda milliy tarbiya konsepsiyasi aholining keng qatlamlari, ayniqsa, o'sib kelayotgan yosh avlodning milliy ta'lim-tarbiyasini ta'minlash borasidagi davlatning bugungi siyosati va istiqbollari belgilab beradi. U yangi tarixiy bosqichda milliy tarbiyaning mohiyati, maqsadi, vazifasi va mazmunini tartibga solib, uning komil inson shaxsini shakllantirishdagi roli va mavqeini belgilaydi.

Konsepsiya mamlakatimizning butun aholisiga, joylashuvi, millati va irqidan qat'i nazar, komil inson bo'lish uchun ta'limning turli yo'llarini tanlash va amalga oshirish imkonini beradi.

Tarbiya ijtimoiy, madaniy, psixologik va pedagogik hodisa bo'lib, inson hayoti va jamiyat taraqqiyotini tartibga solishga xizmat qiladi. Bu shaxsning shaxsiy rivojlanishi va real hayot oqimiga kirishi

va madaniy hayot qurilishi uchun maxsus maqsadli faoliyati sifatida yo'naltirilgan.

Tarbiya maqsadi – davlat, jamiyat va har bir fuqaro manfaatlarini amalga oshirishga qaratilgan davlat maqsad va vazifalarining tarkibiy qismidir. Shuningdek, davlat inson hayoti va faoliyatiga, fuqarolarning milliy tarbiyasiga hissa qo'shadigan qoidalar va qoidalarni joriy qiladi.

Milliy tarbiya fuqaroda yuksak axloqiy fazilatlar, milliy o'zlikni anglash, insonparvarlik, mustaqillik, fuqarolik pozitsiyasi, tashabbuskorlik va shu kabilarni shakllantiradi. Bunday fuqaro milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda ish yurita oladi, jamiyatdagi salbiy ko'rinishlarga tanqidiy nazar bilan qaraydi, o'z vatanini sevadi va uning manfaatlarini himoya qiladi, milliy qadriyatlar egasi sifatida jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shadi.

Milliy tarbiyaning pirovard maqsad va vazifalari komil inson, vatanparvar, milliy g'urur, intellektual, ma'naviy-axloqiy, madaniy va boshqa insoniy qadriyatlar sohibini shakllantirishdan iborat.

Ta'lim jarayonida bola o'zining rivojlanishi uchun zarur bo'lgan sharoitlardan foydalanishi kerak. Tabiiy va ijtimoiy muhit uning qarashlarini rivojlantiradi.

Tarbiya tushunchasiga turlicha qarash va yondashuvlar mavjud jumladan K. D. Ushinskiy o'z faoliyatining aniq maqsadini ko'rmaydigan pedagogni qurilish materiallarini bir joyga yig'ib, undan nima olishni bilmaydigan me'morga qiyoslaydi. Pedagog yosh avlodga beriladigan bilim, ishbilarmonlik, malaka, tarbiyaviy tuyg'ularni biladi, tarbiyaviy ishlarni rejali va maqsadli olib boradi.

Ya.A. Komenskiy "Tarbiyaning maqsad va vazifalari, uning ahamiyati, amalga oshirish yo'llari shaxsning jamiyatdagi mavqeiga qarab belgilanishi kerak",

"Tarbiya insonni shakllantiradigan va takomillashtiruvchi uyg'un jarayondir" – Komenskiy ta'lim maqsadini quyidagi asosiy elementlarga ajratgan:

- *insonga hamma narsani bilish – "ilmiy bilim"*;
- *narsalarni va o'zini o'zlashtirish - "axloq"*;
- *Xudoga sig'inish, ob'ektlar - "diniy ta'lim"*;
- *jismoniy salomatlik - "jismoniy tarbiya"*.

I.G. Pestalotsining fikricha, ta'limning maqsadi bolaga boshlang'ich ta'lim, mehnat, aqliy va jismoniy tarbiya berish hamda har tomonlama barkamol rivojlanishdir.

Nemis o'qituvchisi A. Disterveg pedagogik muammolarni hal qilishda sinfiylik va shovinistik siyosatga qarshi kurashdi va *"Maktabning vazifasi insonparvarlik va o'z xalqini sevadigan vijdonli fuqarolarni tarbiyalashdan iborat"* dedi.

K.D. Ushinskiy tarbiyasining maqsadi jamiyatga foydali insonparvar shaxsni tarbiyalashdan iborat. U axloqiy tarbiyani aqliy va mehnat tarbiyasi bilan chambarchas bog'liq deb hisoblaydi.

P.P.Blonskiyning tarbiyaviy maqsadi bolaga butun insoniyat va millat madaniyatini egallashga, shaxsning umuminsoniy ideallarini shakllantirishga yordam berishdir.

1941-1990 yillardagi pedagogik adabiyotlarda "Har tomonlama rivojlanish" tushunchasiga aqliy, politexnikaviy tarbiya va ishlab chiqarish mehnati, axloqiy tarbiya, jismoniy va estetik tarbiya kiradi.

A.S.Makarenko ta'limning davlat vazifasidan kelib chiqqan holda pedagogik vazifani qo'yish orqali o'qituvchilar mehnatini nazorat qilish mumkinligini ta'kidladi. U "Ta'limning asosiy maqsadi - bolani har tomonlama rivojlantirish" taklifini qo'llab-quvvatladi, V. A. Suxomlinskiy uni amalga oshirdi.

Tarbiya tushunchasining lug'aviy ma'nosi ilm o'rgatish, odo-axloq o'rgatish, jazo berish, ovqatlantirish, tarbiyalash kabi ma'nolarni o'z ichiga oladi. Tarbiya so'zi bugungi kunda qo'llanilayotgan va ko'proq axloqiy ma'noni anglatuvchi tuzilishdan tashqari o'zbek xalqi farzandlarini tarbiyalashda har qanday kognitiv rivojlanishni ifodalovchi tuzilishga ega. O'zbek xalqining ming yillik tajribaga asoslangan milliy o'zligi va ongini kelajak avlodlarga o'tkazish imkonini beruvchi an'anaviy ta'lim/tarbiya usullari mavjud. Oila ham, jamiyat ham tarbiya vazifasini birgalikda bajaradi.

1.2 "Tarbiya" fani barkamol avlodni shakllantirishning muhim omili.

Tarbiya jamiyat taraqqiyotining asosi, shaxs rivojlanishi va kamolotining poydevoridir. Chunki tarbiyali va ma'rifatli insongina jamiyatda munosib o'rin topa oladi, hurmat va e'tiborga sazovor bo'ladi. Milliy urf-odatlar, davlat va tamaddunning tarixiy tajribasi, ajdodlar va buyuk millatparvarlar ijodi, milliy tarbiya g'oyasini qayta tiklash omillari, jumladan, go'zal xulq va odo tarbiyasi yangi davrning yosh avlodini ta'lim va tarbiyalashda ibratli rol o'ynaydi. Axloqiy fazilatlar insonda nafaqat go'zallikni anglash, balki mehr-oqibat,

rostgo'ylik, halollik, saxovatpeshalik va shunga o'xshash faollikni ham yaratadi. Milliy tarbiyaning boshqa barcha unsurlarida axloqiy-ma'naviy g'oyalar mavjud. Axloq-tarbiyaning boshqa qismlarini bir-biriga bog'lovchi va fuqaro faoliyatining asosini tashkil etuvchi elementdir.

Jamiyat shakllanishining tarixiy jarayoni odamlarni turli ijtimoiy guruhlarga ajratdi. Shu nuqtai nazardan har bir ijtimoiy guruhning jamiyatdagi o'z o'rnini, mavqeyi mavjud. Ijtimoiy guruhlar orasida o'quvchi-yoshlar alohida maqomga ega bo'ldilar. Bu ijtimoiy guruh jamiyat taraqqiyoti jarayonida uning ehtiyojlariga qarab rivojlanib, hozirgi darajasiga yetgan. Bu guruhning o'ziga xosligi shundaki, ular ijtimoiylashuv, kasb-hunarni shakllantirish va rivojlantirish bosqichida bo'lib, umuman olganda, jamiyat ehtiyojlarini ta'minlash, jamiyatni targ'ib qilish maqsadida mavjuddirlar. O'quvchi yoshlar davlat va millatning oliy maqsadlari davomchisi hisoblanib, millatning mangu borligini ta'minlaydi.

Jamiyat va davlat taraqqiyoti, har bir insonning munosib hayot kechirishini ta'minlash o'quvchi-yoshlarning kasbiy mahorati darajasiga, ularning odob-axloqiga bog'liq. Bu ijtimoiy guruhga tayanmasdan yorug' kelajakka umid qilib bo'lmaydi. Binobarin, jamiyatning har bir a'zosi ushbu ijtimoiy guruh tarbiyasida mas'uliyatli va talabchan bo'lishi zarur. Bu jarayonda o'quvchilarni to'g'ri yo'lga, muvaffaqiyat sari yetaklash zamonaviy mutaxassislar tayyorlashga xizmat qiluvchi asosiy omillardan biri sanaladi.

O'zbek xalqi o'zining uzoq tarixi davomida yaratilgan ta'lim-tarbiyaga oid boy merosga ega. Bundan tashqari, avlodlarda insonparvarlik, kamtarlik, mehnatsevarlik, do'stlik, iymon-e'tiqod, mehr-oqibat, odoblilik kabi umuminsoniy fazilatlarni shakllantirishning o'ziga xos tajribasini to'plagan. Bizga ma'lumki, ma'naviy-axloqiy fazilatlar hech qachon o'z-o'zidan vujudga kelmaydi, balki ularning kelib chiqishining haqiqiy manbai, ularni keltirib chiqargan sabablar va harakatga keltiradigan kuchlar mavjuddir. Zero, har qanday axloqiy qoidalar muayyan tarixiy zaruriyat natijasiga vujudga keladi va muayyan qonuniyat asosida rivojlanib boradi. Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, Sharq mutafakkirlarining ta'lim-tarbiyaga oid qarashlari bu tajribaning shakllanishiga ulkan ta'sir ko'rsatgan. inson tushunchasi keng qamrovli serqirra tushuncha.

Tarbiya - bu ijtimoiy, ishlab chiqarish va madaniy faoliyatga tayyorgarlik ko'rish uchun shaxsni ma'naviy va jismoniy shakllantirishga qaratilgan tizimli va maqsadli samarali jarayondir. "Avesto"dan tortib, Sino, Beruniy, Forobiy, Jomiy, Navoiy, Koshifiy, Ulug'bek, Ahmad Donish, Behbudiy, Ayniy, Fitrat va boshqa mutafakkirlarimizning asarlarini odob va axloq to'plami deyish mumkin. Ta'kidlash joizki, ajdodlarimiz qadimdan yoshlarning ta'lim-tarbiyasiga alohida ahamiyat berishgan. Ilm o'rganish, bilimlilik va odob ular uchun eng qimmatli insoniy fazilatlar edi. Mutafakkirlarimizning fikricha, har bir inson yaxshi xislat va xatti-harakatlarga ega bo'lishi, jamiyatga foydali a'zo bo'lishi uchun axloqni o'rganishi vaegallashi lozim.

Ibn Sinoning pedagogik asarlarida ta'lim-tarbiya katta o'rin tutadi. Uning fikricha, tarbiya tug'ma emas, balki ijtimoiy muhit mahsuli bo'lib, u kishilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar jarayonida shakllanadi va shu bilan u axloqning o'zgarishini rad etadi.

O'z axloqini yuksaltirmoqchi bo'lgan kishi odamlarning odob-axloqini, xulq-atvorini o'rganishi, uni o'zining axloqi, xulq-atvori bilan solishtirishi kerak. Axloqiy tarbiyada u shaxsning ruhiy holatini asosiy pozitsiya deb bilgan. Sinoning fikricha, axloqiy tarbiya o'z-o'zini tarbiyalash bilan chambarchas bog'liq. Insoniyat axloqsiz mavjud bo'lolmaydi. U uzluksiz ta'lim-tarbiyasini olti yoshdan boshlash kerakligini ta'kidlaydi, jamoaviy ta'lim tarafdori edi, chunki agar bolada hamdardlik bo'lmasa, bu uning qalbini og'ritadi.

Inson tafakkur, g'oya va hikmatli mavjudot sifatida vujudga kelgan paytdan boshlab axloqiy tarbiya uning eng muhim mavzularidan biri bo'lib kelgan. Bu esa tabiiydir, chunki odob-axloq ruhida ta'lim va tarbiya inson baxti va insoniyat jamiyati kamolotining eng muhim omilidir. Ulug' zotlari o'z asarlarining katta qismini haqiqat va to'g'rilik, ezgulik va xayrixohlik, adolat va insof, zararsizlik, xayrixohlik va ezgulik, do'stlik va hamrohlik, ezgulik va do'stlik, ezgulik va to'g'rilik haqida nasihat qilishga bag'ishlagan insoniyat sivilizatsiyasida tojik xalqining qarashi juda yaqqol namoyon bo'ladi. obro'si va insoniy mavqeini himoya qilish.

Globalashuv sharoitida milliy fikrni rivojlantirish va mustahkamlash borasida jamoatchilik oldiga quyidagi vazifalarni yuklamoqda:

- sog'lom milliy tafakkurni rivojlantirish;

- milliy qadriyatlarimizni har qanday global tahdidlardan himoya qilish;

- milliy mustaqillikni mustahkamlash;

- mamlakat xavfsizligi va tinchligini ta'minlash;

- aholining, ayniqsa, yoshlarning ogohlik darajasini oshirish;

Bu vazifalarning har biri nafaqat fuqarolarning siyosiy va ma'naviy kamolotiga olib keladi, balki jamiyat saviyasini ham yuksaltiradi.

Har qanday ta'lim-tarbiyaning maqsad va maqsadi, eng avvalo, yuksak ma'naviy boylik, sof axloq va sog'lom tanani o'zida mujassam etgan shaxsni har tomonlama kamol toptirishdir. Sog'lom yoshlar o'z taqdirini, jamiyatning kelajak taqdirini o'z qo'lga olishi, muayyan ijtimoiy sohalarda o'z faoliyatini olib borishi, qo'l bilan emas, balki o'z hayotini, inson jamiyatini tanlashda, xulosa chiqarishda, mustaqil bo'lishga harakat qilishi kerak.

Bir so'z bilan aytganda, yosh avlod tarbiyasida mehnatsevarlik, saxovatpehalik, insoniylik, xayrixohlik, erkinlik, ibratli axloq va shu kabi g'oyalar muhim o'rin tutadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, yuksak insoniy fazilatlarni egallash uchun eng avvalo, bilim olish, to'g'ri ta'lim-tarbiya olish birinchi o'ringa qo'yilishi kerak.

Mamlakatimizning yanada rivojlanishi yuksak ma'naviyatli, vatanparvarlik va milliy g'urur tuyg'usi, go'zallik, mehnatsevarlik, tejamkorlik, mas'uliyat, bunyodkorlik kabi fazilatlarga ega insonlar tarbiyasiga bog'liq. Bunday insonlarni tarbiyalash oila, davlat va jamiyatning burchidir.

Tarbiya maqsadi – davlat, jamiyat va har bir shaxs manfaatlarini amalga oshirishga qaratilgan davlat maqsad va vazifalarining tarkibiy qismidir. Hukumat odamlarning hayoti va faoliyatiga, fuqarolarning milliy tarbiyasiga hissa qo'shadigan shunday tartib va tizimlarni joriy etadi.

Milliy tarbiya fuqaroda yuksak axloqiy fazilatlar, milliy o'zlikni anglash, insonparvarlik, fuqarolik pozitsiyasi, tashabbuskorlik va boshqa ijobiy fazilatlarni shakllantiradi. Bunday fuqaro milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda harakat qilishi, o'z vatanini sevishi, uning manfaatlarini himoya qilishi, jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shishi mumkin.

Ma'naviy barkamol inson – komil inson tushunchasi bilan hamohangdir. Ayni vaqtda ma'naviy barkamol inson tushunchasi

sogʻlom avlod tushunchasi bilan ham bogʻlanib ketadi. Ilmiy adabiyotlarda bu tushunchalar alohida-alohida ishlatilsa-da, mohiyatan ularning hammasi inson ahloqi va odobini, ularda shakllangan barcha ijobiy xislatlarni, ularning insonlarga, jamiyatga va Vatanga boʻlgan munosabatlaridan tortib, toki oilagacha, ota-onaga va boshqalarga munosabatlarining barcha qirralarini qamrab oladi. Mustaqillikka erishib, maʼnaviyat va maʼrifat masalalariga birinchi darajali ahamiyat berishimiz, mustaqillikni mustahkamlash vazifalari, tarbiya sohasida sogʻlom avlod, maʼnaviy barkamol inson, komil inson kabi tushunchalarga izoh berishni, ularning mohiyatini ochib berishni taqozo etmoqda. Yuqorida aytganimizdek, ular mohiyati birday tushunchalar. Insonni toʻgʻrilikka, halollikka, poklikka, vatanparvarlik va insonparvarlikka, ezgulikka va qoʻyingki, yuksak ahloqlilikka yoʻllash bu tushunchalarning mohiyati va mazmunini tashkil etadi. Hozirgi kunda bu masalalarga birinchi darajali ahamiyat berishimizning boisi – iymoni, eʼtiqodi va ahloqiy fazilatlari – qoʻyingchi, maʼnaviyati kuchli, milliy masʼuliyat tuygʻusi, maʼnaviy barkamol fuqarolarga ega boʻlgan mamlakatgina mustaqil va barqaror rivojlana oladi. Buyuk kelajak maʼnaviy barkamol insonlarga tayangandagina yaratiladi, qad koʻtaradi.

Boshqacha aytganda, maʼnaviy barkamol, komil insonlarga buyuk kelajakni yarata oladilar. Shuning uchun maʼnaviy barkamol insonni, sohlom avlodni tarbiyalash muhim va dolzarb masala. Bu masalada Oʻzbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.A.Karimovning quyidagi soʻzi ibratlidir: “Biz sogʻlom avlodni tarbiyalash, voyaga yetkazishimiz kerak. Sogʻlom kishi deganda faqat jismoniy sogʻlomlikni emas, balki sharqona ahloq-odob va umumbashariy gʻoyalar ruhida kamol topgan insonni tushunamiz”.

Bu fikrlardan koʻrinib turibdiki, sharqona odob-axloq va umumbashariy gʻoyalarni ongiga singdirib olgan kishi yuksak maʼnaviyatli, yaʼni maʼnaviy barkamol, komil inson hisoblanadi. Maʼnaviy barkamollik insonning dunyoqarashi, eʼtiqodi, ruhiyati, xulq-atvor normalari, ahloq-odobi bilan bevosita aloqadorligi bilan ajralib turadi. Maʼnaviy barkamol kishilar xalq taqdiri va farovonligi, vatan taqdiri va uning ravnaqini oʻylaydilar. Ular mutelikda, qaramlikda yashashni istamaydilar. Komil inson tushunchasi maʼnaviy barkamol inson tushunchasi bilan hamohangdir. Maʼnaviy barkamollikka erishmay komil inson darajasiga yetish mumkin emas. Demak,

ma'naviy barkamollikka intilish – bu komil inson darajasiga erishish uchun intilishdir. Komillikka inson butun umri davomida erishib boradi. Uchta tushuncha: sog'lom avlod, ma'naviy barkamol, komil inson – darajama-daraja chuqur ma'no kasb etadi. Shundan kelib chiqadigan bo'lsak, komil inson bo'lishning aniq cheki va chegarasi yo'q. Shu bilan birga ma'naviy-ahloqiy komillik darajasini har kim o'zicha belgilay olmaydi. Kimki “Men ma'naviy-ahloqiy komillik cho'qqisiga yetdim desa, o'ziga o'zi yuksak baho bersa, u hali komil inson emas. Inson hech qachon o'zining ma'naviy kamolot darajasiga baho bera olmaydi.

Komillik har bir shaxsning boshqalar bilan bo'lgan munosabatda ko'zga tashlanadi. Komil insonni ota-ona, jamoatchilik, ular bilan munosabat shakllantiradi. Komillikning yo'li odalardan faqat yaxshi fazilatlarni o'rganish, ibrat olish, doimo yaxshilikka, ezgulikka intilishdir.

Komil inson biz uchun idealdir. Komil inson odamzod orzu qilgan jamiki ezgu xislat va fazilatlarni o'zida mujassam etgan insondir.


Komil inson haqida tasavvuf adabiyotida ko'p asarlar bitilgan. Ana shunday asarlardan biri Aziziddin Nasafiyning “Insoni komil” nomli risolasi bo'lib, unda komil insonga shunday ta'rif berilgan: “Bilgilki, komil inson deb shariat va tariqat va haqiqatda yetuk bo'lgan odamga aytadilar va agar bu iborani tushunmasang, boshqa ibora bilan aytayin: bilgilki, komil inson shunday insondirkim, unda quyidagi to'rt narsa kamolga yetgan bo'lsin: yaxshi so'z, yaxshi fe'l, yaxshi ahloq va maorif”. Bu sifatlar bilan ziynatlangan odam yolg'on, riyo va badkirdorlikdan chekinadi, hamma vaqt ezgu niyat bilan yashab, ezgu ishlarga tayyor turadi.

Yaxshi ahloqiy sifatlarni egallab borgan odam komil inson martabasiga ko'tarila oladi. Komil inson – insonlarning eng mukammali, donosi. Komil insonlar odamlar jamiyati ichidan yetishib chiqadigan mo'tabar zotdir. Insonlar komillikka ahloqiy-ma'naviy poklanish jarayonida erishadilar.

Komil, barkamol insonni tarbiyalash, voyaga yetkazish haqida musulmon sharqi ahloqi tarixida inson hayoti uchun dasturulamal, qo'llanma vazifasini o'tagan ko'p pandnomalar, xalq kitoblari yaratilgan. Bu o'rinda Prezidentning quyidagi so'zini eslash o'rinli: “...bizning ulug' ajdodlarimiz o'z davrida komil inson haqida butun bir ahloqiy mezonlar majmuini, zamonaviy tilda aytganda, sharqona ahloq

kodeksini ishlab chiqqanliklarini eslashimiz kerak, deb bilaman. Otabobolarimizning ongu tafakkurida asrlar, ming yillar davomida shakllanib, sayqal topgan or-nomus, uyat va andishga, sharmu hayo, ibo va iffat kabi yuksak ahloqiy tuyg'u va tushunchalar bu kodeksning asosiy ma'no-mazmunini tashkil etadi''.

Komil inson fazilatlarini o'zida ifoda etgan asarlar sirasiga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:



Kaykovusning "Qobusnoma",
Amir Temurning "Temur tuzuklari"
Husayn Voiz Koshifiyning "Axloqi muhsiniy"
Sa'diyning "Guliston", "Bo'ston",
Alisher Navoiyning "Mahbubul-qulub"

Bu asarlarning ko'pchiligida odil shoh va adolat, halollik va soflik, poklik, to'g'rilik, insonparvarlik, ma'rifatli bo'lish kabi insonning sharqona fazilatlarini berilgan.

Alisher Navoiyning "Nasoyimul muhabbat" asarida komil insonga xos xususiyatlar, uning sharqona fazilatlarini sanab o'tilgan. Bular qatoriga ulug' mutafakkir quyidagilarni kiritadi: tavba, halol luqma bilan qanoatlanish, o'z kasbidan topib kun o'tkazish, shariatga rioya etish, barchadan o'zini kam deb bilish, hatto farzandlari, xizmatkorlariga qo'pollik qilmaslik, chuchuk tilli bo'lish – yaxshi, muloyim tilli bo'lish, rahmdil, sahiy, mard, halim, xushhulq, sabrli, sadoqatli, vafoli bo'lish, rozi-rizolik bilan kun o'tkazish, riyozat chekishdan qo'rqmaslik va boshqalar.

Shu tariqa o'tmishda komil insonning o'ziga xos axloq kodeksi ishlab chiqilgan bo'lib, bu sifatlarga ega bo'lish har bir odamning orzu-armoni deb qaralgan. Komil inson haqidagi g'oyalar katta ijtimoiy-ahloqiy, ma'naviy ahamiyatga ega. U insonni sharafli, ezgulik va buyuk xayr ruhida tarbiyalash, mehru muhabbat, vafo va sadoqatni kuchaytirishga xizmat qilib keldi. Har zamon va lahzada insonlarga ularning insonligini eslatib, yovuz, qabih ishlar, nojo'ya hatti-harakat va qiliqlardan saqlanishga ko'maklashdi, ularda iymon va vijdon binosining paydo bo'lishi va mustahkamlanishini ta'minlab keldi.

1.3 Barkamol avlod –Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori

Ta'kidlaganimizdek, tarbiya ijtimoiy, madaniy, psixologik va pedagogik hodisa bo'lib, u inson hayoti va jamiyat taraqqiyotini tartibga solishga xizmat qiladi. Insonning maxsus maqsadli faoliyati sifatida u shaxsning rivojlanishiga va uning real va madaniy hayot qurilishi jarayoniga kirishiga yordam beradi. Tarbiyaning maqsadi insonni har tomonlama qondirish, uning barcha iste'dodlarini ro'yobga chiqarish, uning hayoti va mehnati sifatini oshirish, shu munosabat bilan iqtisodiy, madaniy va ma'naviy merosni ko'paytirishdan iborat. Milliy tarbiya fuqarolarda yuksak axloqiy fazilatlar, vatanparvarlik, mustaqillik, fuqarolik pozitsiyasi, tashabbuskorlik, mas'uliyat va shu kabi fazilatlarni shakllantiradi.

Bizning fikrimizcha, o'quvchilarni axloqiy tarbiyalash ikki yo'nalishda amalga oshiriladi:

- a) sinfdoshlar, kattalar, qarindoshlar, vatandoshlarga nisbatan;
- b) mas'uliyatni tushunish va kuchli irodaga ega bo'lish.

Inson va axloq bir-birisiz mavjud bo'lolmaydi. Axloq odob va xulq-atvorni belgilaydi va odamlar o'rtasidagi munosabatlarni, davlatga, oilaga, ishlab chiqarish vositalariga, mehnat mahsuliga va hokazolarni aks ettiradi. Axloq odamlarning xatti-harakatlari va amallarini tartibga soladi. Axloq bilim va dunyoqarash bilan, insonning ichki dunyosi bilan bog'liqdir. Odob - bu har bir kishining xatti-harakati va munosabatlarida ko'rinadigan xatti-harakatlardir.

Oila tarbiyasi murakkab va nihoyatda muhim jarayon hisoblanadi. Bu ob'ektiv va sub'ektiv xususiyatlarga ega bo'lgan ko'plab muammolarga bog'liq. Ota-onalar ko'pincha o'zlarining shaxsiy tajribasiga tayanadilar va farzandlarini tarbiyalashda xato qiladilar va pedagogik bilim va ko'nikmalarning etishmasligi muqarrar oqibatlarini hisobga olmaydilar. K.D.Ushinskiy aytadi: "Tarbiya san'ati hammaning nazarida oson va sodda ko'rinadigan xususiyatga ega bo'lib, bu sohadagi insonlar qanchalik nazariy va amaliy bilimlardan xoli bo'lsa, ular shunchalik sodda, deb hisoblaydilar. Tarbiya sabr-toqatni talab qilishini hamma tan oladi. Ba'zilar tug'ma qobiliyat va mahorat tarbiya uchun zarur deb hisoblaydilar. Ozchilik kishilar tarbiyada esa sabr-toqat, xudo bergan mahorat va iste'dodlardan tashqari, alohida bilim ham zarur, degan xulosaga kelgan".

Makarenko oilaviy tarbiyani maqsadli va boshqariladigan jarayon sifatida baholab, bola tarbiyasiga jiddiy yondashish zarur pedagogik bilimlar yo'liga juda muhim ta'sir qiladi, deb hisoblaydi. Bu so'zlar maktab o'qituvchilari va murabbiylar uchun yaxshigina qo'llanma hisoblanadi.

Ota-onalarni tarbiyalashning maqsadi ularni ma'lum zarur bilimlar bilan qurollantirish, o'rganish va ta'lim ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam berishdir.

Ota-onalarning pedagogik madaniyatini oshirish jamoaviy va individual faoliyat orqali amalga oshiriladi. Faoliyatning kollektiv shakllariga taqdimotlar, davra suhbatlari, amaliy tadbirlar, bahslar, konferentsiyalar va boshqalar, ota-onalarning pedagogik madaniyatini oshirishning individual shakllariga esa shaxsiy maslahat va suhbatlar kiradi.

Axloq yaxshilik va yomonlikni farqlaydi, odamlarning kamolot va baxt-saodat yo'lini yoritadi. Yaxshi xulqli odamda mehr va sadoqat, ibo va hayo, mehr-oqibat, adolat va insof, mardlik, saxovat, iymon-e'tiqod kabi fazilatlar mujassamlashgan bo'lsa, axloqsiz odam esa, aksincha, yomon axloq timsoli hisoblanadi.

Har bir xalq, xalq o'zining eng yaxshi fazilatlarga ega bo'lgan mashhur farzandlari bilan faxrlanadi. Azaldan xalqimizning buyuk zotlari, yozuvchi va olimlari kishilarning odob-axloqi, xulq-atvori, axloqiy tarbiyasi masalasiga yuksak baho berib kelganlar. Ming yillar davomida bu mavzuda kitoblar, odobnomalar, pandnomalar, nasihatnomalar, hikoyatlar, rivoyatlar yaratilgan bo'lib, ular bugungi kunda axloqiy tarbiyada katta ahamiyatga ega.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya milliy, ma'naviy va umuminsoniy qadriyatlar asosida amalga oshiriladi. Mazmun jihatidan u boy bo'ladi, chunki qayd etilgan qadriyatlar axloqiy tarbiyaning barcha qirralarini o'z ichiga oladi.

Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning vazifalari insonda jamiyatga yaxshi munosabatni shakllantirish, odamlarda axloqiy nuqson va kamchiliklardan nafratlanish, ongli tartib-intizomni tarbiyalash, shaxsning har tomonlama kamol topishiga hissa qo'shishdan iborat.

Axloq insonning jamiyat bilan munosabatlarning asosini tashkil qiladi. Binobarin, kitobxonning jamiyatga hurmati ortishiga, yurt mustaqilligining mustahkamlanishiga, ma'naviy-axloqiy madaniyat sohibi bo'lishiga, jamiyatda o'z o'rnini topishiga, ezgu insonlarga

bo'lgan ishonchining oshishiga olib keladi. O'qituvchi o'quvchilarga birlik, do'stlik, hamkorlik, bir-biriga yordam berish, xalq va millatga zarur bo'lgan fazilatlarni tushuntiradi. Bu butun jamiyatning iqtisodiy va siyosiy taraqqiyotini ta'minlaydi. Shu tariqa mamlakatimizda tahsil olayotgan va istiqomat qilayotgan har bir yosh o'z jonajon yurtining haqiqiy sohibi bo'lib voyaga yetishi, muvaffaqiyatlar yanada ko'payishi uchun yurt ravnaqi yo'lida g'amxo'rlik qilishga da'vat etilmoqda. Buning uchun yaxshi o'qish, tinmay mehnat qilish, qiyinchiliklarni qo'rqmasdan yengib o'ta olish, kamchilik va illatlarni qabul qilmaslik talab etiladi.

O'smirlarning axloqiy kamchiliklari birinchi navbatda ta'lim muassasasi va oilada namoyon bo'ladi. Ularning oldini olish va bartaraf etish o'z-o'zidan bo'lmaydi, kamchiliklarga qarshi kurashish kerak.

O'qituvchilar va ota-onalar birgalikda mehnat qilib, bolalarda samimiylik, tashabbuskorlik, faollik, mehnatsevarlik kabi go'zal axloqiy fazilatlarni tarbiyalaydilar. O'quvchilarning axloqiy nuqsonlarini bartaraf etishda o'qituvchilarning o'rnini katta. Ta'lim jarayonida o'quvchilarga mamlakatda sodir bo'lgan voqea-hodisalar haqida so'zlab beradilar, ularni to'g'ri tushuntiradilar. Ma'rifiy mashg'ulotlarda yurtimizdagi fidoyi shaxslarning yangilik va yutuqlari haqida so'z boradi, shu bilan birga, ayrim yoshlarning halol mehnatga loyiq bo'lmagan, o'z oilasi, ota-onasi obro'sini oyoq osti qilayotgan noo'rin xatti-harakatlari qoralanadi.

Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning vazifalaridan biri o'quvchilarda ongli intizom topishdan iborat bo'lib, bunday intizom kundalik faoliyatda, xulq-atvor va xatti-harakatlarda, o'zgaralar bilan muomalada, ya'ni inson dunyoqarashida namoyon bo'ladi. Ongli tartib-intizomga ega bo'lgan har bir kishi o'zining axloqiy burchini to'g'ri tushunadi, uning xatti-harakati va amaliga baho beradi, noto'g'ri xatti-harakatlarni qoralaydi. Tartib-intizom kishilarga xos xususiyatlardan biri bo'lib, u yaxshi xulq va odobning manbaidir.

So'nggi yillarda ma'naviy-axloqiy tarbiya mazmuni butunlay o'zgargan bo'lsada, pedagogika uni axloqli shaxsni shakllantirishning muhim vositasi deb biladi. Ma'naviy-axloqiy tarbiya mazmuni o'quvchilarning vatanparvar, insonparvar bo'lib yetishishi, kamol topishi va jamiyatda o'z mavqeini topishiga qaratilgan.

Yuqorida qayd qilinganidek, mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy- ma'rifiy islohotlar oo'sib kelayotgan yosh avlodni barkamol insonlar qilib voyaga yetkazish, ularni ma'naviy-axloqiy, madaniy -siyosiy, jismoniy- estetik jihatdan har tomonlama kamol topgan shaxs sifatida shakllantirishga qaratilgan. Zero, inson barkamolligi azaldan ezgu orzular va ma'naviy ijodiyotda doimo dolzarb mavzu bo'lib kelgan va shunday bo'lib qolmoqda. Insoniyat ijtimoiy-madaniy hayoti va tarixiy taraqqiyotining har bir davrida barkamol avlodni shakllantirish davr talab-ehtiyojlari, manfaatlari va intellektual darajasi nuqtayi nazaridan o'rganilgan va talqin qilingan. Barkamol avlod tarbiyasi haqida gap ketganda turli davr ma'naviyati, mafkurasi, darajasi va ehtiyojidan kelib chiqib fikr yuritiladi. Chunki, u insonning shaxs sifatida rivojlanishi, qiziqishi, xarakteri, qobiliyati, aqliy rivojlanganligi, ehtiyojlari, mehnat faoliyatiga munosabati bilan belgilanadi. Mana shu xususiyatlar, yaxlitliklar insonning ijtimoiy voqelik, mehnat, kishilar va jamiyatga bo'lgan munosabati nuqtayi nazaridan tavsiflanadi va barkamol shaxs darajasi sifatida e'tirof etiladi.

Ilmiy- pedagogik manbalarda ta'kidlanishicha barkamol avlod umumiy o'rta ta'lim muassasalarining o'quv jarayonida o'qitiladigan barcha o'quv fanlarini o'qitish orqali shakllanadi. Ammo, bu jarayonda " Tarbiya" fanining nufo'zi yuksakdir. Chunki, bu fan ma'naviy merosimizning manbaalari hisoblangan "Avesto", "Qur'oni Karim" " Hadisi Sharif" xalq pedagogikasining asosini tashkil etgan ertaklar, maqollar, an'analar, urf-odatlar, rasm-rusumlarda ifodalangan shariat, tariqat, haqiqat, to'g'risidagi ma'lumot beradigan, ezgu fikr, yaxshi axloqning mazmun-mohiyatini yorituvchi manbaalar yordamida yosh avlodni ongi mukammal, fikri yorqin va tiniq, qalbi pok, xulq- atvori toza, madaniyatli, ma'rifatli, bilimli, axloqli kishilar qilib voyaga yetkazadigan, hoyotga tayyorlashda amaliy yordam ko'rsatadigan fan hisoblanadi.

Chunonchi, tarbiya-muayyan va aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy voqelik va ma'naviy- ma'rifiy tarbiya asosida insonni har tomonlama kamolotga yetkazuvchi, uning shaxsiy sifatlarini asosi hisoblangan ongi, xulq-atvori, toza fikri va qalbini, ma'naviy-axloqiy dunyoqarashini rivojlantiruvchi jarayon. Shunga binoan tarbiya jarayoni o'qituvchi va o'quvchi(tarbiyachi va tarbiyalanuvchi)lar o'ratsida tashkil etilib, munosabatlarni yo'lga qo'yuvchi hamda aniq

maqsadga o'naltiruvchi ikki tomonlama, samarali tarbiyaviy hamkorlikdir. Bu jarayonda mamlakatda tinchlik va barkamollikni ta'minlovchi, huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etuvchi ongli, zukko, o'z vatanining tarixi, ona tilisi va madaniyati bilan faxrlanuvchi barkamol avlod voyaga yetkaziladi. Shu bois "Tarbiya" fani yosh avlodni tarbiyalab, ularni barkamol insonlar qilib voyaga yetkazuvchi ilmiy-metodik fan hisoblanadi. Bundan tashqari "Tarbiya" fani o'quvchi-yoshlarning qalbiga milliy tafakkur, aqliy yetuklik, jismoniy sog'lik va ma'naviy barkamollikni singdiruvchi fan sifatida 2020-2021 o'quv yilidan boshlab o'qitila boshlandi. U barkamol avlod tarbiyasining muhim faniga aylanmoqda. Chunki, pedagogik manbalarda qayd etilganidek har bir yoshda yuqorida ta'kidlangan sifatlar tarbiyalanmasa u barkamol inson bo'lolmaydi. Shu bois "Tarbiya" fanini o'qitishda quyidagi masalalarni inobatga olish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunonchi tarbiya texnologiyalari asosida faoliyat olib borishi asosiy vazifa sanaladi.

1) Sharq va G'arb ma'naviy dunyosini chuqur o'rgangan va ularga mos ma'naviy-axloqiy g'oyalarni ilgari surgan ajdodlarimiz yosh avlod barkamolligining ma'naviy jihatiga alohida e'tibor bilan qarab uning ijtimoiy va amaliy tomonlarini bu jarayonda yo'l ko'rsatuvchi yo'lchi yuldo'z ma'nosida talqin qilganlar. Shuningdek, shaxsning hayotiy ehtiyojlari hamda manfaatlarini moddiy va ma'naviy jihatdan qondirish jamoadan, millatdan va xalqdan ayro bo'lishi mumkin emas deb uqtirganlar. Umumjamiyat, umuxalq ehtiyojlarini qondirish jarayonida yosh avlod ijtimoiylashadi va o'zida dunyoviy, diniy, aqliy, axloqiy bilimlardan tashqari ilmiy-texnik, tabiiy-ijtimoiy hamda nazariy-metodologik ma'lumotlarni egallab shaxs sifatida shakllanadi.

2) Bularning barchasi hozirgi zamonda barkamol avlod bo'lib yetishish yo'lida qilingan sa'y-harakatlarning mahsuli hisoblanadi. Buning uchun hozirgi kunda barkamollikning muhim qirrasini bo'lmish ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy va madaniy-hayotiy pozitsiyaga ega bo'lishga daxldor voqea-hodisalarga asoslanishi muhim qirrasini bo'lmishga daxldor voqea-hodisalarga asoslanishi muhim ijtimoiy-pedagogik muammo hisoblanadi.

3) Shu bilan birga barkamol avlodni tarbiyalashda ziddiyatli o'ziga xos jarayonlarning qiyinchiliklari va ulkan yutuqlarini hamda ijtimoiy hayotimiz, iqtisodiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyotimiz muammolarini anglash va ular asosida faoliyat olib borish muhim rol

o'ynaydi. Shuning uchun barkamol shaxsni tarbiyalash bosqichma-bosqich maktabgacha ta'lim tashkilotidan to oliy o'quv yurtigacha bo'lgan Yangi O'zbekistonni barpo etish g'oyasining asosiy tamoyillari, qoidalarini singdirish muhim vazifa sanaladi. Bunda tarbiya texnologiyalarini rejalashtirish va loyihalash muhim pedagogik paradigma sifatida xizmat qiladi. Zero, qayd qilib o'tilganidek tarbiya-ijtimoiy hayotning zaruriy kategoriyasi sifatida jamiyat va shaxsning yanada rivojlanishi, mamlakatda ishlab chiqaruvchi kuchlarini, mehnat jarayonlarini, insonning o'zini, uning ma'naviy va jismoniy rivojlanishini ta'minlovchi kuch sifatida ishtirok etadi.

Nazorat savollari

1. Tarbiyaning mazmuni va mohiyatini yoriting?
2. "Tarbiya" fani qachon ishlab chiqildi?
4. Tarbiyaning o'ziga xos xususiyatlari haqida ma'lumot bering
5. Barkamol avlod tushunchasiga ta'rif bering

Amaliy topshiriqlar

1. Barkamol avlod -Buyuk yurt istiqboli mavzusida esse yozing
2. Ta'lim va tarbiyaga oid hadislardan misol keltiring
3. Befarqlik, dangasalik, loqaydlik kabi illatlar jamiyatda qanday oqibatlarni keltirib chiqaradi? Tahlil qiling

Mustaqil faoliyat

1. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida tarbiya fanini o'qitish davr talabi mavzusida taqdimot tayyorlang
2. Tarbiya fanini o'qitishning konseptual asoslari mavzusida referat yozing

2-MAVZU: "TARBIYA" FANINI O'QITISH METODIKASINING PREDMETI, MAQSAD –VAZIFALARI VA ILMIY TADQIQOT METODLARI



Tayanch tushunchalar: tarbiya, fan, metodika, o'qitish, o'quv fani, predmet, maqsad, vazifalar, boshqa fanlar, sifatida, aloqadorlik, ilmiy-tadqiqot, metodlar eksperiment, kuzatish, yordamchi metodlar, intervyu, savol-javob.

Yosh bolaning juda kichik yoshidan boshlab tarbiyalamoq zarur.

Tarbiya insonga o'zida yaxshi odat va fazilatlar xosil qilishga yordam beradi. (Alisher Navoiy)

2.1. "Tarbiya" fanini o'qitish metodikasining predmeti.

«Tarbiya» fani milliy an'analar, urf-odatlar, qadriyatlar, xalqning og'zaki ijodi, ma'naviy merosi asosida, yoshlarda ma'naviy-axloqiy, estetik, axloqiy-huquqiy bilim, ko'nikma, malakalarni tarkib toptirishni amalga oshirish manbaidir. "Tarbiya" fani Shu sabab barcha mustaqil fan singari o'z predmeti va tadqiqot metodlariga ega. Shunga binoan

«Tarbiya» fanining predmeti milliy mentalitet, qadriyatlar, an'analar asosida umumiy o'rta ta'lim muassasalarining bo'lajak "Tarbiya" fani o'quvchilariga tayyorlashda ularning insoniy fazilatlarni tarkib toptirishning mazmuni, shakli, vositalari, metodlari tashkil etadi

Tarbiya « fanining obyekti umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilarini Yangi O'zbekistonning talab va ehtiyojlari asosida "Tarbiya" fanini o'qitishga tayyorlash jarayoni

Tarbiya kishilik jamiyati ibtidosida paydo bo'lgan va bashariyat manfaatlari uchun xizmat qilib keldi. Tarbiya bu avlodlar o'rtasidagi

aloqani ta'minlaydi. Kattalar o'zlari turmush jarayonida orttirgan tajribalarini o'zidan keyingi avlodga o'rgatib borganlar. Kichik avlod esa faoliyati davomida yangi-yangi muammolarga duch kelib, ularni yechimini topish barobarida bilim va ko'nikmalarni egallab, oldingi avloddan meros qolgan tarbiyaga oid tajribalarni yanada boyitib o'zidan keyingi avlodga qoldiradi. Insoniyat tarixiy taraqqiyot mobaynida katta yo'lni, bosib o'tdi. Bu yo'lda u turli ijtimoiy bosqichlarni bosib o'tdi. Formatsiyalarning o'zgarishi natijasida ish munosabati bilan ishlab chiqarish munosabatlarini taraqqiy etdi. Bu hol tarbiya jarayonining takomillashib borishga o'z ta'sirini o'tkazadi. Ijtimoiy formatsiyalarning ravnaqi maktablarni rivojlantirishga, yangi-yangi o'quv yurtlarini jamiyat taraqqiyoti talabiga javob beradigan o'quv maskanlarida barpo etilishiga sabab bo'ladi.

«Tarbiya» fanini o'qitish metodikasi o'quv fani Tarbiya nazariyasining bir qismi sifatida, o'zbek xalq tarbiyashunosligining tarixiy-ma'naviy tajribasiga, markaziy Osiyo mutafakkirlarining tarbiya sohasidagi ta'limotlariga, o'zbek xalqining milliy urf-odat, an'ana va qadriyatlariga tayanadi «Tarbiya» metodikasi fani o'z o'qish yo'nalishini aniq belgilash uchun "Pedagogika" fanining tarbiya nazariyasi, didaktika bo'limlari hamda guruh rahbarining ishini tashkil etish metodikasi fanlaridagi fikrlar, g'oyalalar, nazariyalar bilan uzviy boshlangan holda takomillashtiriladi.

Kishilik jamiyatining shakllanishi va rivojlanishi, eng oddiy mehnat qurollarining yaratilishi va ishlatilishidan tortib insoniyatning kosmosni zabt etishigacha bo'lgan davrlarni qamrab oladi. Bu albatta tarbiya bilan uning mazmun-mohiyati, shakl, metod, vositalari bilan bog'liq. Zero, "tarbiya inson hayoti turmush tarzini, uning farovonligi va ravnaqini, Vatan taraqqiyotini, jamiyatning gullab-yashnashini ta'minlovchi, harakatlantiruvchi kuch hisoblanadi. Shu bois tarbiya uzluksiz, doimiy, tarixiy xususiyatga ega bo'lgan. Tarbiya eng muhim pedagogika fenomeni hisoblanib, xalqning, millatning jamiyatning taraqqiy etib borishini ta'minlaydi va ayni paytda inson, xalq, millat, jamiyat ta'sirida rivojlanib, ma'nan yuksalib, mohiyatan mukammallashtirib boradi"¹. Markaziy Osiyo xalqlarining islomgacha eng qadimgi tarbiya to'g'risidagi tasavvurlar dastlabki «Tarbiya»

¹ Альхимович И. Н., Павлова О. В. Предпринимательство в социально-экономических отношениях: воспитательно-образовательный аспект //Экономические и гуманитарные науки. – 2014. – №. 8. – С. 32-39.

fanida manbalar (Avesto». «O'rxun enasoy Bitiklar», «Irq bitigi») va xalq «pedagogika manbalari(maqollar, topishmoqlar, matallar, yasotirlar, qo'shiqlar, maqollar, aytishuvlar, dostonlar va hk.) da avloddan-avlodga o'tib, insoniyatni ezgulikka e'tiqodga, adolat va pokizalikka undagan va hayotning eng muhim tirgagi (vosita, tayanchi), poydevori vazifasini bajargan. Bu davrdagi tarbiyaning asosiy maqsadi insonni ham ruhan, ham jismonan, ham ma'nan yovuz ruhlardan xalos etish va himoya qilish, ularni ezgulikka ruhan tayyorlab, yaxshilikning modom g'alaba etish muqqararligiga ishonch hisini tarkib toptirish, qalb pokligi, fikr sofligi sihat salomatligini ta'minlovchi kuch sifatida e'tirof etilgan. Bunda tarbiyaning asosiy tarkibiy qismlari yaxshilik, insonparvarlik, mehnatsevarlik, mehr-oqibat halollik, poklik va boshqalardan iborat bo'lib, ular savol-javob, hikoya,ertak,pand-nasihat, ibrat-namuna usullari orqali targ'ib qilingan. Mamlakatimiz hududida islom dinining kirib kelishi) munosabati bilan (VIII asr) tarbiyaning (metodologik asosini muqaddas manbalar Qur'oni Karim va Hadisi Sharif tashkil etdi. Bu muqaddas manbalarda tarbiya barkamol insonni voyaga yetkazishning asosiy vositasi sifatida qaralib, u yosh avlodning axloqiy g'oyaviy dunyoqarashi, ma'naviy salohiyatini yuksaltirish, insoniy fazilatlarni tarkib toptirishning kaliti sifatida e'tirof etilgan.

Yuqorida bayon etilgan va doimiy manbalarda ko'rsatilgan fikrlardan kelib chiqib aytish mumkinki, tarbiya masalasi bir umr asosiy falsafiy ahloqiy, madaniy-ma'rifiy, burch va vazifa bo'lib kelgan va shunday bo'lib qolmoqda. Zero, tarbiyasiz hech qanday rivojlanish va taraqqiyotni tasavvur qilib bo'lmaydi «Shu bois ham XX asr boshlarida o'zbek tarbiyashunosligining mumtoz oqsoqoli Abdulla Avloniy ta'kidlaganidek: "Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot-yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidir"

Bu masala mamlakatimizda milliy mustaqillik yillarida, ayniqsa, hozirgi Yangi O'zbekistonni barpo etish sharoitida yanada dolzarb masalaga aylandi. Zero, tarbiya har bir yoshning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishda, xarakter xislatlarini takomillashtirishga, g'oyaviy, axloqiy, estetik va irodaviya hissiy kompo'nentlarini shakllantirishda ilmiy bilim, ko'knikma va malakalarini hosil qilishda harakatlantiruvchi kuch sifatida ishtirok etadi.

2.2. “Tarbiya” fanini o‘qitish metodikasining maqsad va vazifalari

“Tarbiya” fanini o‘qitish metodikasining maqsadi Talabalarda tarbiya jarayoni, uning mohiyati hamda tarbiya fanini o‘qitishga nisbatan qadriyatli munosabatni shakllantirish. Pedagogik fanlar va amaliyoti sohalaridan biri sifatida tarbiya fani haqidagi tasavvurlarni hosil qilish; tarbiya jarayonining shakllanish va rivojlanish shart-sharoitlari, vazifalari, mazmunini ochib berish; tarbiya turlari tasnifi va ulardan pedagogik faoliyatni amalga oshirishda foydalana olish ko‘nikmasini shakllantirishdan iborat.

Fanni o‘rganish jarayonida yuqorida qayt etilgan muammolar bo‘yicha bakalavrlarga to‘liq ma‘lumot berilib, tushunchalar hosil qilinadi.

Tarbiyaning umumiy vazifalari:



- jamiyat a‘zolarining maqsadga yo‘naltirilgan rivojlanishi hamda ularning qator ehtiyojlarini qondirish uchun shart-sharoit yaratish;



- jamiyat rivoji uchun zarur bo‘lgan ijtimoiy madaniyatga mos yetarlicha hajmdagi «inson kapitali»ni tayyorlash;



- madaniyatlarni uzatib turish orqali ijtimoiy hayotning barqarorligini ta‘minlash;



- ma‘lum jins yoshi va ijtimoiy-kasbiy guruhlarning qiziqishlarini hisobga olgan holda ijtimoiy munosabatlar doirasida jamiyat a‘zolarining harakatini tartibga solish.

Talabalarda dunyoviy axloq asoslarini o‘qitish metodikasining xususiyatlari

Dunyoviy axloq asoslarini o‘rgatish quyidagi yondashuvlarni hisobga olgan holda qurilishi mumkin:

- talabalarni munozara va mustaqil izlanishga maqsadli jalb etish
- odob va axloq haqidagi g‘oyalarning kelib chiqishini kontekstda o‘rganish bilan bog‘liq masalalar

milliy madaniy an'analar; maktab o'quvchilarining kognitiv faoliyatini faollashtirish;

- talabalarning ijobiy mustaqil faoliyati uchun sharoit yaratish va boshqalar.

Fanning predmeti va obyekti asosida quyidagi maqsadni amalga oshirish nazarda tutiladi. Milliy tarbiya to'g'risidagi qarashlar, ta'limotlar tarixini va boy ma'naviy merosni o'rganish asosida bo'lajak Tarbiya fani o'qituvchi tushunadi davr talablariga Mos va xos asosida odob-axloq, ijtimoiy madaniyat qoidalarini o'rgatish, milliy xulq-odob saviyasini (kiyinish madaniyati, muomala madaniyati, milliy qadriyatlarni, dunyoqarashlarini va h.k.) yuksaltirish, hamda talaba yoshlarning ularning ijtimoiy-ma'naviy faolligi va fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishni yulga qo'yish. Tarbiya fanini o'qituvchisi jarayonini tashkil etadi tarbiya tushunchasining milliylik va umumbashariylik xususiyatlarini tahlil qilish, hozirgi milliy tarbiyaning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot, ma'naviy- ma'rifiy hayot va barkamol avlod kamoloti uchun ahamiyatini o'rgatish, tarbiyaning mustaqillik yillarida mamlakatda o'tkazilgan islohotlar mazmunida ustuvor yo'nalish kasb etganligini, erishilgan yutuqlar, yoshlarni barkamol insonlar qilib voyaga yetkazishga tarbiyaning asosiy omil bo'lganligi talaba yoshlargagina singdirish, o'zbek milliy tarbiyasining tarixiy-tadrijiy taraqqiyotini qiyosiy tahlil qilish va Yangi O'zbekistonni barpo etish sharoitida "Tarbiya" fani yoshlarni hayotga, mehnatga, Vatan himoyasiga ham kelajak ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy- siyosiy, madaniy-ma'rifiy jarayonlarining faol targ'ibotchisi bo'lishi lozimligini ilmiy amaliy asoslari.

"Tarbiya" fanining boshlang'ich (1-4 sinflar), o'rta (5-9 sinflar) va yuqori (10-11 sinflar) o'quvchilarida Vatanga, o'zi tug'ulib o'sgan yurtga mehr-muhabbat va sadoqatni singdirish va yordam berishni anglash, o'z xulq atvorini nazorat qilish, ijtimoiy intellektual faoliyatni rivojlantirishiga ko'maklashuvchi fan bo'lgani lozimligini ilmiy dalillash.

Tarbiya fanining o'quvchi yoshlarda tashabbuskorlik, tadbirkorlik, ishbilarmonlik, bunyodkorlik fazilatlarini qaror toptiruvchi, ijtimoiy siyosiy faolligini huquqiy savodxonligini "fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishni yo'lga qo'yuvchi amaliy yordam beruvchi eng muhim manba ekanligini talaba-yoshlar ongi va shuuriga yetkazish.

Bugungi kunda jahonga keng rivojlanib borayotgan "ommaviy madaniyat" va turli ijtimoiy-ma'naviy qashshoqlikka olib keluvchi oqimlarning maqsad muddaolarini maktab o'quvchilarning diqqatiga havola qilib, ularni bunday hodisa-voqealarga murossasiz bo'lishga yo'llashga o'quvchilarni tayyorlash hamda ularni bu yo'nalishdagi ilmiy-nazariy, metodologik va amaliy ma'lumotlar yordamida tanishishga ko'maklashish;

"Tarbiya fanini o'qitishga texnologik yondashishni amalga oshirish hamda tarbiya texnologiyalarini o'quv mashg'ulotlarda qo'llay olish ko'nikmalarini shakllantirish xamda o'qituvchining interaktiv metodlarni keng targ'ib etish yo'llarini talabalar e'tiboriga havola qilishdan iborat.

Fanning qayd qilingan va tavsiflangan vazifalari talabalarni tarbiya jarayonida, "Tarbiya" fani va uni o'qitishning zamonaviy talablari bilan tanishish hamda ularda Tarbiya fanini o'qitishga ong bilim, ko'nikma, malakalari bilan qurollantiriladi va ularni bo'lajak faoliyatga ilmiy-nazariy, texnologik-didaktik jihatdan tayyorlanishini yo'lga qo'yadi va takomillashtiradi.

Shu o'rinda e'tirof etshi joizki, yoshlarni tarbiyalash yoxud «tarbiya fanini o'qitish jarayonida uni o'zi o'quvchidan o'qituvchiga muayyan insoniy fazilatlar tarkib topib boradi, undan oldin bo'lmagan ma'naviy axloqiy sifatlar shakllanadi. Chunki u ma'lum tarbiyaga ong manbalari bilan moslashadi ular bayon etilgan fikrlar g'oyalar qarashlar zamonda ongiga solib qo'radi, muhim bo'lmaganlarini o'z bilim oluvchilari tarbiyalanuvchilari ongiga singdiradi va o'zining ongini ham takomillashtiriladi.

Shu singari "Tarbiya" fanini ham o'z mazmunini boyishini jamiyat talablariga mos g'oya, fikrlarni izlab topib o'z istemolchilariga yetkazish orqali fanning o'zi ham takomillashib yangilanib qudratga ega bo'lib boradi.

Bugungi kunda "Tarbiya" fanini umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilariga o'qitilishi va keyingi fan sifatida shakllanib borishi ijtimoiy tarixiy zaruriyat bo'lib turli ko'rinish va nomlar orqali qadim qadimdan xalq tomonidan o'qitilib kelgan va yosh avlodni hayotga mehnatga Vatan himoyasiga tayyorlash shularni amalga oshirib "Nasihatonoma", "Odobnoma" "Hikmatnoma" va shu singari nomlar bilan nomlangan. Bugungi kunda ular tarbiya fanining metodologik asosini tashkil etadi. Tarbiya tushunchasi pedagogika

fanining muhim kategoriyasi sifatida eng qadim zamonlardan paydo bo'lib barkamollikni shakllantiruvchi vosita sifatida zardushtiylikning "Avesto" kitobida ifodalangan. Bu tarbiyaning asosi chunonchi barkamol avlod (komil inson talqinida) tushunchasi Avestodagi ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal qoidasiga asoslangan. Bu uch birlik insonning barkamollikka olib boruvchi Ruh bo'lib, unga amal qilgan inson Ahuramazdaning diydoricha erishilgan. Zero Ahuramazda men yaxshi fikr, yaxshi so'z, yaxshi amalga shon Shuxrat baxsh etaman bunday inson axloqiy poklikka erishib oxiratda rohat farog'atda bo'ladi deb o'qtiradi. Demak yaxshi fikr yaxshi so'z yaxshi amal insonni barkamollikka yetaklar ekan, albatta har bir yoshni bu qoidaga amal qilishga o'rgatishni "Tarbiya" fanining asosiy muddaosi bo'lmog'i darkor.

"Tarbiya" fanining Yana Bir metodologik asosini " Quroni Karim" va "Hadisi sharif" tashkil etadi. Zero, Quroni Karim insonni ulug'lashga qadrlashga chorlagani uni mehr shavfqat, muhabbat tinch totuv yashash va biror jonzotga zarar yetkazmaslikka chorlagan. Chunonchi "Alloh taollo "Quroni Karim" da inson faqat qilgan amallari orqasidan foyda qiladi. Kimki Alloh taolloning jamolini umid qilsa, bas solih amallar qilsin. Zeroki yaxshi amallari evaziga mukofot yomon amallari jazo olg'usidir. Shunday kishlarki iymon keltirib solih amallarni ado etur, ul zotlarga firdavs jannati maqom bo'lg'usi...Ey Imon keltirganlar Alloxga taqvo qilinglar va sadoqatlilar bilan bo'linglar"

Islom dinining ikkinchi Hadis sharifda ham yaxshilik qilish, yetim yyesirlarga muruvvat ko'rsatish, ahdiga vafo qilish, omonatga xiyonat qilmaslik, kamtarin bo'lish, barkamollik namunasi ekanligi qayd etilgan. "Diling yorishib hojating ravon bo'lishini xohlaysanmi? Yetimga rahm qil, boshini sila, taomingdan yedir shunda diling yumshaydi va hojating ravon, mushkuling oson bo'ladi. Yoki so'zingda tur ahdingga vafo qil. Iymoning pok bo'ladi".

Ko'rib o'tirganimizdek zardushtiylik va Islom dinlari o'zbek xalqining ma'naviyati, ruhiyati, turmush qadriyatlarini, millat an'analari va ma'rifatining shamchirog'idir. Zero bu milliy qadriyatlar, an'analar hozirgi yoshlarni iymon e'tiqodi, ma'naviy salohiyati, tafakkurini tarkib toptirishning manbai bo'lishi tabiiy hol. Shu bois bu tabarruk manbaalar "Tarbiya" fanining metodologik asosini tashkil etadi.

Yangi O'zbekistonni barpo etish yosh avlodni barkamolligi ya'ni ma'naviy axloqiy va intellektual shakllanganligiga bog'lik chunki axloqi pok shaxsi go'zal dunyoqarashi keng insongina Yangi o'zgarishlar yangi rivojlanishlarni amalga oshirib mamlakatning ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyoti ma'naviy-ma'rifiy hayotini jadallashtirishga qodir.

Shu o'rinda maqullash kerakki o'zbek xalqi azal azaldan o'zining boy ma'naviyatini, madaniyati tafakkuri bilan dunyoga mashhur bo'lib uning ilm fani taraqqiyotini ta'minlay olgan xalqdir.

O'lkamizning *Abu Nasr Farobiy, Abu Rayxon beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf xos Xojib, Alisher Navoiy, Xusayn Koshifiy* kabi mutafakkirlari o'zbek diyorining fanini ma'naviyati-ma'rifatini rivojlantirishga madaniyatini boyitishga katta hissa qo'shib jahon miqiyosida muhim mavqega ega bo'lgan. Ularning asarlarida insonni fozillik, oriflik komillikka undovchi g'oyalari nafaqat xalqimizni, balki butun bashariyatni insoniy ma'naviyat sari yetaklay olgan. Shu bois ularning falsafiy pedagogik ma'lumoti "Tarbiya" fanining metodologik asosini tashkil etadi.

Fozil inson g'oyasi barkamol avlod tarbiyasining fundamental asosini tashkil etadi. Bu borada Abu Nasr Forobiyning (873-933 yy.) axloqiy-ma'rifiy g'oyalari diqqatga sazovordir. U Sharq Aristoteli, ikkinchi muallim degan unvonlarga sazovor bo'lgan buyuk allomadir. Uning 160 dan ortiq falsafa, tabiatshunoslik, ta'lim-tarbiyaga oid yaratgan asarlari, ulardagi g'oyalar ilmiy falsafiy va pedagogik talabalarda fuqarolik madaniyatini shakllantirishga asos bo'la oladi. Farobiy o'zining «*Fozil odamlar shahri*», «*Baxt-saodatga erishish haqida*», «*Matematik traktat*», «*Donolik javohiri*», «*Fozil shahar aholisining qarashlari*» kabi risolalarida mamlakat hamda uning fuqarolarini fozil va johillarga ajratadi. Fozil mamlakat aholisining fozilligi tufayli bu mamlakatda ilm, madaniyat, axloq-ma'rifat birinchi o'rinda bo'ladi. Uning yoshlari esa ijobiy fazilatli bo'lib, yaxshilik qilishni, adolatli bo'lishni va ma'rifatli, jamoada yashash hamda ijodiy mehnat qilishni o'zlarining asl fuqarolik burchlari deb biladilar. Shuning uchun har doim ularga g'alaba yor bo'ladi. Forobiyning fozil odamlar shahri fuqarolari axloqining ijtimoiy-ma'naviy mezonlar konsepsiyasi diqqatga sazovordir. Mazkur mezonlar konsepsiyasi mazmunida barkamol avlod fazilatlarining asosiy ko'rsatkichlari, inson axloqi, huquqi, adolati, donishmandligi, bilimdonligi, haqgo'yligi,

kamtarligi yuksak ma'naviy axloqiy ko'rinishda yoritiladiki, ular shaxs fuqaroligi barkamolligining xususiyatlariga monanddir. Bunda allomaning barkamol inson xususiyatlari to'grisidagi qarashlari did, farosat, ma'rifat, adolat, go'zallikni sevuvchi misolida bayon etilgan. «Fozillar shahri hokimi, - deb yozadi alloma, - zehni o'tkir, har qanday narsaning alomatlarini tez ilg'aydigan, ...ta'lim olishga, bilim, ma'rifatga havasli, ...haq va haqiqatni, odil va haqgo'y odamlarni sevadigan, ...tabiatan adolatparvar bo'lib, istibdod va jabr-zulmni, mustabid va zolimlarni yomon ko'ruvchi, o'z odamlarni hurmat qiluvchi, barchani adolatga chaqiruvchi nohaq jabrlanganlarga madad beruvchi, barchaga yaxshilikni va o'zi suygan go'zalliklarni ravo ko'ruvchi bo'lishi zarur»

2.3. "Tarbiya" fanining boshqa fanlar bilan aloqadorligi.

Milliy tarbiya mohiyatini ilmiy jihatdan asoslar, milliy an'ana, urf-odat, qadriyatlar mazmunini chuqurroq yosh avlod ongigacha singdirish uchun hamda tarbiyaviy jarayon hodisalarining mazmunini, qonuniyatlarini bilishni toqazo etadi. Bu oson pedagogik hodisa emas. Buning uchun tarbiya fani boshqa fanlarga, ularning muhim qonuniyat va tamoyillariga murojaat qilish ehtiyoji tug'iladi. Ana shu nuqtayi nazardan tarbiya o'quv fani insonshunoslikka, ahloqshunoslikka, ruhshunoslikka doir fanlar bilan aloqadorlikda bo'lib, ijtimoiy-pedagogik fanlar tizimida muayyan o'ringa ega bo'lib, fan sifatida shakllanib, takomillashib boradi. «Tarbiya» o'quv fani quyidagi fanlarning manbalariga tayanadi:


Falsafa o'quvchi-yoshlar axloqiy-ma'naviy fazilatlarini rivojlanishi jarayonini dialektik xususiyatlari, tarbiyaviy ta'sirlarni bilish va tadqiq qilishning asosi hisoblanib, dunyoqarash va tafakkurni shakllantirish vazifasini bajaradi. Tarbiya nazariyasi, metodikasi va amaliyoti sohasidagi muammolarining metodologik, pedagogik, psixologik asoslarini o'rganish va ilmiy-metodik tavsiyalar, ko'rsatmalar ishlab chiqishda falsafiy ma'lumotlar yordam beradi.

Psixologiya tarbiya fanining shaxs shakllanishidagi ruhiy-individual jihatlarini tadqiq qilishda muhim o'rin tutadi. Psixologik bilimlar tarbiya sohasidagi muammolarni samarali hal etish imkonini beradi. Chunki, insonning bilish jarayonlari, individual-tipologik xususiyatlari, hissiy-irodaviy sifatlari haqidagi bilimlar tarbiya jarayonning muayyan yo'nalishlarini, tarbiyaviy faoliyatning

metodlari, usullari, vositalarini aniq yo'lga qo'yishning muhim omili hisoblanadi.

«Tarbiya» fani o'z mazmunini takomillashtirishda pedagogika fanining ma'lumotlariga ehtiyoj sezadi Darhaqiqat, tarbiyaning, tarbiya jarayonining mohiyati, qonuniyatlari, prinsiplari umumiy pedagogik bilimlarga tayanib, amalga oshirilgan taqdirda o'z maqsadiga erisha oladi. Shu nuqtayi nazardan «Tarbiya» fani «Pedagogika» fani bilan aloqadorlikda, bog'lanishda bo'ladi «Tarbiya» fani o'quvchi-yoshlarda ma'naviy axloqiy fazilatlarni shakllantirishning muhim manbai hisoblanganligi sababli, u «*Axloqshunoslik*» («*etika*») fani bilan aloqadorlikda bo'ladi Binobarin, «Etika» fani o'quvchi- yoshlarning axloqiy madaniyatini, ma'naviyatini rivojlantirish, ularda yuksak insoniy sifatlar axloqiy ong, axloqiy taffakur, axloqiy his-tuyg'u kabilarni tarkib toptirishda muhim o'rin tutuvchi nazariy g'oyalarni tarbiya jarayoniga tatbiq etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

«Tarbiya» fani o'quvchi-yoshlarni tabiatdagi, jamiyatdagi, shaxsiy hayotda munosabatlarni go'zallik qonuniyatlari asosida idrok qilishga yo'naltiradi. Bunda «Estetika» fani mazmunidagi ma'lumotlar muhim rol o'ynaydi. Zero, «Estetika» shaxs tomonidan voqelikdagi go'zalikni his etilishi, go'zalikni qabul qilishga, uni yaratishga intilishi va shular asosida har bir insonda estetik didni tarbiyalashni nazarda tushadi. Shu o'rinda aytish joizki, go'zallikni his qilgan, idrok qilgan, uni yaratishga intilgan inson go'zal, odob axloqli insondir.



Tarbiya fanining boshqa fanlar bilan aloqadorligi

«Tarbiya» fani navbatida *sotsiologiya*, *siyosatshunoslik*, *huquqshunoslik* kabi ijtimoiy-huquqiy fanlar bilan bog'liq holda rivojlanadi «Sotsiologiya» fani o'z maqsad va mazmunidan kelib chiqib, ijtimoiy munosabatlar mazmuni, ularni tashkil etish qonuniyalari xususida ma'lumotlarga ega bo'lish asosida tarbiya jarayoni ishtirokchilarini o'zaro munosabatlarini samarali tashkil etish uchun imkoniyat yaratadi.

«Siyosatshunoslik» fani jamiyat siyosiy hayotiy qonuniyatlarini o'rganish orqali vatanparvarlik, axloqiy, estetik tarbiyaning pedagogik xususiyatlarini muhokama qilishga yordam beradi.

«Huquqshunoslik» Yangi O'zbekiston barpo etish, rivojlantirish, adolatli fuqarolik jamiyatini shallantirish sharoitida yosh avlodning huquqiy ongi, huquqiy bilimdonligi, huquqiy madaniyatini hosil qilish ham o'stirish, Konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta'minlovchi huquqiy tizim to'g'risida tasavvurlarini tarkib toptirishni nazarda tutuvchi fan. «Tarbiya» fani o'z mazmunidagi mavzular yordamida o'quvchi-yoshlarda huquqiy me'yorlar, insonning haq-huquqlari va boshqa qonunlar to'g'risida bilim berib, ularda qonunlar axloqiy-huquqiy me'yorlarga qat'iy va og'ishmay amal qilish, huquqiy qonunlarni hurmat qilish, e'tirof etish, huquqiy munosabatlar jarayonidagi faol ishtirokni tashkil etishga yo'naltirilgan faoliyatni tarbiyalashdan iborat bo'ladi.

Tarbiya va uning tarkibiy qismlariga oid fikrlar-taraqqiyotini tarix va madaniyatshunoslikka oid bilimlarsiz tasavvur qilish mushkul. Tarbiya fani mazmunidagi ma'lumotlarni o'quvchilarga aniq qilib yetkazishda tarix fanidagi ma'lumotlarga fikrlarga nazar tashlash, ulardagi tarbiyaviy g'oyalar, ta'limotlar, qarashlar mazmunini o'rganish hozirgi davr tarbiya nazariyasi va «Tarbiya» fani uchun nihoyatda muhim. Ayni paytda madaniyatshunoslik o'quvchilarda insoniyat tomonidan yaratilgan ma'naviy madaniyat haqidagi tasavvurni shakllantirish, ularda zamonaviy madaniyat yutuqlaridan foydalanish ko'nikmalarini hosil qilish uchun xizmat qiladi.

Tarbiya fani - biologik fanlar bilan uzviy bog'liq. Zero, fiziologiya, anatomiya, gigiyena fanlarida ma'lumotlar, ayniqsa, oliy asab faoliyati fizialogiya fanida birinchi va ikkinchi signallar tizimi, qo'zg'alish va tormozlanish jarayonimiya faoliyati, bolalarni ruhan milliy fazilatlarini qabul qilishga tayyorlash uchun ahamiyatlidir Oliy

nerv faoliyati qonunlari, sezgi organlari va ularning funksiyalarini bilish, yoshlarning mukammal shaxs sifatida shakllanishi va rivojlanishi uchun katta imkoniyatlar yaratadi.

Tarbiya fani "**Pedagogik texnologiya**", "**Pedagogik mahorat**" fanlari bilan ham uzviy bog'langan. Bu fanlar "Tarbiya" fanini o'qitishni zamonaviy ta'lim texnologiyalari asosida tashkil etish, "Tarbiya" fani o'qituvchisining tarbiyachi sifatidagi mahoratini oshirishga yordam berish bilan birga, pedagogik texnika, pedagogik muomala, pedagogik nazokat haqidagi ma'lumotlar bilan o'qituvchini tanishtirib, uning kasbiy kompetenligini rivojlantirishga yordam beradi.

Qayd etilgan fanlar "Tarbiya" fanining mazmundorligini oshirish bilan birga, uni o'qimishli, jamiyat va inson takomili uchun qimmatli foydali fanga aylanishida muhim ijtimoiy pedagogik axamiyat kasb etadi.

2.4. "Tarbiya" faning ilmiy tadqiqot metodlari.

Ilmiy tadqiqotning natijalari amaliyotda va nazariyada qo'llanila boshlaganidan so'ng ilmiy izlanish ishi tugallangan bo'ladi. Ta'lim tarbiya sohasini yaxshilash takomillashtirish davr talablari asosida yangi metod, usullar yaratish maqsadida, ilmiy, izlanishlar olib boriladi. Ilmiy izlanishining natijasida aniqlash metod yordamida aniqlanadi.

Har bir darsda maktab o'quvchilarining motivatsiyasiga katta e'tibor berilishi kerak o'quv materialini o'zlashtirish. Motivatsiya usullari o'ziga xos xususiyatlarga qarab tanlanadi o'quv jarayonini tashkil etish uchun shart-sharoitlar, talabalarning tayyorgarlik darajasi; kasbiy ko'rsatmalar va o'qituvchilarning malakasi foydalanish orqali fanni o'rganish uchun motivatsion sharoitlarni kengaytirish mumkin yangi sifat darajasining ko'rinishi: o'qituvchi uchun bosma o'quv qo'llanmalaridan tashqari grafiklar, jadvallar, fotosuratlar, rasmlar, audio va video materiallar, asl hujjatlar, asarlar fantastika va boshqalar.

Kurs mazmunini o'zlashtirishga yordam beradigan eng muhim mexanizm sifatida, quyidagi usullarni ajratib ko'rsatish mumkin:

Axloqiy dilemmalar va munozaralar usuli - maktab o'quvchilari tushunadigan narsalarni yaratish real hayot bilan bog'liq muammoli vaziyat, shu jumladan ikki yoki undan ortiq savollar.

Evristik usullar - ijodiy muammolarni hal qilishda qo'llaniladigan bilish usullari va usullari. Yangi narsalarni kashf qilish jarayonida qiyinchiliklar. Inson qobiliyatlarini rivojlantirish,

yangilarini rivojlantirish imkonini beradi samarali g'oyalar yoki ularning kombinatsiyasi, original va maqsadli natijalarga erishish tegishli hudud.

Tadqiqot usuli - bu talabalar joylashtirilgan ta'lim tashkiloti tadqiqotchining pozitsiyasi: gipotezani mustaqil ravishda aniqlash, uni tasdiqlash yoki rad etish; ma'lum ma'lumotlarga asoslanib, xulosalar va umumlashtirish, etakchi tushuncha va g'oyalarni tushuning, lekin ularni tayyor holda qabul qiling.

Dizayn - bu individual mustaqillikni birlashtirgan maxsus faoliyat turi guruh faoliyati bilan ishlash, buning natijasida talabalar o'zlarining yakuniy mahsulotini yaratadilar o'z ijodkorligi, vaziyatni tahlil qilishni, muammoni ta'kidlashni, shakllantirishni o'rganing kutilgan natijalar, vazifalar qo'yish, muammoni hal qilishning maqbul yo'lini topish, harakatlar rejasini tuzing, potentsial resurslarni hisobga oling va ularni realga aylantiring; tadqiqot o'tkazing, ishingizni baholang va tahlil qiling, natijalarni o'zaro bog'lang kutilganidek natijalar.

Boshlang'ich maktabda evristik usullar eng ko'p ishlatilishi mumkin, ijodiy faoliyatga e'tibor qaratish imkonini beradi. Talabalarga tayyor holda berilmaydi. Ta'riflar va haqiqatlar to'plami va siz eng muhim xulosalarni o'zingiz shakllantirishga taklif qilasiz.


“Tarbiyai” fanining ilmiy tadqiqot usullari deganda yosh aavlodni tarbiyalash, bilimli qilish va o'qitishning real jarayonlarga xos bo'lgan ichki aloqa va munosabatlarni tekshirish, bilish yo'llari, uslublari va vositalari majmui tushuniladi. Pedagogik nuqtayi nazaridan fanning ilmiy tadqiqot usullari qanchalik to'g'ri tanlansa, ta'lim– tarbiya mazmunini yangilash va takomillashtirish shu darajada rivojlanadi.

“Tarbiya” fanining ilmiy tadqiqot metodi deganda turli tarbiyaviy hodisalarni va muammolarni hamda ijtimoiy hayot uchun masalalarni barkamol insonlarni tarbiyasini yechishga yaratilgan usul va operatsiyalarning yig'indisi tushuniladi. Obyektiv voqelikni bilishning metodlari juda ko'p.

Tarbiya fanida tadqiqot tarbiyaviy metodlariga suhbat, anketa, intervyu, eksperiment, matematik - statistika ma'lumotlarini tahlil qilish kabi metodlar qo'llanadi. Bu metodlar «Tarbiya» fanning mazmun mohiyatini boyitishda, yosh avlodni o'qitish, tarbiyalash, ma'lumotli qilishning ichki aloqa va munosabatlarni aniqlash hamda tekshirish, bilish, aniqlash maqsadida qo'llaniladi. Ilmiy tadqiqot

usullari qanchalik to‘g‘ri tanlansa tarbiya fanining mazmunini yangilash va takomillashtirish uchun yaxshi imkoniyatlar yaratiladi

“Tarbiya” fanining tadqiqot metodlari quyidagilardan iborat



Tarbiya fanida kuzatish metodi asosiy o‘ringa ega, uning asosini tadqiqotchining fanda tajribaning muayyan bir tomoni va hodisalarni biror maqsadini ko‘zda tutib idrok etish tashkil etadi. Kuzatish rejalashtiriladi va uning dasturi tuziladi. Bunday kuzatishlar tezligi, soni, kuzatish obekti, vaqti, fandagi vaziyatlarni kuzatish uchun ajratiladigan xarakteristika va boshqalar hisobga olinadi. Kuzatish bevosita bo‘lishi mumkin. Metodning ushbu turda biror bir yodisaning oqibatlarini haqida faqat materialni boshqa shakllar orqali yoki qandaydir asbobni qo‘llash vositasida olishiga imkon beradi. Ilmiy texnika taraqqiyoti asrida kuzatishning vizual usullari xilma xildir. Ular texnika vositalari (kinofotosyomka, videozapis, televideniya, telefotometriya va h.k) laridan iborat bo‘ladi.

Tarbiya fanida so‘rash metodi tadqiqotchining boshqa kishilardan tarbiya fanidan biron tomoni yoki hodisalari haqida axborot olish jarayonidan iborat. «Tarbiya» fanida so‘rash savollarning mantiqiy o‘ylangan tizimini, nisbatan kamchiligi (3-5 ta) nazarda tutiladi. Shuningdek, qat’iy aqldagi («ha» «yo‘q») javobini taqozo etadi.

“Tarbiya” fanida suhbat metodi so‘rashing bir turi bo‘lgani yo‘lda tadqiqodchining jiddiy tayyorgalik ko‘rishini talab etadi, chunki u tekshirilayotgan shaxs bilan bevosita aloqa bo‘lish vaqtida og‘zaki suhat tarzida, suhatdoshning javoblarini yozmasdan erkin muomala shaklida qo‘llaniladi. Suhbat metodida o‘qituvchilar va o‘quvchilar jamoasi bilan ota-onalar va keng jamoatchilik bilan yakka va guruhli tartibda ish olib borilganda qo‘llaniladi. Suhbat metodi qo‘llanilganda quyidagi talablarga rioya qilish lozim:

- har bir suhbat uchun vaqt, savollar mazmunini oldindan belgilash;
- suhbat ishtirokchilarining tarkibini oldindan kelishib olish;
- suhatdoshni erkin gapirishiga imkon berish;
- sergap, bachkana bo‘lmaslik;
- biografik ma‘lumotlarni hisobga olish;
- olingan ma‘lumotlarni o‘z vaqtida ishlab chiqish, kerak bo‘lsa qo‘shimchalar kiritish.

Tarbiya fanida intervyu metodi. Oldindan belgilangan savollar yordamida izchil qo‘yilgan savolga javob olish tushuniladi. Bunda javoblar turli texnik vositalarda (telefon, fleshka) yozib olinadi. Hozirgi kunda ommaviy so‘rash nazariyasi va amaliyotida intervyu metodini tashkil etishning quyidagi usullaridan foydalaniladi:



Bunda o‘quvchilarni ijodini o‘rganish, ularning individual faoliyatlariga doir masalalar o‘rganiladi va tahlil qilinadi.

Anketa metodi, yozma so‘vullarga javoblarni ommaviy amalga oshirishni nazarda tutadi.

Anketalarni ishlab chiqarish murakkab ilmiy jarayondir. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi anketa mazmunidagi savollarning puxtaligiga bog‘liq. Hozirgi davr tarbiya fanining talablariga ko‘ra ma‘lumotlarni EHMda qo‘llab matematik-statistika metodlari bilan ishlashga imkon beradigan qilib tuziladi.

Anketa metodiga doir namuna:

Anketa

F.I.Sh.

OTM

nomi

Ta'lim
yo'nalishi

Kursi

Guruhi

№ 1. Taklif etilgan hayot maqsadlaringizni tartiblang

Ta'lim olish	
Yaxshi oila qurish	
Mustahkam salomatlik	
Haqiqiy do'stlar orttirish	
Yaxshi ish topish	
Hurmat qozonish	
Obro'ga erishish	
Erkin odam bo'lish	
Mashhur bo'lish	
Boy bo'lish	
Yaxshilik qilish	
Karyera qilish	
Vijdonga qarab yashash	
Sezuvchanlik va rahm-shafqatni namoyon etish	

№ 2. Sizga bir qator bayonotlar taqdim etiladi. Agar siz bayonotga rozi bo'lsangiz, uning yoniga "+" ("ha"), agar rozi bo'lmasangiz, "-" ("yo'q") belgisini qo'ying.

Bayonotlar:

1. Men har doim axloq va axloq tamoyillariga qat'iy rioya qilaman.

2. Men har doim burch va mas'uliyat hissiga amal qilaman.

3. Har qanday, hatto yashirin bo'lsa ham, qilmish jazosiz qolmasligiga ishonaman.

4. Advokatning mohir himoyasi tufayli jinoyatchi ozod etilishi mumkinligidan g'azabdaman.

5. Qonunlarga rioya qilish majburiy, deb hisoblayman.
6. Men odamlar spirtli ichimliklarni barcha iste'mol qilishdan voz kechishlari kerak deb hisoblayman.
7. Agar biror kishiga ataylab yolg'on gapiradigan bo'lsam, yuzimni hgirishga to'g'ri keladi. Chunki uning ko'ziga qarashga uyalaman.
8. Axloq va axloq haqidagi kitob va maqolalarni o'qishni yaxshi ko'raman.
9. Ayollarning chekishi meni bezovta qiladi.
10. Menimcha, hayotni faqat to'g'ri tushunish kerak.
11. Kimdir ahmoqlik yoki jaholat ko'rsatsa, men uni tuzatishga harakat qilaman.
12. Men qat'iy e'tiqodli odamman.
13. Men jiddiy mavzulardagi ma'ruzalarni yaxshi ko'raman.
14. Men har qanday ishni tugatish kerak deb hisoblayman, garchi bu kerak emasdek tuyulsa ham.

«Tarbiya» fanida matematika va kibernetika usullari ta'lim-tarbiya nazariyasi va amaliyotdagi ma'lumotlar, ularning rivojlanish darajasini hisoblash mashinasi va kibernetikasi yordamida turli tillarda tarjima qilinishi dasturlashtirilgan ta'lim va uni mashinalar yordamida boshqarish, kompyuterli ta'lim samaradorligini aniqlash, differensial va individual ta'limning mohiyati, mahsuldorligini va maktab o'quv-tarbiya jarayonining o'sish darajasini aniqlash texnikalar yordamida amalga oshirilishini nazarda tutadi. Bunda odatda o'rtacha arifmetik miqdor, modda, mediana, dispersiya tanlab olinadigan to'plam majmuining o'rtacha kvadratik chetga chiqishi, o'rtacha olingan qiymat xatosi, belgilarni tuzatish koeffitsentlari hisoblab chiqiladi va natijalar taqqoslanadi.

Mulohaza uchun**QOZINING BOLASI**

Hukmdorning saroy eshigida bir azamat turardi. Bu yigit qozining bolasi edi. Zehni, aql-idroki juda o'tkir edi. Bolaligidan unda shunday qobiliyat bo'lib, hamma unga hasad bilan gapirardi. Aqllimisan aqlli bo'lib, boshi uzra ulkan yulduz porlagan edi. Bir qancha vaqtdan o'tib, kelishgan va ruhiyati ancha ko'tarilgan bu yigit sultonning nazariga tusha boshladi. Donolar: "Boylik mol-mulk bilan emas, hunar bilan bo'ladi. Aql yoshda emas, boshdadir", – deganlar. Ammo qismatni qarangki, tengdoshlari unga hasad qilishdi. Sultonning nazaridan qoldirish uchun uni xoinga chiqardilar. Hatto munofiq sanab o'ldirmak uchun yomon ishlarga undadilar. Shu payt sulton vaziyatdan xabar topib, yigitni huzuriga chaqirtirdi. Va undan:

–Ular sendan nima istaydilar? Nega senga bu qadar dushmanlik qiladilar? – deb so'radi.

Yigit tavoze' bilan shunday javob berdi:

–Sultonimning davlat soyasida eshik og'alarimning hammasini ko'nglini oldim. Faqatgina hasadchilarga qo'shilmadim. Hech kimni xafa qilmadim, ammo hasadchiga nima ham qila olardim? Ular ich-ichlaridan azobdadirlar. Ular faqatgina qo'limdagi ne'matlarni yo'qotishim, pastlarga tushishim ila sevinadilar; rohat qiladilar. Siz, sultonimning davlati va iqboli bor bo'lsin.

Hikmat

Hasadgo'ylik, insonga halovat bermaydi. U sog'lik va huzurning eng kichik dushmanidir. Kishining o'ziga ham, atrofida qilarga ham ulkan zarar keltiradi.

Nazorat savollari

- 1.“Tarbiya” fanini o‘qitish metodikasining predmeti nima?
- 2.“Tarbiya” fanini o‘qitish metodikasining maqsad va vazifalarini bayon eting?
- 3.“Tarbiya” fanining boshqa fanlar bilan aloqadorligini ayting?
- 4.“Tarbiya” fanining ilmiy tadqiqot metodlari qaysilar?
- 5.Kuzatish va anketa metodini tushuntirib bering?

Amaliy topshiriqlar

- 1.“Tarbiya” fanining ijtimoiy va tabiiy fanlar bilan aloqadorligini venn diagrammasi orqali tushutiring?
2. Tarbiya” fanining ilmiy tadqiqot

Mustaqil faoliyat

1. Tarbiya fanini ilmiy tadqiqot metodlari haqida taqdimot tayyorlang
2. Tarbiya fani barkamol avlod tarbiyasining muhim manbai mavzusida video rolik yozing
3. Barkamol avlod tarbiyasini mazmuni va funksiyalari mavzusida referat tayyorlang

3-MAVZU: UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASALARIDA TARBIYA FANINI KONSEPTUAL ASOSLARI VA TARBIYA FANINI O'QITISHNING TAMOYILLARI.



Tayanch tushunchalar: *konsepsiya, ma'lumot, texnologiya, modernizatsiya, intensifikatsiya, dinamik xususiyat, faraz, jamoa, hamkorlik, qadriyat, milliylik.*

Inson tabassumi bilan tarbiyasini, nimaga kulgani bilan saviyasini namoyon qiladi. (Jaloliddin Rumiy)

3.1. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida tarbiya fanini o'qitishning mazmuni.



Tarbiya fanining maqsadi – o'quvchilarda ijtimoiy-emotsional ko'nikmalar, milliy, umummadaniy va faol fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirish.

Tarbiya fanining vazifalari¹:

Boshlang'ich ta'lim (1–4-sinflar)da



¹ Xodjayev B., Artikova M. Tarbiya fanini o'qitish texnologiyasi. –Toshkent, 2020 y

O'rta ta'lim (5–9-sinflar)da:**Yuqori sinflar (10–11-sinflar)da:**

Umumiy o'rta ta'limning malaka talablari umumtalim fanlari bo'yicha ta'lim mazmunining majburiy minimumi va yakuniy maqsadlariga, o'quv yuklamalari hajmiga hamda ta'lim sifatiga qo'yiladigan talablardan iborat bo'lib, u quyidagilardan tashkil topadi¹:

¹ <https://lex.uz/docs/4885018>

bilim - o'rganilgan ma'lumotlarni eslab qolish va qayta tushuntirib berish;

ko'nikma - o'rganilgan bilimlarni tanish vaziyatlarda qo'llay olish;

malaka - o'rganilgan bilim va shakllangan ko'nikmalarni notanish vaziyatlarda qo'llay olish va yangi bilimlar hosil qilish;

kompetensiya - mavjud bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik faoliyatda qo'llay olish qobiliyati.

Baholash tizimi - davlat ta'lim standard bo'yicha umumiy o'rta ta'limning malaka talablarini o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi darajasini hamda umumiy o'rta ta'lim muassasasining faoliyati samaradorligini aniqlaydigan mezonlar majmuidan iborat.

Umumiy o'rta ta'lim tizimida "Tarbiya" fanini o'rganish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

Standart darajalari	Ta'lim bosqich	Darajalarning nomlanishi
	UO'T 11-sinf bitiruvchisi	"Tarbiya" fanini o'rganishning umumiy darajasi
	UO'T 9-sinf bitiruvchisi	"Tarbiya" fanini o'rganishning kuchaytirilgan tayanch darajasi
	UO'T 4-sinf bitiruvchisi	"Tarbiya" fanini o'rganishning tayanch darajasi
	Maktabgacha ta'lim	"Tarbiya" fanini o'rganishning boshlang'ich darajasi

Tarbiya kompetensiyalari quyidagilardan iborat:

A2 daraja:

- ❖ orzu qila oladi;
- ❖ maqsadini aniq qo'ya oladi va amalga oshirishga intiladi;
- ❖ tanqidiy tafakkurga ega bo'ladi;
- ❖ mas'uliyatni anglaydi;
- ❖ hamkorlik qila oladi;

- ❖ axloq qoidalariga ega bo'ladi;
- ❖ to'g'ri harakatlarga amal qiladi va qo'llab-quvvatlaydi;
- ❖ jarayonlarda tashabbus ko'rsatadi;
- ❖ o'z-o'zini rivojlantiradi;
- ❖ faoliyatini tahlil qila oladi;
- ❖ atrof-muhitga oqilona munosabatda bo'la oladi.

A2+ daraja:

- ❖ Maqsad qo'ya oladi va uni amalga oshirishga harakat qiladi;
- ❖ mas'uliyat va majburiyatiga amal qiladi;
- ❖ hislarini anglaydi va nazorat qila oladi;
- ❖ mustaqil sog'lom fikrga ega bo'ladi;
- ❖ pul topish ko'nikmalari shakllanadi;
- ❖ liderlik sifatlarini namoyon etadi;
- ❖ biznes va tadbirkorlik g'oyalarini ilgari sura oladi;
- ❖ kreativ sifatlarini namoyon qiladi;
- ❖ to'g'ri qaror qabul qiladi;
- ❖ sog'lom turmush tarziga rioya qiladi va uni targ'ib qiladi;
- ❖ faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'ladi;
- ❖ axborotni tahlil qila oladi va axborot xavfsizligidan himoyalana oladi
- ❖ bag'rikenglikni namoyon qila oladi.

B1 daraja:

- ❖ ish o'rinlarini yaratishga intiladi, mehnat jamoasi va mutaxassislar bilan samarali hamkorlik qila oladi;
 - ❖ ijtimoiy sharoitlarga moslasha oladi;
 - ❖ o'z-o'zini rivojlantiradi, bilimini muntazam ravishda oshirib borishni tizimlashtira oladi;
 - ❖ burch, majburiyat va huquqlarini biladi, ularga rioya qiladi;
 - ❖ faol fuqarolik pozitsiyasini namoyon qiladi;
 - ❖ ijtimoiy hayotga tayyorligini namoyon qila oladi;
 - ❖ hissiyotlarini boshqara oladi, nizoli vaziyatlarda o'zini o'zi idora qila oladi;
 - ❖ muammolarni tinch yo'l bilan hal etishga harakat qiladi;
 - ❖ mustaqil tafakkurga ega bo'ladi, o'z xatti-harakatlarini tanqidiy baholay oladi;
 - ❖ ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega bo'ladi va targ'ib qila oladi.
- Quyidagilar sinflar kesimida bitiruvchilarga qo'yiladigan malaka talablari sifatida belgilab qo'yildi:

1- sinf bitiruvchisiga qo'yiladigan malaka talablari
quyidagilardan iborat:

- ✓ orzularini aniqlay oladi;
- ✓ mas'uliyatni anglaydi;
- ✓ hamkorlik qila oladi;
- ✓ qiziquvchanligi ortib boradi;
- ✓ jamoasida va oilasida o'rnatilgan odob me'yorlariga rioya qiladi.

2- sinf bitiruvchisiga qo'yiladigan malaka talablari
quyidagilardan iborat:

- ✓ o'z oldiga maqsad qo'ya oladi;
- ✓ mas'uliyatini anglaydi;
- ✓ muomala odobiga amal qiladi;
- ✓ tirishqoqlikni namoyon qiladi;
- ✓ takliflarini ifodalay oladi;
- ✓ yaxshi odatlarga amal qiladi.

3- sinf bitiruvchisiga qo'yiladigan malaka talablari
quyidagilardan iborat:

- ✓ maqsad va orzu-umidlarini amalga oshirishga harakat qiladi;
- ✓ ma'suliyatini anglaydi;
- ✓ ahillik, kechirimlilik, rahm-shafqatli kabi sifatlarga ega bo'ladi;
- ✓ o'z fikrini bildiradi;
- ✓ bag'rikenglik, sabr-qanoat, shukronalikni namoyon qiladi;
- ✓ yangilikka intiladi;
- ✓ jamoadagi o'z o'rmini his qiladi.

4- sinf bitiruvchisiga qo'yiladigan malaka talablari
quyidagilardan iborat:

- ✓ hayotiy maqsadlari shakllanadi;
- ✓ to'g'ri harakatlarni qo'llab-quvvatlaydi va amal qiladi;
- ✓ jarayonlarga tanqidiy munosabat bildiradi;
- ✓ tashabbuskorligini namoyon qiladi;
- ✓ mas'uliyatini anglaydi;
- ✓ tejamkor (tabiiy va moddiy resurslarni avaylaydi) bo'ladi;
- ✓ sog'iom fikrga ega bo'ladi;
- ✓ etika qoidalari haqida tushunchaga ega bo'ladi.

5- sinf bitiruvchisiga qo'yiladigan malaka talablari
quyidagilardan iborat:

- ✓ mustaqil tafakkurga ega boiadi;
- ✓ ma'suliyat va majburiyatiga amal qiladi;
- ✓ shaxs sifatida o'zini anglaydi;
- ✓ mustaqil sogiom fikrga ega boiadi;
- ✓ favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakatlanishni biladi;
- ✓ orasta kiyinadi va sog'lom turmush tarziga amal qiladi.

6- sinf bitiruvchisiga qo'yiladigan malaka talablari

quyidagilardan iborat:

- ✓ o'z faoliyatini tahlil qiladi, baholaydi;
- ✓ o'zini-o'zi rivojlantiradi, maqsadlari sari intiladi;
- ✓ mas'uliyat va majburiyatini bajaradi;
- ✓ o'z-o'ziga xizmat koisatishga odatlanadi;
- ✓ o'z oldiga maqsad qo'ya oladi;
- ✓ mustaqil sog'lom fikrlaydi;
- ✓ muloqot madaniyatiga rioya qiladi;
- ✓ ma'naviy-axloq me'yorlarga rioya qiladi.

7- sinf bitiruvchisiga qo'yiladigan malaka talablari

quyidagilardan iborat:

- ✓ o'z harakatlarini baholaydi;
- ✓ bilimli bo'lish zarurligini anglaydi;
- ✓ jismoniy va intellektual imkoniyatlarini rivojlantiradi;
- ✓ jamoa bilan hamkorlikda kreativ sifatlarini namoyon qiladi;
- ✓ axborot olish, uni tahlil qilish, axborot madaniyatiga ega boiadi;
- ✓ yon-atrofida boiayotgan voqea-hodisalarga dahldor bo'ladi.

8- sinf bitiruvchisiga qo'yiladigan malaka talablari

quyidagilardan iborat:

- ✓ to'g'ri qaror qabul qiladi;
- ✓ jismoniy va intellektual imkoniyatlarini rivojlantiradi;
- ✓ kommunikativlik, faollik, tashkilotchilik, tashabbuskorlik ko'rsatadi;
- ✓ axborot va ekomadaniyatga ega bo'ladi;
- ✓ sog'lom turmush tarziga amal qiladi va targ'ib qiladi;
- ✓ umuminsoniy va milliy madaniyatga rioya qiladi;
- ✓ faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'ladi.

9- sinf bitiruvchisiga qo'yiladigan malaka talablari

quyidagilardan iborat:

- ✓ maqsad qo'ya oladi va uni amalga oshirishga harakat qiladi;

- ✓ mas'uliyat va majburiyatiga amal qiladi;
- ✓ hislarini anglaydi va nazorat qila oladi;
- ✓ mustaqil sog'lom fikrga ega bo'ladi;
- ✓ pul topish ko'nikmalari shakllanadi;
- ✓ liderlik sifatlarini namoyon etadi;
- ✓ biznes va tadbirkorlik g'oyalarini ilgari sura oladi;
- ✓ kreativ sifatlarini namoyon qiladi;
- ✓ to'g'ri qaror qabul qiladi;
- ✓ sog'iom turmush tarziga rioya qiladi va uni targ'ib qiladi;
- ✓ faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'ladi;
- ✓ axborotni tahlil qila oladi va axborot xavfsizligidan himoyalana oladi;
- ✓ bag'rikenglikni namoyon qila oladi.

10- sinf bitiruvchisiga qo'yiladigan malaka talablari
quyidagilardan iborat:

- ✓ hislarini anglaydi va nazorat qila oladi;
- ✓ pul topish ko'nikmalari shakllanadi;
- ✓ biznes va tadbirkorlik g'oyalarini ilgari sura oladi;
- ✓ kreativ sifatlamini namoyon qiladi;
- ✓ ma'naviy tahdidlarni anglaydi va baholaydi;
- ✓ ma'naviy, ruhiy va intellektual kamolotga intiladi;
- ✓ o'zini-o'zi nazorat qila oladi;
- ✓ daxldorlikni his etadi va faol ishtirok etadi;
- ✓ zamonaviy kasblar haqida tasavvurga ega boladi;
- ✓ o'zining fuqarolik burch va huquqlarini biladi.

11- sinf bitiruvchisiga qo'yiladigan malaka talablari
quyidagilardan iborat:

- ✓ hislarini anglaydi va nazorat qila oladi;
- ✓ pul topish ko'nikmalari shakllanadi;
- ✓ kasb tanlash to'g'risida qaror qabul qila oladi;
- ✓ biznes va tadbirkorlik g'oyalarini ilgari sura oladi;
- ✓ kreativ sifatlarini namoyon qiladi;
- ✓ oilaviy qadriyatlarning mohiyatini anglaydi;
- ✓ sog'lom fikrga ega bo'ladi, muammolarni yecha oladi;
- ✓ vatan oldidagi huquq, burch va majburiyatlarini biladi, amal qiladi;
- ✓ kommunikativlik, liderlik qobiliyatini namoyon qiladi;
- ✓ maqsadlarini amalga oshirish uchun ilmiy, fuqarolik

savodxonligini namoyon qiladi;

- ✓ faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'ladi;
- ✓ ma'naviy-axloqiy qadriyatlarga ega bo'ladi;
- ✓ axborot bilan ishlash ko'nikmasi shakllanadi;
- ✓ muvaffaqiyatli ijtimoiy hayotga tayyorligini namoyon qila

oladi.

O'quvchilarning qo'yilgan malaka talablarini o'zlashtirganligi quyidagicha baholanadi:

T/r	Baholash mezonlari	Ball
1.	Fikrini erkin bayon qila oladi	1
2.	Hamkorlik qila oladi	1
3.	O'z xatti-harakatlarini baholay oladi	1
4.	O'z fikrini misollar bilan to'ldirib bayon etadi	1
5.	Muammoni tushunadi	1
Jami ball:		5

Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha topshiriqlar quyidagicha baholanadi:

T/r	Baholash mezonlari	Ball
1.	Tashabbuskorlik ko'rsata oladi	1
2.	Faoliyatini mustaqil rejalashtiradi	1
3.	Olgan bilimlarini amaliyot bilan bog'lay oladi	1
4.	Qaror qabul qiladi	1
5.	Jamoda hamkorlikda ishlay oladi	1
Jami ball:		5

Tarbiya fani o'quvchilarda fanlarni o'rganish va ta'lim olishni davom ettirish uchun XXI asr kompetensiyalari, tayanch va fanga oid umumiy kompetensiyalarni rivojlantirishni talab etadi.

“Tarbiya” fanining tayanch o'quv rejasi quyidagi tartibda belgilandi:

T/r	Fan nomi	Haftalik o'quv soatlari sinflar kesimida)											Haftalik umumiy soat	
		1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11		
1.	Tarbiya	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	11

3.2. "Tarbiya" fanini o'qitish tamoyillari va ularning tavsifi.

Tadqiqotchilar metodologiya obykti sifatida o'quv fanini o'qitish jarayonini, o'quv jarayonining qonuniyatlari esa mavzuni ajratib ko'rsatadilar.

O'qitish metodikasi obykti aslida fan ma'lumoti, tarbiyasi va ta'limi bilan belgilanadi. Ta'lim, tarbiya va rivojlanish asosan o'rganish jarayonida amalga oshiriladi, shuning uchun metodikaning obykti fanni o'qitish jarayonidir, deb hisoblash mumkin. Shunday qilib, o'qitishning asosiy funksiyalari - ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi funksiyalarini: tashkiliy, strukturaviy, psixologik, integratsiya-differensiatsiya, maslahat, nazorat-diagnostika, korreksion, reflektiv, fasilitatsion kabi funksiyalar bilan boy etish mumkin.

Ta'limiy funksiya - pedagogik bilim, ko'nikma va malakalar tizimini shakllantirish va ularni amaliyotda qo'llash uchun sharoit yaratish.

Rivojlantiruvchi funksiya o'quvchilar shaxsining aqliy, hissiy, hissiy-irodaviy, motivatsion va kommunikativ sohalarini rivojlantirish uchun sharoit yaratadigan faol o'qitish usullaridan foydalangan holda amalga oshiriladi.

Tarbiyaviy funksiya o'quvchilarni turli xil faoliyat turlarini tashkil etish va joriy etishdan iborat bo'lib, ular davomida o'quvchilar shaxsining intellektual, hissiy va irodaviy fazilatlari, kasbiy va aksiologik qarashlari va e'tiqodlari, shuningdek, o'quv va kognitiv faoliyat motivlari shakllanadi.

Tashkiliy funksiya fanni o'qitish mazmuni, hajmi va sifati bilan o'quvchilarning bilish faoliyati o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi.

O'qitishning **strukturaviy funksiyasi** har bir alohida dars uchun o'quv materialini tartiblash va tizimlashtirishdan iborat.

Psixologik funksiya o'quvchilarning ishlashi uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishdir: odatdagi vaqt, tanish sinflar, ma'lum o'quv talablari va boshqalar - bularning barchasi ishga ijobiy munosabat va qulaylik hissi yaratadi.

Integratsiyalash-differensiallash funksiya o'quvchilarning birgalikdagi faoliyatini tashkil etishdan iborat bo'lib, bunda har bir o'quvchining imkoniyatlari va qobiliyatlarini hisobga olgan holda faoliyatini individuallashtirish uchun sharoitlar yaratiladi.

Maslahat funksiyasi fan bo'yicha guruh va individual maslahatlar o'tkazish, o'quv materialini o'zlashtirishda yordam berish, kerakli ma'lumotlarni taqdim etish, savollarga javob berish, o'quv ma'lumotlarini taqdim etish usullari, ta'til paytida ishlash bo'yicha maslahatlardan iborat.

Nazorat va diagnostika funksiyasi o'quvchilarning individual ehtiyojlari va imkoniyatlarini hisobga olish, o'quv materialini o'zlashtirish darajasi bo'yicha fikr-mulohazalarni bildirishdan iborat.

Korreksion funksiyasi o'quvchilarning o'quv faoliyatini nazorat qilish va baholash asosida tartibga solish va tuzatishni o'z ichiga oladi.

Refleksiv funksiya fanni o'qitish jarayonida o'z harakatlarini tushunishga, boshqalarni tushunishga, ularga yordam berishga, o'z harakatlarini boshqa subyektlarning harakatlari bilan muvofiqlashtirishga qaratilgan.

Fasilitatsion funksiya o'quvchilarga pedagogik bilimlarni o'zlashtirishga metodik, psixologik va texnik yordam berishdir.

Tarbiya fanini o'qitishning asosiy tamoyillari

 Tarbiyaning aniq maqsadga qaratilganligi,	 Tarbiyaviy ta'sirlarning ketma-ketligi,
 Tarbiyaning Izchilligi,	 Tarbiyaning uzluksizligi
 Tarbiyaviy jarayonning dinamik xususiyat- ga egaligi	 Tarbiyaviy jarayonda tarbiyalanuvchilarning ijobiy fazilatlariga tayanish
 • Intensifikatsiya	 Modernizatsiya

✓ **Tarbiyaning aniq maqsadga qaratilganligi**, jumladan, «O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida Milliy g'oyani rivojlantirish konsepsiyasi», «Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi» (ijtimoiy buyurtma) bilan muvofiqligi

✓ **individual yondashuv** (har bir tarbiyalanuvchining shaxsi bilan yaqindan tanishish, uning xarakteri, ehtiyojlari, hayotiy tajribasi, shaxsiy sifatlarini o'rganish va ularga tayanib ish ko'rish);

✓ **modernizatsiya** (tarbiyaviy tadbirlarni bugungi kun ta- lablari darajasida tashkil etish, zamon bilan hamnafas bo'lish);

✓ **intensifikatsiya** (tarbiyaviy jarayonning ta'sirchanligi va jadalligi);

✓ tarbiyaviy jarayonda tarbiyalanuvchilarning ijobiy fazilatlariga tayanish (mavjud ijobiy fazi- latlar negizida yangi sifatlarni tarbiyalash, sal- biy illatlarni bartaraf etib borish);

✓ **tarbiyaviy jarayonning dinamik xususiyat- ga egaligi** (shakllantiriladigan fazilat to'g'risi-dagi tasavvurga ega bo'lish – tushunchani hosil qilish – bilimga ega bo'lish – ko'nikmaning shakllanishiga erishish – malakani hosil qilish – odatning shakllanishiga erishish – muayyan ma'naviy-axloqiy fazilatning mavjud darajasi);

✓ **tarbiyalanuvchilarning** yosh, pedagogik-psixologik, milliy va shaxsiy xusu- siyatlarini inobatga olish;

✓ **ta'lim** va tarbiya birligi;

✓ **yaxlit yondashuv** (tarbiya jarayoniga mas'ul subyektlar tomonidan tar- biyaviy maqsadning bir xil tushunilishi);

✓ **pedagogik hamkorlik** (tarbiya jarayoni subyektlari – oila, ta'lim muassasa- lari, jamoatchilik o'rtasida hamkorlikni qaror toptirish va uni mustahkam- lash).

✓ **Tarbiyaning** hayot, mehnat, ijtimoiy qurilish bilan bog'liqligi amaliyoti va tamoyili. Bu tamoyilning mohiyati jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy munosabatlarini, hayot haqiqatining axloqiy va go'zalligini ta'lim-tarbiyada qo'llashdan iborat.

✓ **Jamoad** va jamoa orqali tarbiyalash tamoyili. Bu tarbiyaviy ishning asosiy tamoyillaridan biridir. "Tarbiya" fani bolalar va yoshlarning guruh va jamoaviy hayotini ular shaxsining ma'naviy boyligi, ijtimoiy faolligi va mas'uliyat hissini shakllantirishning zaruriy sharti deb biladi.

Bolalarga ta'lim amaliyoti va tarbiyaviy g'amxo'rlikning oliy maqsadi va ma'nosi dastur faoliyati, turi va usuliga erishish emas, balki bola, o'smir, yigitning o'zi bo'lishi kerak. Ularning individualligini, xulq-atvorini, o'z fazilatlarini his qilishni yuksak ma'naviy ehtiyojlar uchun rivojlantirish kerak.

maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunday o'rganish natijasida o'quvchilarning kelgusi tarbiya jarayoni yo'nalishlari belgilab olinadi. O'zbekiston yangi taraqqiyotining hozirgi bosqichida o'quvchilarni, ayniqsa 1-sinf o'quvchilarini milliy g'oya asosida tarbiyalashda amaliy jihatlarga e'tibor berish asosiy vazifalardan hisoblanadi. Chunki bugungi kunga qadar amalga oshirilgan milliy g'oya asosida yosh avlodni tarbiyalash jarayonida nazariy yondashuvning ustuvor bo'lib kelganligi ma'lum. Shu sababli bugungi kunda yangi milliy g'oyamiz asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiyalashda amaliy jihatga alohida e'tibor berish taqozo etiladi. Bu borada pedagogik vositalardan biri Ijtimoiy so'rovnoma metodidan oqilona foydalanish lozim.

Mulohaza uchun UCH BUYUK TABIB

Bir tabib qattiq kasal bo'lib yotib qoldi. Uning shogirdlari yig'ilib ustodlarini davolashga kirishdilar. Kasal ustod ularga:

— Sevimli shogirdlarim, meni davolash uchun behuda zahmat chekmang, tuzalishdan umid uzganman, o'limim yaqin qolganga o'xshaydi. Vafot topganimdan keyin juda qayg'urib oh-voh qilmang, chunki, o'rnimga uchta buyuk tabib qoldirib ketaman. Shu zo'r uch tabibning maslahatlariga hammangiz e'tibor bering va boshqalarni ham shunga da'vat qiling,— dedi. Shogirdlardan biri:

— Bizlarning aziz ustodimiz, sizdan keyin o'ringizda qoladigan uchta tabib kimlar?— deb so'radi. Ustod ko'zlarini ochdi, yonidagi shogirdlariga shunday javob berdi:

— Sizlarga so'zlaganim uchta zo'r tabibning birinchisi— poklik, ikkinchisi parhez, uchinchisi badantarbiyadir. Doimo pok, ozoda bo'lishlik, tiqishtirib apl-tapil yemasdan o'z miqdorida ovqatlanish, ichkilikdan tiyilish, badan a'zolarini harakatsiz qoldirmasdan badantarbiya bilan shug'ullanish — mana bularning hammasi salomatlikni saqlovchi eng yaxshi choralardir.

Nazorat savollari

1. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida tarbiya fanini o'qitishning mazmuni.
2. "Tarbiya" fanini o'qitish tamoyillari va ularning tavsifi.
3. Tarbiyaning umumiy konsepsiyalarini ayting
4. Tarbiyaning umumiy konsepsiyalarini va ularning "Tarbiya" fanini o'qitishdagi ahamiyatini tushuntiring
5. Yangi O'zbekistonda tarbiyaning zamonaviy konsepsiyalari.

Amaliy topshiriqlar

1. «O'zi vatanparvar bo'lgan inson boshqalarni ham shunday ezgu maqsad sari yashashga undaydi va buni jamiyat oldidagi asosiy burchi deb biladi», ushbu fikrni jadidlar faoliyat bog'lab tushuntiring.
2. Abdulla Avloniy bu borada shunday degan edi: «Qaysi bir millatning orasida birlik ko'tarilib, nifoq va adovat hukm surgan bo'lsa, ul qavmning inqiroz dunyosiga yuzlanganligi tarix sahifalaridan ma'lumdir». Ushbu fikr mohiyatini ochib bering.

Mustaqil faoliyat

1. Tarbiya fani barkamol avlod tarbiyasining muhim manbayi.
2. Barkamol avlod tarbiyasini mazmuni va funksiyalari.
3. Barkamol avlod tarbiyasi va yangi O'zbekiston g'oyalarini o'quvchilar ongiga sindirishda tarbiya fani o'rni.

4-MAVZU: "TARBIYA" FANINING JAMIYAT TARAQQIYOTI VA YOSH AVLOD HAYOTIDAGI O'RNI.



Tayanch tushunchalar: barkamol avlod, mehnatsevar, matonatli- madaniy yodgorliklar, qadimiy qo'lyozmalar, ilm-fan yutuqlari falsafiy tafakkur, san'at, milliy adabiyot, axloqiy fazilatlar, urf-odat, an'ana va marosimlar

Yosh bolaning juda kichik yoshidan boshlab tarbiyalamoq zarur. Tarbiya insonga o'zida yaxshi odat va fazilatlar xosil qilishga yordam beradi.

(A.Navoiy)

4.1. O'zbekiston Respublikasida tarbiya fanini o'qitish zaruriyati.

Ta'lim va tarbiya birgalikda olib borilishi va bosqichma-bosqich amalga oshirish kerak bo'lgan jarayon hisoblanadi. Zamonaviy davr voqealari o'quvchilarga to'g'ri ta'lim va tarbiya bermaslik, ularning tafakkuri, dunyoqarashini rivojlantirmaslik noxush oqibatlarga olib kelishini yana bir karra isbotlaydi.

Yoshlarni milliy an'analar, ajdodlarning udumlari va o'tmishdagi ma'naviy merosga hurmat ruhida tarbiyalash milliy ta'lim va tarbiyamizning negizini tashkil etadi.

Umumiy o'rta ta'lim tizimida tarbiya fanini o'qitish davlatning milliy ta'lim, shuningdek, bolalarga ta'lim va tarbiya yo'nalishidagi hozirgi siyosati va istiqbollari belgilaydi. Mazkur fan yangi tarixiy bosqichda milliy tarbiyaning mohiyati, maqsadi, vazifalari va mazmunini tartibga solib, uning komil inson shaxsini shakllantirishdagi roli va mavqeini belgilaydi.

Bugungi kunda mamlakatimiz yoshlarining kamoloti va dunyoqarashi muntazam ravishda takomillashib, rivojlanib borishida umumiy o'rta ta'lim maktablarida tarbiya fanini o'qitish nihoyatda zarur. Tarbiya fanini o'qitish "o'z navbatida ma'naviyat, ma'rifat, madaniyat, milliy qadriyatlar, milliy g'urur, vatanparvarlik tuyg'ulariga

asoslangan yoshlarni tayyorlashni kafolotlaydi”¹. Tarbiya fani o'quvchilarda faol fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirish, ularning har tomonlama ijtimoiylashuviga ko'maklashish, samarali hamkorlik qilish, vaqtini mazmunli tashkil etish, milliy, ma'naviy va umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qilish, o'zlarining intellektual va kreativ salohiyatini ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda, kelajak avlod tafakkurini o'zgartirish, ularni har tomonlama komil inson sifatida milliy qadriyatlar asosida insofli, adolatli va g'ururli qilib tarbiyalash muhim vazifalardan hisoblanadi. Bunday vazifalarni bajarish uchun tarbiya jarayonining samarali yo'llarini topish alohida ahamiyatga egadir. Jumladan, milliy qadriyat, milliy g'urur, milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirish asosida qo'yilgan masalaning echimini topish maqsadga muvofiqdir.

Tarixdan ma'lumki, yosh avlodga ta'lim va tarbiya berishda turli ta'lim va tarbiyaviy vositalardan foydalanib kelishgan. Bunday vositalarga milliy qadriyatlar, urf-odatlar, an'ana, rivoyat va muborak hadislarni keltirish mumkin. Bu kabi ta'lim va tarbiya vositalari asrlar osha odamlardagi ishonch hissini mustahkamlab, ularni yuksaltirib, hayot sinovlari, muammo va qiyinchiliklarni engib o'tish uchun saboq vazifasini bajargan. Shuningdek, bunday vositalar yosh avlodda yuqori darajada ma'naviyatning shakllanishiga asos bo'lgan. Bugungi kunda mamlakat taraqqiyoti, millat kelajagi bo'lgan har bir yosh avlodni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash alohida ahamiyat kasb etadi. Bu borada har bir o'qituvchi mas'uliyatli vazifalarni bajarishga tayyor bo'lishi kerak.

Ta'lim jarayonida berilayotgan tarbiyaning samaradorligini oshirish uchun ibratli rivoyatlar va hadislardan unumli foydalanib, yoshlarda kishilarga mehribonlik, hurmat va muhabbat bilan qarash fazilatlarini rivojlantirish zarur. Bu esa yosh bolalarda o'ziga bo'lgan ishonchni yanada oshiradi. Natijada, yosh bolalarda atrofdagilarga nisbatan hurmat, ishonch, mehribonlik hislari tarkib topadi. Milliy qadriyatlarga hurmat, milliy g'urur, milliy ongning uyg'onishi va shakllanishi o'zlikni anglashdan boshlanadi. O'zlikni anglash shakllansa milliy g'urur va iftixor paydo bo'ladi. O'zlikni anglash deganda, millati, dini, urf-odatini, yashash tarzini saqlab qolish,

¹ Suvonqulov H.T. Tarbiya fanini o'qitish jarayonida o'quvchilarning milliy qadriyatlarga qiziqishlarini rivojlantirish metodikasi. pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. –Termiz, 2023, 11-bet

namoyon qilish va jahonda o'zligini ko'rsata olish imkoniyatlari tushuniladi.

O'zligini anglab, atrofdagilarga nisbatan to'g'ri muloqotga kirishadi, Vatan xizmatiga tayyor turib, ajdodlari merosidan faxrlanish tuyg'usiga ega bo'ladi. Odob - axloq qoidalarini egallagani holda millatidan, xalqidan faxrlanib yashaydi. Shunday tuyg'ularni rivojlantirish uchun o'quvchi yoshlarning boshlang'ich sinf davridayoq "Tarbiya" fanini o'qitishga alohida e'tibor berish lozim.

O'z-o'zini anglashni tarbiyalash pedagogika fanining eng muhim masalalaridan biri bo'lib, ayni paytda nafaqat pedagogika nazariyasi, maktab va oilaning muhim muammolardan biridir.

Har yili ko'plab yoshlarni mustaqil hayot va mehnat yo'liga jo'natamiz. O'qituvchi va ota-onalarni bir savol, ya'ni, avvalo, biz tarbiyalayotgan insonning mohiyati nimada, degan savol doimo qiynab turishi kerak. Shu bilan birga, ota-onalarni, o'qituvchilarni yana bir g'oya, ya'ni yosh avlodni jamiyatning buyuk hayotiga qanday tanishtirish, shu yo'lda jamiyatga kerakli shaxsni kamol toptirish masalasi tashvishga solishi kerak.

Ota-onalar va o'qituvchilar yosh avlodda o'z-o'zini anglash tarbiyasining quyidagi ustunlarini shakllantirishga harakat qilishlari kerak: ezgulik, sadoqat, mehr-oqibat, hamdardlik, axloqiy barqarorlik, axloqiy madaniyat, hamdardlik, axloqiy odatlar tarbiyasi va boshqalar. Albatta, bularning barchasi o'smir va yoshlarda axloqiy-axloqiy qadriyatlar qanday shakllangani bilan bog'liq.

Yosh avlodda o'z-o'zini anglash tuyg'usini shakllantirish va tarbiyalash bu ish bolalikdan boshlangan bo'lsa, kerakli natijani berishi mumkin. Aynan yoshlikda, qalb tuyg'ular ta'siriga to'lganida biz bolalarga umuminsoniy axloq me'yorlarini yaqqol ochib berishimiz, ularga odob-axloq alifbosini o'rgatishimiz mumkin.

Milliy o'zlikni anglash tuyg'usining paydo bo'lishi uchun tayanch avvalo oiladan boshlanadi. Yosh avlodda dunyoqarash, axloqiy e'tiqod va xulq-atvor, yaxshi insoniy odatlarni shakllantirishning asosiy poydevori oilada qo'yiladi. Shunday ekan, bolaga ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni tarbiyalashda ota-onaning ta'siri juda katta.

Sog'lom oilaviy munosabatlarning mavjudligi, uning har bir a'zosining oilaviy hayoti tartiblilik, shodlik va baxt tuyg'usi bunday oilalarda xotirjam, xotirjam, baquvvat, serharakat insonlar bo'lib

yetishish imkonini beradi. Shu bilan birga, bunday oilalarda bolalar muammolarni hal qilish, jamoada yashash qobiliyatini o'rganadilar.

O'z-o'zini bilish tuyg'usini shakllantirish - bu o'z Vatani, jamiyati, axloqiy qadriyatlari, boshqa odamlar, taqdir va hayot oldidagi burchlarini bilish va tushunishdir. O'z-o'zini anglash tuyg'usi jamiyatda komil insonning shakllanishi katta darajada bog'liq bo'lgan axloqiy substansiyadir. O'z-o'zini anglash tuyg'usi, bu fuqaroning g'oya va orzularga sodiqligi, o'z manfaatlarini umumiy manfaatlariga bo'ysundira olishi, shaxsiy maqsadlaridan mahrum bo'lishi, yuksak orzular cho'qqisiga ko'tarilishi, dushmanga murosasiz bo'lishi, o'z hayotini o'z yurti sha'ni, mehr-shafqati va shon-shuhratiga bag'ishlashga tayyor bo'lish, xalqqa yaxshilik qila bilishdir.

O'z-o'zini bilish hissi insonning ichki hukmi va vijdonining eng muhim motividir. Shu bilan birga, insonning o'z-o'zini bilish tuyg'usini his qilishi uchun uni anglamay turib, insoniy axloqning ezgu qonuniyatlarini tasavvur qila olmasligi nuqtai nazaridan qadriyat kasb etadi.

O'qituvchilar va ota-onalarning tarbiyaviy ideali bolalarning oilada va jamiyatda o'z baxtini mehr-oqibat, bezovtalik va tashvishda topishida namoyon bo'lishi kerak. Bizningcha, tarbiyaning eng muhim jihatlaridan biri bu bolada kuchli ruhiy tuyg'u va taassurotlarni o'rnatishdir. O'zini ota-onasi oldida mas'ul deb bilgan, ulardan imkonsiz ishlarni talab qilmaydigan, ota-onasini nafaqat uni dunyoga keltirgan, balki jamiyat qarzining jonli timsoli sifatida ham biladi.

Shunday qilib, quyidagi xulosaga kelishimiz mumkin:

1. Ma'naviyat va insoniylikning chegarasi bor, lekin g'ayriinsoniylik va axloqsizlikning chegarasi emas.

2. Yosh avlodni bugungi kun uchun emas, ertangi kun uchun tarbiyalashimiz, kelajak hayotini yaxshilashimiz kerak.

3. Biz bolalarni faqat yaxshi xulq-atvori uchun mukofotlamaslikka harakat qilishimiz kerak, chunki kelajakda ular faqat o'z manfaati uchun yaxshi ishlarni qiladilar.

4. O'smirlar va yoshlar o'z fikrlarini o'zgartirishi, takomillashtirishiga erishish kerak.

5. O'smir va yoshlarda o'z-o'zini rivojlantirish va o'z-o'zini takomillashtirishga harakat qilish kerak.

4.2. “Tarbiya” fanining jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni.

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida “Tarbiya” fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” hukumat qarori bilan yangi “Tarbiya” fani joriy etildi.

1–9-sinflarda – 2020/2021 o‘quv yilidan, 10–11-sinflarda esa 2021/2022 o‘quv yilidan boshlab amaliyotga joriy etiladi.

Darsliklarini tayyorlashda *Yaponiyaning “Axloq ta’limi”*, *Singapurning “Fe’l-atvor va fuqarolik ta’limi”*, *Buyuk Britaniyaning “Tafakkur”*, *“Xulq ta’limi” fanlari va darsliklari yaqindan o‘rganildi.*

Ilk marotaba darsliklarda 21-asr ko‘nikmalari deb nom olgan “yumshoq ko‘nikmalar” joriy qilindi. Darslik orqali o‘quvchida bilim berishdan tashqari ko‘nikma shakllantiriladi

Yangi fan darsliklaridagi amaliyotga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlar va mavzular o‘quvchida muvaffaqiyat motivlarini uyg‘otadi. Faol fuqarolik pozitsiyasi shakllantiriladi.

O‘quv fani mohiyati 50% nazariy, 50% amaliy asosga qurilgan.

Darslik yorqin, rangli, illyustratsiyalarga boy va har bir bo‘limi o‘ziga xos fon, milliy va umuminsoniy xulq, ijtimoiy malakani ifoda etgan rasmlar bilan ta’minlangan. Har bir darslik uchun video, audio, media materiallar jamlashgan disk beriladi.

Insonning kelajakda muvaffaqiyatli inson bo‘lish eng avvalo to‘g‘ri maqsad qo‘yishga bog‘liq. Deyl Karnegi, Brayan Treysi kabi mashhur lektorning ta’limotiga ko‘ra, hayotda o‘z oldiga maqsad qo‘yish va unga erishishni o‘rganish ham aslida bir fan. “Tarbiya” fanining ahamiyatli jihati shuki, u bosqichma-bosqich bolada maqsad qo‘yish va unga intilish ko‘nikmasini shakllantirib boradi.

Xalqimiz ma’naviyatini yuksaltirishning ilmiy-nazariy, fundamental konsepsiyasi ishlab chiqildi. Milliy o‘zlikni anglash aynan ma’naviy qadriyatlarni o‘zlashtirish, o‘z xalqining tarixi, madaniy merosini o‘rganish, bugungi holati va ertanga istiqbolini aniq tasavvur etishdan boshlanadi. Har bir insonning mehnati, faoliyati, hayotiy maqsadlari ma’lum bir qadriyatlarga erishish, moddiy va ma’naviy boyliklarga ega bo‘lishga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Milliy ma’naviy

meros, qadriyatlarning tarkibi, ko‘rinishlari Milliy ma’naviy meros va qadriyatlar tushunchasi keng qamrovli tushuncha bo‘lib, uning tarkibi quyidagilardan iborat:



O‘zbek xalqi jahon madaniyati hazinasiga munosib hissa qo‘shgan millatlar qatoridan faxrli o‘rinni egallaydi. Madaniy yodgorliklar, me‘morchilik san‘ati namunalari, qadimiy qo‘lyozmalar - milliy ma’naviyatning bebaho durdonalari, xalqimiz uchun eng qadrliligi va muqaddas bo‘lgan boyliklardir. Bularni avaylab asrash, kelajak avlodlarga yetkazish ma’naviyat sohasidagi eng dolzarb vazifadir. Milliylik xalqning ruhiyati va ma’naviyati, ayniqsa, san‘at va adabiyot rivojida yorqin ifodalanadi.

Ezgulik va poklikni, insoniylik va haqqoniylikni kuylagan buyuk asarlar, qaysi janrda yoki qaysi tilda yaratilganidan qat’iy nazar, jahonga taniladi, pirovardida yana shu millatning xalqaro nufuzini yuksaltiradi. Milliy ma’naviy qadriyatlar tizimida axloqiy sifat, diniy qadriyatlar munosib o‘rin egallaydi va milliy o‘zlikni anglashning muhim sharti, omili sifatida namoyon bo‘ladi. Axloqiy va diniy qadriyatlar aksari hollarda o‘zaro bog‘liq bo‘lib, jamiyatning ma’naviy yuksalishida, yosh avlod tarbiyasida birdek muhim ahamiyatga ega. Har bir xalq, millat yaratgan ma’naviy qadriyatlar, uning dunyoga qarashi va hayotga munosabati, o‘ziga xos betakror xususiyatlari, ayniqsa, urf-odat va marosimlarda to‘laqonli namoyon bo‘ladi. Marosimchilik bir qator ijtimoiy funksiyalarni bajaradi, milliy o‘zlikni saqlashda, yoshlarni tarbiyalashda, muayyan g‘oyalarni ruhiyatga singdirishda katta ahamiyat kasb etadi.

Tarbiya va ta’limning milliy xususiyatlari ham ma’naviy qadriyatlar tizimida o‘z o‘rniga ega. Xalqning kelajagi yoshlarga bog‘liq ekanligi qanchalik haqiqat bo‘lsa, bularni milliy ruhni tarbiyalash zarurati ham umum e’tirof etilgandir. Milliy tarbiya-xalqning o‘z-o‘zini saqlash va istiqbolini ta’minlash omilidir. Barkamol avlod tarbiyasida milliy qadriyatlarimizning o‘rni juda katta. O‘zbek xalqining yoshlari milliy g‘oya, qadriyatlar bilan yo‘g‘irilgan tarbiyani

olishi kerak. Yoshlarmiz bugungi kunda har tomonlama barkamol avlod bo'lib yetishmoqda. Zamonaviy taraqqiyot bizning yoshlarmiz dunyoqarashiga ham kuchli ta'sir ko'rsatmoqda albatta. Ana shunday sharoitda ham biz kattalar yoshlarning barkamol bo'lib shakllanishiga katta e'tibor qaratib, ularning milliy qadriyatlarimizni e'zozlashlariga o'rgatib bormog'imiz asosiy vazifalarimizdan biridir. Bugungi kun yoshlari milliy urf-odatlarimizning shakllarini, aniq mazmunlarini chuqur anglagan bo'lishlari lozim. Ana shundagina kelajak avlod o'zbek millatining qadriyatlarni, ma'naviyatini, madaniyatini saqlab qoladigan, vatanni himoya qiladigan insonlar bo'lib etishadilar.

Bu ezgu maqsadlarning amalga oshishida ota-onalar, pedagog murabbiylar hamjihat bo'lib harakat qilishlari muhim.

Asrlar davomida avloddan avlodga o'tib kelgan milliy ma'naviy qadriyatlar milliy g'oyaga ma'naviy zamin, negiz bo'lib xizmat qilmoqda. Unga xalq, millat, jamiyat amal qilish uchun kuchli, qudratli, ta'sirli milliy mafkura kerak. Milliy ma'naviy qadriyatlarning har bir tarkibiy qismi xalqning mustaqilligini mustahkamlash va kelajagini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Har tomonlama rivojlangan, gormonik rivojlangan, milliy qadriyatlarimizni e'zozlaydigan barkamol avlod tarbiyasida mahalla, ota-onalar va pedagoglarning o'zaro hamjihatligi asosiy omillardan hisoblanadi. Milliy qadriyatlarimizni e'zozlaydigan, o'z hayot faoliyatida doimo millat g'ururi bilan ish olib boradigan yoshlarning tarbiyalanishi millat kelajagini, rivojlanishini ta'minlaydi.

Olimlarning fikricha, farzandlarning ta'lim-tarbiyasiga mas'ul bo'lgan ota-onalar va o'qituvchilar, eng avvalo, ularning intellektual ta'lim va intellektual rivojlanishiga alohida ahamiyat berishlari kerak. Ota-onalar o'z farzandlariga milliy qadriyatlarga mos ism qo'yish, ularning salomatligi, jismoniy, ma'naviy va axloqiy kamolotiga g'amxo'rlik qilishlari, farzandlarini Vatanga hurmat, ota-onaga hurmat va milliy qadriyatlarga rioya qilish ruhida tarbiyalashlari shart. Chunki hamma davrlarda ham ilm-fan, ta'lim-tarbiya xalq va davlatlarning taqdirini belgilovchi omil sanaladi.

Jamiyatdagi ijtimoiy jarayonlar juda jadal o'zgarib borayotgan zamonaviy sharoitda ular yoshlarning siyosiy va madaniy faoliyati yo'nalishi, omillari, talablari, xarakteriga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Yoshlar faoliyatini ushbu o'zgarishlarga moslashtirish uchun zamonaviy jamiyatda ijtimoiy mavqeini yaxshilash yo'llarini izlash

yoshlarning o'z taqdirini o'zi belgilashning madaniy xususiyatini belgilaydi.

Mamlakatimiz yoshlari siyosiy va madaniy fikrining asosini davlat mustaqilligini mustahkamlash, milliy birdamlik, vatanparvarlik va ona Vatanga muhabbat tuyg'ulari, davlat va milliy xavfsizlikni ta'minlash, hududiy yaxlitlik va milliy manfaatlarni himoya qilish g'oyasi tashkil etadi. Yoshlarni madaniy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash yoshlarga oid davlat siyosatining muhim elementi hisoblanadi.

Inson butun umri davomida tarbiyaga muhtoj. Tarbiya, maqsadga muvofiq va pedagogik va psixologik talablarni hisobga olgan holda amalga oshirilsa, shaxsning shakllanishi jarayoniga ta'sir qiladi. Tarbiya hech qachon eskirmaydi. Vaholanki, yoshlikdan qanchalik ko'p tarbiyalansa, shunchalik samarali bo'lishini soha mutaxassislari qayta-qayta ta'kidlab kelishgan.

Ta'lim va tarbiya masalasi hozirgi zamonning dolzarb muammolaridan biridir. Ayniqsa, globallasuv jarayonlari rivojlanib, turli xalq va millatlar ma'naviyati, odob-axloqi, madaniyatiga o'z ta'sirini o'tkazayotgan hozirgi davrda jamiyatni, ayniqsa, yoshlarni tarbiyalash masalasi eng muhim va birlamchi masalalardan biriga aylanib bormoqda. Davlat ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotining barcha jabhalarining rivojlanishi yoshlar tarbiyasining to'g'ri rivojlanishiga chambarchas bog'liqdir.

Tarbiya faoliyatining asosiy maqsadlari - tadbirkor, fuqarolik pozitsiyaga ega, vatanparvar, oilali, aqlan va jismonan sog'lom, barkamol shaxsni tarbiyalashga asoslangan tarbiya tizimi pedagogik jamoaning tarbiyaviy ishining quyidagi yo'nalishlarini o'z ichiga oladi:

Fuqarolik-vatanparvarlik yo'nalishi. Vatanparvarlik tarbiyasi o'z majburiyatlarini bajarish qobiliyatiga ega bo'lgan vatanparvar fuqaro sifatlariga ega shaxsni shakllantirish va kamolga yetkazishga qaratilgan. Fuqarolik-vatanparvarlik tarbiyasi masalalari juda muhim va murakkab va tizimli xususiyatga ega. Amalga oshirishning asosiy shakli va usullari: a) jamoaviy manfaatlarni asoslashni tarbiyalash; b) madaniy, sport tadbirlari va boshqalar haqida ma'lumot berish; v) ta'lim, ilmiy-tadqiqot ishlari, jamoat hayoti va boshqalarda yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'lgan qo'shimcha moddiy rag'batlantirish; d) barcha darajadagi yoshlarga oid davlat siyosatining tadbirlari va dasturlarida ishtirok etish.

Ma'naviy-axloqiy va madaniy-estetik yo'nalishi. Jamiyat e'tiborini ma'naviy qadriyatlarga va xulq-atvorga qaratish jamiyat taraqqiyotining asosiy ko'rsatkichlaridan biridir. Zamonaviy sharoitda rivojlangan va estetik va ma'naviy jihatdan boy shaxsni tarbiyalash tafakkurning tizim yaratuvchi qismiga ta'sir ko'rsatish, insonning me'yor va an'analarga mos keladigan axloqiy uslublarini, uning sifatlari va axloqiy ko'rsatkichlarini shakllantirish orqali amalga oshiriladi. Amalga oshirishning asosiy shakllari va usullari: a) ko'ngilochar faoliyatni rivojlantirish, ijodiy jarayonni yaratish doirasida yoshlar submadaniyatini qo'llab-quvvatlash; b) ijodiy ko'rgazmalar tashkil etish, yetuk soha vakillari bilan uchrashish; v) masalalarni hal qilish bo'yicha konferentsiyalar va davra suhbatlarini o'tkazish; d) o'quvchilarning ko'ngilochar faoliyatini tashkil etish.

Kasb-kor yo'nalishi. Kasb-kor yo'nalishi bilimli va malakali mutaxassisni tayyorlashni, samarali kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun shaxsiy fazilatlarni shakllantirishni o'z ichiga oladi. Amalga oshirishning asosiy shakl va usullari: a) mehnat bozorini tahlil qilish, viloyat korxonasi va tashkilotlari hamda mahalliy hokimliklar bilan o'zaro hamkorlik qilish; b) shahardagi ta'lim muassasalari va korxonalarini bilan o'zaro hamkorlik qilish; v) bitiruvchilarni mehnat bozori va ta'lim xizmatlari bozori to'g'risidagi ma'lumotlar bilan ta'minlaydigan axborot tizimini yaratishni o'z ichiga oladi.

Tarbiya texnologiyasining asosini tashkiliy o'z-o'zini rivojlantirish usuli tashkil qiladi. Shaxs kuchli mustaqil faoliyatda rivojlanadi. Tarbiya o'z-o'zini tarbiyalashga olib keladigan uzoq muddatli va uzluksiz jarayon sifatida mazmunli hayotni tashkil etish va o'quvchining ijodiy erkinligi va ijodiy faolligini rag'batlantiradigan faoliyatni rivojlantirishdan iborat. Shu bilan birga, o'z-o'zini qo'llash va yaratish qobiliyatiga ega bo'lgan odam ma'naviy egoizmdan, boshqa innovatsion g'oyalarni qabul qilmaslikdan uzoq bo'lishi kerak.

4.3. "Tarbiya" fani yosh avlod kamolotini ta'minlovchi fan

Insoniyat jamiyati mudom yosh avlodni hayotga, Vatan himoyasiga tayyorlashga, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-madaniy tajribani kerakli bilimlar, amaliy ko'nikmalar va malakalar tarzida yetkazib kelgan va shunday bo'lib kelmoqda. Bu pedagogik hodisa tarbiya vositasida amalga oshirilgan. Shu bois tarbiya ijtimoiy-madaniy hayotning zaruriy quroliga aylangan. U jamiyatni yanada rivojlanishi uchun asosiy omil hisoblanib, jamiyatdagi ishlab chiqarish vositalarini,

mehnat jarayonlarini, insonning o'zini ham ma'naviy, ham huquqiy, ham axloqiy, ham jismoniy jihatlarining takomillashishini ta'minlagan va shunday bo'lib qoladi. Shunga binoan tarbiya doimo jamiyat uchun, yosh avlod kamoloti uchun eng muhim va dolzarb vazifani bajargan.

Tarbiyaning jamiyat uchun, mamlakat mehnatkashlari va yosh avlodning kamoloti uchun zarurligining yana bir tomoni, dunyoda xalqaro terrorizm, hududiy mojarolar va siyosiy qarama-qarshiliklar, millatlararo mojarolar, birodarkushlik, ekologik muammolar "axloqsizlik madaniyati" ning mintaqada kun sayin avj olib borishi, giyohvandlik yoshlar o'rtasida keng tarqalishi, narkotik moddalar bilan savdo-sotiq qilishning avj olib borayotganligini, inson salomatligi, sog'lom turmush tarzining yomonlashib borayotgani va boshqa shularga o'xshash xavfli hodisalarning ko'payib borishi tarbiya oldiga, aniqroq, aytadigan bo'lsak tarbiya tizimi oldiga juda katta davlat ahamiyatiga molik vazifalarni qo'ymoqda. Zero, jamiyatdagi har qanday rivojlanish tarbiya tizimining natijalariga, uning intellektual, ma'naviy-axloqiy salohiyatiga bevosita bog'liq.

Tizim deganda biz jamiyatning barcha vazirliklar, tashkilotlar, mahalliy davlat hokimiyati va boshqarmalar, uzluksiz ta'lim, oila, jamoatchilik, partiyalar negizida tashkil etilgan muassasalarning hamkorligi bir yo'nalishda yaxlitlikda yagona ijtimoiy vazifani bajarishi nazarda tutilgan. Bu vazifa hozirgi globalashuv jarayonini e'tiborga olgan holda yosh avlodni muayyan va ijtimoiy maqsad hamda tarixiy-tadrijiy tajriba asosida barkamol insonlar qilib voyaga yetkazish, ularning ongi, xulq-atvori, ma'naviy-axloqiy salohiyati, dunyoqarashini o'stirib keyingi faoliyatga tayyorlashdan iborat. Shunga binoan tarbiya tizimining vazifasini amalga oshiruvchi ijtimoiy fan sifatida "Tarbiya" fani tarixiy-ma'naviy hujjatlar, falsafa, sotsiologiya fanlari, umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'qitilguncha ona tili va adabiyot, tarix, davlat va huquq asoslari fanlari bilan bog'liq holda mamlakatning umumma'naviy, umummadaniy rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi. Zero, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot va ma'naviy-siyosiy hayot yosh avlodni barkamol insonlar bo'lib, voyaga yetishi uchun ma'naviy-axloqiy negizlar va intellektual salohiyatning hamkorligini taqozo qiladi. Shunga binoan "Tarbiya" fanining ta'limiy-tarbiyaviy yo'nalishi aniq maqsadni ijtimoiy qaratilgan, milliy madaniy-tarixiy an'analar, o'zbek xalqining urf-odatlarini, an'analari

hamda umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan faoliyat vositasida ish tutushni nazarda tutadi.

“Tarbiya” fanining jamiyat taraqqiyoti va inson kamolotidagi nufuzi va ahamiyatini kuchaytirish uchun qayd etib o‘tilganidek, “Tarbiya” fanini o‘qitishni umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘qitiladigan ijtimoiy fanlar (“Tarix”, “Davlat va huquq asoslari” fanlari) tizimidagi o‘rnini belgilash lozimligini taqozo etadi. Zero, har qanday so‘z o‘quv predmeti, obyektiga ega bo‘lib, muhim ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy vazifani bajarishga yo‘naltirilgan bo‘ladi.

Bu fanlar Yangi O‘zbekiston barpo etish sharoitida huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati, bozor iqtisodiga asoslangan jamiyatda insonlarning turpmush tarzi, uning o‘ziga xos ma’naviy, ma’rifiy, iqtisodiy xususiyatlari va ayrim ularning muammolariga oid bilimlarini o‘quvchi-yoshlar ongiga yetkazish va yoshlarni shu jarayon ishtirokchilari emas, yaratuvchilariga aylantirishga xizmat qilish lozimligi ta’lim-tarbiya islohotlari mazmunida ifodalangan. Bu fanlar o‘qitilishini jonli, qiziqarli bo‘lishini ta’minlash hamda yosh avlodning e’tiborini erkin bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayoniga jamiyat hayotida sodir bo‘layotgan muammolarni qonuniy darajasida, oqilona hal qilish yo‘llarini ko‘rsatish uchun ijtimoiy va “Tarbiya” fani:

- insoniyat va jamiyat rivojida tarixiy-tajrijiy umumbashariy, milliy-ma’naviy, tarbiyaga oid merosning o‘rni va moddiy ishlab chiqarishning ahamiyatini ko‘rsatish;

- ijtimoiy fanlarning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosat, huquq va ma’naviy-ma’rifiy hayotidagi nufuzini aniq tushunib yetishni o‘rganish;

- milliy tiklanishdan, milliy yuksalish sari tafakkurni milliy tarbiyaning ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-madaniy, tarixiy, ilmiy-nazariy va amaliy zaminlarini anglab yetish;

- Yangi O‘zbekiston davlatining iqtisodiy-ma’naviy, huquqiy-axloqiy, madaniy-siyosiy negizini tushunib yetish;

- o‘quvchi-yoshlarning shaxs bo‘lib shakllanishida va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga faol ishtiroki uchun ta’lim-tarbiyaning ustuvorligi, uning dunyoviylik, insonparvarlik va demokratik xarakterda ekanligini tushunib yetishga o‘rgatish;

- “Tarbiya” fanlarining inson hayotining maqsadi, mazmuni va mohiyati, moddiy borliq va ijtimoiy hayot o‘rtasidagi bog‘liqlik

qonuniyatlarini anglab yetishga ko'maklashuvchi fanlar ekanligini o'rgatish;

- ijtimoiy munosabatlar tizimida "Tarbiya" va ijtimoiy fanlarning o'rni, mohiyati va bu fanlar mazmunidagi ma'lumotlarning o'quvchilarning ongiga va o'z-o'zini anglashga yetkazish orqali gneseologiya, axloqiy va milliy qadriyatlarining xususiyatlari bilib olishga yo'llash;

- "Tarbiya" fani va ijtimoiy fanlarning milliy, umuminsoniy, tarixiy, ilmiy-nazariy, amaliy zaminlarining o'quvchilarda inson qadrini ulug'lash tuyg'usini rivojlantirishdagi va ular dunyoqarashini tarkib topishidagi ahamiyatini yosh avlod ongi va shuurga yetkazish kabi ijtimoiy-pedagogik vazifalarning mazmun-mohiyati yoritib berishni nazarda tutishi zarur.

Ushbu masalalarni hal etish, "Tarbiya" va ijtimoiy fanlarni o'qitish yordamida amalga oshirish oson ish emas, buning uchun "Tarbiya" va ijtimoiy fanlari o'qituvchilaridan chuqur bilim, ilmiy-metodik va amaliy tayyorgarlik talab etiladi.

Bu holat umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "Tarbiya" fanini o'qitishda:

a) ta'lim muassasalarida sabr-toqatlik, e'tiqod erkinligi va millatlararo totuvlikni rivojlantirish uchun "Tarbiya" fani o'qituvchilarini ilmiy-metodik va amaliy-pedagogik tayyorgarlikni yo'lga qo'yish;

b) "Tarbiya" fani o'qituvchilarini tayyorlashni yo'lga qo'yish, ularning nazariy-metodologik, ilmiy-pedagogik saviyasini shakllantirish;

v) umumiy o'rta ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan professor-o'qituvchilarining malakasini oshirish va qayta tayyorlashni yo'lga qo'yish;

g) "Tarbiya" fanining o'qitish jarayoniga mahalla, jamoa tashkilotlari, huquq-targ'ibot organlari, ommaviy axborot vositalari xodimlari, ma'naviyat va marifat jamoatchilik tashkiloti muassasalarini keng jalb qilgan mashg'ulotlar, treninglar, mahorat darslari o'tkazishni yo'lga qo'yish.

Shunday qilib, bayon etilgan fikrlar "Tarbiya" fanini o'qitishni aniq yo'lga qo'yish, mazkur fanni o'qitishda ta'lim islohotlari talablari, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-siyosiy, rivojlantirish ehtiyojidan kelib chiqish lozim. Zero, bugungi kun "Najot-ta'limda,

najot-tarbiyada, najot-bilimda. Chunki, barcha ezgu maqsadlarga bilim va tarbiya tufayli erishiladi”, degan Respublika Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning purma’no so‘zlariga tayanadi.

Bu ta’kid tarbiya va uning o‘zagini tashkil etgan “Tarbiya” fanining yosh avlod kamolotidagi mavqei va nufuzini yanada oshiradi. Chunki, “Tarbiya” fani yosh avlodni kamolga yetkazishda ta’lim tizimi o‘z ichiga olmaydigan etnik, antropologik, genetik, tarixiylik, ma’rifiylik, ekologik, intuidiv, ruhiy-hissiy anglash, rivojlanish komillik omillariga suyanadi. Bu esa o‘z navbatida yoshlarni yangicha fikrlash, yangicha tafakkur, Yangi O‘zbekiston madaniyatining keng qamrovli sifatlarini yoshlarga tarbiyalash uchun dasturiy amal bo‘lib xizmat qiladi.

Ma’lumki, mamlakat Yangi O‘zbekistonni barpo etish yo‘liga o‘tgach, ma’naviy meros, milliy qadriyatlar, madaniyat, maorif, urf-odatlarining yanada yuksalishi, yangicha mazmun va ma’no kasb etishiga e’tiborni qaratmoqda. Buning kerakli huquqiy-ma’yoriy hujjatlarni qabul yo‘li va ularning amalga oshirilishini yo‘lga qo‘ydi. Buning albatda, muayyan ijtimoiy-ma’naviy sabablari bor. Chunonchi:

1. Har qanday davlat yoki jamiyat o‘zining ma’naviy-madaniy, ijtimoiy-siyosiy imkoniyatlarini yuksaltirmay turib, Vatanga, xalqiga, millatiga sadoqatli bo‘lolmaydi hamda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga xizmat qilolmaydi.

2. Barkamollikni o‘zida tarbiyalay olmagan hech bir yosh kelajakda Vatan tuyg‘usi, millat fidoiysi, xalq jonkuyari bo‘lib, yurtiga, eliga, o‘lkasiga foyda keltira olmaydi, vatani ravnaqiga hissa qo‘sholmaydi va salbiy sifatlarni o‘zida mujassam etib, zulum qilishga moyil bo‘ladi.

3. O‘zida oila, vatan burchi, mas’uliyat, majburiyat, muvaffaqiyatni tarbiyalay olmagan har qanday yosh avlod xalqsevarlik, vatanparvarlik tuyg‘usidan yiroq bo‘ladi.

4. O‘zini, oilasini, qarindosh-urug‘larini, ota-bobolarini, safdoshlarini hurmat-e’zoz bilan qadrlay olgan, sevadigan har bir yosh elsevar va vatanparvar bo‘ladi.

5. Axloqli, dono, elparvar, ma’rifatli, va intellektual salohiyati yuksak yoshlari bo‘lgan mamlakatgina yuksak natijalarga erisha oladi.

Bunday yoshlarni tarbiyalashga “Tarbiya” fanining o‘z o‘rni, o‘z mavqesi mavjud. Chunki bu fan mazmunidagi mavzular axloqiy-huquqiy burch, milliy-ruhiy dunyoqarashlar insoniy fazilat, ozod va

obod Vatan, erkin va farovon hayot to'g'risida aniq ma'lumotlarni yoshlarga yetkaza oladi va yoshlarni ushbu yo'nalishda tarbiyalashga qodir.

Tarbiyali inson aql-zakovatli, ma'naviy-salohiyatli shaxs bo'ladi. U xalq Vatan, millat oldidagi burchni, mas'uliyatni teran anglaydi, noto'g'ri tasavvurlarga yo'l qo'ymaydi, noilojlarga hamxo'rlik, qayg'udoshlik fikri bilan yondashadi, hech qachon jamoat joylarida tartibbuzarlikka yo'l qo'ymaydi, Konstitutsiyaviy me'yorlar va qonunlarga rioya qiladi. Zero, Yangi O'zbekistonni barpo etish va yuksaltirishi, mamlakatning moddiy va ma'naviy boyliklarini asrab-avaylash hamda ko'paytirish mana shunday tarbiyali insonlar bilan yashnaydi, gullab rivojlanadi. Chunki bunday yoshlar ijodiy tafakkur, g'oyaviy tajriba, o'quv malaka va bilimdan orttirgan ko'nikmaga asoslanadi.

“Tarbiya” fanining jamiyat taraqqiyotiga inson barkamolligini ta'minlashdagi yana bir muhim tomoni shundan iboratki, u yoshlar barkamolligini ta'minlashda ijtimoiy fanlarga yetakchi ekanligidir. Ilg'or pedagogik nazariya va hayot tajribasining ko'rsatishiga “Tarbiya” fani yosh avlod barkamolligini ta'minlovchi axloq-odob, inson ma'naviy olami, aqliy tafakkuri, ruhiy kechinmalarini aniq yo'lga qo'yadi va ularni har bir yoshda tarkib topishini amalga oshiradi.

Zamonaviy pedagogik nazariya va ta'lim muassasalarida tarbiya jarayonini amalga oshirish amaliyotini tahlil qilish asosida bir qator tendentsiyalarni sanab o'tish mumkin:

1. Shaxsiy rivojlanishni tushunish: ijtimoiy va madaniy amaliyot, o'quvchilarning o'z taqdirini o'zi belgilash uchun sharoit yaratish. Zamonaviy ijtimoiy-madaniy voqelikda tarbiyaning an'anaviy tushunchasi (pedagogik ta'sir jarayonida shaxsning shakllanishi va rivojlanishi, turli ta'lim guruhlarini tashkil etish va o'z-o'zini o'qitish kabi) o'z samarasini yo'qotadi.

Tarbiya faoliyatining mohiyati shundan iboratki, u o'quvchilarning ijtimoiy va shaxsiy faoliyat tajribasini shakllantirish, ularning ijtimoiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash kontekstida ma'naviy, axloqiy, intellektual, jismoniy rivojlanishi va ijobiy ijtimoiylashuvi maqsadida o'quv jarayonini tashkil etish deb qaraladi.

Tarbiyaning bunday tushunchasi shaxsiy rivojlanishni aks ettiradi va quyidagi tarkibiy qismlarni ajratib ko'rsatishga imkon beradi:

- o'quvchilar shaxsini ma'naviy-axloqiy rivojlantirish - o'quvchilarning ma'naviy va axloqiy madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishga yordam beradigan maqsadli, maxsus tashkil etilgan o'quv faoliyati (asosiy milliy qadriyatlar bilan tanishish, shaxsni rivojlantirish);

- ijtimoiy-madaniy amaliyot - ijtimoiy masalalarni ishlab chiqish va hal qilishga qaratilgan to'quvchilarning maxsus tashkil etilgan birgalikdagi faoliyati;

- individual qo'llab-quvvatlash - o'quvchilarni o'z taqdirini o'zi belgilash, hayot yo'lini tanlash, hayotiy maqsadlarga erishishga to'sqinlik qiladigan muammolarni aniqlash va hal qilish uchun sharoit yaratishga qaratilgan psixologik va pedagogik ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni tashkil etish.

2. Tarbiya g'oyalari tabiatining xarakterli integratsiyasi. Metodik tahlil tarbiya tabiatining quyidagi turlarini ochib berdi.

Tarbiyaning ijtimoiy moslashuvining mohiyati: tarbiya insoniyat jamiyatining ijtimoiy tashkilotining paydo bo'lishi va har bir shaxsning paydo bo'lgan tashkiliy tuzilishiga integratsiyalashuvi orqali inson hayotini tartibga solishning maqsadli ijtimoiy jarayoni sifatida. Shaxsning muayyan ijtimoiy tuzilmalardagi ishtiroki ko'pgina tadqiqotchilar tomonidan ijtimoiy jarayon sifatida ta'riflanadi.

Tarbiyaning ijtimoiy moslashtirilgan mohiyati ta'lim jarayonining mazmunini quyidagicha belgilaydi: qonunlar, normalar va qoidalarning ijtimoiy talablarini o'rganish va ularga rioya qilish.

Tarbiyaning ijtimoiy moslashtirilganligi ta'lim jarayonining xususiyatlarini quyidagicha belgilaydi:

- me'yorlar, qoidalar va qonunlarga rioya etilishini o'zlashtirish va nazorat qilish jarayonida ijtimoiy muvofiqlikni shakllantirish;

- a'zolari hamkorlik jarayonida birgalikda ishlab chiqilgan va tartibga solinadigan qoidalar va qonunlar asosida birgalikdagi hayotiy faoliyatni tashkil etadigan guruhni tashkil etish.

- hayotni o'z-o'zini tartibga solish uchun sharoit yaratish.

3. Tarbiya jarayonini texnologik ta'minlash. Ta'lim muassasasida tarbiya jarayonining samaradorligi turli ta'lim faoliyatini yagona ta'lim tizimiga birlashtirish orqali ta'minlanadi.

Hozirgi kunda yosh avlod va yosh mutaxassislarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini yanada hayotga tatbiq etadigan o'qituvchilarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi masalasi ko'plab muammolarga duch

kelmoqda. Bu muammoni hal qilish yo'llaridan biri ma'naviy-axloqiy tarbiyaning mohiyatini ham o'qituvchi, ham o'quvchining birgalikdagi ideal ideallarini zabt etish deb tushunish bo'lib, o'qituvchidan ma'naviy-axloqiy tarbiyaning metod va shakllarini ishlab chiqishni kutish mumkin.

O'qituvchi o'quvchini nafaqat ma'naviy kamolot yo'liga olib boradi, balki shu yo'lda ham harakat qiladi. Bu yo'lda axloqiy axloq cho'qqilariga ko'tarilishning mumkin bo'lgan yo'llarini ko'rsatish muhim vazifadir. O'quvchining ma'naviy rivojlanishini rag'batlantirish bilan birga, eng muhim muammolardan biri zamonaviy dunyo, shuningdek, dunyoviy qadriyatlar va individual ma'naviyat bilan hamkorlik qilish sohasida axloqiy jihatlarni izlashdir. Ushbu qidiruv dastlab mo'ljallanganidan biroz boshqacha bo'lishi mumkin (va amalda ko'pincha shunday bo'ladi). Barkamol shaxsni tarbiyalash - bu axloqiy qadriyatlarni (gumanistik, intellektual, ijtimoiy, estetik, kasbiy) rivojlantirish orqali o'quvchilarning axloqiy idealga ko'tarilishiga yordam berish jarayoni - axloqiy tuyg'ularni uyg'otish va shakllantirish (uyat, minnatdorlik), burch, e'tiqod, hurmat, adolat, rahm-shafqat); - axloqiy irodani shakllantirish (yaxshilik qilish va yomonlikka qarshi turish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Shuningdek, sabr-toqat va bag'rikenglik, hayot sinovlari va tashvishlariga qarshilik ko'rsatishga tayyorlik, ma'naviyatni yuksaltirishga qaratilgan sa'y-harakatlar); - axloqiy xulq-atvorga motivatsiya (itoatkorlik, vatanga xizmat qilish, sheriklik va mehr-oqibat), bularning barchasi milliy tarbiya konsepsiyasi elementlarida juda yaxshi ifodalangan. O'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning muhim qismi, o'qituvchilar uchun insonparvarlik, intellektual, ijtimoiy, estetik, kasbiy va boshqa qadriyatlarni shakllantirish va targ'ib qilishdir.

Intellektual qadriyatlarga quyidagilar kiradi: - kasb asoslarini bilish, professional fikrlash qobiliyati, muhim ma'lumotlarni topish, urf-odatlarini bilish, oilaga ega bo'lish, o'quvchilarning ijtimoiy ahamiyatiga ega bo'lgan professional korporatizm va boshqalar, go'zallikka, san'atga muhabbat.

Mulohaza uchun OMONATGA XIYONAT

Kunlardan bir kun bir kishi o'ralgan, muhrlangan bir xaltachani do'stining huzuriga keltirib:

— Do'stim, men safarga chiqib ketayotibman, ichida ming oltin bo'lgan shu xaltachani senga omonat topshiraman, safardan qaytib kelganimdan so'ng ola-man,—deb xaltachani topshirdi va o'sha kun safarga chiqib ketdi. Safari uzoq vaqtga cho'zildi.

Do'sti omonatga xiyonat qilib, xaltachaning bir tomonini so'kdi, oltinlarni olib, tangalar bilan to'lg'izdi, so'kilgan joyini hech bilinmaydigan qilib tikib qo'ydi. Oradan o'n yil o'tgandan keyin omonat egasi safardan qaytib kelib, do'stidan qo'ygan omonatini talab qildi. Do'sti xaltachani chiqarib berdi. Omonat egasi xaltachani ochib, tangalarni ko'rgach, hayron bo'lib do'stidan:

— Xalta ichidagi oltinlarim qani?—deb so'ragandi, do'sti inkor qilib: «Xaltachaga nima solib qo'ygan bo'lsang, shunday turibdi, qarab ko'r, bosgan muhring ham buzilmagan, tag'in nima da'vo qilasan»,— dedi. Omonat egasi xaltachani olib shahar qozisiniig huzuriga borib voqeani bayon qildi. Qozi juda aqlli va tadbirli odam edi. U darhol xiyonatchi do'stni chaqirib olib, omonat egasining shikoyatini aytdi. Xiyonatchi do'st inkor etishda davom qildi.

— Omonat qo'yganingga necha yil bo'ldi?— deb so'ragan edi, u kishi omonat qilib topshirganiga o'n yil bo'lganini aytdi.

Qozi hamma tangalarning bosilgan yillariga ko'z tashladi. Tangalarning bosilganiga ikki-uch yildan ortiq bo'lmagan edi. Qozi xiyonatchi do'stga tangalar-ning bosilgan yillarini ko'rsatgan edi, u sharmanda bo'lib, qilgan aybiga iqror bo'lishga majbur bo'ldi. Tadbirli, farosatli qozi oltinlarni xiyonatchidan olib egasiga topshirdi.

Qozining buyrug'i bilan xiyonatchini eshakka teskari mindirdilar. «Omonatga xiyonat qilgan kishining jazosi shunday bo'ladi?» deb qichqirib, shahar, ko'cha va bozorlarni aylantirdilar.

Nazorat savollari

1. O'zbekiston Respublikasida tarbiya fanini o'qitish zaruriyati haqida ma'lumot bering?
2. "Tarbiya" fanining jamiyat taraqqiyotidagi o'rnini tushuntiring
3. "Tarbiya" fani yosh avlod kamolotini ta'minlovchi fan

Amaliy topshiriqlar

1. "Inson tabassumi bilan tarbiyasini, nimaga kulgani bilan saviyasini namoyon qiladi". Jaloliddin Rumiyning ushbu fikrining mohiyatini yoritib bering
2. Yaxshi va yomon xulqning hammasi sharoit, tarbiya, odatlanish natijasida vujudga keladi. Yaxshi xulqqa ham odat tufayli erishiladi. Ibn Sinoning ushbu fikrlarini hayotiy misollar misollar orqali tushuntiring

Mustaqil faoliyat

1. Tarbiya fanini o'qitish jarayoniga zamonaviy yondoshuvlar.
2. Tarbiya fanini o'qitish jarayoniga texnologik yondoshuv va uning imkoniyatlari hamda afzalliklari.
3. Tarbiya fanini o'qitishda qo'llaniladigan umumpedagogik texnologiyalar

5-MAVZU: UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASALARIDA TARBIYA JARAYONI VA TARBIYA FANI



Tayanch tushunchalar: ta'lim tarbiya, yosh avlod, «Kitob al Musiqi al-Kabir», «Katta musiqa», «Ritmlar tartibi haqida», «Mas'ud qonuni», «Hindiston», «Qadimiy xalqlardan qolgan yodgorliklar», «Saydona», «Axloq haqida risola», axloq

Dunyo binolari ichida eng buyugi maktab bo'lsa, kasblarning orasida eng sharafli o'qituvchi va murabbiylikdir.
Islom Karimov

5.1. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida tarbiya jarayoni va uning mohiyati.

Tarbiya ta'limdan ustun turadi. Insonni tarbiya voyaga yetkazadi.
G.Spenser

Tarbiya - aniq maqsad hamda ijtimoiy tarixiy tajriba asosida shaxsni har tom onlama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayonidir. Boshqacharoq talqin etilganda, tarbiya yosh avlodni muayyan maqsad yo'lida har tomonlama voyaga yetkazish, unda ijtimoiy ong va xulq-atvorni tarkib toptirishga yo'naltirilgan faoliyat jarayonidir. Tarbiya-shaxsni maqsadga muvofiq takomillashtirish uchun uyushtirilgan pedagogik jarayon bo'lib, tarbiyalanuvchining shaxsiga munozam va tizimli ta'sir etish imkonini beradi. Tarbiya jarayoni ikki tomonlama xarakterga ega bo'lib, o'qituvchi va o'qituvchi o'rtasidagi aniq maqsadga qaratilgan pedagogik jarayonidir. Tarbiya jarayoni natijasida tarbiyalanuvchining ongi shakllana boradi, his-tuyg'u lari rivojlanadi, ijobiy xulq-atvor ko'nikmalari shakllanadi. Islom madaniyatining tarkibiy qismi-tasavvuf (sufizm) falsafasida inson ma'naviyatining, ruhiyati o'ziga xos uslublar orqali aks ettirilgan.

Hazrat Abu Hamid al-G'azzoliy, Attor, Ahmad Yassaviy, Abduxoliq G'ijduvoni, Bahouddin Naqshband, Najmiddin Kubroning ta'lim-tarbiyaga, xulq axloqiga oid qarashlari, Abu Nasr Farobiyning «Fozil odamlar shahri», «Kitob al Musiqi al-Kabir», «Katta musiqa», «Ritmlar tartibi haqida», Beruniyning «Mas'ud qonuni», «Hindiston»,

«Qadimiy xalqlardan qolgan yodgorliklar», «Saydona», «Axloq haqida risola»sidagi ma'naviy-ma'rifiy masalalar, Abu Ali ibn Sinoning «Tadbiri manozil», «Axloq haqida risola», «Donishnoma», «Salamon va Ibsol», «Xay ibn Yakzon», «Tib qonunlari», Alisher Navoiyning: «Makorim ul-axloq», («Mukarram xulqlan»), «Badoiy ul-bidoya», («Go'zallikning boshlanishi»), «Navodir un-Nihoya», («Nodirliklar nihoyasi»), «Xazoyin ul-Maoniy», («Ma'nolar xazinasini») asarlarida insonni tarbiyalash g'oyalari hozirgi zamon bilan hamohangdir.¹

Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulla Qodiriy, Abdurauf Fitrat, Cho'lpon asarlaridagi ma'naviy-ma'rifiy qarashlar bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotganicha yo'q. Buyuk ma'rifatparvar ziyolilarning g'oyalari milliy g'oya va istiqloq mafkurasining teran tomirlari bo'lib qolaveradi.

Tarbiya to'grisida sharq allomalarning turli firlarini ko'rib chiqadigan bo'lsak,

Ibn Sino ta'limotiga ko'ra. inson tarbiyasi uning aqliy va jismoniy rivojlanishi birligini ta'minlashdan iborat. Forobiyning fikricha, inson komil bo'lishi uchun tafakkuri yuksak darajada rivojlangan bo'lishi lozim. Tafakkur shu qadar bo'lishi kerakki, u insonga bir nimani xabar qilganda, inson shuurida ham. ongida ham o'sha narsa abadiy muhrlanib qolishi lozim.

Beruniy nuqtai nazariga ko'ra inson hayvondan ongi bilan farqlanadi. Bu farqni u jamiyatdagi turfa xil ehtiyojlar bilan, undan yashirin narsani anglashga intilish bilan tushuntiradi. U kelajakda nima bo'lishini ko'ra oladi. ehtiyot choralarini ko'radi va faoliyatni bartaraf etish yo'llarini izlaydi. Forobiy kabi Beruniy ham insonning tabiatiga ko'ra ijtimoiy xususiyatga ega ekanini aytib, faqat boshqa odamlar bilan mavjud bo'lishi imkoniga ko'ra ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, inson qimmatining asosiy mezoni - mehnat va ishdur. U har bir insonga uning o'z ishini mahorat bilan mohirona ajratishga ko'ra baho berilishini yozgan edi.²

Oilada bola tarbiyasi masalasi buyuk mutafakkir shoir Alisher Navoiy merosida ham munosib o'rinni egallaydi. U o'zining qator asarlarida tarbiya masalasi umuminsoniy g'oya ekanligini o'rta surdi.

¹ Ibragimov X., Sh A. Pedagogika nazariyasi (darslik) //T.: Fan va texnologiya. – 2008. – T. 288.

² Mavlonova R., Raxmonqulova N., Voxidova N., Matnazarova K. Pedagogika (umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti) darslik 126-bet

Uning fikricha, jamiyatning yetukligi, uning taqdiri va kelajagi yoshlar kamoloti bilan bog'liqdir, shunga ko'ra bola tarbiyasi ota-onalar oldida turgan oliyanob vazifadir, deydi. Alisher Navoiy ota-onalarning yaxshi sifatlarini ulug'laydi. Bunday sifatlarning ularda jamuljam bo'lishi bola tarbiyasida muhim rol o'ynashini ko'rsatib o'tadi. Masalan, uning xotinlar haqidagi fikrlari diqqatga sazovordir: "Yaxshi farzand, deydi Navoiy – oilaning davlati va baxti. Uning oroyishi undan, uy egasining xotirjam va osoyishtaligi undan xushmuomala bo'lsa jon ozig'idir. Oqila bo'lsa, ro'zg'orda tartib intizom bo'ladi ... U beandisha, shallaqi bo'lsa, ko'ngil undan ozor chekadi, yomonlik axtaruvchi bo'lsa, undan ruh azoblanadi. Agar mayxo'r bo'lsa, uy obodligi yo'qoladi, aqlsiz bo'lsa, oila rasvo bo'ladi". Kuchuk bilan xo'tikni qancha qilsang tarbiya, It bo'lur, eshak bo'lur, bo'lmas aslo odami. Alisher Navoiy ta'kidlashicha, ota-onani hurmat qilish farzandlar "... uchun majburiyatdir. Bu ikkisiga xizmatni birdek qil, xizmating qancha ortiq bo'lsa ham, kam deb bil. Otang oldida boshingni fido qilib, uning boshi uchun butun jismingni sadqa qilsang arziydi. Ikki dunyoying obod bo'lishini istachang, shu ikki odamning roziligini ol! Tunu -kunga nur berib turgan birisini oy, birisini quyosh bil, ular chizgan chiziqdan tashqariga birqadam ham bosma. Hamma xizmatni sen odob bilan bajar, "adab" so'zidagi "dol" kabi qomatingni ham qil" degan fikrlarni bildirib o'tganlar.

Ma'naviy- axloqiy tarbiyaga oid hadislar ham insonni barkamol avlod etib tarbiyalashga xizmat qiladi. Ulardan namunalar:¹



Chaqirilgan joygagina boring.
Qizlarni turmushga chiqarish to'g'risida onalari bilan maslahatlashinglar.



Nafaqa¹⁰ va sadaqa berishda avval o'zingdan boshla. Agar biror narsa ortsa, ahli ayolingga ber. Yana biror narsa ortib qolsa, qarindoshlaringga ber. Ulardan ham ortsa boshqalarga ber.



Ilmning ofati - esdan chiqarmoqlik va ilmga rag'bati bo'lmagan kishilarga o'rgatib, uni zoye ketkazmoqlikdir.



Munofiqlik belgisi uchtadir: yolg'on so'zlash, va'dasining ustidan chiqmaslik va omonatga xiyonat qilish.

Axloqiy- tarbiya -Bu fikrlar, his-tuyg'ular, vijdon va xatti-harakatlar o'rtasidagi muvofiqlik va izchillikdir. Axloqning obyektiv tomoni milliy urf-odat va an'analar, sub'ektiv tomoni esa individual

^{1 1} Hikmatillaev H., Mansurov A. Axloq-odobga oid hadis namunalari //Toshkent.: Fan. – 1990. – T. 168.

tuyg'ular va e'tiqodlardir. Shaxsning tashqi ta'sirlar ta'sirida shakllangan sub'yektiv his-tuyg'ulari va fikrlari vijdonni tashkil qiladi. Axloqiy qadriyatlar ijtimoiy ong va vijdon hukmlari va qoidalarining yaxlitligi, shuningdek, qonun-qoidalar buzilganda jamiyatda paydo bo'ladigan va shaxslar va jamoalarning xatti-harakatlarini shakllantiradigan pushaymonlik va jazo hissi va fikrlari sifatida belgilanadi.

Axloqning ob'ektiv o'lchovi jamiyatda ilgari mavjud bo'lgan urf-odatlar, an'analar, axloqiy qadriyatlar va hukmlardir. Ushbu qadriyatlar ijtimoiy vijdon va individual vijdonga ta'sir qilish uchun bosim vositasidir. Axloqiy qadriyatlar haqidagi mulohazalar vaqt o'tishi bilan jamiyatlar tajribasi va ilmiy topilmalar asosida ob'ektiv shakllanadi. Yangi bilimlar, ijtimoiy in'ikoslar, ong va vijdon chegaralari bilan bog'liq talablar o'z majburiyatlari doirasida yangi axloqiy qadriyatlar, fazilatlarning ob'ektiv shakllanishiga olib keladi.

Urf-odatlar va an'analar rioya qilinishi kerak bo'lgan qadriyatlarning asosiga aylanadi. Mintaqalar, millatlar va e'tiqodlarga qarab farq qiladigan urf-odat va an'analar o'zlari rivojlanayotgan jamiyatda amal qilinishi kerak bo'lgan ob'ektiv qadriyatlar sifatida qaralsa-da, ularning aniqligi boshqa jamoalarga nisbatan bahsli bo'lishi mumkin. Axloq, shuningdek, shaxslar va jamiyatlarning maqsadlari va xatti-harakatlarining aniqligi, samaradorligi va mahsuldorligi yoki uzoq muddatli istiqbolda iqtisodiy va muvozanatli resurslardan foydalanish orqali doimiy rivojlanish imkonini beruvchi fikrlar va xatti-harakatlarning yaxlitligi sifatida belgilanadi.

Axloqiy qadriyatlar ham bag'rikenglik, uyg'unlik, konstruktiv va ijodiy xatti-harakatlarni talab qiladi. Shuningdek, axloq; Bu asosiy tamoyillar, hodisalar va sub'yektiv istaklar o'rtasida oqilona, muvozanatli, konstruktiv va ijodiy echimlarni ishlab chiqishni talab qiladi. Ijtimoiy hayotdagi o'rtacha qadriyatlarni tashkil etuvchi axloq, shaxslar va jamiyatlarning xatti-harakatlari ushbu qadriyatlarga yaqinlashishi kerakligini belgilaydi. Bu axloq tushunchasi bilan shaxslar va jamoalar bir-biriga ishongan holda uzoq muddatli rejalar tuzish, ularni o'z vaqtida va iqtisodiy jihatdan amalga oshirish, maqsadlarini mustahkamlash shart-sharoitlariga ega bo'ladi. Axloqiy modelni ishlab chiqish jamiyatlarning axloqiy qadriyatlar asosida tuzilishi talabidir. Nazariy, asosiy bilim va metod; Tuyg'ular, e'tiqodlar, ma'naviy- axloqiy va vijdoniy qadriyatlar va axloqiy xatti-

harakatlar o'rtasida deterministik, sintetik va analitik munosabatlar mavjud.

Kantning fikricha, axloq - ongni sharoitga mos ravishda burchga tatbiq etish, ya'ni burchga bo'lgan iroda va ishonchni amalda qo'llashdir. Boshqacha qilib aytganda, bu nazariy aqlning amaliy aql va amaliyotga aylanishidir. Nazariy aql fanlarni rivojlantirar ekan, fanlar rivojlanayotgan yo'nalishlarda burch etikasi tamoyillarini ham belgilaydi. Erkin vijdon va irodaga asoslangan axloq mana shunday vujudga keladi. Kantning axloqiy nazariyasi individual his-tuyg'ulardan va sub'ektiv vijdondan ustundir; Bu iroda erkinligiga asoslangan oqilona, idealistik umumiy axloqiy nazariyadir. Shu nuqtai nazardan, axloq tarbiya shakllari;



5.2 Tarbiya texnologiyalarining tarbiya jarayonini tashkil etishdagi o'rni.

Tarbiya texnologiyalarining mohiyati

Pedagogika innovatsion tarbiya texnologiyalari asosida o'quvchi-yoshlarni ma'naviy-axloqiy sifatlarini tarbiyalash jarayonida quyidagi bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'ladilar.



Innovatsion tarbiya texnologiyalari asosida o'quvchi-yoshlarni ma'naviy-axloqiy sifatlarini tarbiyalashda doimiy o'zgarib turadigan, jamiyat talablaridan kelib chiqib, to'ldirilib boriladigan bir butun tizimga ega. Uning bir-biri bilan bog'liq quyidagi tarkibiy qismlari o'qituvchining tarbiyaviy faoliyatida muhim yo'nalishlar bo'lib doimo, mazmunan boyitilib boriladi:

Innovatsion tarbiya texnologiyalari asosida o'quvchi-yoshlarni ma'naviy-axloqiy sifatlarini tarbiyalashda maqsadning aniqligi. O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy-siyosiy mustaqilligining dastlabki

yillaridayoq mamlakatimizda amalga oshirilishi ko'zda tutilayotgan tarbiyaviy maqsad aniq belgilab olingan va o'qituvchi zimmasiga ulkan mas'uliyat yuklangan. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuniga ko'ra o'qituvchiga jamiyatimiz tomonidan qo'yilayotgan maqsad - erkin, ijodkor, mustaqil fikr egasi bo'lgan komil inson va malakali mutaxassisni tarbiyalab voyaga yetkazishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish yo'lidagi asosiy vazifa-bu shaxsda umumiy madaniyat unsurlarini, ya'ni, aqliy, axloqiy, jismoniy, estetik, iqtisodiy, ekologik, huquqiy, siyosiy hamda mehnat madaniyatini tarbiyalashdan iborat.

Texnologik tizim yoki tarbiya texnologiyasi bu pedagogik metod, usul va vositalarni rejali va kutilgan iatijalarga erishishga imkon beradigan, shaxsga va jamoaga aniq tasir ko'rsatadigan jihatlarini tanlash tizimidir. Bu tarbiyachi-o'qituvchining o'quvchilar amaliy faoliyatini to'g'ri tashkil qila olishi va boshqarishining ko'nikma va malakalariga ega bo'lishidir. Texnologik jarayon natijalaridan asosiy maqsad, tarbiyachi ijodiy izlanishlar tufayli, o'quvchilar tashabbuskorligini ta'minlaydi. Tarbiyachi-o'qituvchining o'quvchilar o'z-o'zini boshqarish uyushmalari bilan hamkorlikda ishlashi bilan murakkab masalalarni hal qilish uchun vaqt ajratadi. Texnologik tizimda tarbiyaviy ahamiyatga ega tadbirlarni muvaffaqiyatli uyushtirish o'qituvchining pedagogik mahoratiga bog'liq. Uyushqoqlik bilan o'tkazilgan tadbirlar o'quvchilarning aqliy rivojlanishini, bilish tafakkurini, kasb tanlashga nisbatan qiziqishini, erkin fikrlashlarini, o'z fikr mulohazalarini cho'chimasdan to'g'ri tasavvur bilan bayon etish tushunchalarini shakllantiradi.

Tarbiyachi-o'qituvchining innovatsion faoliyatida har bir o'quvchiga alohida yondashuvni topish, o'quvchi iste'dodida namoyon bo'ladigan holatlarda uning faolligini oshirishga karatiladi. Tarbiyachi-o'qituvchi tomonidan uyushtiriladigan tarbiyaviy tadbirlarga qo'yiladigan asosiy talablar: tarbiyaviy tadbirlar hech qachon tasodifiy bo'lmasligi va har bir tadbirga puxta tayyorgarlik ko'rilishi lozim.

O'qituvchining tarbiyachi sifatidagi mahorati – bu tarbiyalanuvchilarni ma'lum bir maqsadga muvofiq tarbiyalash uchun mo'ljalga olish san'atidir. O'quvchilar har kuni quvonchli daqiqalarni, katta va kichik ko'ngilsizliklarni birgalikda boshdan kechiradilar. Ular tarbiyachi o'qituvchining o'zlariga nisbatan yaxshi va yomon, yoki insoniy munosabatlarini tez ajrata oladilar va bunga darhol o'z

“javoblarini” qaytaradilar. Ijtimoiy va psixologik bilim va malakaga ega bo‘lish tarbiyachi-o‘qituvchida uddaburonlikni va sezgirlikni shakllantiradi. U o‘quvchilar jamoasini uyushtira oladi, o‘quvchilar qalbiga yo‘l topadi. Chunki o‘quvchilar jamoasi umumiy maqsad asosida tashkil topgan, yuqori darajada uyushtirilgan birlashma bo‘lib, shaxs shakllanishining yetakchi omili sifatida ijtimoiy munosabatlar ichida muhimi hisoblanadi.

Bolalar orasidagi munosabatlarga mohirona rahbarlik qilish uchun tarbiyachi jamoaning ichki va jamoalararo ziddiyatlarni ham bilishi kerak. Bu ziddiyatlarning barham topishi tarbiyachi shaxsi, uning tarbiyalanuvchilar bilan yaqin munosabatlariga bog‘liq. Haqiqiy mohir tarbiyachi-o‘qituvchi bu ziddiyatlarni bartaraf etishda o‘quvchilar jamoasi, o‘quvchilar o‘zaro munosabatlarining kuchidan foydalanadi. Har bir o‘quvchi o‘zining ijtimoiy va psixik olamiga ega. Uni bilish, o‘rganish o‘qituvchidan psixologik nuqtai nazardan yondashishni talab qiladi.

5.3. Tarbiya jarayonining qonuniyatlari, prinsiplari va ularni

“Tarbiya” fanini o‘qitishda e‘tiborga olish qoidasi.

Insoniyat paydo bo‘lganidan beri Tarbiya mazmuni, tarbiya metod, shakl va vositalariga hamda qoidalariga ehtiyoj sezadi.

• Tarbiyaning aniq maqsadga qaratilganligi, jumladan, «O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida Milliy g‘oyani rivojlantirish konsepsiyasi», «Uzluksiz ma‘naviy tarbiya konsepsiyasi» (ijtimoiy buyurtma) bilan muvofiqligi;

ilmiylik, texnologik shart-sharoitning ta‘minlanganligi, • uzviylik, uzluksizlik, uzviylik, individual yondashuv. Modernizatsiya, intensivikasiya, tarbiyaviy jarayonning dinamik xususiyat- ga egaligi

tarbiyalanuvchilarning yosh, pedagogik-psixologik, milliy va shaxsiy xusu- siyatlarini inobatga olish; ta‘lim va tarbiya birligi, • pedagogik hamkorlik

“**Tarbiya prinsplari**” tushunchasi. Istalgan faoliyatni boshqaradigan qoidalar va qonunlar tizimi printsip deb ataladi.

Tarbiya fanini o‘qitishning asosiy tamoyillari:

Tarbiyaning aniq maqsadga qaratilganligi, jumladan, «O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida Milliy g‘oyani rivojlantirish konsepsiyasi», «Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi» (ijtimoiy buyurtma) bilan muvofiqligi;

- **ilmiylik** (har bir tarbiyaviy jarayon elementlarining puxta asoslanganligi, samaradorlikning tajriba asosida baholanishi);

- **texnologik shart-sharoitning ta’minlanganligi** (ko‘zda tutilgan natijani kafolatli loyihalash va amalga oshirish);

- **uzviylik, uzluksizlik** (o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma, malakalar negizida yangi bilim, ko‘nikma, malakalarni shakllantirib borish, ularning navbatdagi bosqich uchun asos bo‘lishiga erishish);

- **individual yondashuv** (har bir tarbiyalanuvchining shaxsi bilan yaqindan tanishish, uning xarakteri, ehtiyojlari, hayotiy tajribasi, shaxsiy sifatlarini o‘rganish va ularga tayanib ish ko‘rish);

- **modernizatsiya** (tarbiyaviy tadbirlarni bugungi kun talablari darajasida tashkil etish, zamon bilan hamnafas bo‘lish);

- **intensifikatsiya** (tarbiyaviy jarayonning ta’sirchanligi va jadalligi);

- **tarbiyaviy jarayonda tarbiyalanuvchilarning ijobiy fazilatlariga tayanish** (mavjud ijobiy fazilatlar negizida yangi sifatlar tarbiyalash, salbiy illatlarni bartaraf etib borish);

- **tarbiyaviy jarayonning dinamik xususiyatiga egaligi** (shakllantiriladigan fazilat to‘g‘risidagi tasavvurga ega bo‘lish – tushunchani hosil qilish – bilimga ega bo‘lish – ko‘nikmaning shakllanishiga erishish – malakani hosil qilish – odatning shakllanishiga erishish – muayyan ma’naviy-axloqiy fazilatning mavjud darajasi);

Yosh xususiyatlarini hisobga olish tamoyili

- **ta’lim va tarbiya birligi;**

- **yaxlit yondashuv** (tarbiya jarayoniga mas’ul subyektlar tomonidan tarbiyaviy maqsadning bir xil tushunilishi);

• **pedagogik hamkorlik** (tarbiya jarayoni subyektlari – oila, ta'lim muassasalari, jamoatchilik o'rtasida hamkorlikni qaror toptirish va uni mustahkamlash).¹

O'zbekiston Respublikasida ta'lim-tarbiya ishlarini hayot, mehnat ishlari bilan bog'lash tamoyili;

Jamoadi, jamoa orqali va jamoa uchun ta'lim va tarbiya tamoyili

"Tarbiya tamoyillari" tushunchasi. Istalgan faoliyatni boshqaradigan qoidalar va qonunlar tizimi printsip deb ataladi. "Tarbiya tamoyillari" deganda biz maktab, oila va ijtimoiy muhitda tarbiya jarayonining mazmuni, usullari va shakllarini belgilaydigan ko'rsatmalar va tartiblarni tushunamiz. Tarbiyachi (ona, o'qituvchi) har bir shaxsning talablarini o'z faoliyatining asosi sifatida oladi.

Bu tamoyil maktab xarakterini shakllantirishda ajralmas rol o'ynaydi va ta'limning yakuniy maqsadini belgilaydi. Prinsipning mohiyati shundan iboratki, o'qituvchi ta'lim-tarbiyaning umumiy maqsadini aniq qiyofaga keltiradi, yaqin vazifalarni ongli ravishda, faol ravishda oydinlashtirishga erishadi. U ularga amal qilish orqali ularni bajarishga harakat qiladi, shuningdek, o'qituvchining ta'lim-tarbiyaning umumiy maqsadini aniq tasvirga olib keladi. yosh avlod barkamol fuqaro bo'lib voyaga yetadi.

Zamonaviy pedagogik amaliyotda uning samaradorligi va yo'nalishini belgilab beruvchi o'qitishning bir qancha asosiy tamoyillari mavjud. Ta'lim va tarbiya shakllari o'quv jarayonining turli tomonlarini, maqsadlarni belgilashdan ularga erishish usullarini qamrab oladi.

Tarbiya mazmunining muntazamligi o'quvchilarning yoshi, psixologik xususiyatlari bilan bog'liq hisoblanadi.

¹ Xodjayev B., Artikova M. Tarbiya fanini o'qitish texnologiyasi. –Toshkent, 2020 y

Mulohaza uchun

Axloq – insonlarni yaxshilikg'a chaqirguvchi, yomonlikdan qaytar-guvchi bir ilmdur. Agar bir kishi yoshligida nafs buzilib tarbiyasiz, axloqsiz bo'lib o'sdimi, bunday kishilardan yaxshilik kutmak yerdan turub yulduz- larga qo'l uzatmak kabidur.

Axloqimiz binosining go'zal va chiroyli bo'lishiga tarbiyaning zo'r ta'siri bordur. Tarbiyaning axloqqa, albatta, ta'siri bo'ladur. Oramizda masal borki, «sut ila kirgan, jon ila chiqar». Mana bu so'z to'g'ridur.

Yaratgan insonlarni asl xilqatda iste'dod va qobiliyatli, yaxshi ila yomon, foyda ila zarar, oq ila qorani ayiradurgan qilub yaratmishdur. Lekin insondagi bu qobiliyatni kamolga yetkurmak tarbiya ila bo'ladur. Qush uyasinda ko'rganin qiladur. Inson javhari qobildur. Agar yaxshi tarbiya topib, buzuq xulqlardan saqlanub, go'zal xulqlarga odatlanub katta bo'lsa, har kim qoshida maqbul, baxtiyor bir inson bo'lub chiqar. Agar tarbiyatsiz, axloqi buzulub o'ssa, Allohdan qo'rqmaydurgan, shariatga amal qilmaydurgan, nasihatni qulog'iga olmaydurgan, har xil buzuq ishlarni qiladurgan, nodon, johil bir rasvoyi olam bo'lub qolur.

Alhosil, tarbiya bizlar uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir.

Nazorat savollari

- 1.Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida tarbiya jarayoni va uning mohiyati.
- 2.Tarbiya texnologiyalarning tarbiya jarayonini tashkil etishdagi o'rni.
- 3.Tarbiya jarayonining qonuniyatlarini yoriting
- 4.Tarbiya jarayonining prinsiplari qaysilar

Amaliy topshiriqlar

- 1.“Inson tabassumi bilan tarbiyasini, nimaga kulgani bilan saviyasini namoyon qiladi”.Jaloliddin Rumiyning ushbu fikrining mohiyatini yoritib bering
- 2.Yaxshi va yomon xulqning hammasi sharoit, tarbiya, odatlanish natijasida vujudga keladi. Yaxshi xulqqa ham odat tufayli erishiladi.Ibn Sinoning ushbu fikrlarini hayotiy misoolar misollar orqali tushuntiring

Mustaqil faoliyat

1. Tarbiya fanini o'qitish jarayoniga zamonaviy yondoshuvlar.
2. Tarbiya fanini o'qitish jarayoniga texnologik yondoshuv va uning imkoniyatlari hamda afzalliklari.
3. Tarbiya fanini o'qitishda qo'llaniladigan umumpedagogik texnologiyalar

6-MAVZU: “TARBIYA” FANINI O‘QITISH JARAYONIGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR



Tayanch tushunchalar: Umumiy o‘rta, muassasa, ta’lim “Tarbiya” ya’ni, zamonaviy, yondashuv, jarayon, o‘qitish anvonaviy, texnologik tadqiqiy-ijodiy, texnologik.aksiologik yondashuv, psixaterapevtik yondashuv, germeneytik yondashuv

***Olim odam - qimmatbaho dinordir,
Nodon, joxil odam - qimmatsiz soxta puldir.
Ahmad Yugnakiy***

6.1. “Tarbiya” fanini o‘qitishga zamonaviy yondashuv davr talabi.

Bugungi kunda Yangi o‘zbekistonda inson huquqlari, erkinliklari va mustaqilliklarini ta’minlashga jamiyatni ma’naviy yangilanishni yo‘lga qo‘yib, bozor munosabatlariga o‘tishni jahon hamjamiyatligi andozalari asosida qurishga yo‘naltirilgan huquqiy demokratik davlat va ochiq fuqarolik jamiyatini qurishga dadil intilmoqdir. Buxoro sharoitida tabiiyki ilim-fan, madaniyat ma’rifat texnika va texnologiyani rivojkantirish masalasi birinchi o‘ringa ko‘tariladi. Bu malaka ta’lim tarbiya ishlarini jadallashtirish, ta’lim hamda tarbiya sohasidagi qarashlar va g‘oyalarni ilm fan texnika tarqqiyoti talablari qurish rivojlangan demokratik davlatlar darajasida yuqori ma’naviy axloqiy salohiyat hamda intellektual qobiliyatga ega no‘lgan yoshlarni voyaga yetqazish ularni o‘qitib tarbiyalab malakali kadr qilib tayyorlash davlat va jamiyatning asosiy vazifasiga aylanadi. Bunday vazifani samarali hamjamiyatning yagona yo‘li, ongi yuksak tafakkuri ijodiy dunyo qarashi ilmiy asosda qurilgan yoshlarni hayotga, faoliyatga tayyorlashga mas’ul bo‘lgan ta’lim – tarbiya jarayoni va uning modernizatsiyalashgan ilmiy asosidir

Ma’lumki mamlakatimizda ta’lim – tarbiya ishlari samaradorligini oshirish uning mazmunini takomillashtirish masalasiga XX – asrning 70-80-yillarida kirishilgan edi. Dastlab mamlakatda 70-80 yillarda ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish, 80-90 yillarda pedagogik jarayonini optimallashtirish g‘oyalari ko‘tarilib chiqildi va amaliyotga tadbiiq etildi. 90-yillarning 2 yarmidan boshlab ta’lim-tarbiyani rivojlantirish uning ilmiy asoslarini ilg‘or pedagogik

texnologiyalar asosida loyihalash hamda amaliyotga tadbiiq qilish jadal suratlar bilan olib borildi. Zero, ilg'or pedagogik texnologiyalar, ta'lim-tarbiya jarayonini haraklantiruvchi kuchi deb qabul qilindi.

Bu borada xorijda, mustaqil hamdo'stlik mamlakatlarida, respublikamizda ta'lim-tarbiyaning ilmiy nazariyalari jamlanmasi hisoblangan pedagogika fani yo'nalishida katta hajmdagi metodologik ma'lumotlar va amaliy tajriba to'planib, ta'lim-tarbiya jarayonini zamonaviy pedagogik texnologiyalar mazmunida ko'rish masalasi qo'yildi.

Keyingi davrda ilmiy texnikaviy taraqqiyot (ITT) ning jadallashuvi, axborot oqimining ko'payishi ta'lim-tarbiya muassasalarining ta'lim jarayoniga ananaviy texnologiyalar barcha shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalarni qo'llashni taqqazo etadi. Malumki, ananaviy ta'lim texnologiyasi xotiraga mo'ljallangan bo'lib, bilim oluvchilarning bilim olish, o'quv va ko'nikmalarni tarkib toptirishga qaratilgandir. Shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalarda ta'lim-tarbiya jarayonining markaziga bilim oluvchining shaxsi qo'yiladi va uning tabiiy imkoniyatlarining rivojlanishi hamda anatomik-fiziologik, ruhiy, takomillashishini ro'yobga chiqarish uchun shart-sharoitlar yaratildi.

Shu o'rinda e'tirof etish joyizki, ilmiy-texnika rivojlanishi har bir davr, har bir ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot va ma'naviy- siyosiy hayot takomillashuviga yordam beradi, uni mukammallashtiradi. Aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, maskur cho'qqilarning yangi cho'qqilarini egallashga qo'llaniladigan, ta'lim va tarbiyani harakatlantiradigan usullar, yondashuvlar lozimligini taqqazo qiladi.

6.2. "Tarbiya" fanini o'qitishga doir yondoshuvlar va ularni turlari.


So'nggi paytlarda eng ko'p gapirilgan yoki ta'siri eng ko'p sezilgan ikkita fakt haqida gapirish va, ehtimol, bularning birinchisi globalashuv bo'lsa, ikkinchisi texnologiyaning o'zgarishi, ayniqsa raqamli texnologiyalar o'zgarishlar bo'ladi. Bu hodisalar bizning hayotimizdagi vaqtinchalik tafsilotlar yoki moda emas, balki hayot va hayotning bir qismidir.

Bu kelajak qanday shakllanishining kalitidir.

Jamiyatlar mavjudlik sabablarini amalga oshirish uchun dunyoning cheklangan resurslaridan maksimal darajada foydalanadilar.

U ijtimoiy raqobatdan foydalana oladigan samarali va kuchli avlodlarni tarbiyalashi kerak. Ammo bu avlodlar jamiyatni tashkil etuvchi shaxslarning farovonligi, xavfsizligi va qadr-qimmatini ularning ob'ektiv muvaffaqiyati bilan oshirish mumkin. Globallashuv va raqamli texnologiyalardagi o'zgarishlarni yaxshi tushunish bizga ushbu hodisa tomonidan yaratilgan yangi madaniy jihatlarni tushunish imkonini beradi.

Qadriyatlarni aniqlash, kelajakni bashorat qilish va shunga mos ravishda yangi avlodlar uchun yangi xatti-harakatlarning ta'riflari uchun muhim. Yangi avlodlar uchun yangi umidlar va yangi xatti-harakatlarga muvofiq ta'lim va tarbiyani tashkil etish eng muhim vazifalardan bo'lmoqda.




Aksiologik yondashuv-Aksiologiya atamasi 1902 yilda Pol Lepi va 1908 yilda Eduard fon Xartman tomonidan ishlatilgan.

Aksiologiya aslida ikkita asosda ishlaydi. Bular estetika va etika tushunchalaridir. Etika odamlarning ijtimoiy va individual xatti-harakatlarida nima yaxshi va to'g'ri ekanligini tekshiradi. Estetika tushunchasi go'zallik va uyg'unlikni tekshiradi.

Texnologik yondashuv - kontseptual ta'limiy qadriyat. Ta'limni texnologiyalashtirish - bu o'qitish jarayoniga texnologik yondashish asosida ta'lim maqsadlariga erishishning eng maqbul yo'llari va samarali vositalarni tadqiq qiluvchi va qonuniyatlarni ochib beruvchi pedagogik Yo'nalishdir.

Ta'limga texnologik yondashish - bu ma'lumot va ta'lim mazmunini atroflicha tahlil qilish yo'li bilan o'quv-tarbiya jarayonining

umumiy, xususiy maqsadlarini tahlil qilish, o'qituvchi va talaba maqsadlarining uchrashgan nuqtalarida (o'qitish maqsadi, o'qish maqsadi) ta'limning didaktik maqsadini belgilash asosida ta'limni loyihalash va amalga oshirish yo'llari bilan mo'ljaldagi etalonga erishishdir. Umuman, ta'lim texnologiyasi haqida gap ketganda o'zaro daxldor quyidagi hodisalarni bir-biridan farqlashga ehtiyoj tug'iladi



Bu hodisalarning birinchi va ikkinchisi an'anaviy ta'limtajribasida ham uchraydi. Ta'lim texnologiyasining an'anaviy ta'lim tizimidan farqi shundaki, ta'lim natijasi va uning etalon darajasida bo'lishi doimo o'qituvchi hamda talabaning diqqat markazida turadi. O'qituvchi ta'lim natijasini tez-tez tekshirib, talabalarni o'zlari erishgan yutullardan ogoh qilib tllradi va talabalar o'zlari erishgan yutuq va kamchiliklarni anglab, yutuqlarini yanada ko'paytirishga, kamchiliklarini esa bartaraf etishga harakat qiladi. Talabalar ta'limning zaruriyligini, ular ta'lim jarayonining haqiqiy subyektiga aylangan paytida sezishadi.

Tarbiyaga sinergetik yondashuv murakkab tizimlarning o'z-o'zini tashkillashtirishi bilan bog'liq nazariyasi asosida kelib chiqqan. «Sinergetika» atamasini fanga German

Xaken kiritgan va uni murakkab tarzda bir-biri bilan o'zaro ta'sirga kirishuvchi ko'p miqdordagi qismlar, komponentlardan tarkib topuvchi tizimlarni o'rganuvchi fan sifatida belgilagan. Dunyo hamjamiyatida prefigurativ madaniyatdan hosil bo'luvchi fenomenlar: kelajakning (hatto yaqin kelajakning) noaniqligi, bugunning beqarorligi, axborot alg'ov-dalg'ovligi borgan sari ko'proq anglanilib bormoqda. Ushbu sharoitlarda tarbiya maqsadga yo'naltirilgan boshqaruvga bo'ysunishi mumkin emas, chunki tarbiyaning o'zi – noaniqlik sohasi. Tarbiyani tashxis qilish, uning natijalarini o'lchash murakkabligi tasodif emas: ular doimo haqiqiy tarbiya vaziyatidan vaqt bo'yicha kechikib yuradi

va noaniqdir. Tarbiya jarayonida pedagog ta'sirida shaxsning qaysi motivatsion-qadriyatli tizimlari o'zgarishga uchrayotganligini, tarbiyalanuvchining ma'naviy izlanishlari, o'zini o'zi o'zgartirishi, hayotiy tajribani egallashi natijalari qanday bo'layotganligini aniqlash oson emas. Sinergetik yondashuv pedagogga tarbiya jarayonini nohiziqli harakat sifatida tushunish, tarbiya tizimlari ochiqligini, ahamiyat kasb etuvchi tasodiflarni (fluktuatsiyalarni) tan olish shartini qo'yadi. Tarbiyaga sinergetik yondashuvning o'ziga xos xususiyati – shaxsni o'zgartirishning bir qancha yo'llari, imkoniyatlarini tan olish va sakrashlar yuz beruvchi keskin, beqaror tarbiyaviy vaziyatlardan kelib chiqishdir. Tarbiyaga sinergetik qarash «portlash effekti»ning fenomenal tabiatini tushuntirib beradi. Agar tarbiyaviy o'zaro ta'sir bifurkatsiya (tarmoq, «tanlov») nuqtasidan uzoqda bo'lsa, unda tarbiyalanuvchilar xulq-atvori va faoliyatida sof tashqi, miqdoriy o'zgarishlar yuz beradi.

Bifurkatsiya nuqtasiga yaqin bo'lgan hatto qisqa muddatli, bir lahzali pedagogik o'zaro ta'sir ham tarbiyalanuvchi shaxsining qadriyatli-motivatsion sohasini keskin tarzda o'zgartirib yuborishi mumkin, shu sababli tarbiya o'quvchi uchun harakatlar, amallarni tanlash imkonini yaratishi lozim.

Sinergetik yondashuv pozitsiyasi bola shaxsi faolligi ichki potentsiali ning alohida ahamiyatiga urg'u beradi. Pedagogik ta'sir bolalardagi tartibsiz ichki o'z-o'zini anglash jarayonlarini ziyraklik bilan e'tiborga olishi va hatto ularning tabiiy harakatlari va faolliklarining impulsiv portlashlari bilan ham moslasha olishi shart. Tarbiyaning har qanday haqiqiy vaziyati bola uchun yechimi o'rganilgan xulq-atvor qoidalari va xotira da saqlanilgan hayotiy ssenariylari yetarli bo'lmaydigan tanlov muammosi bilan aloqador bo'ladi. Shaxs o'zgarishining asosiy tendensiyalarini belgilab beruvchi bifurkatsiya nuqtasi bola shaxsining qadriyatlar sohi va uning axloqiy yo'l-yo'riqlarida paydo bo'ladi.

Xulq-atvor yondashuvi - bu tarbiyalanuvchilarda kuzatilishi mumkin bo'lgan xatti-harakatlarga g'amxo'rlik qiluvchi va ular bilan shug'ullanadigan psixologik xulq-atvor yondashuvi. Ushbu yondashuvda barcha xatti-harakatlarning atrof-muhit bilan o'zaro ta'siri orqali o'rganilishi qo'llab-quvvatlanadi. Xulq-atvor yondashuvida odamlar bo'sh varaqlar va atrof-muhitning ogohlantirishlari bilan to'ldirilgan deb o'ylashadi. Xulq-atvor yondashuviga Pavlov, Skinner

va Uotsonlar asos solishgan. Bixevioristlar o'rganishni stimuly va javob o'rtasidagi bog'liqlik bilan izohlaydilar va introspektsiya usulini butunlay rad etadilar. Bixevioristlarning fikriga ko'ra, kuzatilgan xatti-harakatlarni tushuntirish uchun o'rganish tamoyillaridan foydalanish kerak. Xulq-atvorli ta'lim-tarbiya yondashuvlarida; Mustahkamlash, jazolash, umumlashtirish, kamsitish, xulq-atvorni shakllantirish kabi tushunchalar birinchi o'ringa chiqdi. Bizning xatti-harakatlarimiz atrof-muhit tomonidan belgilanadi va boshqariladi. Bolalarni to'g'ri shakllantirish uchun mos muhit yaratish kifoya. Bixevioristlarning bu fikrlari yillar davomida dastur ishlab chiqish, sinfda o'rganish va o'qitish, yo'l-yo'riq, o'lchash va baholash kabi jarayonlarda o'z aksini topdi. Sinfdagi o'quv-ta'lim muhitida klassik shartlash tamoyillaridan foydalanish cheklanganligi da'vo qilingan bo'lsa-da, ular affektiv va hissiy xususiyatlarni berishda muhim rol o'ynaydi. Klassik konditsionerlik maktablarda qiziqish, ijobiy munosabat, ijobiy o'zini o'zi anglash, akademik o'ziga ishonch va boshqa ijobiy his-tuyg'ularni rivojlantirish va o'rganishda samarali bo'lsa-da, bunday o'rganish tasodifan sodir bo'ladi. Biroq, bu xususiyatlarni olish uchun klassik konditsionerlik tamoyillarini samarali qo'llash imkonini beradigan o'quv dasturlarini tashkil qilish zarurati tug'iladi. Shunday ekan, farzandlarimizning maktab va o'qishga mehr qo'yadigan, ijobiy munosabatda bo'lgan, o'rganilgan nochorlikdan yiroq, o'ziga ishonchi baland insonlar bo'lib voyaga yetishiga tasodifan emas, ongli ravishda yordam berish kerak. O'qituvchilar bolalarga maktabda imkon qadar ko'proq quvonchli tajribalarni taqdim etishlari va buni o'rganish va maktab bilan bog'lashda yordam berishlari kerak. Bolalarning qo'rquvi, tashvishlari va boshqalar. Salbiy his-tuyg'ularni yo'q qilish orqali ham yo'q qilish mumkin.

Germenevtik yondashuv - Inson hayotda bir-birini tushunishidir. U talqin sifatida, ayniqsa, 19-asrda, tabiiy fanlar mavjud bo'lganda paydo bo'ldi. Bu fanlarda qo'llanilishi g'oyasiga qarshi ishlab chiqilgan kontseptsiya. Kontseptsiya, yunoncha "germeneuein" so'zidan olingan bo'lib, talqin ma'nosini bildiradi. Shu nuqtai nazardan, Germenevtika; xabardor qilish, ma'lumot berish,

Germenevtika - bu matn, ramz, madaniyat yoki tajriba kabi ma'noga ega elementlarni talqin qilish bilan shug'ullanadigan fan. Bu atama ko'pincha yozma matnlarni talqin qilish bilan bog'liq, ammo kengroq kontekstda qo'llanilishi mumkin. Germenevtika, ayniqsa,

matnlarning ma'nolarini tahlil qilish va izohlash uchun ishlatiladigan metodologiya yoki yondashuv sifatida muhimdir.

Germenevtika ma'noning murakkabligi va chuqurligini tushunishga intiladi va bu kontekstda quyidagi asosiy tushunchalarni o'z ichiga oladi:

-Interpretatsiya:

-Kontekst:

6.3. “Tarbiya” fanini o‘qitish jarayoniga aksiologik, texnologik yondoshuvlar va ularga tavsiv. “Tarbiya” fanini o‘qitishga psixoterapevtik, ijodiy tadqiqiy va faoliyatli yondoshuv.

1. Faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv. Mazkur yondashuvning mohiyati – bixevioristik yo‘nalganlik, tarbiyani shaxsning xulq-atvoriga ta’sir ko‘rsatadigan ijtimoiy pedagogik ta’sir sifatida qarash; har bir pedagogik ta’sir tarbiyalanuvchida uning so‘zlari, xatti-harakati yo amallarida namoyon bo‘ladigan ma’lum javobni yuzaga keltiradi.

Xususiyatlari – ideal va tarbiya dasturining mavjudligi, tarbiya tizimining aniq tashkil qilinganligi, aniq qoida va bahslashuvning ahamiyatga egaligi.

Faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuvning ahamiyati shundan iboratki, u tarbiyaviy ideal, tarbiya dasturi, aniq faoliyat yuritilgan tarbiya tizimi, tartib, intizomlilik, «bolalarcha o‘zboshimchalik»ni bartaraf qilishni o‘z ichiga oladi. Zamonaviy ma’no- da bu yondashuv axloqiy-insonparvar qadriyatlarning shaxsiy ahamiyatli ma’nosini bilish, ularni motivatsion-irodaviy va emotsional darajada o‘zlashtirish sifatida qaraladi.

Faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv uchun tarbiya jarayonini anglashning chiziqli tamoyili xarakterli: har bir pedagogik ta’sir tarbiyalanuvchining ma’lum javobi (so‘z, xatti-harakat, amal)ni ko‘zda tutadi.

2. Aksiologik yondashuv. Mohiyati – insonning jamiyatdagi hayotining o‘zini qadriyat sifatida qaraydigan asosiy falsafiy qadriyatlar nazariyasi; tarbiya hayotga tayyorlashga, shaxsiy qadriyatli yo‘nalganlik va shaxsning munosabatlarini shakllantirishga qaratilgan. Tarbiya qadriyatlarni o‘zlashtirish va interiorizatsiyalash jarayoni sifatida tashkil etiladi.

Tarbiyaviy qadriyatlar to'rt asosiy o'zaro uyg'un manbaga ega: genetik, psixosomatik, individual-shaxsiy; tabiiy; sotsiumga doir; ijtimoiy-kosmik. Tarbiyaviy qadriyatlar ijtimoiy hayot va inson ongida xilma-xil muddatlarda mavjud bo'lishi; mazkur qadriyatlarning barcha jamiyatlar uchun bir xil ahamiyatga ega bo'lmasligi; tarbiyaviy tizimlarda mavjud bo'la olishi va pedagogik samaradorlikni belgilashga xizmat qiladi. Ana shu bilan bog'liqlikda tarbiyaviy qadriyatlar absolut – shu jumladan, genetik manbadan yuzaga keluvchi umuminsoniy qadriyatlar; vaqt bilan bog'liq (vaqtinchalik) – aniq-tarixiy; barqaror-mental, etnik; individual-shaxsiy kabi turlarga bo'linadi.

Tarbiyaviy qadriyatlar deganda esa, ijobiy tarzda obyektiv-ijtimoiy shart-sharoitlar, munosabatlar orqali tarbiyalanuvchi shaxsiga samarali ta'sir ko'rsatuvchi moddiy va ma'naviy voqelik tushuniladi. Tarbiyaviy qadriyatlar o'zida ota-onalar va pedagoglar tarbiyalanuvchi shaxsida tarkib toptirishni xohlaydigan, fuqarolik jamiyati uchun foydali, mazkur ijtimoiy sharoitda muhim va zaruriy ahamiyat kasb etuvchi fazilat, sifat, xohish-istak, intilish kabilarni aks ettiradi.

3. Tarbiyaga sinergetik yondashuv murakkab tizimlarning o'z-o'zini tashkillashtirishi bilan bog'liq nazariyasi asosida kelib chiqqan. «*Sinergetika*» atamasini fanga *German Xaken* kiritgan va uni murakkab tarzda bir-biri bilan o'zaro ta'sirga kirishuvchi ko'p miqdordagi qismlar, komponentlardan tarkib topuvchi tizimlarni o'rganuvchi fan sifatida belgilagan.

Dunyo hamjamiyatida prefigurativ madaniyatdan hosil bo'luvchi fenomenlar: kelajakning (hatto yaqin kelajakning) noaniqligi, bugunning beqarorligi, axborot alg'ov-dalg'ovligi borgan sari ko'proq anglanilib bormoqda. Ushbu sharoitlarda tarbiya maqsadga yo'naltirilgan boshqaruvga bo'ysunishi mumkin emas, chunki tarbiyaning o'zi – noaniqlik sohasi. Tarbiyani tashxis qilish, uning natijalarini o'lchash murakkabligi tasodif emas: ular doimo haqiqiy tarbiya vaziyatidan vaqt bo'yicha kechikib yuradi va noaniqdir. Tarbiya jarayonida pedagog ta'sirida shaxsning qaysi motivatsion-qadriyatli tizimlari o'zgarishga uchrayotganligini, tarbiyalanuvchining ma'naviy izlanishlari, o'zini o'zi o'zgartirishi, hayotiy tajribani egallashi natijalari qanday bo'layotganligini aniqlash oson emas.

Sinergetik yondashuv pedagogga tarbiya jarayonini nohiziqli harakat sifatida tushunish, tarbiya tizimlari ochiqqligini, ahamiyat kasb etuvchi taso- diflarni (fluktuatsiyalarni) tan olish shartini qo'yadi.

Tarbiyaga sinergetik yondashuvning o'ziga xos xususiyati – shaxsni o'zgartirishning bir qancha yo'llari, imkoniyatlarini tan olish va sakrashlar yuz beruvchi keskin, beqaror tarbiyaviy vaziyatlardan kelib chiqishdir.

Tarbiyaga sinergetik qarash «portlash effekti»ning fenomenal tabiatini tushuntirib beradi. Agar tarbiyaviy o'zaro ta'sir bifurkatsiya (tarmoq, «tanlov») nuqtasidan uzoqda bo'lsa, unda tarbiyalanuvchilar xulq-atvori va faoliyati-da sof tashqi, miqdoriy o'zgarishlar yuz beradi.

Bifurkatsiya nuqtasiga yaqin bo'lgan hatto qisqa muddatli, bir lahzali pedagogik o'zaro ta'sir ham tarbiyalanuvchi shaxsining qadriyatli-motivatsion sohasini keskin tarzda o'zgartirib yuborishi mumkin, shu sababli tarbiya o'quvchi uchun harakatlar, amallarni tanlash imkonini yaratishi lozim.

Sinergetik yondashuv pozitsiyasi bola shaxsi faolligi ichki potentsiali- ning alohida ahamiyatiga urg'u beradi. Pedagogik ta'sir bolalardagi tartibsiz ichki o'z-o'zini anglash jarayonlarini ziyraklik bilan e'tiborga olishi va hatto ular ning tabiiy harakatlari va faolliklarining impulsiv portlashlari bilan ham moslasha olishi shart. Tarbiyaning har qanday haqiqiy vaziyati bola uchun echimi o'rganilgan xulq-atvor qoidalari va xotira- da saqlanilgan hayotiy ssenariylari etarli bo'lmaydigan tanlov muammosi bilan aloqador bo'ladi. SHaxs o'zgarishining asosiy tendensiyalarini belgilab beruvchi bifurkatsiya nuqtasi bola shaxsi ning qadriyatlar sohi va uning axloqiy yo'l- yo'riqlarida paydo bo'ladi.

4. Germenevtik yondashuv. Ushbu yondashuv asosida falsafiy germenevtika g'oyalari asosida qurilgan gumanitar hodisalarni tushunish va talqin qilish (interpretatsiya) nazariyasi yotadi.

Germenevtika nuqtayi nazaridan, tarbiya – bu subektning kechinmalari sifatida namoyon bo'luvchi psixik tajribalariga, uning «hayotiy olamiga» murojaat etish hisoblanadi. Bu fenomen, ya'ni psixik kechinma faqatgina refleksiya (o'zini o'zi tahlil qilish) orqali o'zlashtiriladi. Boshqacha qilib aytganda, inson boshqalarning asl holati- ni faqat o'zi boshidan kechirganlari va tushunganlari orqaligina anglaydi. Bu tarbiyachiga ham, tarbiyalanuvchiga ham bir xil darajada taalluqlidir. SHu sababli bola kechinmalari – tarbiyachi faoliyatining

asosiy predmeti hisoblanadi. Aynan kechinmalar (xulq-atvor reaksiyalari yoki aytilgan fikrlar emas) doimo katta inson va bola dialogi sifatida tashkil etiluvchi pedagogik o'zaro ta'sir vaziyatida paydo bo'lishi shart.

Germenevtik tarbiyaviy amaliyot bolalar kechinmalari, ularning xotiralari, orzu-istaklari, fantaziyalari bilan olib boriluvchi ish sifatida tashkil etiladi.

Bolalar yozgan she'rlar, esselari, avtobiografik qaydlari, kundaliklari, xatlari, ular tomonidan ijro etilgan qo'shiqlar, chalingan kuylar, yaratilgan dasturiy vositalar tarbiyaviy jarayonning muhim vositalariga aylanadi.

Bolalar verbal ijodiyotining ushbu mahsullari tarbiyachi tomonidan ijobiy qabul qilinishi lozim: ular tahlil qilinmasligi va baholanmasligi, balki o'z-o'zicha mavjud bo'lishga ruxsat etiluvchi, ulg'ayib borayotgan insonning shaxsiy qadriyati sifatida tan olinishi zarur.

Bolani germenevtik qabul qilish tarbiyachining o'zining shaxsiy bolalik tajribalarini, o'z bolalik kechinmalarini refleksiya qilishi, bolalik xotiralari- ni «yashab o'tishi»siz amalga oshishi mumkin emas. Bunday pedagog bolani boshqarmaydi, majburlamaydi, balki u bilan xuddi katta o'rtog'idek hamkorlik qiladi.

Germenevtik ruhda tarbiyalashda bolani atrofdagi odamlar va o'zini o'zi tushunishga o'rgatishi lozim. Germenevtikada tushunish jarayoniga insoniy madaniyatning har qanday ko'rinishlarining ma'nosini fahmlay olish sifatida qaraladi.

Germenevtikada «tarbiyalovchi tushunish»ning asosiy yo'nalishi tarbiyalanuvchining hayot ma'nosini anglash imkoniyatiga yo'naltirilgan. Bolaning har qanday kechinmasi o'zida uning «ma'naviy haqiqatlarini» – hayot qadriyatlariga munosabatini aks ettiradi. Germenevtik yondashuv pozitsiyasida faoliyat olib boruvchi tarbiyachi har qanday yoshdagi bolalarning o'ziga xos hayotiy qadriyatlarini tan oladi. Ularni qaysidir yuksak idealga «moslashtirish» kerak emas. Bolalik hayoti tabiatining o'zi uning har bir lazasini to'laqonli qadriyatlar bilan boyitadi, shu sababli tarbiya obektiv, hamma uchun umumiy bo'lgan maqsadga ega bo'lishi mumkin emas. Tarbiya maqsadi tarbiyachining hayotda konkret bola individualligi ning namoyon bo'lishini tushunishi hodisasida paydo bo'ladi.

Mulohaza uchun DEVONANING XAZINASI

Bir mamlakatda bir devona kishi bor edi. Uning maskani kecha-kunduz vayrona edi. Har dam o'sha vayronaning bir yonini qazib, o'z umrini xazinaga erishish umidi bilan o'tkazar edi. Ittifoqo, shuncha mashaqqat chekkandan so'ng baxti chopib, u xazinani topib oldi. U qaziyotgan chuqurda bir eshik ko'rindi. Ichkari kirgach, katta bir saroyga duch keldi. U yerda Faridun, yo'q, balki Qorun xazinasiga teng qirqta xum turar edi. Telba bu boylikni ko'rib hushidan ketib qoldi. Shu orada bu erga bir ablah kishi yetib keldi. U xazina oldida hushidan ketib yotgan devonani ko'rdi va hech bir ikkilanmay pichoq sanchib, uning qonini to'kdi.

Shunday qilib, uning yashashdan maqsadi xazinaga erishmoq edi. Ammo u boru yo'q sarmoyasidan — hayotidan ajralib qoldi.

“Lisonut-tayr” (Alisher Navoiy)dan

Nazorat savollari

1. “Tarbiya” fanini o‘qitishga zamonaviy yondashuvlar qaysilar
 2. “Tarbiya” fanini o‘qitishga doir yondoshuvlar va ularni turlarini bayon eting
 3. “Tarbiya” fanini o‘qitish jarayoniga aksialogik yondashuvni tushuntiring
 4. texnologik yondoshuvlar va ularga tavsivlang.
- “Tarbiya” fanini o‘qitishga psixoterapevtik yondoshuv mohiyatini yoritng.

Amaliy topshiriqlar

Mashq: «Men o‘zimni yaxshi ko‘raman»

Hamma aylana bo‘lib o‘tiradi. Guruh ishtirokchilari o‘z qadriyatlarini haqida gapiradilar. Masalan, «Men o‘zimni yaxshi ko‘raman, chunki mehribon bo‘lganligim uchun».

Mashq: «So‘zli avtoportret»

Ishtirokchilar qog‘ozga o‘zlari haqida anonim shaklda yozadilar. Ular oilalari, sinfi, do‘stlarining fazilatlarini, xarakteri, xulq-atvori, o‘qishdagi yutuqlari haqida yozishlari lozim. Varaqlar yig‘ib olinadi va aralashtiriladi, so‘ng har bir ilk o‘spirin bitta varaqni tanlab oladi. Undagi ma‘lumotlarni guruhga ma‘lum qiladi. O‘qiyotgan ishtirokchining vazifasi—so‘z kim haqida borayotganini topish. Agar topolmasa, guruhni yordamga chaqiradi.

Mustaqil faoliyat

1. Tarbiya fanini o‘qitishda qo‘llaniladigan umumpedagogik texnologiyalar mavzusida prezidentatsiya tayyorlash
2. Tarbiya fanini o‘qitishning refleksiv va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyalardan foydalanish referat tayyorlash
3. Ishchanlik o‘yin, o‘quv loyihasi, keys-stadi texnologiyalari tarbiya fanini o‘qitishning muhim shakllari mavzusida video rolik tayyorlash

7-MAVZU: "TARBIYA" FANINI O'QITISHDA QO'LLANILADIGAN UMUMPEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR



Tayanch tushunchalar: O'qitish, ananaviy, shaxs, texnologiya, ishchanlik o'yin texnologiyasi, kooperativ ta'lim texnologiyasi, refleksiv texnologiya, tanqidiy fikrlash, kvest texnologiyasi, art- texnologiya, muammoli, modulli, keys stadi, dasturlashtirilgan ta'lim, interfaol metod.

***Ijodkorlik - bu yangi narsalarni o'ylab topishdir,
Innovatsiya - esa yangi narsalarni qilishdir.
(Theodore Levitt)***

7.1 O'qitishning ananaviy va shaxsga yo'naltirigan texnologiyalari.

Texnologiya inson tomonidan tabiiy resurslardan oddiy qurol sifatida foydalanish bilan boshlangan va inson hayotining muhim parametriga aylandi. Ayniqsa, kompyuterlardan foydalanish va internetning hayotimizga kirib kelishi texnologiyani ajralmas holga keltirdi.

Zamonaviy ta'lim yondashuvi maqsadli va ijodiy, samarali va o'zini o'zi anglaydigan shaxslarni tarbiyalaydi. Sifatli ta'limni ta'minlash uchun ta'limda ta'lim texnologiyalaridan foydalanish zarur. Foyda olish kerak. Ta'lim tizimlarida axborot texnologiyalaridan foydalanila boshlagan payt o'qituvchilar yangi o'quv muhitidan foyda oladi va o'quvchilar e'tiborini darsga jalb qiladi. Ta'limda texnologiya integratsiyasi, 21-asr talabalari ular talab qilinadigan malakalarni olishda muhim vositadir. Ta'limda qo'llaniladigan yangi texnologiyalar, o'quv va o'qitish jarayonlarida qo'llaniladigan usul va usullar o'zlarini yangilash uchun yondashuvlar va paydo bo'ladigan yangi metod va usullar paydo bo'lishiga olib keldi. Ushbu yo'nalishda; *kengaytirilgan haqiqat, virtual haqiqat, raqamli hikoya, kontseptsiya xaritalari, kontseptual multfilmlar, aqliy xaritalar, o'quv analitikasi, oqim jadvallari, elektron portfolio, blog, o'yinga asoslangan ta'lim, infografika, interfaol ko'rgazmali tasvirlar, metod va yondashuvlar, ularning ta'limda qo'llanilishi va o'qitish jarayonlariga integratsiyalashuvi tushuntiriladi. Adabiyotlar o'rganilganda, kengaytirilgan haqiqat ilovalari o'rganishga sezilarli ta'sir ko'rsatishi va*

talabalarning undan dars jarayonlarida foydalanishlari; raqamli savodxonlik, bilimlarni boshqarish, hamkorlik, muloqot va almashish, ijodkorlik, baholash va muammolarni hal qilish. Yechish malakasini oshirishi aniqlandi. Biroq, kengaytirilgan haqiqat o'quvchilarning o'quv va o'qitish jarayonlarida ilovalardan foydalanishi. Muzeylar va tarixiy obidalar o'rganishga ijobiy kognitiv va ta'sirchan ta'sir ko'rsatadi. Bu joylarga tashrif buyurish tajribasini samarali olib borishga xizmat qiladi. Bu ishlash va tushunish ko'nikmalariga hissa qo'shadi.

Haqiqat haqidagi bilimlarni (haqiqiy dunyo sharoitlari) raqamli axborot bilan boyitish yoki to'ldirish imkonini beradi.

➤ *Real vaqt rejimida va mos ravishda real sharoitlarga integratsiya amalga oshirish.*

➤ *Matn, veb-saytlar, videokliplar, audio va 3D muhitlar kabi turli xil axborot manbalari yig'ishni osonlashtiradi.*

➤ *Interfaol muhit yaratish imkoniyatini ta'minlash.*

➤ *Ta'lim texnologiyasi*

➤ *O'quv-ta'lim faoliyatida axborot samaradorligini oshirish uchun foydalaniladigan ma'lumotlar*

kommunikatsiya texnologiyalari ta'lim texnologiyalari deb ataladi. O'qitish texnologiyasi mavhum tushunchadir.

Ta'lim texnologiyalarining maqsadlari quyidagilardan iborat:

- ❖ *Ta'lim va ta'lim xizmatlarini keng ommaga etkazish,*
- ❖ *Ta'lim va o'qitish jarayonlarini samarali qilish,*
- ❖ *O'quv va o'qitish faoliyatini shaxsiylashtirish,*
- ❖ *O'quv va o'qitish jarayoni bilan sinfda va sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish,*

- ❖ *Amaliy ta'lim muassasalari bilan faol ta'lim strategiyalarini belgilash,*

- ❖ *Ta'lim va ta'lim dasturlarida uzluksizlikni ta'minlash,*

- ❖ *O'quvchilarning qobiliyatlari doirasida o'quv jarayonini Bunda tashqari, ta'lim texnologiyasida o'quv faoliyatida asbob va jihozlardan foydalanish o'rganishga ta'sir qiladi.*

Bu o'quv jarayonini, asbob va jihozlardan foydalanishning afzalliklarini oshiradigan va tezlashtiradigan elementdir quyidagicha sanab o'tish mumkin:

Bugungi kunda tizimli faoliyat yondashuvi asosida talabalarning mustaqil ishlash faoliyatini rivojlantirish va faollashtirish, hamda tushunish metodlari yordamida o'qitish texnologiyalari bir qator ilmiy

tadqiqot ishlarida ishlab chiqilgan. Bu talabalarga ma'lumotlar bilan intensiv ishlash metodlarini ko'p hajmdagi ma'lumotlarni tartiblashtirish, saqlash, taqdim etish va o'zlashtirishni o'rgatadi. Ushbu metodlar darsliklar va turli o'quv qo'llanmalarni yaratishda asos qilib olinishi mumkin. Bunday metodning yangiligi shaxsiy qobiliyatlarni rivojlantiruvchi tarbiya, o'qitish psixologiyasini, hamda pedagogikaning yangi gumanistik konsepsiyasini hisobga olgan holda ta'lim mazmunini tizimli yondashuv asosida ishlab chiqilishini talab etadi.

O'qitish texnologiyasi – birinchidan, pedagogik texnologiya sifatida jarayonli-harakat aspektini anglatadi. Bu, ta'lim jarayonini o'zgaruvchan sharoitlarda, belgilangan vaqt davomida istiqbollashtirilgan natijalarga kafolatli erishishga va haqiqiy ta'lim-tarbiya jarayonlarini amalga oshirishni ta'minlovchi usul va vositalarning tartibli birligini o'zida mujassamlashtiradigan ta'lim modelini ishlab chiqish hamda amalga oshirishning texnologik jarayoni bo'lsa, ikkinchidan, u maqsadni amalga oshirishda va istiqbolda belgilangan natijalarga erishish bo'yicha pedagogik hamda o'quv faoliyat loyihasini bajarish bayoni hisoblanadi.

Ma'lumki, ta'lim-tarbiya amaliyotida pedagogik texnologiyalar uch daraja- da qo'llaniladi:

1. **Umumpedagogik daraja.** Umumiy pedagogik (umumdidaktik, umumtar- biyaviy) darajada pedagogik texnologiyaning umumiy qonuniyatlari, konseptual asoslari, o'qituvchi va o'quvchining bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarishning o'ziga xos xususiyatlari ishlab chiqiladi.

2. **Xususiy metodik darajada** muayyan bir o'quv fani, kursni o'qitish jarayonining maqsadi va vazifalarini amalga oshirish maqsadida ta'lim mazmunini o'quvchilar ongiga singdirishda foydalaniladigan o'qitish metodlari, vositalari va shakllarining majmuasi tushuniladi.

3. **Lokal (modul) darajada** ta'lim-tarbiya jarayonining ma'lum bir qismida mazkur qismning xususiy didaktik va tarbiyaviy maqsadini hal etishga qaratilgan texnologiya tushuniladi.

Pedagogik texnologiyalarning yuqorida qayd etilgan uchta darajasi bir-birini to'ldiradi va taqozo etadi.

Hozirgi paytda ta'lim jarayonining shaxsga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalar asosida tashkil etilishini ta'minlash dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Bugungi kunda o'qituvchi faqat bilim berish va amaliy ko'nikmani shakllantirish bilan chegaralanmasdan talabalarni mustaqil bilim olish, izlanish va qarorlar qabul qilishga o'rgatishi kerak.

Shaxsga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalari ta'lim jarayonida boshqacha yondashuvni talab qiladi. O'qituvchi talabaga va fanga nisbatan o'zining munosabatini o'zgartirishga to'g'ri keladi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'limning nazariy asoslariga quyidagilar kiradi:

ta'lim oluvchining o'qitish jarayonidagi o'rmini belgilash va shaxsni rivojlantirish;

ta'lim jarayonini tashkil etishda pedagogning ijodiy qobiliyati va mahorati katta ahamiyatga ega.

ta'lim oluvchining kasbiy shakllanishi bo'yicha me'yoriy talablar qo'yiladi

ta'lim jarayoniga shaxsga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalarni qo'llash talab etiladi.

Shaxsga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalarida pedagogik ta'sirlar asosan talaba shaxsni shakllantirishga qaratiladi.

Ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqish paytida, biz shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarini amalga oshiramiz. Chunki, shaxs "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"ning asosiy komponentlaridan biri hisoblanadi; shuningdek, kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub'ekti va ob'ekti, ta'lim xizmatlarining iste'molchisi hamda ishlab chiqaruvchisidir. Ta'lim oluvchining shaxsi – butun ta'lim tizimining maqsadi, uning nufuzli sub'ekti bo'lib qolmoqda.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari, o'z mohiyatiga ko'ra, ta'lim jarayonining barcha qatnashchilarining to'laqonli rivojlanishini nazarda tutadi. Bu esa nafaqat ta'lim oluvchini umumiy

intellektual rivojlanish darajasini va xususan, uning ushbu predmet bo'yicha tayyorgarligini, uni qobiliyatlari hamda imkoniyatlarini hisobga olgan holda o'qitishga differensiyalashgan yondashuv, balki ta'lim oluvchining psixologik kasbiy va shaxsiy xususiyatlarini hamda qobiliyatlarini hisobga olish hamdir.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'limni amalga oshirish shartlari.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim sharoitida, biz ta'lim beruvchilar o'quv jarayonida an'anaviy tizim paytidagidan mohiyati kam bo'lmagan o'zgacha rol va funksiyasiga ega bo'lamiz. Agar, an'anaviy ta'lim paytida, biz bilim sub'ektini va bilimning eng kompetentli manbasi bo'lgan darslik bilan birga nazorat qiluvchi rolida bo'lsak, ta'limning yangi paradigmasi paytida esa, ta'lim oluvchilarning mustaqil faol bilish faoliyatining tashkilotchisi, kompetentli maslahatchi va yordamchisi rolida namoyon bo'lamiz.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim mazmunini texnologiyalashtirish asosan o'quv va didaktik materiallarni ishlab chiqish, talaba shaxsining rivojlanishini nazoratga olish ishlarini qaytadan ko'rib chiqishni ko'zda tutadi. Texnologiyalashtirish talabaga o'quv materialining mazmunini o'zi tanlashiga, o'z ustida ishlashga, o'z-o'zini baholashga imkoniyat yaratadi.

Kasbiy va pedagogik mahoratimizni, faqatgina ta'lim oluvchilarning bilimlari va mahoratlarini nazorat qilishga emas, balki bilim, ko'nikma va malaka, bilish hamda qo'llashda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklarni o'z vaqtida bartaraf etishga malakali harakatlarimiz bilan yordam berishimiz uchun, ularning faoliyatini tashhis qilishga yo'naltirishimiz kerak. Ushbu rol, an'anaviy ta'limdagiga nisbatan ancha murakkab va bizdan yuqori mahorat talab qiladi.


Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim quyidagi tamoyillarga tayanadi:



Shunday qilib, shaxsga yo'naltirilgan ta'limni sub'ekt ta'limidek aniqlash mumkin, chunki u tashkil etilish, aniqlanish va rivojlanishga muhtoj.

- ❖ ta'lim jarayonida barcha sub'ektlarni rivojlantirish, talabalar ustalar, o'qituvchilar, boshqaruv xodimlar uchun sharoit yaratib berish;
- ❖ ta'limi jarayonida shaxsning kasbiy kerakli zarur xislatlariga e'tibor berish va ularni rivojlantirish;
- ❖ shaxsni rivojlantirishning zamonaviy pedagogik va psixologik texnologiyalarini ta'lim jarayoniga tadbiq etish;
- ❖ ta'lim sub'ektlarini himoya qilish, talabalar yutib chiqishlari uchun vaziyatlar tashkil etish;
- ❖ ta'lim sub'ektlarini kasbiy rivojlantirish uchun o'quv-uslubiy yordam ko'rsatish, doimiy va tez tashxisini tashkil etish;
- ❖ tabaqalashtirilgan ta'limni rivojlantirish, chunki u talabaning o'zini aniqlashida va rivojlanishida katta rol o'ynaydi hamda keng miqyosda tadbiq etiladi;

Shaxsga yo'naltirilgan ta'limni amalga oshirish quyidagi shart-sharoitlar va talablar bilan qondirilishi kerak:




Tarbiya fanini o'qitish jarayonida quyidagi umumpedagogik texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiq. Quyida ularning mazmun-mohiyatini yoritib beramiz.

O'quvchining faolligi, maqsadli yo'naltirilgan boshqaruvchi pedagogik ta'sirlar va pedagogik muhitning tashkil etilishi natijasidir. O'quvchilarning faolligini ta'minlovchi o'qitish texnologiyalaridan biri – ishchanlik o'yini

O'yin texnologiyalarining tarkibiy qismlari O'yinli texnologiyaning komponentlari

Pedagogik o'yinning asosiy xususiyati – o'quv-bilish faoliyatiga yo'naltirilgan o'qitish maqsadi va unga mos keluvchi pedagogik natijaning aniq qo'yilishidir.

Pedagogik o'yinning vazifalari:

Pedagogik o'yinlar muhit bilan bog'liqlikda (*predmetli, predmetsiz, ochiq havoda o'ynaladigan, kompyuter*), fan sohasi (*musiqiy, teatrlashtirilgan, badiiy, boshqaruvga doir, savdo-sotiq, iqtisodiy, jismoniy, sport, turizmga doir*) va maqsadiga (*didaktik, psixologik, ishbilarmonlik*)ga farqlanadi.

Ishchanlik o'yini o'zida mutaxassisning kelajakdagi kasbiy faoliyatining predmeti va ijtimoiy mazmunini tiklash shaklini mujassamlashtiradi, faoliyat yaxlitligini belgilovchi shunday munosabatlar tizimini model-belgili vositalar (*til, nutq, grafiklar, jadvallar, hujjatlar*) yordamida, ishbilarmonlik o'yinida asosiy muhim belgilariga ko'ra haqiqiy vaziyatga o'xshash kasbiy vaziyat vujudga keltiriladi. Shu bilan birga ishbilarmonlik o'yinida, qisqa vaqt ichida faqat turdosh umumiy vaziyatlar qayta tiklanadi.



Ishchanlik o'yini kelajakdagi kasbiy faoliyatning predmetli jihatini (shartli amaliyot) o'quvchilarning boshqa rolli holatdagi vakillar bilan o'zaro muloqotda bo'luvchi ijtimoiy jihatini vujudga keltiradi. SHunday qilib, ishchanlik o'yinida jamoaviy faoliyatning yaxlit shakli – ishlab chiqarish, kasbiy faoliyat sharoiti modeli yaxlit obektda amalga oshiriladi.

Ishchanlik o'yinida o'quvchi o'zida o'quv va kasbiy elementlarni uyg'unlashtirgan o'xshash faoliyatni bajaradi. Bilim va ko'nikmalarning o'zlashtirilishi mavhum darajada emas, balki kasbiy mehnat kontekstida amalga oshadi. Kontekstli o'qitishda bilimlar kelajak uchun bekorga emas, balki o'quvchining real o'yin jarayonidagi harakatini ta'minlaydi. Bir vaqtning o'zida, o'quvchi kasbiy bilimlar bilan bir qatorda maxsus xislatga – odamlar bilan muloqotda bo'lish va boshqarish, jamoaviy qarorlar qabul qilish malakalari, rahbarlik qilish va bo'ysunish ko'nikmalariga ega bo'ladi. Ya'ni ishchanlik o'yini shaxsiy va kasbiy sifatlarni tarbiyalaydi, ijtimoiylashuv jarayonini jadallashtiradi. Ammo bu «jiddiy» kasbiy faoliyat o'yin shaklida ro'yobga chiqarilganligi sababli, o'quvchi aqliy va hissiy jihatdan erkinlashadi, ijodiy tashabbusini namoyon etadi.

Ishlab chiqarish dinamikasi, mutaxassislarning harakatlari va munosabatlarini modellashtirib, o'xshatib, ishbilarmonlik o'yini, bilimlarni dolzarblashtirish, qo'llash va mustahkamlash vositasi va amaliy fikrlash vositasi sifatida xizmat qiladi. Ushbu holat, o'yinning ma'lum berilgan aniq vaziyatida yoki ishlab chiqarish vaziyatida ishtirokchilarning o'zaro munosabatlari orqali amalga oshiriladi. Ishchanlik o'yini o'xshatma modelda o'yinli o'quv masalalarini qo'yish va echish bo'yicha qo'shma faoliyat kabi ro'yobga chiqariladi.

Qo'shma faoliyat qoidalari va me'yorlari, o'xshatish tili va aloqalar oldindan qabul qilinadi yoki o'yin jarayonida ishlab chiqiladi. Ishchanlik o'yini munozarali muloqot tarzida o'tkaziladi, u rejali

faoliyat hisoblanadi, chunki unda ikkita maqsadga erishiladi: o'yinli va pedagogik.

Pedagogik faoliyat ustuvor bo'lsa ham, o'yinni poymol etmasligi kerak.

O'yin jarayonida quyidagilar o'zlashtiriladi:

- 1) *kasbiy harakatlar me'yorlari*;
- 2) *ijtimoiy harakatlar me'yorlari – ishlab chiqarish jamoasidagi munosabatlar.*

Bunda o'yinning har bir ishtirokchisi faol holatda, sheriklari bilan o'zaro munosabatda bo'ladi, o'z qarashlarini sheriklariniki bilan taqqoslaydi va shuning natijasida jamoa bilan munosabati orqali o'zini o'zi o'rganadi.



Bunday masalalar jumlasiga jamoadagi vaziyatni his qila olish, boshqa kishining ruhiy holatini to'g'ri baholash va uni o'zgartira olish, u bilan unumli muloqotga kira olish kiradi.

Refleksiv texnologiya.

Refleksiya o'z-o'zi- ni tahlil etish va baholash hisoblanib, u orqali ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining o'z faoliyatiga bo'lgan munosabati muvofiqlashtiriladi va hamkorlikdagi faoliyatning shakl va mazmuniga mos ravishda mazkur faoliyatning qayta tashkil etilishi ta'minlanadi.

Refleksiya o'zini o'zi anglashning tasvirlanishi, muloqot jarayonida subektning suhbatdosh sifatida qanday qabul qilinayotganligini anglashi,

subektning muammoni va uning vujudga kelish sabablarini ko'ra olishi, aniqlashi, o'rganishi va tahlil qila olish qobiliyatidir.

Refleksiya tushunchasini fikrlash, o'z-o'zini anglash, o'zini o'zi nazorat qilish; o'zining shaxsiy xatti-harakatlari va ularning oqibatlarini anglash uchun yo'naltirilgan faoliyat, insonning nazariy faoliyat shakli, ya'ni o'tmishga (orqa- ga) murojaat qilish sifatida ham talqin qilish mumkin.

Refleksiya samarali fikrlashning muhim mexanizmi, yuz berayotgan hodisani keng tizim kontekstida tushunish jarayonlarini alohida tashkil etish (u vaziyat va harakatlarni baholashni, vaziyatlarni hal qilish usullari va operatsiyalarini topishni o'z ichiga oladi), xatti-harakatlar va ularning oqibatlarini anglash uchun yo'naltirilgan faoliyat, insonning nazariy faoliyatlarining shakli, ya'ni o'tmishga (orqaga) murojaat qilish hamda subektning ma'lum bir muammoni va uning vujudga kelish sabablarini ko'ra olishi, aniqlashi, o'rganishi va tahlil qila olish qobiliyatidir.

Demak, refleksiya – bu shaxsiy fikr va kechinmalarni tahlil qilishga yo'naltirilgan mulohaza yuritish usuli. Shaxsiy xatti-harakatlarni anglash, fikrni tahlil qilish, idrok etish va bilishning boshqa shakllari yordamida biz dunyoni anglaymiz. Refleksiya tufayli inson bilish va faoliyatning asl subektiga aylanadi.

Refleksiyaning quyidagi turlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Kooperativ refleksiyaning maqsadi hamkorlikdagi faoliyatda umumiy harakatlarni tushu- nish va muvofiqlashtirishni ta'minlashdir.

Bunday hollarda, inson psixikasi mexanizmi- ni namoyon qilish jarayonlariga emas, balki refleksiya natijalariga e'tibor qaratiladi.

2. Kommunikativ refleksiya ijtimoiy rivojlanish va muloqot muammolari bilan bog'liq ijtimoiy-madaniy munosabatlarni o'rganishda ko'rib chiqiladi. U intellektual va rivojlangan muloqot, shuningdek shaxslararo hissiyotlarning eng muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

3. Shaxs refleksiyasi subekt xatti-harakati va insonning o'z «Men»ini uning shaxsiy sifatleri nuqtayi nazaridan tadqiq qiladi. Bunday tahlil shaxsiy ongni rivojlantir ish, parchalanish va tuzatish

muammolari va subektning shaxsiy «Men»ini yaratish mexanizmi bilan bog'lab olib boriladi.

4. *Intellektual refleksiya biror obyekt va u bilan muloqot qilish usullari haqidagi bilimlar bilan tavsiflanadi. Intellektual refleksiya pedagogika va psixologiya fanlarida axborotni bilish va fikrlash hamda qayta ishlash jarayonlarini tashkil etish muammolari bilan birgalikda ko'rib chiqiladi. Shuningdek, oddiy muammolarni hal qilishda ko'rib chiqiladi. Subekt quyidagilarni refleksiyalashi mumkin: boshqa odamning ichki dunyosini, uning harakatlari va ishlarining sabablarini tasavvur qilish; o'z faoliyati va shaxsiy hamda individual «Men»i; biror obektni va ularning muayyan vaziyatlarda o'zaro ta'sir etish usullari haqida bilish.*

Refleksiv texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etishda quyidagi shart-sharoitlarga asoslanish maqsadga muvofiq:

➤ *pedagogik jarayon subektlarining yuqori darajada o'z-o'zini safarbar etish asosida ishlash istagi;*

➤ *pedagogning pedagogik faoliyatga va o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatiga aksiologik munosabati;*

➤ *o'zining ichki kuch va imkoniyatlarini ishga solish; ichki olamining go'zalligi; verbal va noverbal axborotning mazmun-mohiyatini tushunish va h.k.*

Refleksiv texnologiyaning bosqichlariga quyidagilarni kiritish mumkin: vaziyatni baholash, sinf, o'quvchilar va suhbatdoshning reaksiyasini sukut saqlagan holda baholash, ongni bir soniyaga tormozlash; faoliyatga yo'nalganlik: «Men nima qilyapman? Mazkur daqiqalarda nima sodir bo'lyapti?

Nima qilish kerak?»; O'zining va sinfning intellektual, emotsional holatini baholash; insayt (tasodifiy qaror qabul qilish; favqulodda, ijodiy fikr: «nima qilishni bilaman...» yoki hozircha bilmadim, biroq o'ylayman); qaror qabul qilish (ovoz toni va tempini o'zgartirish, aytilgan fikrni izohlash, yuz, ko'z va tana tili ifodasi); pedagogik improvizatsiya.

7.2 Muammoli va modulli o'qitish texnologiyalari va ularga tavsif.

Muammoli o'qitish g'oyasi amerikalik faylasuf, psixolog va pedagog J.Dyui (1859-1952) nazariy qoidalariga asoslanadi va XX asrning boshlarida tarqala boshladi. U 1894 yilda Chikago shahrida o'qitish asosini o'quv rejasi emas, balki o'yin va mehnat faoliyati

tashkil etgan tajriba maktabini ochgan. O'qish, hisoblash, yozish bo'yichamashg'ulotlar bolalarning fiziologik balog'atiga qarab o'zo'zidan paydo bo'lgan ehtiyojlariga muvofiq o'tkazilgan. J.Dyui o'qitish uchun quyidagi ehtiyojlarni asos qilib belgiladi: ijtimoiy, konstruksiyalash, badiiy ifoda, ilmiy-tadqiqiy. Bu asoslarni amalga oshirish uchun bilish 190 manbalari sifatida bolalar quyidagilarga jalb etilgan: so'z, san'at asarlari, texnik qurilmalar, o'yin va mehnat faoliyati. Bu maktabda qo'llangan o'qitishning yangi uslublari, yo'llari va tamoyillari nazariy asoslanmagan va konsepsiya sifatida ifodalanmagan edi. J.Dyuning fikricha, bilimlarni o'zlashtirish boshqarilmaydigan jarayon bo'lib, bola o'zida hosil bo'lgan ehtiyojni qondirishi natijasi sifatida materialni o'zlashtiradi, o'qitish samaradorligi shartlaridan biri bu o'quv materialini muammolashtirishdir va u bola faolligi bilan bog'liq bo'lishi kerak. Muammoli o'qitishni chuqur o'rganish XX asrning 60 yillarida boshlangan. Fikrlash psixologiyasi nuqtai nazaridan muammoli o'qitishg'oyasi va prinsiplari S.L.Rubinshteyn, M.I.Maxmutov, V.Okon, I.Ya.Lerner kabi psixolog olimlar tomonidan ishlab chiqilgan. S.L.Rubinshteynning "Tafakkur – muammoli vaziyatdan boshlanadi" degan g'oyasi muammoli o'qitishning psixologik asosi sifatida qabul qilingan. 70-80 yillarda an'anaviy o'qitishshakllari samaradorligi pasayib ketganligi qayd etilganda, yetakchi pedagoglar muammoli o'qitish nazariyasiga e'tibor qarata boshladilar. Chunki an'anaviy o'qitish shaklida asosiy diqqat o'qituvchi faoliyatiga qaratilgan bo'lsa, muammoli o'qitishkonsepsiyasida asosiy urg'u o'quvchilar tomoniga ko'chadi.

Muammoli o'qitish tamoyili bo'yichabilim o'quvchilarga tayyor shaklda uzatilmaydi, balki ilmiytadqiqot jarayoniga o'xshatib, o'quv faoliyati jarayonida o'quvchilar tomonidan egallanadi. Hozirgi kunda bu sohadagi izlanishlar dunyoning turli mamlakatlarida davom ettirilmoqda, turli soha fanlari bo'yicha muammoli o'qitish texnologiyalarining majmuaviy ishlanmalari yaratilmoqda. Bugungi kunda, muammoli o'qitish deganda mashg'ulotlarda pedagog tomonidan yaratiladigan muammoli vaziyatlar va ularni yechishga qaratilgan ta'lim oluvchilarning faol mustaqil faoliyati tushuniladi. Buning natijasida ta'lim oluvchilar kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'ladilar hamda fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi. Muammoli o'qitish, o'qitishning shaxsga yo'naltirilgan

texnologiyalariga taalluqli, chunki bu yerda shaxsga subyekt sifatida qaraladi, muammoli vaziyatlarning maqsadi – pedagogik jarayonda o‘ziga xos qiziqish uyg‘otishdir. Muammoli o‘qitish, o‘qitishning eng tabiiy samarali usulidir, chunki ilmiy bilimlar mantiqi o‘zida muammoli vaziyatlar mantiqini namoyish etadi. Pedagogikaga oid adabiyotlarda muammoli o‘qitishning turli ta’rif va tavsiflari bor. Bizningcha, nisbatan to‘liq va aniq ta’rif M.I.Maxmutov tomonidan berilgan bo‘lib, unda muammoli o‘qitish mantiqiy fikrlar tadbirlari, tahlil, umumlashtirish hisobga olingan o‘rgatish va dars berish usullarini qo‘llash qoidalari va talabalarning tadqiqot faoliyatlari qonuniyatlarining tizimi sifatida izohlanadi. Muammoli o‘qitishning mohiyatini o‘qituvchi tomonidan talabalarning o‘quv ishlarida muammoli vaziyatni vujudga keltirish va o‘quv vazifalarini, muammolarini va savollarini hal qilish orqali yangi bilimlarni o‘zlashtirish bo‘yicha ularning bilish faoliyatini boshqarish tashkil etadi. Bu esa bilimlarni o‘zlashtirishning ilmiytadqiqot usulini yuzaga keltiradi. Ma’lumki, o‘qitishning har qanday asosida inson faoliyatining muayyan qonuniyatlari, shaxs rivoji va ular negizida shakllangan pedagogik fanning tamoyillari va qoidalari yotadi. Insonning bilish faoliyati jarayoni mantiqiy bilish ziddiyatlarini hal qilishda obyektiv qonuniyatlari didaktik tamoyil – muammolilikka tayanadi.

Fanda muammoli o‘qitish bilan aloqador ikkita tushuncha ishlatiladi: «*muammo*» va «*muammoli vaziyat*» tushunchalari. Ayrim hollarda ular sinonimdek tushunilsada, lekin bu atamalar bilan belgilangan ob’ektlar o‘z hajmi bilan farqlanadi. Muammo muammoli masalalar ketma-ketligiga ajraladi. Demak, muammoli masalani muammoning oddiy, xususiy bir masaladan iborat holati sifatida ko‘rish mumkin. Muammoli o‘qitish ijodiy faoliyatni hamda unga ehtiyojni shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, bu jarayonda ta’lim oluvchilar ijodiy fikrlashining rivojlanishi an’anaviy o‘qitishdagiga nisbatan jadalroq bo‘ladi. Lekin muammoli o‘qitishning bu funksiyasi oshishi uchun o‘quv jarayoniga muammolarning tasodifiy majmuasini kiritish yetarli emas. Muammolar tizimi bilimning mazkur sohasiga xos muammolarning asosiy turlarini qamrab olishi kerak. Muammoli o‘qitishni ta’lim jarayoniga tatbiq etishda o‘qituvchi ilmiy va o‘quv muammolar orasidagi umumiylikni va farqni ajratishi lozim. Ularning umumiyligi– har ikkalasida ham obyektiv ziddiklar

mavjudligi bo'lsa, ilmiy va o'quv muammolarini farqi shuki, ilmiy muammoda qo'yilgan masala hali yechilmagan, o'quv muammosida esa masala yechilgan, uni yechish yo'li va natijasi ma'lum. Faqat bu yo'llar va natijalarni o'quvchilar izlab topishi kerak. Muammoli o'qitishning yakuniy maqsadi – ta'lim oluvchilarni muammolarni ko'rish va yechishga o'rgatishdan iborat bo'lib, bu faqat fikrlash faoliyati jarayonida amalga oshiriladi.

7.3. Hozirgi davrda o'qitishning deferensial va rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalari va ularni tadbqiq etish yo'llari.

O'zbekistonlik pedagogik olim B.L.Farberman pedagogik texnologiyaga quyidagicha ta'rif beradi: PT- ta'lim jarayoniga yangicha yondashuv bo'lib, pedagogikada ijtimoiy - muxandislik ong ifodasidir. U pedagogik jarayonni texnika imkoniyatlari va insonning texnikaviy tafakkuri asosida standart holga solib, uning optimal loyihasini tuzib chiqish bilan bog'liq ijtimoiy hodisadir.

Yapon pedagog olimi T.Sakomoto fikricha – PT bu majmualiy fikr yuritish usulini pedagogikaga singdirish, boshqacha qilib aytganda, pedagogik jarayoni muayyan bir majmuaga keltirishdir».

Bu asoslardan kelib chiqqan holda V.YU.Pityukov «Pedagogik texnologiya» tushunchasini, ta'lim oluvchida ijtimoiy madaniy me'yorni, shaxs erkinligini, dunyoga bo'lgan munosabatni, ta'sirni shakllantirish maqsadida uning dunyo bilan o'zaro ta'siri kontekstida, pedagogning talabaga jarayonli ta'sir ko'rsatishini ilmiy asoslashni ilgari suradi.

B.T.Lixachyov tomonidan taklif etilgan ta'rif quyidagicha: «Pedagogik texnologiyalar–ta'lim shakllari, usullari, metodlari, tarbiya vositalarining joylashuvini aniqlovchi psixologik-pedagogik majmualar yig'indisi bo'lib, bu pedagogik jarayonning tashkiliy-uslubiy loyihasidir».

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalari o'quv jarayonida alohida ahamiyatga ega bo'lib, ta'lim sohasi uchun nihoyatda keng imkoniyatlarni taqdim qiladi:

- ❖ differensial va individual o'qitish jarayonini tashkil qilishi;
- ❖ teskari aloqa bog'lashi: o'quvchilarning o'zini-o'zi nazorat qilish va tuzatib borishi;
- ❖ darslarda animatsiya, grafika, multiplikatsiya, ovoz kabi kompyuter va axborot texnologiyalardan foydalanilishi;

❖ o'quvchilarga fanni o'zlashtirish uchun ko'nikmalar hosil qilishi va hokazo. Bilishning asosini amaliyot tashkil etadi.

O'quv-tarbiya jarayonida axborotmetodik ta'minotini amalga oshirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarning bajaradigan asosiy vazifasi - ikki tomonlama muloqotni ta'minlashdir. Teskari aloqasiz, o'qituvchi va o'quvchi orasidagi doimiy muloqotsiz o'qitish mumkin emas. Bu jarayonning samarali tashkil etilishida o'quv-biluv motivlari alohida o'rin kasb etadi. Kelajak avlod tarbiyasi nozik, nihoyatda katta diqqat-e'tiborni talab qiladigan, mas'uliyatli jarayondir. Uqituvchi ta'lim beruvchi sifatida ta'lim oluvchilarning shakllanish jarayonini sinchkovlik bilan kuzatishi darkor. U pedagogik jarayonni boshqarar ekan, pedagogik bilim va mahorat egasi bo'lishi kerak. Shundagina o'qituvchi pedagogik hodisalarning mohiyatini chuqur anglab, pedagogik mehnat metodi, texnologiyari va kasbiy mahoratni egallaydi. Shu bilan birga ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish o'quvchilarga zamonaviy kompyuter va aloqa vositalaridan foydalanib, murakkab vaziyatlardan chiqib, tezkorlik bilan bir qarorga kelish, axborotni qidirish, uni olish, kommunikativ bilimlari va boshqa shu kabi qobiliyatlarini oshirish imkonini beradi.

Ta'lim jarayoniga innovatsion o'zgarishlar, ta'lim tizimiga har qanday yangilikning kirigilishi bevosita o'qituvchi faoliyatini yangilash va o'zgartirish orqali amalga oshiriladi. O'qituvchining innovatsion faoliyati butun kelajak jamoani harakatga keltiruvchi, olg'a boshlovchi, tarraqqiy ettiruvchi kuch vazifasini bajaradi va ta'lim jarayonining sifatini kafolatlaydi. Shuning uchun ham innovatsiyani har bir pedagog tushunib, o'z pedagogik faoliyatiga olib kira olsa, ta'lim standartlarida ko'rsatilgan me'yoriy talablar amalga oshiriladi. Hozirgi tezkor rivojlanish davrida yuqori malakali raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashda, o'qitishning zamon talablariga mos keluvchi yangi pedagogik texnologiyalar asosida amalga oshirish va yangi pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayonida qo'llashning samarasi shundaki, unda qo'yilgan maqsadlarga erishish kafolatini beruvchi o'quv jarayoni rejalashtiriladi va amalga oshiriladi.

Haqiqatdan ham, mashg'ulotni samarali o'tishning yuqori natijalariga erishish ta'lim jarayonini to'g'ri rejalashtirish, tashkil etish va uni amalga oshirishga bog'liqdir. Masofaviy o'qitishning asosiy shakllaridan biri axborot texnologiyalaridan foydalanish bo'lib, u

dasturlangan ta'lim g'oyasinn rivojlantiradi, ta'limni texnologik variantarini hali o'rganilmagan yangi qirralarini ochadi. Ilmiy texnik rivojlanish turli sohalarda qo'llanuvchi texnika va texnologiyalarning tez almashib turishini taqozo qilmoqda. Bugungi kun uchun fan va texnikaning so'nggi yutuqlarini o'zida jamlagan yangi vosita va texnologiyalarning ta'lim jarayoninida qo'llanilishi keng imkoniyatlar eshiginn ochib bermoqda. Ta'lim kompyuter tizimlaridan bilimlarni o'zlashtirish, olingan bilimlarni nazorat qilishda interaktiv topshiriqlardan foydalanish talabalarga ma'lumot uzatish tezligi va tushunish darajasini oshirish bilan birga bo'lajak mutaxassis uchun muhim bo'lgan intuitsiya, kasbiy sezish, tasvirli uylash kabi qobiliyatlarni ham rivojlantiradi. Kompyuterli ta'lim o'qitish jarayonini maxsus ta'lim dasturlariga muvofiq tashkil etishni nazarda tutadi. Kompyuter dasturlaridan ta'limda foydalanish, o'quv fanlari bo'yicha o'zlashtirish samaradorligini ta'minlash, idrok etish qobiliyati, mustaqil fikrlash, kommunikativ malakalarni egallash jarayonlarini kuchaytiradi. Kompyuterdan test sinovlarini o'tkazish, baholash va boshqarishda keng foydalaniladi, bu esa vaqtni tejash va pedagogik jarayonning samaradorligi oshishiga yordam beradi.

Bugungi kunda talabalar bilimini noananaviy tarzda baholash uchun ko'p gina tizim dasturlar va qobiq dasturlar yaratilgan bo'lib, ulardan o'qituvchilar foydalanib kelmoqda. Masalan, test va interaktiv topshiriqlar yaratish imkoniyatini beruvchi: MyTest, Multi Tester, Wondershare QuizCreator, iSpring Suite, easyQuizzy, QuizCreator va Hot Potatoes qobiq dasturlarni keltirish mumkin.

Bu dasturlarning ko'pchiligi nafaqat test topshirikdarini tuzish, balki baholash topshirikdarining xilma-xilligini, talabalar topshiriqlarni bajarish paytida mantikdy va fazoviy fikrlashlarini rivojlantiruvchi topshiriqlarni tuzishga imkon beradi. Nafaqat mamlakatimizda balki butun dunyo talim tizimida axborot texnologiyalari yordamida elektron darsliklar, elektron oquv qollanmalar, pedagogik dasturiy vositalar, turli talim resurslari, oqitishning elektron vositalari, multimediali darsliklar yaratish va ulardan foydalanish rivojlanib bormoqda. Bular oz navbatida ilm-fan taraqqiyotiga, talim sifati va samaradorligining oshishiga katta hissa qoshmoqda.

7.4. “Tarbiya” fanini o‘qitish jarayoniga faol o‘qitish va dasturlashtirilgan ta’limni tadbqiq etish.

Dasturlashtirilgan o‘qitish pedagog va talabaga zarur bo‘lgan tezkor ichki va tashqi teskari aloqa shaklida amalga oshiriladi. Ichki teskari aloqa - talabaning o‘zi tomonidan bajariladigan, o‘quv materialining o‘zlashtirilishini muttasil tahlil qilib borish. Tashqi teskari aloqa - pedagog yoki boshqaruvchi - o‘qituvchi qurilma tomonidan o‘quv materialining talaba tomonidan o‘zlashtirilishini muttasil baholab borish. Dasturlashtirilgan o‘qitishning asosiy afzalliklarida biri doimo o‘z-o‘zini nazorat qilish va talabalarning o‘quv materiali ustida ishlash jarayonida ularning bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirishlari ustidan nazorat qilishdir. Talabalar o‘zo‘zlarini nazorat qilishlari bajarilgan jarayon natijalarini namuna bilan solishtirib ko‘rish orqali amalga oshiriladi. Namuna esa, dasturning har bir qadamdagi ichki teskari aloqa materiallarida keltiriladi. Tashqi teskari aloqani amalga oshirish, ya’ni o‘qituvchi tomonidan nazorat qilish ancha murakkab ishdir. Nazorat qilishning uzluksizligini ta’minlash maqsadida turli xil nazorat qiluvchi qurilmalar qo‘llaniladi. Dasturlashtirilgan o‘qitish jarayonida talabalar juda faol ishlaydilar. Talabalar egallagan bilim albatta oldindan tuzilgan dasturning qanchalik darajada to‘g‘riligiga bog‘liq. Dasturlashtirilgan o‘qitishning yana bir xususiyati shundaki, u o‘qituvchiga juda katta imkoniyatlar ochib beradi, ya’ni, o‘qituvchi ijodiy ishlarini olib borishi hamda talabalar bilan ko‘proq mustaqil ishlashi uchun imkoniyat yaratiladi.

Kompyuterli o‘qitish texnologiyasi. Kompyuterli o‘qitish texnologiyasi asosan elektron ta’lim resurslari orqali amalga oshiriladi. Kompyuterli o‘qitish texnologiyasining xususiyati shundaki:

- ta’lim oluvchining mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan;
- o‘qituvchi ta’lim jarayonida maslahatchi sifatida qatnashadi;
- o‘qitish jarayonidagi axborot vositalari va resurslari faol integratsiyasi ta’minlanadi;
- o‘qitish motivatsiyasi oshiriladi;
- ta’limning intensivligi va natijaviyligini oshiradi;
- ta’lim oluvchining mustaqil ishlash va izlash malakalarini shakllantiradi.

Kompyuterli o'qitish jarayonini samarali tashkil etilishi o'quv maqsadlariga kafolatli erishishni ta'minlaydi. Agar o'qitish jarayoni yaxshi tashkil etilmasa, ilg'or o'qitish texnologiyalari ham samara bermaydi. Bu texnologiya o'quv axborotlarining verbal va tasavvurli shakllarini birgalikda namoyon etish, o'qitish jarayonini maqsadlarga moslashtirish imkonini beradi. Kuzatishlarning ko'rsatishicha, o'qituvchi, bilimlarni o'zlashtirish jarayonini tashkil etuvchi va boshqaruvchi sifatida qatnashadi va talabalarning kompyuter bilan ishlagandagi rasmiy ko'nikmalariga faqat tuzatishlar kiritish va nazorat qilish bilan cheklanadi.

Modulli o'qitish texnologiyasi. Modul fanning fundamental tushunchalarini - ma'lum hodisa yoki qonun, yoki bo'lim, yoki ma'lum bir yirik mavzu yoki o'zaro bog'liq tushunchalar guruhini o'z ichiga oladi. Modulli o'qitish - o'qitishning istiqbolli tizimlaridan biri hisoblanadi, chunki u talabalarning bilim imkoniyatlarini va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish tizimiga eng yaxshi moslashgandir. Modulli o'qitish, kasbiy ta'limning quyidagi zamonaviy masalalarini har tomonlama yechish imkoniyatini yaratadi.

- modul - faoliyatlik asosida o'qitish mazmunini optimallashtirish va tizimlash, dasturlarni o'zgaruvchanligi, moslashuvchanligini ta'minlaydi;

- o'qitishni individuallashtirish; - amaliy faoliyatga o'rgatish va kuzatiladigan xarakterlarni baholash darajasida o'qitish samaradorligini nazorat qilish;


- kasbga qiziqtirish asosida, faollashtirish, mustaqillik va o'qitish imkoniyatlarini to'la ro'yobga chiqarish.

Modulli o'qitish samaradorligi quyidagi omillarga bog'liq:

- ta'lim muassasasining moddiy-texnik bazasi;
- malakali professor-o'qituvchilar tarkibi darajasi;
- talabalar tayyorgarligi darajasiga;
- kutiladigan natijalar bahosiga;
- didaktik materiallarning ishlab chiqilishiga;
- modullar natijasi va tahliliga.

Modulli o'qitish texnologiyasini afzalligi shundaki, modulni o'rganish o'zlashtirish jarayonining asosini mustaqil bajariladigan ish-harakatlar tashkil qiladi, modulni o'rganish mobaynidagi ish-harakatlar talabalar tomonidan mustaqil ravishda rejalashtiriladi, amalga oshiriladi, tekshiriladi va baholanadi, ish harakatlar o'zida texnikaviy,

mehnat xavfsizligi, huquqiy, ekologik kabi masalalarni qamrab olishi kerak.



Keys stadi o'qitish texnologiyasi. Keys - ishlab chiqishda sodir bo'ladigan, aniq muammoli vaziyatning tavsilotidir. Keys - metod ishlab chiqarish (kasb - hunar kollejidagita'lim jarayoni) msalalarini mashg'ulotlarda tahlil qilish va hal qilish metodi bo'lib, u zamonaviy ta'lim usullari orasida muhim ahamiyatga egadir. Keys stadi - o'qitish texnologiyasining mohiyati shundan iboratki, unda ishtirokchilarga haqiqiy hayotiy vaziyat bo'yicha fikr yuritish taklif qilinib, bu vaziyat bayonida nafaqat amaliy masala ifodalanib qolmasdan, undagi muammoni yechish jarayonida o'zlashtirilishi zarur bo'lgan o'quv materialini ham ifodalanadi. Vaziyatning bunday usulidagi tahlili, talabning bo'lajak kasbiy faoliyati tajribasini oldindan egallashga ham kuchli ta'sir ko'rsatadi o'qishga nisbatan qiziqish va motivlarning vujudga kelishiga asos bo'lib hisoblanadi. Keys usuli pedagogik o'yin tavsifidagi ta'lim turi bo'lib, o'zida o'yinni ijro etish bilan birga, intellektual yuksalish va nazorat malakasini ham mujassamlantiradi. Vaziyatning qulay tanlanganligi - uni olinayotgan buyum bilan belgilanadi. Vaziyatlar haqqoniy va shartli, me'yordagi yoki shartli, me'yordagi yoki favqulotli, nazoratli yoki nazoratsiz, kritik tavsiyaga ega bo'lishi mumkin. Keys texnologiyasini qo'llash jarayonida talabalarni vaziyatni tahlil qilishga o'rgatish maqsadida, vaziyatni quyidagi tartibda bayon qilish mumkin:

Muammoli (muammoli shunday tarkib tuziladiki, u muammoli vaziyatlar majmuasini ajratishni talab qilib, ularning turlari, yechilish usullariga muvofiq holda tanlanadi);

- **Tizimli** (vaziyatlar tarkibining tavsiflari va vazifalarini aniqlash);
- **Sabab - oqibatli** (vaziyatni keltib chiqargan sabablarni aniqlash);
- **Tavsiyanomali** (vaziyatni hal qilishda ishtirok etuvchilar amal qilishi zarur bo'lgan tavsiyanomalar tayyorlash);
- **Dasturiy - maqsadli** (joriy vaziyatlar uchun tadbirlar dasturlarini ishlab chiqish);
- **Tashxisli** (vaziyatdagi faoliyat mazmunini tashxislash, uni modellashtirish va o'ta maqbullashtirish).

O'quv mashg'ulotlarida keyslarni hal qilish algoritmi quyidagicha:

➤ *Topshiriqni berish (topshiriqni bajarish muddatini belgilash. Keysning yechimini baholash tizimi bilan tanishtirish, darsning texnologik modelini aniqlash).*

➤ *O'qituvchining kirish so'zi. Asosiy savollarning qo'yilishi.*

➤ *Talabalarni 4 - 6 kishidan iborat mikroguruhlariga ajratish.*

➤ *talabalarining mikroguruhdagi faoliyatini tashkil qilish (mikroguruhlarni nomlash, yetakchilarni va ekspert guruhini aniqlash).*

➤ *Mikroguruhlardagi javoblar bilan tanishishni tashkil qilish.*

➤ *Mikroguruhlararo munozara (polilog)ni tashkil qilish.*

➤ *O'qituvchining umumlashtiruvchi so'zi, uning vaziyat yechimi to'g'risidagi fikri.*

➤ *Talabalarni ekspertlar tomonidan baholanishi.*

➤ *Talabalarining mashg'ulot haqidagi fikrlari.*

➤ *O'qituvchining umumlashtiruvchi so'zi. Mashg'ulot bo'yicha xulosalar chiqarish.*

Kreativ o'qitish texnologiyasi. Ta'lim tizimiga yangi kirib kelgan texnologiyalardan biri bu o'qitishning kreativ texnologiyasi bo'lib, talabaning ijodiy fikrlashini uzluksiz shakllantirib boruvchi va qobiliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan. Uning maqsadi - insonda ijodkorlikni uyg'otish va uning o'zida bor bo'lgan ijodiy imkoniyat (potensial)ni rivojlantirishdir. O'qitishning kreativ texnologiyasi bajarilganda shaxs ijodkorlik ob'ekti darajasidan ijodkor subektga o'tkaziladi, o'quv materialini o'zlashtirish fanidan biron ijodkorlik, yaratuvchanlik maqsadiga erishish vositasiga aylanadi. Kreativ texnologiya yangi kerakli bilim olish, yaratish va ishlab chiqarishga

qaratilgan. Bunda ta'lim oluvchi bilimlarni o'zining xususiy intellektual mahsulotini (kompyuter programmalarini, ixtirolar, tadqiqotlar va b.) o'qituvchi rahbarligida yaratish jarayonida oladi.

Rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyasi. Ta'lim oluvchilarning mustaqil va ijodiy faoliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan mashg'ulotlarni samarali tashkil etish o'quv jarayonining muhim omillaridan biri bo'lib hisoblanadi. Mustaqil va ijodiy ishlash jarayonida talabada mustaqil fikrlash qobiliyatining rivojlanishi natijasida, talabada jarayonlar va hodisalar, ob'ektlar haqida bilimlarni tizimlashtirish ularni chuqur o'rganish hamda tegishli qarorlar qabul qilish, nazariy bilimlarni amalda qo'llash ko'nikmalari shakllanadi. Zamonaviy ta'lim sharoitida talabada fikrlash va amaliy faoliyat orqali tahsil olish, tahlil qilish orqali ma'lumotni eslab qolish, mazmunini tushunish va amaliy faoliyatga bog'lash, amaliy mashqlar va tajribalar o'tkazib borish, mustaqil qaror qabul qilish, yangiliklar topish (izlanish) ko'nikmasiga ega bo'lishi kerak. O'qituvchi ta'lim jarayonida fanning o'quv maqsadlari va ahamiyatini tushuntira olishi, talabadalarni kasbga qiziqtirish va yo'naltirish, mustaqil ta'lim olishlarini tashkil etish, talabadalar bilim va ko'nikmalarini baholash bilan bir qatorda bilimlar manbaini ham baholab borishi, ya'ni doimiy izlanishlar olib borishni talab etadi. O'qituvchilar mustaqil ish topshiriqlarini bajarish bo'yicha talabada intilishlarini olqishlashi va to'g'ri yo'naltira olishlari lozim. talabada yakka xolda samaraliroq ishlaydimi; yoki bir necha kishidan iborat guruh bilan birgalikda ishlashni yoqtiradimi; yoki unga elektron darsliklardan foydalanish qulayroqmi buni o'qituvchi yaxshi bilishi kerak. Talabada topshiriqni o'zi anglashi va uni bajarishga harakat qilishi, o'qituvchi esa, o'z navbatida, talabadalarning mustaqil izlanish olib borish ko'nikmalarini, o'tilgan materiallarni yanada chuqurroq o'zlashtirish uchun qo'shimcha ma'lumotlarni izlab topish qobiliyatlarini rivojlantirishga undashlari lozim.

Kvest texnologiyasi

"Kvest" yoki "Sarguzasht o'yini" (transliteratsiya. Inglizcha Quest - qidiruv, Adventure - sarguzasht) - bu syujet bo'ylab oldinga siljish uchun ishtirokchidan ruhiy muammolarni hal qilishni talab qiladigan o'yinlarning asosiy janrlaridan biridir. Syujet oldindan belgilanishi yoki ko'plab natijalarni berishi mumkin, ularning tanlovi o'yinchining harakatlariga bog'liq. Kvest texnologiyasidan foydalanish ta'lim

samaradorligini oshiradi. Hayot shuni ko'rsatadiki, zamonaviy bolalar mustaqil ravishda yangi ma'lumotlarni olish va tizimlashtirish jarayonida bilimlarni yaxshiroq o'zlashtiradilar.

Kvestlardan foydalanish axborot jamiyati talablariga javob beradigan shaxsiy xususiyatlarni tarbiyalash va rivojlantirishga, qobiliyatlarni ochishga va bolalarning iqtidorini qo'llab-quvvatlashga yordam beradi. Ta'lim kvestlari loyiha faoliyatini o'z ichiga oladi.

Kvest - loyiha faoliyati, dizayn usuli va o'yin texnologiyasi sinteziga asoslangan, sarguzasht yoki o'yin bilan bog'liq doimiy, maqsadli qidiruvdir. U bo'lishi mumkin turli shakllar amalga oshirish:

O'quv veb-kvestlari; sarguzasht yoki o'yin kvestlari; "Jonli" kvestlar. Syujet elementlari bilan ta'lim va ta'lim maqsadlarini amalga oshiradigan muayyan muammoli vazifani bajarishga qaratilgan "jonli" kvestlar alohida qiziqish uyg'otadi. rol oy'namoq joylar, ob'ektlar, odamlar, ma'lumotlarni qidirish bilan bog'liq. Shu bilan birga, maqsadga erishish uchun harakat amalga oshirilayotgan hududning resurslaridan, axborot resurslaridan foydalanish mumkin. Sinfda kvest loyihalarini qo'llash muvaffaqiyatli. Kvest texnologiyasining afzalligi - faol o'qitish usullaridan foydalanish. Kvest - dars ham guruh, ham individual ish uchun mo'ljallangan bo'lishi mumkin. Bunday qidiruv loyihasi ustida ishlash jarayonida talaba real jarayonlarni tushunadi, muayyan vaziyatlarda yashaydi, hodisalarga chuqur kirib borish, yangi jarayonlar va ob'ektlarni qurishda ishtirok etadi. Axborot faoliyati nuqtai nazaridan, kvest loyihasi ustida ishlashda uning ishtirokchisi ma'lumotni qidirish, tahlil qilish ko'nikmalarini, taqqoslash asosida yangi ma'lumotlarni saqlash, uzatish, taqqoslash va sintez qilish qobiliyatini talab qiladi.¹

¹ <https://tltaudit.ru/uz/vitamins-minerals-amino-acids/kvest-igra---novaya-obrazovatel'naya-tehnologiya-sovremennye-problemy-nauki-i/>

Mulohaza uchun

Iymon bir muazzam saroy desak, uning ichiga kirmoq uchun yurib borish kerak, balki tikanzorni yalangoyoq bosib o'tishga to'g'ri kelar.

Kam ichding nima-yu, ko'p ichding nima, farqsiz, igna ham yo'g'on qoziqning uchi ham ko'zga kirar bo'lsa baribir ko'r qiladi.

(Tohir Malik)

Nazorat savollari

- 1.O'qitishning ananaviy va shaxsga yo'naltirgan texnologiyalari. 2.Muammoli va modulli o'qitish texnologiyalari va ularga tavsivlang
- 3.Hozirgi davrda o'qitishning deferensial va rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalari va ularni tadbiq etish yo'llari haqida ma'lumot bering
4. "Tarbiya" fanini o'qitish jarayoniga faol o'qitish va dasturlashtirilgan ta'limni tadbiq etish yo'llarini tushuntiring
5. .Muammoli o'qitish texnologiyalarini tavsiflang

Amaliy topshiriqlar**Mashq: «Men o'zimni yaxshi ko'raman»**

Hamma aylana bo'lib o'tiradi. Guruh ishtirokchilari o'z qadriyatlarini haqida gapiradilar. Masalan, «Men o'zimni yaxshi ko'raman, chunki mehribon bo'lganligim uchun».

Mashq: «So'zli avtoportret»

Ishtirokchilar qog'ozga o'zlari haqida anonim shaklda yozadilar. Ular oilalari, sinfi, do'stlarining fazilatlarini, xarakteri, xulq-atvori, o'qishdagi yutuqlari haqida yozishlari lozim. Varaqlar yig'ib olinadi va aralashtiriladi, so'ng har bir ilk o'spirin bitta varaqni tanlab oladi. Undagi ma'lumotlarni guruhga ma'lum qiladi. O'qiyotgan ishtirokchining vazifasi—so'z kim haqida borayotganini topish. Agar topolmasa, guruhni yordamga chaqiradi.

Mustaqil faoliyat

- 1.Zamonaviy o'zbek tarbiyashunosligida o'tmish va zamonaviylik transformatsiyasi haqida taqdimot tayyorlang
- 2.Tarbiyani insonparvarlashtirish. Shaxs erkinligi va tarbiya mavzusida referat tayyorlash

8-MAVZU: "TARBIYA" FANINI O'QITISHDA QO'LLANILADIGAN INTERFAOL METODLAR VA ULARNI TADBIQ ETISH YO'LLARI.



Tayanch tushunchalar: O'qitish, ananaviy, shaxs, texnologiya, ishchanlik o'yin texnologiyasi, kooperativ ta'lim texnologiyasi, Refleksiv texnologiya, Tanqidiy fikrlash, kvest texnologiyasi, Art-texnologiya, Muammoli, modulli tavsiv.keys stadi, dasturlashtirilgan ta'lim, interfaol metod.

Tarbiyani tug'ilgan kundan boshlamoq, vujudimizni quvvatlantirmoq, axloqimizni kuchlantirmoq, zehnimizni rivojlantirmoq lozim!
Abdulla Avloniy

8.1 O'qitishning interfaol metodlari va ularga tavsif.

Hozirgi pedagogik amaliyotida ta'lim metodlarning 200 dan ortiq turlari mavjudligi e'tirof etiladi. Ushbu ta'lim metodlarini ta'lim jarayoniga tatbiq etishda turli yondashuvlar va metodikalar mavjud. Ammo bugungi zamonaviy ta'lim sharoitida talabalarni ta'lim jarayonidagi faolligini oshirishga qaratilgan faol metodlarni qo'llashni talab etadi.

Shuni e'tiborga olish kerakki, faol metod tanlash nafaqat ta'lim maqsadiga, balki o'quv material mazmuniga ham bog'liq bo'ladi.


Ta'lim oluvchilarning o'quv-bilish va o'quv amaliy faoliyatlarini faollashtirishda ko'mak beruvchi ta'lim metodlarini tanlash muhim ahamiyat kasb etadi. Faol ta'lim metodlarni maqsadli yo'naltirilgan tanlash belgilangan o'quv maqsadga erishishni kafolatlaydi.

Har qanday ta'limning maqsadi – ta'lim oluvchilarda bilim, ko'nikmalari va malakalarini shakllantirishdan iboratdir. O'quv faoliyatida ta'lim maqsadning barcha jihatlari amalga oshar ekan, turli ta'lim metodlarni birgalikda qo'llash zarur. Shuning uchun, ta'lim metodini tanlashda eng asosiy omil bo'lib aniq o'quv mashg'ulotining didaktik vazifasi xizmat qiladi.

Hozirgi vaqtda ta'lim jarayonida o'qitishning zamonaviy metodlari keng qo'llanilmoqda. O'qitishning zamonaviy metodlarini


qo‘llash o‘qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Bu metodlarni har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq. An’anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda uni ta’lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan turli-tuman metodlar bilan boyitish ta’lim oluvchilarning o‘zlashtirish darajasi o‘shishga olib keladi. Interfaol metodlar deganda – ta’lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta’lim jarayonining markazida ta’lim oluvchi bo‘lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo‘llanilganda ta’lim beruvchi ta’lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta’lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi.

Ta’lim oluvchi markazda bo‘lgan yondashuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:



Shunday qilib, fanlarni o‘qitish jarayonida interfaol metodlardan foydalanish o‘ziga xos xususiyatga ega. Ta’lim amaliyotida foydalanilayotgan har bir interfaol metodni sinchiklab o‘rganish va amalda qo‘llash o‘quvchi-talabalarning fikrlashini kengaytiradi hamda muammoning to‘g‘ri yechimini topishlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. O‘quvchi-talabalarning ijodkorligini va faolligini oshiradi. Turli xil nazariy va amaliy muammolar interfaol metodlar orqali tahlil etilganda o‘quvchi-talabalarning bilim, ko‘nikma, malakalari kengayishi va chuqurlashishiga erishiladi. Yuqorida aytilganlardan interfaol ta’lim metodlarini tegishlicha tahlil qilish va shu asosda ularni tasniflash

zarurati ma'lum bo'ladi. Quyida ushbu masala yuzasidan umumiy mulohazalarni keltirib o'tamiz. Bu metodlarni tasniflashda ularni interfaol metodlar, interfaol ta'lim strategiyalari, interfaol grafik organayzerlarga ajratish mumkin. Hozirgi kunda eng ommaviy interfaol ta'lim metodlari quyidagilar sanaladi:



Interfaol metodlar “Zinama-zina”, “Muzyorar”, “Rotastiya”, “Yumaloqlangan qor” va boshqalar. Interfaol ta'lim metodlari tarkibidan interfaol ta'lim strategiyalarini ajratishda guruh ishini tashkil qilishga yondashuv ma'lum ma'noda strategic yondashuvga qiyoslanishiga asoslaniladi. Aslida bu strategiyalar ham ko'proq jihatdan interfaol ta'lim metodlariga tegishli bo'lib, ularning orasida boshqa farqlar yo'q.

Interfaol grafik organayzerlar:

- “Baliq skeleti”, “BBB”,
- “Konseptual jadval”, “Venn diagrammasi”,

Interfaol grafik organayzerlar:

- “T-jadval”, “Insert”, “Klaster”, “Nima uchun?”, “Qanday?” va boshqalar.

Interfaol grafik organayzerlarni ajratishda bunday mashg'ulotlarda asosiy fikrlar turli grafik shakllarda yozma ko'rinishda ifodalanishiga asoslaniladi. Aslida bu grafik organayzerlar bilan ishlash ham ko'proq jihatdan interfaol ta'lim metodlariga tegishli bo'lib,

ularning orasida boshqa farqlar yo'q. Interfaol ta'lim metodlarini ko'pincha turli shakllardagi o'quv mashg'ulotlari texnologiyalari bilan bir vaqtda qo'llanmoqda. Bu metodlarni qo'llash mashg'ulot ishtirokchilarining faolliklarini oshirib, ta'lim samaradorligini yaxshilashga xizmat qiladi. Interfaol metodlarni tanlashning navbatdagi mezonlari ularning ta'lim mazmuni xususiyatiga mos kelishidir.

Metod mazmuni harakatlanish qismi sifatida ham aniqlanadi. Shu boisdan bu mezonning hisobga olinishi shubhasiz. Bir metod yordamida mavzu mazmuni to'laroq ochib berilsa, boshqasi uni ijobiy o'zlashtirishga imkon tug'diradi. Interfaol metodlarning tanlashning yana bir mezonlari ularning talabalar o'quv imkoniyatlariga to'liq mos kelishi, ya'ni samarali o'quv faoliyati uchun ichki va tashqi shart-sharoitlarining birligini ta'minlashdir. Interfaol o'qitish metodlaridan foydalanishda pedagogning xususiy imkoniyatlariga mos kelishi lozim. Bu pedagogning o'qitish metodlari nazariyasi va amaliyoti bilan o'qitish jarayonining qonuniyatlari bilan bilish nazariyalari ta'lim mazmuni nazariyasi va boshqa mavjud qonunlar bilan qurollanganlik darajasini hisobga oladi. Interfaol metodlarni tanlash mezonlaridan keyingisilarning o'quv jarayonini tashkil etish shakllari bilan mos kelishidir. O'qitishning yalpi, guruhli va individual shakllari turlicha metodlarni talab etadi. Misol uchun debat metodi ikki talaba o'rtasidagi bahs hisoblansa, "aqliy hujumda" guruhdagi barcha talabalarning ishtiroki zarur bo'ladi. Interfaol metodlarning pedagogik texnologik prinsiplariga mos kelishi umumlashtiruvchi mezon hisoblanadi.

Bugungi kunda dunyoda turli xil zamonaviy pedagogik texnologiyal mavjud bo'lib, o'qitish jarayonida eng samaralisini tanlash birinchi navbatda dars beruvchi o'qituvchiga bog'liqligini yaqqol ko'rishimiz mumkin. Shunday ekan, o'qitishning interfaol usullarini tanlashda ta'lim maqsadi, ta'lim oluvchilarning soni va imkoniyatlari, o'quv muassasasining o'quv-moddiy sharoiti, ta'limning davomiyligi, o'qituvchining pedagogik mahorati va boshqa omillarni e'tiborga olgan holda tanlash ta'lim sifatini yanada oshirishga asos bo'lib xizmat qiladi.

8.2 O'quvchi yoshlarni ijodiy fikrlashga o'rgatuvchi interfaol metodlar va ularni qo'llash yo'llari.

Interfaol metod – ta'lim jarayonida o'quvchilar hamda o'qituvchi o'rtasidagi faollikni oshirish orqali o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat

qiladi. Interfaol metodlarni qo'llash dars samaradorligini oshirishga yordam beradi. Interfaol ta'limning asosiy mezonlari: norasmiy bahs-munozaralar o'tkazish, o'quv materialini erkin bayon etish va ifodalash imkoniyati, ma'ruzalar soni kamligi, lekin seminarlar soni ko'pligi, o'quvchilar tashabbus ko'rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi bo'lib ishlash uchun topshiriqlar berish, yozma ishlar bajarish va boshqa metodlardan iborat bo'lib, ular ta'lim-tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o'ziga xos ahamiyatga ega.

Hozirda ta'lim metodlarini takomillashtirish sohasidagi asosiy yo'nalishlardan biri interfaol ta'lim va tarbiya usullarini joriy qilishdan iborat. Barcha fan o'qituvchilari dars mashg'ulotlari jarayonida interfaol usullardan borgan sari kengroq foydalanmoqdalar.

Interfaol usullarni qo'llash natijasida o'quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o'z fikrini bayon qilish, uni asoslagan holda himoya qila bilish, sog'lom muloqot, munozara, bahs olib borish ko'nikmalari shakllanib, rivojlanib boradi.

Topshiriq metodining ijobiy tomoni shundaki, unda ta'lim oluvchilar uchun yakka holda emas, guruh bilan birgalikda o'tilgan materialni qayta ko'rib chiqib, esga tushirishlari uchun sharoit yaratiladi. Bunda ta'lim oluvchilar bilmagan yoki yoddan chiqargan bilimlarini bir-birlaridan o'rganadilar. Mustaqil bajarishga mo'ljallangan topshiriqlar o'quv semestri davomida ta'lim oluvchilar tomonidan amalga oshirilib borilsa, ta'lim oluvchilar materialni yodlariga tushirib, yakuniy nazoratlarni yaxshi topshirishlariga yordam beradi.

Ta'lim oluvchilarning mustaqil ishlashlarini rivojlantiruvchi yana bir samarali topshiriq turi – bu muammoli topshiriqlardir.

Muammolar echimi bo'yicha ishlash quyidagi tartibda bo'lishi mumkin.

1. Ta'lim oluvchilar guruhlarda ishlaydilar. Ularga umumiy echim, mustaqil qaror qabul qilishni talab etadigan muammoli matn yoki topshiriq beriladi.

2. Ta'lim oluvchilar muammo echimini muhokama qiladilar va birgalikda muammo echimi bo'yicha umumiy qarorga kelishga harakat qiladilar.

3. Keyin guruhlar bir-birlari bilan o'zaro fikr almashadilar.

Bunday turdagi topshiriqlar odatda qiziqarli muhokamalarga olib keladi, ta'lim oluvchilarning dunyoqarashi, mulohaza yuritish, o'z

fikri va yondashuvini isbotlash, qaror qabul qilish va umuman mustaqil ishlash ko'nikmalarini riqojlantiradi. O'qituvchi faqat topshiriq shartlari bilan tanishtiradi, qolgan ishlarni esa ta'lim oluvchilar o'zlari bajarishadi.

Bunday vazifalarni bajarish uchun ta'lim oluvchilar auditoriyadan tashqari mustaqil izlanishlarni talab etiladi va shu bilan kasbiy va amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga rag'batlantiriladi. Loyihaviy ishlar uchun mavzu va topshiriqlar hayotiy voqea, dalillar va namunalardan olinishi mumkin. Topshiriqlar turli shakllarda ishlab chiqarish va tashkil etilishi mumkin.

O'yin. Quvnoq va harakat talab qiladigan ma'lum qoidalarga ega topshiriq odatda o'yin uslubida bo'lib, jamoa bilan qaror qabul qilishni talab etadi.

Piramida . Bu topshiriqda ma'lum bir masala avval yakka holda, keyin juftliklarda, keyin kichik guruhlarda va so'ngra butun sinf bilan muhokama qilinadi.

DjigSo (Mozaika) . Bu topshiriqda turli guruhlarda bir matnning turli qismlari beriladi. Ular tegishli ma'lumot qismlari bilan bir-birlari bilan o'rtoqlashib, matnning umumiy mazmunini birgalikda chiqaradilar.

Muhokama guruhleri. Bu topshiriqda ta'lim oluvchilar kichik guruhlarda o'qituvchi bilan ishlash uchun tayyorgarlik ko'radilar. Bu uchun ma'ruzalarda ham qo'llanilishi mumkin.

Chog'ishma guruhlar. Bu topshiriqda guruh kichik guruhlarga bo'linib bir muammoni muhokama qiladi. Bir qancha fakt o'tgandan keyin turli guruh a'zolari o'rin almashishib, boshqa guruhlarga qo'shiladilar va muhokamani davom ettiradilar.

Aqliy hujum. Bu topshiriqning maqsadi iloji boricha ko'proq ijodiy fikrlarni yuzaga keltirishdir. Istalgan fikrlar qabul qilinadi. Yig'ilgan fikrlardan qay birini kelgusida ishlatishni butun guruh hal qiladi.

O'quv mashg'ulotni "Aqliy hujum" metodini qo'llab o'tishning ishlab chiqish qoidalari.

- *O'zaro baholash va tanqidga o'rin yo'q.*
- *Taklif etuvchi g'oyalar fantastik va g'aroyib bo'lsa, ham ularni baholashdan saqlang hammaning fikr bildirishiga ruxsat etiladi.*

- *Tanqid qilmang barcha bildiriluvchi fikrlar teng qimmatli.*
- *So'zga chiqqan kishining gapini bo'lmang!*
- *E'tirozlardan saqlang!*
- *Qancha ko'p fikr aytilsa, shuncha yaxshi yangi va qimmatli fikr paydo bo'lishi ehtimoli ko'proq.*
- *Fikrlar takrorlansa xafa bo'lmang va uyaltirmang!*
- *Tasavvur qilishga ruxsat bering!*
- *Bu muammo faqat ma'lum metodlar bilan hal etishi mumkin deb o'ylamang.*

Suqrot texnikasi. Ma'ruzalarda tez-tez ishlatiladigan metod unda o'qituvchi ta'lim oluvchilarni savol-javoblar orqali mo'ljallangan maqsad sari etaklaydi.

Yo'naltiruvchi matn metodi. Bu metod yordamida mustaqil o'rganish imkoniyati yaratiladi va har bir ta'lim oluvchi yangi ko'nikma uchun kerak bo'lgan bilimni olishi mumkin bo'ladi.

Yo'naltiruvchi matn metodi ta'lim oluvchilarga induvidial yondashish va mustaqil ishlash imkonini beradi. Bu metodda o'quv materialini o'rganish yoki mustaqil ish topshiriqlarini bajarish ta'lim oluvchi tomonidan quyidagi 6 bosqichda amalga oshiriladi.

1). Ma'lumot yig'ish. Bu bosqichda o'qituvchi ta'lim oluvchilarga kerakli barcha manbalarni va savollar va topshiriqlar varag'ini beradi. Ushbu varaqda ta'lim oluvchilarga ma'lumotlarni bosqichma-bosqich yig'ish tartibi savollar yoki topshiriqlar shaklida berilishi kerak.

Ta'lim oluvchilar o'zlariga berilgan ish topshirig'ini tahlil qilib, darsliklar, o'quv-uslubiy ko'rsatmalar, sxemalar va jadvallar, texnik hujjatlar asosida ish bosqichlari yoki kerakli jihozlar xaqida ma'lumot yig'adi. Buning uchun ular yo'naltiruvchi savollar yoki topshiriqlardan berilgan vazifa ta'rifi va o'quv maqsadlari haqidagi ma'lumotlardan foydalanishlari kerak.

2). Rejalashtirish. Bu bosqichda ta'lim oluvchilar mustaqil ravishda ish rejasini tuzishlari, ya'ni ish topshirig'ini hal qilishga qaratilgan o'zlarining bajaradigan ish bosqichlarini (masalan, ishlov berish jarayoni, material, jihozlar va yordamchi vositalar) rejalashtirishlari lozim. Ta'lim oluvchilar bu erda o'zlarining dastlabki nazariy bilimlariga tayanadilar va shaxsiy yozuvlaridan foydalaniladilar.

3). Qaror qabul qilish. Ta'lim oluvchilar o'qituvchi bilan birgalikda rejani amalga oshirish to'g'risida qaror qabul qilishadi. Agar

muammoni echishda turli echimlar yuzaga kelsa, u holda eng unumli echim tanlanadi. O'qituvchi doimo maslahatchi sifatida qatnashishi kerak.

4). Amalga oshirish. Bu bosqichda ish topshirig'ini tuzilgan rejaga muvofiq bajarishadi. O'qituvchi esa ularning ishini nazorat qilib turishi lozim.

5). Tekshirish. Ta'lim oluvchilar bajargan topshiriqlari natijalarini o'zlari tekshirib (masalan sifat ko'rsatkichlarini) "Baholash varag'iga" qayd qilishlari va bir-birlarining ishini tekshirishlari mumkin. O'qituvchi natijalarni "Xulosalar varag'iga" yozib qo'yadi.

6). Xulosa chiqarish. O'qituvchi ish jarayoni va natijalarni tahlil kilib yakuniy suhbat o'tkazadi va keyingi safar qaysi jihatlarda e'tibor berish kerakligini aytib o'tadi.

O'quv jarayonini bunday bosqichlarga bo'linishi ta'lim oluvchilarga mustaqil o'rganishga turtki beradi.

Videometod – axborotni ko'proq ko'rgazmali o'zlashtirishga asoslangan bo'lib, unda kineskop, kodoskop, proektor, kinoapparat, o'quv televideniesi, videomagnitafon, axborotni displeyda aks ettiruvchi kompyuterlardan foydalaniladi.

O'quv jarayonida videometoddan foydalanish, sizning ta'lim-tarbiyaviy vazifalarni unumli echishingizni ta'minlaydi:

➤ *yangi bilimlarni bayon etish, ya'ni juda sekin kechadigan jarayonlar bilan tanishish, bevosita kuzatish mumkin bo'lmagan (o'simliklar o'sishi, suyuqlikda diffuziya hodisasi va h.k.), shuningdek, tez sodir bo'ladigan jarayonlar, bevosita kuzatishlar hodisalarining mohiyatini ochib bera olmagan holda (qayishqoq tanalarning urilishi, moddalarning kristallanishi va h.k.) qo'llaniladi;*

➤ *murakkab mexanizmlar va mashinalarning ishlash tamoyillarini dinamikada tushuntirish;*

➤ *turli xil ish faoliyatini bajarish algoritmini tushuntirish;*

➤ *chet tili darolarida o'ziga xos til muhitini yaratish;*

➤ *videohujjatlarni taqdim etish;*

➤ *mashq qilish ishlarini bajarish, jarayonlarni modellashtirish, kerakli o'lchamlarni olib borish;*

➤ *o'quv-mashq va tadqiqot ishlarini olib borish uchun ma'lumotlar bazasini (bankini) yaratish.*¹

Raqamli hikoya "ommaviy axborot vositalaridan foydalanish nuqtai nazaridan boy hikoyalarni aytib berish,

Bu "qadimiy hikoya qilish san'atini raqamli media bilan almashish va saqlash uchun birlashtirish" deb ta'riflangan (Digital Storytelling Association [DSA], 2015). Asosan, raqamli hikoya qilish - bu ssenariy yoki asl hikoyani turli multimedia komponentlari, masalan, tasvirlar, videolar, musiqa va hikoyalar, ko'pincha muallifning ovozi bilan birlashtirgan qisqa metrajli film yaratish jarayoni (McLellan, 2007; Robin, 2008). Ushbu hikoyalar talabalar va o'qituvchilarga video, san'at, san'at, musiqa, hikoya va boshqalar kabi oddiy multimedia vositalaridan foydalanish imkonini beradi.

Bu ularga ovoz effektlarini birlashtirish va o'z hikoyalarini aytib berish imkoniyatini beradi. Raqamli

Hikoyalar videolar, harakatsiz tasvirlar, og'zaki yoki yozma bayonotlar, musiqalar birikmasidir. Bu qahramonlar, vaziyatlar, tajribalar va tushunchalar vaqti-vaqti bilan ishlatiladigan hikoyalar. Ular chuqur o'lchovni ta'minlaydi (Ohler, 2013). Hozirgi kunda kompyuterlardan foydalanish tarqalishi va oson tarkibni ishlab chiqish dasturi tufayli uni osongina raqamlashtirish mumkin. Raqamli hikoyaning audiovizual kuchi o'quvchilarning his-tuyg'ularini bosma darsliklardan ko'ra ko'proq jalb qiladi

8.3 O'qitishning tanqidiy fikrlash metodi va uni tarbiya fanini o'qitish jarayoniga tadbiiq etish.

Hozirgi globallashuv jarayonida tarbiya masalasi eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Tarbiya jarayonida tanqidiy fikrlash metodi qo'llash va uni tarbiya fanini o'qitish jarayoniga tadbiiq etishga doir interfaol metodlar mavjud jumladan:

«**Muammo**» **texnologiyasi**. **Texnologiyaning** maqsadi: talaba (yoki o'quvchi)larga o'quv predmetining mavzusidan kelib chiqqan turli muammoli masala yoki vaziyatlarning echimini to'g'ri topishlariga o'rgatish, ularda muammoning mohiyatini aniqdash bo'yicha malakalarni shakllantirish, muammoni echishning ba'zi

¹ P.f.d., prof. Q.T.Olimov ,P.f.n., D.F.Jalolova,T.f.n.,dots. B.B.Toirov TA'LIM METODLARI Malaka oshirish kurslari tinglovchilar uchun metodik qo'llanma Buxoro – 2011

usullari bilan tanishtirish va muammoni echimda mos uslublarni to'g'ri tanlashga o'rgatish, muammoni kelib chiqish sabablarini va muammoni echishdagi xatti-harakatlarni to'g'ri aniqlashga o'rgatish.

Mashg'ulotni o'tkazish tartibi:

O'qituvchi talaba (yoki o'quvchi)larni guruhlarga ajratib, ularni mos o'rinlariga joylashtirgandan so'ng, mashg'ulotni o'tkazish tartib-qoidalari va talablarini tushuntiradi, ya'ni u mashg'ulotni bosqichli bo'lishini va har bir bosqich talaba (yoki o'quvchi)lardan maksimum diqqat-e'tibor talab kilishini, mashg'ulot davomida ular yakka, guruh va jamoa bulib ishlashlarini aytadi. Bunday kayfiyat talaba (yoki o'quvchi)larga berilgan topshiriqdarni bajarishga tayyor bo'lishlariga yordam beradi va bajarishga qiziqish uygotadi. Mashg'ulotni o'tkazish tartib-qoidalari va talablari tushuntirilgach, mashg'ulot boshlanadi:

➤ *har bir guruh a'zolari tomonidan ushbu lavxdddan (matndan, xayotiy voqeadan) birgalikda aniqlangan muammolarni vatman yoki A-3 formatdagi qog'ozga flomaster bilan yozib chiqadi;*

➤ *berilgan aniq vaqt tugagach, tayyorlangan ishni guruh vakili tomonidan o'qib eshittiriladi;*

➤ *o'qituvchi guruhlardan tomonidan tanlangan va muammolar yozilgan qog'ozlarni almashtirgan holda guruhlarga tarqatiladi;*

➤ *tarqatilgan qog'ozlarda guruhlardan tomonidan yozilgan muammolardan har bir guruh azosi o'zini qiziqtirgan muammodan birini tanlab oladi;*

➤ *o'qituvchi tomonidan tarqatilgan quyidagi chizmaga har bir guruh azosi tanlab olgan muammosini yozib, mustaqil ravishda tahlil etadi.*

➤ *yakka tartibdagi faoliyat tugagandan so'ng har bir talaba (yoki o'quvchi) bajargan tahliliy ishini barchata o'qib eshittiradi;*

➤ *muammolar va ularning echimi bo'yicha jamoaviy fikr almashiladi;*

➤ *hamoyadan so'ng o'qituvchi mashg'ulotga yakun yasaydi. Kichik guruhlarga qiziqarli ishlari uchun minnatdorchilik bildiradi.*

Bunday texnologiya bilan o'tqazilgan mashg'ulot natijasida talaba (yoki o'quvchi)lar qaysidir muammoni echishdan avval uning sababini aniqlanishi kerakligini, keyin esa ularga zarur bulgan uslub va usullarni tanlashi hamda o'z harakatlarini aniq belgilab olishlari kerakligini bilib oladilar.

«Labirint» texnologiyasi

Texnologiyaning maqsadi: talaba (yoki o'quvchi)larning o'quv va xayotiy faoliyatlarida uchraydigan turli holat va vaziyatlardan o'z obro'larini saqlagan holda chiqish, vaziyatni to'g'ri baholash va tezlik bilan kerakli echimini topish ko'nikmalarini shakllantirish, shu boradagi malakalarini oshirishga ko'maklashish, ularning fikrlash qobiliyati va nutqiy faoliyatini o'stirish hamda muloqot kilish madaniyatini shakllantirish.

Mashg'ulotni o'tkazish tartibi: o'qituvchi mashg'ulot boshlanishi oldidan talaba (yoki o'quvchi)lar uchun stullardan doira shaklida joy tayyorlaydi (doyra shaklidagi joyning urtasiga savat (yoki tuvak)dagi guldastani kuyish maqsadga muvofiq. Joyni bunday jihozlanishi mashg'ulotni qiziqarli va jonli o'tishiga yordam beradi. Imkon bo'lsa, bunday mashg'ulotni ochiq havoda, yani tabiat qo'ynida o'tqazilsa, u holda talaba (yoki o'quvchi)lar yashil maysalar ustida doira shaklida bemalol joylashib olsalar ham bo'ladi.

O'qituvchi mashg'ulot boshlanishi bilan talaba (yoki o'quvchi)larni shu davradan joy egallashlarini so'raydi.

So'ngra talaba (yoki o'quvchi)larning faoliyati rang-barang va hamisha xar turli qiziq voqealar, hodisalar, vaziyatlarga boy ekanligi haqidagi qisqacha suhbat bilan mashg'ulotni boshlaydi. Misol tariqasida o'qituvchi, talaba (yoki o'quvchi)lar faoliyatida uchragan yoki uchraydigan vaziyatlardan biri to'g'risida gapirib beradi va shu vaziyatdan chiqish yulini so'raydi (yoki o'qituvchi vaziyatni aytib, uning uchta echimini ham aytadi va talaba (yoki o'quvchi)lardan uchta to'g'ri variantdan bittasini tanlashlarini va nima uchun shu variantni tanlaganliklarini tushuntirib berishlarini so'raydi. Shundan sung o'qituvchi talaba (yoki o'quvchi)larni xoxishlariga ko'ra, uch kishidan iborat kichik guruhlariga ajratadi va ularga har bir kichik guruh azolari o'z ish tajribalaridan kelib chiqqan holda, o'quv va tarbiyaviy jarayonlarda o'qituvchi va talaba (yoki o'quvchi)lar faoliyatida uchraydigan yoki uchragan biron-bir muammoli vaziyatlarni eslashlari, ulardan eng qiziqarli, eng muammolisini tanlab, ularning echimini (vaziyat, muammoning echimi uch variantdan test yoki aniq bir javobdan iborat bo'lishi mumkin) ham topib qo'yish topshirigini beradi.

«Blits-so'rov» usuli

Usulning tavsifi. Ushbu usul talaba (yoki o'quvchi)larni harakatlar ketma-ketligini to'g'ri tashkil etishga, mantiqiy fikrlashga, o'rganayotgan predmeti asosida xilma-xil fikrlar, malumotlar ichidan kerakligini tanlab olishni, shu bilan bir qatorda, o'z g'alar fikrini hurmat qilish va ularga o'z fikrini o'tkaza olish hamda o'z faoliyati, kunini rejalashtira olishni o'rgatishga qaratilgan.

Mulohaza uchun

Insonning eng ulkan jangi o'zi bilan kechadi. Biz har daqiqa o'zimiz bilan kurashamiz – g'azabni tiyish, ortiqcha xursandchilikka berilmaslik zarur. Ammo doim ham buning uddasidan chiqa olmaymiz. G'azab – inson hayotiga va salomatligiga zarar yetkazadigan, baxtsizlikka olib keladigan eng xavfli hissiyot. G'azab oqibatida qon bosimi, yurak-qon tomir kasalliklari va ovqat hazm qilish bilan bog'liq kasalliklar paydo bo'ladi. Psixologlarning aniqlashicha, g'azabni jilovlash insonning baxtiyorligini va o'ziga bo'lgan ishonchini oshirar ekan. Odamlar bizning aytgan so'zlarimizni unutadilar, odamlar bizning ularga qilgan harakatlarimizni unutadilar, ammo odamlar biz ularga bergan hislarimizni unutmaydilar. Har kuni ijobiy hissiyot bilan yashash juda muhim. Muammolar haqida jar solish emas, ulardan xalos bo'lish yo'lini topish – donolik. Yon-atrofga qarang, muvaffaqiyatsizlikka uchrab, ammo bo'sh kelmay baxtini, omadini topayotgan insonlar juda ko'p. Ular o'z hissiyotlarini boshqara oladigan insonlardir.

Nazorat savollari

1. Ta'limda innovatsiya, uning mohiyatini yoriting
2. Ta'limda innovatsiyalarning nazariy asoslari va turlarini tushuntiring
3. Ta'lim novatsiyalari va ta'lim texnologiyalarini tavsiflang
4. "Tarbiya" fanini o'qitishda qo'llaniladigan innovatsion ta'lim texnologiyalari haqida ma'lumot bering
5. "Tarbiya" fanini o'qitish jarayoniga qo'llanadigan innovatsion vositalar qaysilar

Mustaqil faoliyat

1. Umumta'lim maktablarida to'garaklarni Prezidentimizning "Besh muhim tashabbus" asosida samarali tashkil etish mavzusida referat tayyorlash.
2. Tarbiya fanini interaktiv o'qitish metodlaridan foydalanish yo'llari haqida referat tayyorlang
3. Tarbiya fanini o'qitish jarayonini loyihalash va rejalashtirish mavzusida loyiha tayyorlang

Amaliy topshiriqlar**Mashq: «Assalomu alaykum»**

Ishtirokchilar xona bo'ylab erkin harakatlanadilar, bir-birlari bilan holahvol so'rashadilar. Ularning biri o'ng qo'lini uzatadi, chap qo'li bilan salomlashayotgan ishtirokchisini qutlaydi.

Mashq: «O'rtaga vakil»

Tener ishtirokchilarga 5 minut vaqt ajratadi, bu vaqtda guruh a'zolari guruh vakiliga xos sifatlarni o'ylab chiqishlari lozim. So'ngra uch guruhga ajralib, vatman varag'i olib, «Bizning guruhimiz vakilining portreti» chiziladi.

Munozara va rolli o'yin

Birinchi guruh uchun muhokama vaziyati: Men javobgarlikdan toliqdim. Nima qilish kerak?

Ikkinchi guruh uchun muhokama vaziyati: Men shoshdim, boshqalar kuldi.

Uchinchi guruh uchun muhokama vaziyati: Men o'zimni majburladim va nimadir bo'ldi.

Xayrlashuv rituali.

Trener mashg'ulot yakunlanganligini e'lon qiladi va ishtirokchilar

9-MAVZU: "TARBIYA" FANINI O'QITISHDA INNOVATSION TEKNOLOGIYALAR VA ULARNING MAZMUN MOHIYATI.



Tayanch tushunchalar: Innovatsiya, ta'lim-tarbiya, texnologiya, "yangilik kiritish", gender pedagogikasi, evristik pedagogika, majburiy pedagogika, androgogik pedagogika

***Innovatsiya - bu g'olib bo'lishning yagona yo'lidir.
Innovation is the only way to win.
(Stiv Jobs)***

9.1 Ta'limda innovatsiya, uning mohiyati, nazariy asoslari va turlari.

Mustaqillik sharoitida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy islohotlar jamiyat hayotining barcha sohalari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining jahon hamjamiyati mamlakatlari bilan integratsiyalashuviga imkoniyat yaratdi. Ta'lim sohasidagi islohotlarning mazmunida yosh avlodga ilmiy bilimlarni berish, ularda keng dunyoqarashni shakllantirish va ma'naviy-axloqiy sifatlarni tarbiyalashga nisbatan yangi talablarning belgilanganligi pedagogik faoliyatni tashkil etishga nisbatan innovatsion yondashuvni qaror toptirish zarurligini ko'rsatmoqda. O'rta maxsus kasb –hunar ta'limining barcha bosqichlarida ta'lim va ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishda yuqori samaradorlikka erishish shartlaridan biri – bu ta'lim muassasalari faoliyatini tashkiliy-texnologik jihatdan to'g'ri va samarali boshqarilishi sanaladi. SHu sababli mustaqillik yillarida ijtimoiy talablar mohiyatidan kelib chiqqan holda ta'lim muassasalari faoliyatini samarali boshqarish masalasi dolzarblik kasb etish bilan birga, ilmiy izlanishlarning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida kun tartibiga qo'yildi.

Innovatsiya – (inglizcha "Innovation" – yangilik kiritish) – tizim ichki tuzilishini o'zgartirish, amaliyot va nazariyaning muhim qismi. Innovatsion jarayonning mazmuniy tomonini o'z ichiga oladi (ilmiy g'oyalar va ularning texnologiyalarini amaliyotga kiritish)³.

Pedagogik yangilik – pedagogik faoliyatda ilgari ta'lim jarayonida noma'lum bo'lgan o'zgarishlarni kiritish orqali ta'lim va tarbiyaning nazariya va amaliyotini boyitish va uni rivojlantiruvchi vositasidir.

Innovatsiya – yangilikni yaratilish qonuniyatlarini o'zlashtirishni va targ'ibotini o'rganadigan fan.

Innovatsion jarayon – yangilikning kiritilishi va shart – sharoitlari, tizimni yangi ko'rsatgichlarga muvaffaqiyatli o'tishini ta'minlovchi o'zgarishdir. Innovatsion o'zgarishlarga tayyorgarlik ko'rish va uni amaliyotga kiritish jarayonidir.



Innovatsion faoliyat – yangi ijtimoiy talablar bilan an'anaviy me'yorlarning mos kelmasligi yoxud amaliyotning yangi shakllanayotgan me'yorlarining mavjud me'yorlar bilan to'qnashuvi natijasida vujudga kelgan majmual muammolarni yechishga qaratilgan faoliyatdir (V.I.Slobotchikov).

O'qituvchi innovatsion faoliyatining eng muhim va markaziy masalasi o'quv jarayonini sifatli va samarali tashkil etishdan iborat. Bu faoliyat shaxsan o'qituvchini o'zigagina taaluqli bo'lib qolmay, bir qator shaxs, guruh, omma, institutsion masshtabda ham bo'lishi mumkin.

Yangilikni kiritish:

- Innovatsiyadan foydalanish mexanizmi (yangilikni va uning jarayonini amaliyotga kiritish);

- Maqsadli o'zgartirish bo'lib, ma'lum sotsial – ijtimoiy birlik (muassasa, jamoa, guruh)ga yangilik kiritish, uni yangi stabil rivojiga olib keladi (A.I.Prigojin).

Innovatsiyaning maqsadi – sarflanayotgan mablag' va kuchdan eng yuqori va sifatli natija olishdan iborat. Innovatsiya – boshqariluvchi va nazorat qilinuvchi o'zgarishlar mexanizmini tashkil etadi.


Innovatsion muhit – bu pedagogik jamoada, umuman ta'lim muassasasida shunday ijodiy, samimiy, do'stona sharoit tug'diradiki, unda o'qituvchi o'zini erkin his qiladi, jamoada ichki intilish, moddiy, ma'naviy qiziqish yuqori darajada bo'ladi. U muhitda o'qituvchi ijodiy fikr yuritishga, ishlashga tayyor bo'ladi.

Innovatsion jarayon – innovatikaning kalitli tushunchasidir.

Innovatsion jarayon – yangilayotgan o'zgarishlarga (yangiliklarga) tayorgarlik ko'rish va uni amaliyotga tatbiq etishni anglatadi.

Umuman “yangilik” kiritishni “innovatsiya”ning sinonimi deb qabul qilish mumkin.

Ta'limdagi innovatsion jarayonlarni asosiy uchta aspektda ko'rib chiqish mumkin:



Yuqorida keltirilgan aspektlar asosida innovatsion jarayonning borishi sharoitlarga bog'langan holda kechadi. Vujudga kelgan sharoit innovatsion jarayonga to'sqinlik qilishi yoki yangilikni tatbiq etishga olib kelishi mumkin.

Innovatsion jarayon stixiyali yoki oldindan puxta o'ylangan reja asosida ketishi mumkin. Shunga ko'ra boshqaruv jarayoni yoki sekinlashishi yoki jadallashishi kuzatiladi.

Innovatsion jarayonni tashkil etuvchi yangilik yaratish, o'zlashtirish, yangilikni qo'llash – hamkorlikda innovatika ob'ekti hisoblanadi. Pedagogik didaktikada esa o'qish jarayoni ilmiy tadqiqot ob'ekti bo'lib hisoblanadi. Ana shu bilan ular bir – biridan farqlanadi.

Innovatsion faoliyat – ta'limning u yoki bu bosqichida innovatsion jarayonni amalga oshirishga yordam beruvchi kompleks choralar bo'lib, u jarayon ichida kechadi.

Innovatsion faoliyatning asosiy funksiyasi pedagogik jarayonni komponentlarini, ya'ni ma'no, maqsad, ta'lim mazmuni, shakli, metodi, texnologiyasi, ta'lim vositalari, uni boshqaruvlarini o'zgartirishdan iborat.


Innovatsion jarayonning ba'zi yangiliklari lokal tadqiqotlar o'tkazish va tajriba – sinovlar orqali tatbiq qilishdan farqlash kerak. Shunday qilib biror g'oyani yangilik darajasida yaratib, faoliyatga olib kirib, u jarayonni boshqarib borish mumkin bo'lsa, innovatsion faoliyat hisoblanadi.

Innovatsion muhit – pedagogik yangilikning vujudga kelishi, ularning jadal o'zlashtirilishi va amaliyotga tatbiq etilishi.

Innovatsion pedagogik loyiha – qabul qilingan va qismlarga ajratilgan innovatsion pedagogik g'oya, fikrlar majmuidir.

Innovatsion pedagogik reja – tasdiqlangan innovatsion o'quv loyihasi.

Innovatsion pedagogik g'oya – tizimlashtirilgan pedagogik g'oyalari. O'quv jarayoni bashorat etilishi, ma'lumotlar to'plami.



Innovatsion ta'lim muassasasi – yangi tipdagi ta'lim muassasalari: akademik litseylar, maktabgacha ta'lim kompleksi, shaxsiy maktabgacha ta'lim muassasalari, ixtisoslashgan sinf va maktablar, gimnaziya, turli yo'nalishli, predmetlari chuqur o'rgatiladigan maktablar va h.k.

Innovatsion texnologiya – pedagogik taraqqiyotni ta'minlashga qaratilgan tashkiliy faollik jarayoni (faollik, didaktik o'yinlar, everestik, kreativ, muammoli, loyihalashtirilgan, AKT texnologiyalari).

Innovatsion o'qitish –

1) yangicha o'qitish tizimi,

2) o'quvchi va talabalarni yangi kiritilgan texnologiyalar asosida o'qitish jarayoni (algoritmash, loyihali, modulli va b.)

“O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi”da ko'rsatilishicha, innovatsiya quyidagicha mazmun va tushunchalarga ega: “Innovatsiya (ingl. “innovationas” – kiritilgan yangilik, ixtiro)

1) texnika va texnologiya avlodlarini almashtirishni ta'minlash uchun iqtisodiyotga sarflangan ablag'lar;

2) ilmiy-texnika yutuqlari va ilg'or tajribalarga asoslangan texnika, texnologiya, boshqarish va mehnatni tashkil etish kabi sohalardagi yangiliklar, shuningdek, ularning turli sohalar va faoliyat doiralarida qo'llanishi".

O'quv – tarbiya jarayonida innovatsion texnologiyalarning to'g'ri joriy etilishi o'qituvchining bu jaroyonda asosiy tashkilotchi yoki maslahatchi sifatida faoliyat yuritishiga olib keladi. Bu esa, o'quvchidan ko'proq mustaqillikni, ijodni va irodaviy sifatlarni talab etadi. Innovatsion faoliyatni tashkil qilishda o'qituvchi quyidagilarni yodda saqlashi lozim.

K.D.Ushinskiy fikriga ko'ra, pedagogikada malaka emas, balki malakadan hosil bo'lgan fikr yetkaziladi. "Begona" malakani pedagog "o'zidan o'tkazib", shaxsiy va kasbiy rivojlanish darajasiga mos o'z metodini ishlab chiqishi lozim. Innovatsion fikrlar inson va jamiyatning real ta'lim ehtiyojlariga mos, ishonchli va adekvat bo'lishi kerak, ular aniq maqsad, vazifa va texnologiyalarga ko'chgan bo'lishi lozim. Innovatsiya pedagogik jamoa barcha a'zolarining aql va ashyolarini qamrab olishi lozim, innovatsion faoliyat ma'naviy va moddiy rag'batlantirilishi lozim, innovatsion faoliyatning huquqiy ta'minoti muhimdir. Pedagogik faoliyatda nafaqat natija, balki usul, ashyo, unga erishish metodlari ham muhim ahamiyatga egadir.

Hozirgi kunda sodir bo'layotgan innovatsion jarayonlarda ta'lim tizimi oldidagi muammolarni hal etish uchun yangi axborotni o'zgartirish va o'zlashtirilgan bilimlarni o'zlari tomonidan baholashga qodir, zarur qarorlar qabul qiluvchi, mustaqil va erkin fikrlaydigan shaxslar kerak. Shuning uchun ham, ta'lim muassasalarining o'quv tarbiyaviy jarayonida zamonaviy o'qitish usullari – interfaol usullar va innovatsion texnologiyalarning o'rni va ahamiyati beqiyosdir.

Ta'lim jarayonida o'quvchi-talaba asosiy figuraga aylanadi. Shuning uchun oliy o'quv yurtlari va fakultetlarida malakali kasb egalarini tayyorlashda zamonaviy o'qitish metodlari - interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalarning o'rni va roli benihoya kattadir. Pedagogik texnologiya va pedagog mahoratiga oid bilim,

tajriba va interaktiv metodlar o'quvchi-talabalarning bilimli, yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

Hozirgi davr ta'lim taraqqiyoti yangi yo'nalish - innovatsion faoliyatni maydonga olib chiqdi. Axborot - yuksak rivojlangan texnologiyalar asri deb yuritilayotgan XXI asrga kelib, ta'lim jarayoniga innovatsiyani keng joriy qilish masalasiga e'tibor yanada kuchaytirildi. O'zbekistonda ham so'nggi yillarda innovatsiya boshqa sohalarga qaraganda birinchilardan bo'lib ta'lim tizimiga kirib keldi va innovatsiyani ta'lim jarayonida qanday o'z aksini topganligini quyidagilarda ko'rishimiz mumkin.


Pedagogik fanlar tizimiga innovatsiyaning kirib kelishini pedagogika fanlari tarkibiga quyidagilar bilan belgilandi.



O'qitish metodlariga innovatsiya aktiv, passiv va interaktiv metodlarining kirib kelishi misolida ko'ramiz. Aktiv metodni qo'llash talabalarni dars jarayonidagi faolligini oshirishga xizmat qilsa, passiv metod talabalarni bir tomonlama tushuncha berilishi bilan izohlanadi. Interaktiv metod esa birgalikda faol harakat qilishi (o'qituvchi bilan talaba, talaba bilan talaba) tushuniladi.

Dars shakliga innovatsiyani kirib kelishini standart, nostandart hamda vertual dars shakllari misolida ko'rishimiz mumkin. O'qitish turlaridagi innovatsiyani muammoli ta'lim, evristik ta'lim, darajalangan ta'lim, integratsiyalangan ta'lim, interfaol ta'lim, informal ta'lim, rasmiy ta'lim, norasmiy ta'lim turlari mavjud.

O'qitish vositalariga innovatsiyani kirib kelishini dars jarayonida multimedia, elektron doskalar va boshqa vositalarni misol qilish mumkin. O'qitish metodlaridagi innovatsiyani quyidagi metodlarda ko'rishimiz mumkin.



Dars shaklidagi innovatsiyani quyidagi shaklda ko'rishimiz mumkin.

- a) Standart dars – dars ichidagi struktura o'zgar olmaydi.
- b) Nostandart dars – dars ichidagi struktura o'zgaradi.
- v) Vertual dars – ya'ni masofadan o'qitish.

Pedagogik innovatsiyada “yangi” tushunchasi markaziy o'rin tutadi. Shuningdek, pedagogik fanda xususiy, shartli, mahalliy va sub'ektiv yangilikka qiziqish uyg'otadi. Xususiy yangilik V.A.Slasteninning aniqlashicha, joriy zamonaviylashtirishda muayyan tizim mahsuloti unsurlaridan birini yangilashni ko'zda tutadi. Murakkab va progressiv yangilanishga olib keluvchi ma'lum unsurlarning yig'indisi shartli yangilik hisoblanadi. Yangilik - bu vositadir: yangi metod, metodika, texnologiya va boshqalar.

V.I. Zagvyazinskiy yangi tushunchasiga ta'rif berib, pedagogikadagi yangi bu faqatgina g'oya emas, balki hali foydalanilmagan yondashuvlar, metodlar, texnologiyalardir, lekin bu pedagogik jarayonning unsurlari majmuan yoki alohida olingan unsurlari bo'lib, o'zgarib turuvchi sharoitda va vaziyatda ta'lim va tarbiya vazifalarini samarali hal etishning ilg'or boshlanmalarini o'zida aks ettiradi. Pedagogik innovatsiyalar - bu maqsadlarga samarali erishishga yordam beradigan ta'lim sohasidagi yangiliklarni ishlab chiqish, joriy etish, sinovdan o'tkazish va baholash jarayoni. Ular orasida: ta'lim jarayoni vaqt o'tishi bilan o'zgaradi, mehnat bozori

bo'lajak xodimlarga yangi talablarni qo'yadi va o'qitish o'zgartiriladi, yangi maqsadlarga moslashtiriladi, bunga erishish uchun yangi pedagogik usullar, uslublar va usullar zarur.

Ta'limdagi innovatsiyalar quyidagi maqsadlarga erishishga yordam beradi:

Ta'lim jarayonini insonparvarlashtirish, demokratlashtirish;

Talabalarning kognitiv faolligini faollashtirish;

Ta'lim va tarbiya ishlarini tashkil etish samaradorligini oshirish;

O'quv materialining metodika va didaktika nuqtai nazaridan o'zgartirishlari. Ta'limga yondashuv - bu yangi texnologiyalar uchun asos bo'lgan asosiy tamoyil, talablar va maqsadlar to'plami. Zamonaviy ta'limning talabi o'quvchilarga imkon qadar ko'proq bilim berish emas, balki ularni o'z-o'zidan o'rganishga, nafaqat bilishga, balki olingan ma'lumotlar bilan ishlay olishga o'rgatishdir. Pedagogik innovatsiyalar ikkita asosiy yondashuvga asoslanadi:

Talabaga yo'naltirilgan yondashuv o'quv jarayonini har bir talaba shaxsiga yo'naltirishni nazarda tutadi. Zamonaviy pedagogika har bir o'quvchining o'ziga xos tajribasi va xarakterini hisobga olishi, uning individualligi va iste'dodini rivojlantirishi kerak. Ushbu yondashuvni amalga oshirish tanlov tamoyillariga tayanishni o'z ichiga oladi (talabalar o'zlari xohlagan sohalarni tanlashlari mumkin), ishonch (o'qituvchilar tomonidan avtoritar bosimning yo'qligi), ijodkorlik va muvaffaqiyat, sub'ektivlik, individuallik.

9.2 Ta'lim innovatsiyalari va ta'lim texnologiyalari.

Oliy va o'rta ta'lim tizimining rivojlanishi pedagogika fani va amaliyotidan bolalar va yoshlarni o'qitishning zamonaviy texnologiyalari va yangi uslublarini o'rganish va joriy etishni taqozo etadi. Innovatsiyaning asosiy xususiyati o'qituvchining kasbiy faoliyatining umumiy darajasiga ta'sir qilish va ta'lim muassasasi va mintaqada innovatsion ta'lim imkoniyatlarini kengaytirish qobiliyatidir. Ta'limdagi innovatsiyalar - ta'lim amaliyotiga yangi g'oyalar, vositalar, pedagogik va boshqaruv texnologiyalarini yaratish, joriy etish va tarqatish jarayoni bo'lib, buning natijasida ta'limning tarkibiy qismlarining yutuq ko'rsatkichlari oshadi va tizim sifat jihatidan boshqacha holatga o'tadi. Ko'rinib turibdiki, bolalar va yoshlarni tarbiyalash, tarbiyalash, kamol toptirish muammolarini faqat ta'lim tizimini ilmiy asoslarga asoslangan holda muntazam takomillashtirish,

o'qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirish, ularning malakasini oshirish, zamonaviy yondashuvlarni o'zgartirish orqaligina muvaffaqiyatli hal etish mumkin. pedagogik jarayonni tashkil etish. Ta'limning asosiy vazifasi - inson rivojlanishi. Ta'lim o'qiyotgan har bir kishiga rivojlanish va hayotga tayyorgarlik ko'rish uchun quyidagi shart-sharoitlarni olish uchun keng imkoniyatlar yaratishi kerak: inson, tabiat va jamiyat haqidagi bilimlar, dunyoqarash va tanlashda yo'nalishning asosi sifatida dunyoning ilmiy manzarasini shakllantirishga hissa qo'shishi kerak. kelajakdagi amaliy faoliyat sohasi; kommunikativ, aqliy, hissiy, jismoniy, mehnat faoliyati tajribasi, kundalik hayotda zarur bo'lgan asosiy intellektual, mehnat, tashkilotchilik qobiliyatlari va qobiliyatlarini shakllantirishni ta'minlaydi. Ta'lim tizimi samaradorligini oshirish yo'llaridan biri innovatsiyalarni amaliyotga joriy etishdir. Ta'lim sohasiga innovatsiyalarni joriy etish mazmuni, usullari, vositalari, pedagogik texnologiyalarni bosqichma-bosqich yangilash va takomillashtirishni nazarda tutuvchi murakkab jarayon bo'lib, bu, albatta, pedagogik jarayonning sifatiga ta'sir qiladi. Innovatsiyalarni tizimlashtirish K.Anjelovskix, N.V.Gorbunova, A.V.Lorensov, M.M.Potashnik, N.R.Yusufbekov va boshqalarning ishlarida taklif qilingan. Pedagogik innovatsiya muammolari tadqiqotchilari (A.Arlamov, M. Burgin, I.M.Dichkivskaya, I.M.Dichkivskaya). V.Juravlev, V. Zagvyazinskiy, E. F. Zeer, N. R. Yusufbekova, A. Nikols va boshqalar) pedagogikadagi yangilik tushunchalarini foydali, progressiv, ijobiy, zamonaviy, rivojlangan. Pedagogik jarayon kontekstidagi innovatsiya deganda o'qitish va tarbiyalashning mazmuni, usullari va shakllariga yangi narsalarni kiritish, o'qituvchi va talabaning birgalikdagi faoliyatini tashkil etish tushuniladi [3, 13, 9]. O'qitishdagi innovatsiyalar deganda o'qitishning yangi usullari, darslarni tashkil etishning yangi usullari, ta'limni tashkil etishdagi yangiliklar, ta'lim natijalarini baholash usullari tushuniladi. Masalan, ixtisoslashtirilgan sinflar, park maktabi, o'yin texnikasi, repititorlik yaratish.¹

¹ Кондратьев, С. С. Инновации в современном образовании / С. С. Кондратьев. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2021. — № 4 (346). — С. 346-347. — URL: <https://moluch.ru/archive/346/77841/> (дата обращения: 24.02.2024).

9.3. “Tarbiya” fanini o‘qitishda qo‘llaniladigan innovatsion ta’lim texnologiyalari.

Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayonda o‘qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o‘zgartirishlar kiritish bo‘lib, uni amalga oshirishda interfaol metodlardan foydalanishni taqozo etadi. Interfaol usullar ta’lim jarayonida qatnashayotgan har bir o‘quvchining faolligiga, erkin va mustaqil fikr yuritishga asoslanadi. Bu usullardan foydalanganda bilim olish o‘quvchi uchun qiziqarli mashg‘ulotga aylanadi. Interfaol usullar qo‘llanilganda o‘quvchilar o‘qituvchilar yordami va hamkorligida mustaqil ishlash ko‘nikma va malakalariga ega bo‘ladilar. O‘quvchilar yangi bilimlarni ilmiy izlanish, tadqiqotchilik, tajriba sinovlar o‘tkazish asosida o‘zlashtiradilar. Ilm orqali bilim olish tamoyiliga amal qilinadi. Ta’lim jarayoni qatnashchilari kichik guruhlariga bo‘lingan holda ishlaydilar. O‘quv topshiriqlari alohida bir o‘quvchiga emas, balki kichik guruhning barcha a‘zolariga beriladi. O‘qitish jarayonini tashkil etishning asosiy shakli darsdir. Hozirgi paytda darsning xilma xil noan‘anaviy shakllari joriy etilmoqda. Bunday darslar o‘quvchining ijodiy qobiliyatini o‘stirish, aqliy salohiyatini kuchaytirish, ilmiy dunyoqarashini kengaytirish va har bir yangilikni tez va to‘la qabul qila olish ko‘nikma va malakalarining shakllanishiga xizmat qiladi. Dars jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash o‘quvchilarda ilmiy izlanishga qiziqishni uyg‘otadi, ijodkorlik va bunyodkorlik qobiliyatini rivojlantiradi. Natijada egallangan bilim, ko‘nikma va malakalar amaliy faoliyatda tatbiq etiladi, o‘zlashtirish sifati oshadi. Buning uchun o‘qituvchi mahoratli bo‘lishi va mavzularning mazmuniga qarab darsni to‘g‘ri rejalashtirishi, mashg‘ulot davomida barcha o‘quvchilarni faol va ongli ishlashlariga erishmog‘i lozim.

Zero, o‘qituvchi ta’lim islohotining bosh ijrochisidir. Bunda har bir o‘qituvchini qisqa vaqt ichida juda katta miqdordagi axborot to‘plamini o‘zlashtirish, qayta ishlash va amalda qo‘llay olishga o‘rgatish muhim ahamiyatga ega. Uni hal qilishda o‘qituvchiga o‘qitishning an‘anaviy usullari bilan birga zamonaviy axborot texnologiyalari, jumladan kompyuterlardan foydalanish yordam beradi. Pedagogik innovatsiya bu pedagogik g‘aoliyatdagi yangilik, o‘qitish va tarbiya mazmuni va texnologiyasidagi o‘zgarishlar, ularning samaradorligini oshirishga qaratilgan. Innovatsiya - innovatsiya natijasi sifatida tushuniladi va innovatsion jarayon uchta asosiy bosqichning rivojlanishi sifatida

qaraladi: g'oyani yaratish (ma'lum bir holatda, ilmiy kashg'iyot), amaliy jihatlarda g'oyalarni rivojlantirish va yangiliklarni amaliyotga tatbiq etish.

Pedagogik innovatsiyalab samaradorligining o'lchovi sifatida optimallik o'qituvchi va o'quvchilarning kafolatlangan natijaga erishishi uchun kuch-quvvat sarflashlarini taqozo etadi. Turli o'qituvchilar va o'quvchilar o'zlarining shaxsiy pedagogik hamda o'quv faoliyatlari jarayonida turlicha darajadagi samaradorlikka erishadilar. Xuddi mana shuning o'zi pedagogik innovatsiyalarning optimallik darajasini belgilaydi. Innovatsion usullarning eng muhim belgisi sifatida natijalanganlik o'qituvchi faoliyatida ijobiy yutuqlarga erishilgandagina namoyon bo'ladi. O'lchovlardagi texnologiklik, kuzatuvchanlik, natijalarning qayd etilganligi o'qitishning yangi usullari, metodlarini baholash orqali namoyon bo'ladi. Mazkur o'lchovning ahamiyatli jihati shaxs, uning idroki va tushunchalarini shakllantirishning bir butunligida namoyon bo'ladi. Shu munosabat bilan innovatsion jarayonni ilmiy g'oyani amaliy foydalanish bosqichiga olib chiqish va shu bilan bog'liq ijtimoiy pedagogik muhitdagi o'zgarishlarni amalga oshirish jarayoni deb hisoblash mumkin. G'oyalarning innovatsiyaga aylanishini ta'minlaydigan va bu jarayonni boshqarish tizimini shakllantiradigan faoliyat bu innovatsion faoliyatdir. Innovatsiya jarayoni rivojlanish bosqichlarining yana bir o'ziga xos xususiyati mavjud. Pedagogik tajribada pedagogik innovatsiyalarni ijodiy qo'llash alohida o'qituvchilar ish faoliyatining boshlang'ich bosqichida namoyon bo'ladi. Mazkur innovatsiyalar tajribasi sinovdan o'tkazilib, ob'ektiv baholangandan so'ng ommaviy tarzda qo'llash uchun taqdim etiladi. Keng ommalashgan, ijobiy natijalarga erishish imkonini beradigan innovatsion usullardan foydalangan holda o'qituvchilarning kreativ funksiyalarini rivojlantirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Pedagogik innovatsiyalarni baholash mezonlarini bilish o'qituvchining pedagogik ijodning rangbarang shakllarini o'zlashtirishi uchun qulay sharoit yaratadi. Pedagogik madaniyatning oddiy esda qolgan bilimlarni takrorlash shaklidan boshlab, ilmiy pedagogik jamoatchilikka ma'lum bo'lgan g'oyalar, konsepsiyalar, texnologiyalarni o'z shaxsiy faoliyatiga singdirishdan ularni evristik, kreativ ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishga qadar bo'lajak pedagoglarning kundalik harakati mazmunini tashkil etishi lozim.

Pedagogik innovatsiyalarning mazmuni, uni qo'llash metodlarini bo'lajak o'qituvchilar tajribasiga singdirish muhim ahamiyatga ega. Ta'lim muassasasi hayotiga pedagogik innovatsiyalarni keng ko'lamda olib kirish uchun unda yangilik muhitini yaratish, muayyan axloqiy psixologik holatni shakllantirish, tashkiliy, metodik, psixologik xarakterdagi choratadbirlarni kullash talab etiladi. Shu maksadda bulajak ukituvchilarning kreativ funksiyalarini rivojlantirish, ularni pedagogik innovatsiyalar bilan izchil kurollantirib borish, innovatsion usullarni tahlil va tatbiq qilishga o'rgatish vazifasini kuyish lozim.

Pedagogika fanida ta'lim tizimidagi yangilik masalalari muttasil mutaxassislar tomonidan o'rganilib kelinmoqda. Biroq, ijtimoiy-pedagogik yangiliklar mintaqaviy ta'lim tizimini rivojlantirish omili sifatida, bir tomondan, nisbatan yaqinda tez rivojlanayotgan ijtimoiy pedagogika fan va amaliy faoliyat sohasi sifatida nisbatan yaqinda paydo bo'lganligi sababli, boshqa tomondan, ta'limni markazsizlashtirish va mintaqalashtirishning ijtimoiy tendensiyasining nisbiy yangiligi bilan bog'liq. Bundan tashqari, xususiy, to'g'ri pedagogik (masalan, uslubiy) yangiliklarning samaradorligi, agar ular ijtimoiypedagogik rejada qo'llab-quvvatlanmasa, qo'llab-quvvatlanmasa, ancha past bo'ladi. Shunday qilib, xususiy innovatsiyalar va ijtimoiy-pedagogik yangiliklarni qo'llabquvvatlovchi ijtimoiy-pedagogik kontekstni yaratish ham, ma'lum hajm, miqyos va daraja umuman mintaqaviy ta'lim tizimini rivojlanishini sezilarli darajada kuchaytirishi mumkin.


Xususan, turli xil innovatsion jarayonlarning hayotiy davrlarini o'rgangan pedagogik innovatsiyalar sohasi mutaxassisi V.I.Zagvyazinskiy ta'kidlashicha yangilikni rivojlantirish natijasida ijobiy natijalarga erishgan holda, o'qituvchilar uni asossiz ravishda uni universallashtirishga, uni pedagogik amaliyotning barcha sohalariga tatbiq etishga intilayotganliklarini ta'kidlaydilar. Ko'pincha muvaffaqiyatsizlik bilan tugaydi va umidsizlikka olib keladi, yangilikka soviydi. Boshqa bir tuzilmani (hozir aytilganiga juda yaqin) aniqlash mumkin. Bu moddiy ishlab chiqarish sohasidagi innovatsiyalar nazariyasidan olingan innovatsiya genezisining tuzilishi. Ammo o'quvchi yetarlicha rivojlangan tasavvurga ega bo'lsa, maktabdagi innovatsion jarayonlarga o'tish juda qulay: g'oyaning paydo bo'lishi - rivojlanishi - dizayn (qog'ozda nima bor) - ishlab

chiqarish (ya'ni amaliy ishda o'zlashtirish) - boshqa odamlar tomonidan foydalanish.

Yuqoridagilardan tashqari har qanday innovatsion jarayonda yangiliklarni yaratish va yangiliklardan g'oydalanish (o'zlashtirish) kabi tuzilmalarni ko'rish oson; bir-biri bilan bog'liq bo'lgan mikroinnovatsion jarayonlardan iborat bo'lgan butun maktabning rivojlanishi asosida yotadigan murakkab innovatsion jarayon.

O'qituvchilarda ijodkorlikni shakllantirishning muhim pedagogik sharti uni mustaqil bilim olish va ijodiy fikirlashga yonaltirishdan iborat. Shu bilan bir qatorda, o'qituvchilar orasida ijodiy muhit, muayyan ma'naviy-ruhiy holat, tashkiliy, metodik, psixologik chora-tadbirlar qo'llashga ham alohida e'tibor qaratish lozim.

«3x4»,3x5 texnologiyasi. Talabalar guruh sonidan kelib chiqib 4 yoki 5 guruhga bo'linishadi va quyidagi ketma-ketlikda ish tashkil etiladi: 1 -shart Har bir guruhga o'tgan mavzu yuzasidan qanday,mantiqiy bog'ona,nima uchun organayzerlaridan foydalanib topshiriq beriladi.5 daqiqa vaqt ichida ma'lumotga mos javoblarni berishadi 2 shart har bir guruhga mavzudan kelib chiqib, bitta tayanch tushuncha yozilgan tarqatma beriladi (masalan: 1-guruhga «oila», 2-guruhga «tarbiya», 1-guruhga «farzand», 4-guruhga «maktab»); 3. har bir guruh a'zolaridan berilgan asosiy tayanch tushunchani 3 ta so'z (so'zlar birikmasi) yoki 3 ta gap bilan davom ettirishlari so'raladi; 4) belgilangan vaqtda vazifa bajarilgach, o'rinlaridan turib (tarqatma o'z joyida qoladi) soat mili yo'nalishi bo'yicha joylari o'zgartiriladi: 1-guruh 2-guruhning, 2-guruh 3-guruhning va hokazo o'rniga o'tadilar; 5) yangi joyga kelgan guruh shu yerda qoldirilgan tarqatmadagi fikrlar bilan tanishib, yana yangi 3 ta fikrni yozib qo'yadilar. To guruh a'zolari o'z o'rinlariga qaytib kelgunlaricha o'rinlarini almashtirib, tarqatmaga o'z fikrlarini qo'shib boradilar; 6) va nihoyat, o'z o'rniga qaytib kelgan guruhlar boshqa guruhlar qoldirgan fikrlar bilan tanishib, ularni umumlashtirib, yaxlit ta'rif holatiga keltiradilar. Berilgan ta'riflar izohlanib, baholanadi.



“**Mevali daraxt » texnologiyasi.** Mevali daraxt texnologiyasi murakkab va ko‘ptarmoqli bo‘lib, muammoli mavzularni o‘rganishga qaratilgan. Bunda mavzuning turli tarmoqlari bo‘yicha bir to‘la axborot beriladi. Daraxtning har bir shoxida xususiyatlar yoritilib, mevalarida esa xususiyatga xos hayotiy misol, hikoya yoki rivoyat aytib beriladi. Ushbu texnologiya o‘quvchilarni tanqidiy, tahliliy va aniq, mantiqiy fikrlashlarini rivojlantirishga hamda o‘z fikrlarini yozma va og‘zaki shaklda ixcham bayon etishga, shuningdek, uni himoya qilishga imkoniyat yaratadi.

Topshiriq. «Tarbiyaning o‘ziga xos xususiyatlari» mavzusi bo‘yicha har bir xususiyatga urg‘u berolgan holda quyidagi keltirilgan tartibda yechimini toping.

9.4. “Tarbiya” fanini o‘qitish jarayoniga qo‘llanadigan innovatsion vositalar.

Pedagogik innovatsiyalarni qo‘llash bilan uni to‘plab, ilmiy jihatdan xulosalar tayyorlovchi bo‘g‘in o‘rtasidagi «Pedagogik matbuot» asosan nashr ishlari, ommalashtirish, keng pedagogik jamoalar, ilmiy-pedagogik xodimlarga ularni yetkazish, ularning taklif va mulohazalarini olish, tajriba-sinov xulosalari asosida innovatsiyalarni yanada takomillashtirish ishlari bilan shug‘ullanadi. Ta’lim texnologiyasi va pedagogik innovatsiyalarga bunday tizimli yondashuv DTSlarini amalga oshirishda o‘z samarasini ko‘rsatadi. O‘qituvchining pedagogik faoliyatini olib borishga halaqit beradigan psixologik to‘siqlarni umumlashtirib yangilik kiritishda o‘qituvchilarning ko‘proq qarshilik bildirishini keltirib chiqaruvchi sabablarni ta’kidlab o‘tish zarur.

Birinchiidan, o'zgarishning maqsadi o'qituvchilarga tushuntirilmagan, yashirin, gapning ikki ma'nosi, xavotir va noma'lumlikni keltirib chiqarishi. Noma'lumlikdan qo'rquv har qaysi yangi usulga o'qituvchilarni jalb qilmasligi mumkin;

Ikkinchiidan, o'qituvchilar yangilikni kiritishda rejalashtirish va ishlab chiqarishda qatnashmaganligi;

Uchinchiidan, jamoa an'analarini e'tiborga olmaslik va o'z ishining odatiy usuliga rioya qilishi; To'rtinchiidan, yangi usullarga sub'ektiv munosabat va qo'rquv, statusni yo'qotish hislari.

Beshinchiidan, ish hajmining ko'payishi, o'qituvchilar faoliyatida o'zgarishlarni rejalashtirmasligi oqibatida qo'rqish paydo bo'ladi. Yangilik kirituvchi tashabbuskor odam hurmat va ishonchga ega bo'lmasa. Afsuski, ko'pincha o'qituvchilar loyihaga emas, uning muallifiga qaraydi. Agar bu insonning hurmati past bo'lsa, pedagog uning qadrligiga qaramay, bu odamga ishonchsizligi uning g'oyasiga o'tkaziladi.

O'qituvchi ijodkorligini shaxsiyatning axloqiy munosabatiga qarab mulohaza qilish mumkin. O'qituvchilarga ularning ijodiy faoliyatidagi ma'nosini umumiy yo'nalishlarini anglashga yordam berish, o'z imkoniyatlarning rivojlanishini bilish. Bunday tushunchasiz ijodiy faoliyatni kuchaytiradigan mashqlar o'yin sifatida o'zlashtiriladi. Yuqorida sanab o'tilgan maslahatlar erkin muloqotda, fikr-almashuvda, ijodiy bahslashuvda eksperimental ish jarayonida bo'lib o'tishi mumkin. Demak fanni o'qitish jarayonida innovatsion uslublarni ishlab chiqish va joriy etishning tashkiliy jihatlarini yaxshi o'zlashtirib olsak va o'z vaqtida amalga oshirsak ko'zlangan natijaga erishamiz.

Mamlakatimizda huquqiy demokratik, erkin fuqarolik jamiyatini qurish yo'nalishida salmoqli o'rin tutadigan shunday qarorlar, chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqdaki, endilikda ustoz-murabbiylarning vatan, xalq oldidagi vazifalarini yanada mukammal, sidqidildan bajarishi uchun qulay zamin yaratildi.

Yurtimizda amalga oshirilayotgan ta'lim-tarbiya sohasidagi islohotlar qachon o'zining ijobiy samarasini beradi?! Qachonki har bir o'qituvchi ustozlik mas'uliyatini yanada kuchli his qilsa va albatta, quyidagi xususiyat va fazilatlarga ega bo'lsa:

O'qituvchi bilimli bo'lishi ya'ni o'z mutaxassisligini chuqur bilishi, O'qituvchi o'qituvchilarga darsdan ko'zlangan maqsadni to'g'ri yetkaza

olishi, va yo'l-yo'riq ko'rsatishi kerak. Zero, o'qituvchilik faqat ma'ruza o'qish emas, balki yo'l-yo'riq ko'rsatish hamdir;

O'qituvchi aytgan so'zini amalda ham bajarishi kerak. Sabab shuki, o'quvchilar o'qituvchining hatti-harakatlariga, bajarayotgan ishlariga befarq bo'lmaydi, ularni kuzatishga harakat qiladi;

O'qituvchi o'z bilganlarini o'quvchilarga yetkaza olishi kerak. Buning uchun esa o'qituvchidan yangi pedagogik texnologiyalardan yaxshigina xabardor bo'lish talab etiladi;

O'qituvchi har qanday holatda ham o'quvchilardan biror narsa umid qilmaslik kerak ya'ni o'z manfaati yo'lida foydalanish yoki ta'magirlik kabi;

O'qituvchi axloqiy tomondan yuksak fazilatlarga ega bo'lishi kerak. Sababi shuki, o'quvchi ko'pgina fazilatlarni o'qituvchidan o'rganadi. Masalan: sabrlilik, jasorat, muloyimlik, mas'uliyatlilik, insoniylik, saxiylik, tirishqoqlik, tashabbuskorlik va boshqalar;

O'qituvchi o'quvchilarni har bir mavzu bo'yicha albatta, muammoli vaziyatlarga solib, undan chiqish yo'llarini o'ylab topishga undashi shart. Buyuk nemis faylasufi **Kant** aytganidek, "*Ustoz o'z shogirdlariga fikrlarni emas, fikrlashni o'rgatishi kerak*";

O'qituvchi o'quvchilarga egallayotgan mutaxassisligidan kelib chiqib, alohida yondashishi kerak. Chunki, o'quvchining o'zi tanlagan sohasiga yanada qiziqishi oshadi va e'tibori boshqa sohalarga chalg'amaydi;

Albatta, o'qituvchi ham o'quvchi ham barcha kerakli ma'lumotlarni yozib borishi kerak. Zero, hadisi sharifda keltirilganidek ilmni yozish bilan mustahkamlab, rivojlantirib borish lozim. Akademik Qori-Niyoziy shunday degan edi: "Agarda o'qituvchi bo'laman desang, eng avval yaxshilab o'yla: uni sen kasb etib olmoqchi bo'lasanmi yoki g'oyaviy mayl va rag'bating bormi, chunki o'qituvchilik –kosiblik emas". Barcha ta'lim muassasalarida quyidagi jihatlarga e'tibor kuchaytirilsa, innovatsion g'oyalar shakllanishida albatta, bu o'z samarasini bermasdan qolmaydi.

1. Har bir o'quvchi bilan alohida, yakka tartibda ishlash va uning qiziqishini inobatga olish;

2. Tadqiqotchi o'qituvchi ilmiy ish yoki ilmiy maqola ustida ishlashda albatta, o'quvchini hamkor sifatida jalb qilishi;


3. Ijtimoiy-huquqiy muammolarni ijtimoiy reklama, roliklar yoki tasvirlarda uning yechimini ko'rsatib berish;

4. Soha mutaxassislari ishtirokida seminar, treninglar o'tkazish. Bunda mutaxassis tomonidan bildirilgan g'oyadan o'quvchi ilhom olib ikkinchi bir g'oya zamin yarata oladigan fikrga kelishi mumkin;

5. O'quvchilarni kreativ fikrlashga o'rgatib borish;

6. O'quvchilarda huquqiy axborot beruvchi manbalardan foydalanish ko'nikmasini shakllantirish.

Demak, fan mavzularini o'quvchilarga yetkazishda dars mashg'ulotlarini eng qulay variantda (mavzuga mos pedagogik texnologiya tanlash, metodni to'g'ri tanlash va informatsion texnologiyalardan unumli foydalanish orqali) innovatsion uslublarda tashkillashtirish ko'zlangan maqsadga yetishda o'z samarasini beradi.



Mulohaza uchun*Jaloliddin Rumiy**“Masnaviy” dan ibratli hikoyatlar***SUZISHNI BILMAGAN TILSHUNOS**

Til qoidalarini puhta biladigan tilshunos bor edi. U o'zining bu fazilati bilan faxrlanardi. Bir kuni kemaga chiqib, dengiz safariga otlandi. Kemachiga yuzlanib: «Sen til qoidalarini o'rganganmisan?», deb so'radi. «Yo'q», dedi kemachi.

Tilshunos: «Unday bo'lsa, sening yarim umring bekor ketibdi», dedi. Kemachining bu gapdan ko'ngli og'ridi, lekin darrov javob qaytarmadi.

To'satdan shamol ko'tarilib, suv kemani qa'riga torta boshladi. Kema girdobga yaqinlasha bordi. Kemachi yo'lovchiga: «Ey tilshunos, suzishni bilasanmi?», dedi.

Tilshunos: «Yo'q! Bilmayman», deb javob berdi. «Unday bo'lsa, sening butun umring zoye ketibdi. Chunki birozdan so'ng kema g'arq bo'ladi. Bilginki, hozir nahvni, ya'ni til qoidalarini bilish emas, mahv ilmi – fano bo'lish qo'l keladi. Agar fano bo'lish ilmini bilsang, o'zingni xotirjam dengizga ot!», dedi kemachi. Sen ham agar insoniylik sifatlarindan, yomon xulq- atvoringdan o'lib qutilsanggina, Haqning sirlar dengizi seni o'z ustiga chiqarib oladi.

Kishining gap so'z va amali uning darajasidir. Har kim dunyoga o'z fikr doirasidan turib nazar soladi. Qalb ko'zi ko'r inson narsa-hodisalarning faqat suratini ko'radi, xolos, mohiyatini anglay olmaydi.

Nazorat savollari

1. Ta'limda innovatsiya tushunchasini yoriting
2. Ta'limda innovatsiya uning mohiyati, nazariy asoslari va turlarini tushuntiring
3. Ta'lim innovatsiyalari va ta'lim texnologiyalari haqida ma'lumot bering
4. “Tarbiya” fanini o'qitishda qo'llaniladigan innovatsion ta'lim texnologiyalari haqida ma'lumot bering
5. “Tarbiya” fanini o'qitish jarayoniga qo'llanadigan innovatsion vositalar qaysilar

Mustaqil faoliyat

1. Tarbiya fanini o'qitishda qo'llaniladigan assesmentlar tuzing
2. Tarbiya fanini o'qitishda tarbiya texnologiyalarni roli: insonparvarlik, individual, tabaqalashgan tarbiya texnologiyalari haqida referat tayyorlang

Amaliy faoliyat**Mashq: «Sirli salomlashish»**

Ishtirokchilar doira bo'lib o'tiradilar.

Ko'rsatma: Siz hyech kimga qaramasdan salomlashishni amalga oshiring. Guruhdagilar esa salom kimga yo'nalganini topishlari lozim.

Siz mening ogohlantirishimdan so'ng, baland ovoz bilan uning ismini aytishingiz kerak. Sizing salomlashishingiz obrazli, yorqin, ammo sirli bo'lsin. Mashqdan so'ng guruh a'zolari uchta eng namunaviy salomlashishni aniqlaydilar.

Mashq «Guruhimizda tug'ilgan kun»

Ishtirokchilar sinf bo'ylab harakatlanadilar, ovoz chiqarish ta'qiqlanadi.

1-topshiriq: So'z aytmasdan, yilning qaysi faslida tug'ilganingizga qarab ajraling.

2-topshiriq: Fasllar va oylar bo'yicha ajraling.

3-topshiriq: Har bir oy, tug'ilgan kunlar bo'yicha ajraling.

4-topshiriq: Endi ishtirokchilar bir-birining ortidan yil fasllari, oylar va tug'ilgan kunlar bo'yicha saf tortib turadilar. Yil boshidan to oxirigacha izchillikka rioya qilinadi.

10-MAVZU: “TARBIYA” FANI O'QTUVCHISINI INNOVATSION FAOLIYATI



Tayanch tushunchalar: pedagog, innovatsiya Ijtimoiy taraqqiyot, barkamol avlod, taraqqiyot, tarbiya, o'qitish, ma'naviy va ma'rifiy ishlar, jamiyat.

**O'rtamiyona o'qituvchi bayon qiladi, yaxshi
o'qituvchi tushuntiradi, zo'r o'qituvchi ko'rsatadi,
buyuk o'qituvchi esa ruhlantiradi.
(U. Uord)**

10.1. Innovatsion faoliyat tushunchasi.

Yangilanayotgan O'zbekistonda barcha jabhalarda yangilik, izlanish va yangicha fikrlar va zamon talablariga mos ravishda faoliyat olib borish eng muhim masaladir. Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek shiddat bilan rivojlanib borayotgan bu davrda yangi fikr, yangi g'oya va albatta innovatsiyaga tayangan davlat yutadi.

O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 24-iyulda “Innovatsion faoliyat to'g'risida”gi Qonunining qabul qilinishi “Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili” Davlat dasturida nazarda tutilgan tegishli huquqiy zaminni yaratish borasidagi muhim qadam bo'ldi.

Ushbu qonun taraqqiyotimizni kafolatlovchi, uni yanada jadallashtiruvchi yangi g'oya, yangi kashfiyotlar, ilmiy ishlanmalarni yaratish hamda hayotga joriy etilishining ishochli huquqiy mexanizmlarini mustahkamlab benihoya muhim ahamiyat kasb etadi. Qonunda ifodalangan ta'rifga, ko'ra innovatsiya – fuqarolik muomalasiga kiritilgan yoki shaxsiy ehtiyojlar uchun foydalaniladigan, qo'llanilishi amaliyotda katta ijtimoiy-iqtisodiy samaraga erishishni ta'minlaydigan yangi ishlanma. Innovatsion faoliyat esa, yangi ishlanmalarni tashkil etish, shuningdek ishlab chiqarish sohasida ularning o'tkazilishi va amalga oshirilishini ta'minlash bo'yicha faoliyatdir.

“Innovatsiya” atamasidan O'zbekistonning o'tish iqtisodiyotida ham mustaqil va ham bir qator o'xshash tushunchalar: “Innovatsion faoliyat”, “innovatsion jarayon”, “innovatsion qaror” va h.k. belgilash uchun foydalanilgan.

Turli olimlar, ayniqsa xorijliklar (N. Monchev, I. Perlaki, V.D. Xartman, E. Mensfeld, R.Foster, B.Tviss, Y.Shumpeter, E.Rodgers va boshqalar) bu tushunchani o'zlarining tadqiqotlari ob'ekti va predmetiga ko'ra har xil talqin qiladilar, ammo innovatsiyalarning bu har xil ta'riflarining tahlili shunday xulosaga olib keladiki, o'zgarishlar innovatsiyalarning o'ziga xos mazmunini tashkil qiladilar, o'zgarishlar vazifasi esa innovatsion faoliyatning asosiy vazifasi bo'ladi.

Innovatsiya- yangi yoki sezilarli darajada takomillashtirilgan mahsulot, xizmat yoki jarayon. “Innovatsiya” atamasi lotincha “novatio” so'zidan kelib chiqqan bo'lib, “yangilanish” (yoki “o'zgarish”) degan ma'noni anglatadi. Bunda “in” prefiksi, lotincha “yo'nalishda” deb tarjima qilinadi, agar tom ma'noda tarjima qilinadigan bo'lsa “Innovatsiya” - “o'zgarish tomon” deya tushunish mumkin. “Innovatsiya” tushunchasi “yangilik”, “kashfiyot”, “ixtiro” so'zlari bilan sinonimlik hosil qiladi va ular ma'no jihatidan farq qilsada, har holda, bu tushunchalarning barchasi natija - ijodiy faoliyat, ijodkorlik bilan bog'liqdir. Shu bilan birga, mutaxassislarining fikricha, agar ijodkorlik yangi g'oyalarni ilgari surishni nazarda tutsa, u holda innovatsiyaning o'ziga xos belgisi uni amalda amalga oshirishdir.

Innovatsiyaga har qanday turdagi yangilik sifatida emas, balki mavjud tizimning samaradorligini jiddiy ravishda oshiradigan omil sifatida qarashimiz lozim. Innovatsiyalarning ilmiy kashfiyotlar va ixtirolardan farqi: Ilm-fan – bu ma'lum mablag'larni bilimlar va g'oyalarga aylantirish. Innovatsiyalar – bu bilimlar va g'oyalarni – bu yangi konsepsiyani yaratish demak. Innovatsiya – bu ixtironing amaliy ahamiyatini ajratib ko'rsatish va uni muvaffaqiyatli sotiladigan mahsulotga aylantirish. Yangilik - bu intellektual faoliyat natijasidir; bu yangi strategiya, biznesning yangi modeli, yangi tashkiliy tuzilma, yangi marketing usuli, yangi jarayon, yangi texnologiya, yangi mahsulot yoki ularning ma'lum birikmasi. “Innovatsiya” so'zi va yuqorida sanab o'tilgan tushunchalardan asosiy farqi shundaki, u amalga oshirish bilan bog'liq qo'shimcha qiymat yaratadi. Bunday


yondashuvda innovatsiya muvaffaqiyatli amalga oshirilgunga qadar va natija bergunga qadar yangilik emas.

Innovatsiya nazariyasining rivojlanishiga asos solgan olim avstriyalik iqtisodchi Jozef Alois Shumpeter (1883-1950) hisoblanadi. Mutaxassislar fikriga ko'ra aynan ushbu olim birinchi bor innovatsiya tushunchasini ilmiy asoslab bergan.

Innovatsiya- amalga oshirilayotgan jarayonlar, mehnat "mahsuloti", faoliyatni tashkil etish strategiyasining ham tubdan, ham bosqichma bosqich o'zgarishini anglatishi mumkin. Shunday qilib, innovatsiya har xil nuqtai nazardan - texnologiya, iqtisodiy rivojlanish, siyosiy muammolar, pedagogik jarayonning o'zgarishi va boshqalar bilan birgalikda ko'rib chiqiladi. Innovatsiya kontseptsiyasining o'zi birinchi marta XIX asr ilmiy tadqiqotlarida paydo bo'lgan.

Y.A.Shumpeter ilgari surgan g'oyaga ko'ra, joriy etilgan har qanday yangi texnik qaror, texnologiya, ishlab chiqarishni tashkil etish, yangi bozorlarning tarkib topishi, xomashyolar manbai innovatsiya hisoblanadi. Y.A.Shumpeter o'zining «Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi» (1911) nomli kitobida birinchi bo'lib "yangi kombinatsiyalar" (ya'ni innovatsion muammolar) masalalarini ko'rib chiqdi va yangilikning to'liq tavsifini berdi. Keyinchalik "yangi kombinatsiya" atamasi o'zgartirilib "innovatsiya" holatiga keltirildi.

J.A.Shumpeter kombinatsiyalarning quyidagi turlarini aniqlagan edi:



Innovatsiyalarni tasniflash innovatsiyalar guruhining o'ziga xos xususiyati, uning o'ziga xoslik tomonlarini ochib beradi. Tasniflashni amalga oshirish turli tasniflash belgilaridan foydalangan holda sxemalar bo'yicha bo'lishi mumkin. Rus adabiyotlarida innovatsiyaning turli tasniflari berilgan. Masalan, A.N.Tsvetkov innovatsiyalar va ilmiy-texnikaviy innovatsiyalarni turlicha asoslashni taklif qiladi. U innovatsiya va ilmiy-texnikaviy innovatsiyalar bir-birida farq qiladi deb hisoblaydi. Uning takidlashicha innovatsiya- bu jarayon, ba'zi bir yangiliklarni amalda qo'llashga asoslangan jarayon.

I.Stepanovanning fikriga ko'ra, "innovatsiya" tushunchasi ilmiy-texnika salohiyatini real, yangi mahsulot va texnologiyalarni yuzaga chiqaradigan jarayon sifatida talqin etiladi.

L.Vodachek va O.Vodachkova innovatsiyalarni "korxonalar faoliyatining tizim sifatida maqsadli o'zgarishi" deb ta'riflaydilar.

"Innovatsiya" tushunchasining yuqoridagi ta'riflari o'zgarishlarni mikroiqtsodiy xususiyatini aks ettiradi va bu yerda ular tashkilot faoliyatini modernizatsiyalash omili sifatida ko'rib chiqilgan. B.Santoning fikriga ko'ra, *innovatsiya- bu yuqori sifatli texnologiyalar yaratiladigan texnik, ijtimoiy-iqtisodiy jarayon.* L.A.Bayev va E.V.Shugurov fikriga ko'ra, *"innovatsiya" tushunchasini aniqlashda quyidagi yondashuvlar mavjud: obyektga ko'ra yondashuv; jarayonli yondashuv; obyekt-naflilik yondashuvi; jarayon-naflilik yondashuvi; jarayonli-moliyaviy yondashuv.*

Obyektga ko'ra yondashuvga asosan, ilmiy-texnik taraqqiyotning natijasi - yangi texnika va texnologiya – innovatsiyalar bo'lib xizmat qiladi. Obyekt mezoni quyidagilarni alohida ajratib ko'rsatish imkonini beradi: bazis innovatsiyalar - yirik ixtirolarni amalga oshirishdan iborat, texnologiyalarning yangi avlodini yaratishga sabab bo'lgan innovatsiyalar; takomillashtiruvchi innovatsiyalar, ya'ni ilmiy-texnologik siklning barqaror rivojlanishi bosqichida ko'p uchraydigan kichik ixtirolarni amalga oshiruvchi innovatsiyalar; soxta innovatsiyalar (ratsionalizatorlik innovatsiyalar) texnika va texnologiyalarning eskirgan avlodlarini qisman takomillashtirishga yo'naltirilgan bo'lib, odatda texnik taraqqiyot sekinlashishiga olib keladilar, chunki ular jamiyatga hech qanday samara bermaydi yoki salbiy ta'sir ko'rsatadi.

10.2. Innovatsiyaning o'qituvchi faoliyatiga tutgan o'rni.

Ta'limdagi innovatsion faoliyat ta'lim sohasidagi innovatsiyalarning paydo bo'lishiga qaratilgan kompleks faoliyatni o'z ichiga oladi. Bu innovatsiyalar ta'lim jarayonini tashkil etishning usul va usullari, ta'lim va tarbiya jarayonida foydalaniladigan resurslar, ilmiy nazariyalar va tushunchalar bo'lishi mumkin. Innovatsiyalar yangi ilmiy bilimlarni, qandaydir kashfiyotlar, ixtirolarni olishga qaratilgan tadqiqot faoliyatidan foydalanish orqali rivojlanadi. Bundan tashqari, innovatsiyalarning paydo bo'lishi loyihalash ishlarining natijasi bo'lishi mumkin, bunda mavjud ilmiy nazariyalar va tushunchalar asosida amaliy harakatlarni amalga oshirish imkoniyatlarini aks ettiruvchi instrumental va texnologik bilimlar ishlab chiqiladi. Shunday qilib, innovatsion loyihalar yaratiladi, bu esa keyinchalik yangi texnologiyalarning paydo bo'lishiga olib keladi. Innovatsiyalar ta'lim faoliyati jarayonida ham rivojlanadi.

O'quv jarayonida talabalarning nazariy va amaliy bilimlarini rivojlantirish amalga oshiriladi, keyinchalik ular innovatsiyalarni yaratish bilan bog'liq bo'lgan amaliy hayotning turli sohalarida qo'llanilishi mumkin. Ta'limda innovatsion texnologiyalar o'qitishda muayyan yondashuvlarni qo'llash asosida qo'llaniladi, ya'ni yangi texnologiyalarni rivojlantirish uchun asos bo'lgan talablar va maqsadlarni o'z ichiga olgan tamoyillar. Pedagogik sohadagi barcha innovatsiyalar jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining hozirgi bosqichiga aniq mos kelishiga asoslanadi.

Hozirgi vaqtda ular o'quvchilarning mustaqilligini rivojlantirishga, o'z-o'zini o'rganish va o'z-o'zini rivojlantirish qobiliyatlarini shakllantirishga, o'quv dasturlarini mexanik ravishda emas, balki ongli ravishda o'zlashtirishga qaratilishi kerak. Hozirgi vaqtda axborot texnologiyalarining odamlar hayotidagi roli sezilarli darajada oshdi. Zamonaviy jamiyat axborotlashtirish deb ataladigan umumiy tarixiy jarayonga aralashdi. Bu jarayon har qanday fuqaroning axborot manbalaridan foydalanish imkoniyatini, axborot texnologiyalarining ilmiy, ishlab chiqarish, jamoat sohalariga kirib borishini, axborot xizmatining yuqori darajasini o'z ichiga oladi.

Ta'lim sohasidagi innovatsion texnologiyalar doimiy ravishda rivojlanib, ularning turlari kengayib bormoqda. Quyidagi asosiy texnologiyalar guruhlarini ajratish mumkin:

1. *Fan ta'limi sohasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yoki Axborot kommunikatsion texnologiyalar.* Ushbu texnologiyalardan foydalanish axborot jamiyatining rivojlanishi va hayotning barcha sohalarida axborot vositalarini faol joriy etish bilan bog'liq. Bunday texnologiyalar talabalar ongini axborotlashtirishga qaratilgan. Ta'lim dasturlari informatika, axborot jarayonlari va Axborot kommunikatsion texnologiyalarni o'rganishga qaratilgan yangi fanlarni o'z ichiga oladi. Professor-o'qituvchilar va talabalarning axborot madaniyatini oshirishga yordam berish uchun o'quv jarayoni ham faol ravishda axborotlashtirilmoqda;

2. *Shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalar.* Ushbu texnologiyalar shaxsni ta'lim va tarbiyada ustuvor o'ringa qo'yishga qaratilgan. Butun ta'lim jarayoni shaxsning o'ziga xosligi va rivojlanish xususiyatlarini hisobga olgan holda shaxsni rivojlantirishga qaratilgan.

3. *O'quv jarayonini axborot-tahliliy ta'minlash.* Ushbu guruh texnologiyalaridan foydalanish har bir o'quvchi, sinf, parallel, ta'lim muassasasining rivojlanishini o'rganishga, ularni adekvat baholashga qaratilgan;

4. *Intellektual rivojlanish monitoringi.* Texnologiyalar grafiklardan foydalanishga, test tizimiga, individual o'quvchilarning rivojlanish dinamikasini va umuman ta'lim sifatini kuzatish imkonini beruvchi yangi baholash usullariga asoslangan;

5. *Ta'lim texnologiyalari.* O'quv jarayonini ta'limdan ajratib bo'lmaydi. Shuning uchun shaxsni, uning asosiy fazilatlarini rivojlantirishning yangi usullari joriy etilmoqda;

6. *Didaktik texnologiyalar.* Ular ta'lim muassasasi rivojlanishining asosiy omili hisoblanadi. Bunday texnologiyalar an'anaviy va innovatsion texnologiyalardan foydalanishni o'z ichiga olgan texnika va vositalar majmuasiga asoslanadi: *o'quv adabiyotlari bilan mustaqil ishlash, audiovizual, multimedia vositalaridan foydalanish, tabaqalashtirilgan o'qitish usullari.* Ilmiy bilimlarni innovatsiyaga aylantirish jarayoni, uni hodisalarning ketma-ket zanjiri sifatida ifodalash mumkin, bu jarayon davomida innovatsiya g'oyadan ma'lum mahsulot, texnologiya yoki xizmatga qadar etuklanadi va amaliy foydalanishda tarqaladi.

O'qituvchi innovatsion texnologiyalarga asoslanib darsni tashkil etar ekan, turli texnik vositalardan ham (*kompyuter, proyektor, elektron doska va hokazo*) foydalanishi mumkin. O'qituvchining faoliyatida

innovatsiyalar qanchalik ko'p bo'lsa, mazmun shunchalik oshadi. Ta'limda innovatsion texnologiyalar va interfaol metodlar haqidagi tasavvurlar barqaror va mukammal shaklga ega emasligini ham e'tirof etish kerak. Har bir o'qituvchi ta'limga individual tarzda yangilik kiritishi mumkin. Innovatsion texnologiyalar o'qituvchi o'z faoliyatidan qoniqmaslikdan kelib chiqadi.

Ta'lim sifati - davlat ta'limining ijtimoiy tizimi, jarayoni va natijada shaxs, jamiyat va jamiyatning manfaatlari va manfaatlariga mos keladigan ehtiyojlarini qondirish imkoniyatini ta'minlaydigan ta'lim xizmatlarining iste'mol xususiyatlari to'plamidir.

Innovatsion texnologiyalardan dars jarayonida foydalanishning o'ziga xosligi shundaki, ular o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyati orqali amalga oshiriladi. O'qitish jarayoni o'qituvchi hamda o'quvchilar faoliyatini o'z ichiga oladi. O'qituvchining faoliyati o'quv materialini bayon qilish, o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini orttirish, fikrini teranlashtirish va e'tiqodini shakllantirish, o'quvchilarning mustaqil mashg'ulotlariga rahbarlik qilish, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini tekshirish hamda baholashdan iborat.

10.3. O'qituvchi innovatsion faoliyatining funksiyalari, bosqichlari va shakllari.

Yangilik kiritishning muhim sharti muloqotning yangi vaziyatini tug'dirishdir. Muloqotning yangi vaziyati - bu o'qituvchining o'z mustaqillik mavqeini, dunyoga, pedagogik fanga, o'ziga bo'lgan yangi munosabatni yarata olish qobiliyatidir. O'qituvchi o'z nuqtai nazarlariga o'ralashib qolmaydi, u pedagogik tajribalarning boy shakllari orqali ochilib, mukammallashib boradi. Bunday vaziyatlarda o'qituvchining fikrlash usullari, aqliy madaniyati o'zgarib boradi, hissiy tuyg'ulari rivojlanadi. Keyingi sharti - bu o'qituvchining madaniyat va muloqotga tayyorligi.

O'qituvchining innovatsion faoliyati voqelikni o'zgartirishga, uning muammolari va usularini echishni aniqlashga qaratilganidir. O'qituvchi va talaba o'rtasidagi muloqot namunasining o'zgarishi, innovatsion faoliyat shartlaridan biridir. Yangi munosabatlar, an'analarda bo'lganidek, qistovlar, hukmga bo'ysunish kabi unsurlardan holi bo'lishi lozim. Ular tenglarning hamkorligi, o'zaro boshqarilishi, o'zaro yordam shaklida qurilgan bo'lishi darkor.

Ular munosabatlaridagi eng muhim xususiyat bu o'qituvchi va talabning ijoddagi hamkorligidir.

Innovatsion faoliyat quyidagi asosiy funksiyalar bilan izohlanadi: kasbiy faoliyatning ongli tahlili;

me'yorlarga nisbatan tanqidiy yondashuv;

kasbiy yangiliklarga nisbatan shaylik;

dunyoga ijodiy yaratuvchilik munosabatida bo'lish;

(o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, o'z turmush tarzi va intilishlarini kasbiy faoliyatda mujassam qilish).

Demak, o'qituvchi yangi pedagogik texnologiyalar, nazariyalar, konsepsiyalarning muallifi, ishlab chiqaruvchisi, tadqiqotchisi, foydalanuvchisi va targ'ibotchisi sifatida namoyon bo'ladi. Hozirgi jamiyat, madaniyat va ta'lim taraqqiyoti sharoitida o'qituvchi innovatsiya faoliyatiga bo'lgan zaruriyat quyidagilar bilan o'lchanadi:

ijtimoiy-iqtisodiy yangilanish ta'lim tizimi, metodologiya va o'quv jarayoni texnologiyasining tubdan yangilashni talab qiladi;

bunday sharoitda o'qituvchining innovatsiya faoliyati pedagogik yangiliklarni yaratish, o'zlashtirish va foydalanishdan iborat bo'ladi;

mazmunini insonparvarlashtirish, doimo o'qitishning yangi tashkiliy shakllarini, texnologiyalarini qidirishni taqozo qiladi;

pedagogik yangilikni o'zlashtirish va uni tatbiq etishga nisbatan o'qituvchining munosabati xarakteri o'zgarishi.

O'qituvchining innovatsion faoliyati tahlili yangilik kiritishning samaradorligini belgilovchi muayyan me'yorlardan foydalanishni talab qiladi. Bunday me'yorlarga - yangilik, maqbullik (optimalnost), yuqori natijalilik, ommaviy tajribalarda innovatsiyani ijodiy qo'llash imkoniyatlari kiradi. Yangilik pedagogik yangilik me'yori sifatida o'zida taklif qilinadigan yangini, yangilik darajasi mohiyatini aks ettiradi.

Pedagog olimlar yangilikning qo'llanish mashhurligi darajasi va sohasiga ko'ra farqlanadigan mutlaq, chegaralangan mutlaq, shartli, subektiv darajalarini farqlaydilar. Maqbullik me'yori o'qituvchi va talabning natijaga erishish uchun sarflangan kuch va vositalarini bildiradi. Natijalilik o'qituvchi faoliyatidagi muayyan muhim ijobiy natijalarni bildiradi. Pedagogik yangilik o'z mohiyatiga ko'ra ommaviy tajribalar mulki bo'lib qolishi lozim. Pedagogika yangilikni dastlab ayrim o'qituvchilarning faoliyatiga olib kiradi. Keyingi bosqichda -

sinalgandan va obektiv baho olgandan so'ng pedagogik yangilik ommaviy tatbiq etishga tavsiya etiladi.

V.A.Slastenin o'tkazgan tadqiqotlar o'qituvchining innovatsion faoliyatga kasbiy tayyorgarligini aniqlash imkoniyatlarini beradi. Ular quyidagi tavsiflardan iborat:

mo'ljallangan yangilikni yalpi va uning alohida bosqichlari muvaffaqiyatini bashorat qilish;

kelgusida qayta ishlash maqsadida yangilikning o'zidagi va uni tatbiq qilishdagi kamchiliklarni aniqlash;

yangilikni boshqa innovatsiyalar bilan qiyoslash, ulardan samaradorlarini tanlab olish, ularning eng ahamiyatli va pishqlik darajasini aniqlash;

yangilikni tatbiq etishning muvaffaqiyatlilik darajasini tekshirish;

yangilikni tatbiq etadigan tashkilotning innovatsiya qobiliyatiga baho berish.

O'qituvchining innovatsion faoliyati o'z ichiga yangilikni tahlil qilish va unga baho berish, kelgusidagi harakatlarning maqsadi va kontsepsiyasini shakllantirish, ushbu rejani amalga oshirish va tahrir qilish, samaradorlikka baho berish kabilarni qamrab oladi. Innovatsion faoliyatning samaradorligi pedagog shaxsiyati bilan belgilanadi. Innovatsion faoliyat tadqiqotlari o'qituvchining innovatsion faoliyatga hozirligi me'yorlarini belgilashga imkon berdi:

- ✓ *innovatsion faoliyatga bo'lgan zaruriyatni anglash;*
- ✓ *ijodiy faoliyatga jalb qilinishiga shaylik; shaxsiy maqsadlarni innovatsion faoliyat bilan moslashtirish;*
- ✓ *ijodiy muvaffaqiyatsizliklarni engishga shaylik;*
- ✓ *innovatsion faoliyatni ijro etish uchun texnologik shaylik darajasi;*
- ✓ *innovatsion faoliyatning kasbiy mustaqillikka ta'siri;*
- ✓ *kasbiy refleksiya bo'lgan qobiliyat.*

Ta'lim tizimidagi innovatsiya jarayonlari xarakteri kiritilgan yangiliklar xususiyatlari, o'qituvchilarning kasbiy imkoniyatlari, yangilik kiritish tashabbuskorlari va ishtirokchilarining innovatsion faoliyatlari xususiyatlari bilan belgilanadi.

Innovatsion faoliyatda eng muhim masalalardan biri o'qituvchi shaxsidir. O'qituvchi-novator sarmahsul ijodiy shaxs bo'lishi, kreativlikni, keng qamrovli qiziqish va mashg'ullikni, sevuvchi ichki dunyosi boy, pedagogik yangiliklarga o'ch bo'lishi lozim. O'qituvchini

innovatsion faoliyatga tayyorlash ikki yo'nalishda amalga oshirilishi lozim:

*yangilikni idrok qilishga innovatsion shaylikni shakllantirish;
yangicha harakat qila olishga o'rgatish. Innovatsion faoliyatni tashkil etishda talabalarning o'quv-bilish faoliyati va uni boshqarish alohida ahamiyatga ega.*

Innovatsiya jarayonlari, ularning funksiyalari, rivojlanish qonuniyatlari, mexanizmlari va uni amalga oshirish texnologiyalari, boshqarish tamoyillarining pedagogik asoslarini o'rganish oliy maktab o'quv jarayonini zamonaviy pedagogika hamda psixologiya fanlari yutuqlari asosida jahon standartlari darajasida tashkil etish imkonini beradi. XXI asr insonlar orasidagi buyuk munosabatlar rivojlangan, ya'ni o'zlarining jismoniy va ma'naviy kuchlarini ifodalovchi insoniylik qarashlari rivojlangan asrdir. Insonparvarlik, tafakkurning o'rnatilishi o'qituvchi va o'quvchi orasidagi yangi turdagi o'zaro munosabatlarning paydo bo'lishiga olib keladi.

Mulohaza uchun

Jaloliddin Rumiy

“Masnaviy” dan ibratli hikoyatlar

YAXSHILIK

Bir otliq yo'l bo'yida uxlab yotgan odamning og'ziga ilon kirayotganini ko'rib qoldi. Ilonni haydashga harchand harakat qilsa ham, eplolmadi. Otdan tushib, uni bor kuchi bilan urib uyg'otdi. Odam kaltakning zarbidan sapchib turdi. Otliq uni bir daraxt tagiga sudrab, chirigan olmalardan yeyishga majburladi. «Menga nega zulm qilayapsan, senga nima yomonlik qildim?!», deb dodladi.

Yo'lovchi uni sira tinglamadi va sababini ham aytmadi.

Chunki haqiqatni bilganidan so'ng qo'rqib yuragi yorilishi mumkin edi. «Endi mana shu adirda yugurasan!», deb qamchisi bilan uni savalashga tushdi. Bechora dodlab qochardi. Yugura-yugura me'dasi shunday qorishdiki, yegan-ichganini qayt qildi. Ilon ham chirigan olmalar bilan aralashib og'zidan chiqib ketdi. Ilonni ko'rgan odam unga nega bunday muomala qilayotganini anglab yetdi. Otliqqa rahmat aytib, xayr-duolar qildi.

Xayrixoh insonlarning do'stligi mana shunday bo'ladi.

Ulardan kelgan mashaqqat qalbgah rohat, ruhga ozuqadir

Nazorat savollari

1. Innovatsion faoliyat tushunchasini tushuntiring
2. Innovatsiyaning o'qituvchi faoliyatiga tutgan o'rni.
3. O'qituvchi innovatsion faoliyatining funksiyalari, bosqichlari va shakllari.
4. O'qituvchi innovatsion faoliyatiga qo'yiladigan talablar haqida ma'lumot bering

Amaliy faoliyat**Mashq: «Guruhimiz nimaga o'xshaydi»**

Ishtirokchilar aylana bo'lib o'tiradilar. Ularga navbat bilan «Guruhimiz nimaga o'xshaydi?» degan savol beriladi. Ular javob beradilar.

Muhokama:

Birinchi guruhchaga topshiriq: Ideal tengdoshingizning psixologik portretini chizing. U qanday sifatlarga ega bo'lishi kerak ?

Ikkinchi guruhchaga topshiriq: Sizda nafrat uyg'otadigan tengdoshingizning psixologik portretini chizing.

Uchinchi guruhchaga topshiriq: Siz o'z xohishingiz bo'yicha psixologik portretni chizing (u qanday sifatlarga ega bo'lishi kerak).

Mustaqil faoliyat

1. "Tarbiya" fani o'qituvchisining innovatsion faoliyati mavzusida taqdimot tayyorlash.
2. "Tarbiya" fanini o'qitish jarayoniga qo'llanadigan innovatsion vositalar haqida referat tayyorlang
3. Tarbiya fanida tarbiya texnologiyasi va tarbiya san'atining ifodalanishi mavzusida loyiha tuzing

11-MAVZU: TARBIYA FANINI O'QITISHDA XALQ OG'ZAKI IJODI NAMUNALARI, TARIXIY BITIKLAR, SHARQ ALLOMALARI MEROSI, DINIY VA BADIY ADABIYOTLARDAN FOYDALANISH



Tayanch tushunchalar: Xalq og'zaki ijodi turlari, pedagog, xalq maqollari, matal, masal, topishmoq, xalq qo'shiqlari, ijtimoiy taraqqiyot, barkamol avlod, taraqqiyot, tarbiya, o'qitish, ma'naviy va ma'rifiy ishlar.

Turli-tuman tarbiyaviy hikoyatlar va hikmatli so'zlarni to'plash tengsiz davlatdir (Gyote)

11.1. Xalq og'zaki ijodi turlari. Tarbiya fanini o'qitishda xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalanish

Asrlar mobaynida shakllangan, avloddan – avlodga bebaho meros sifatida o'tib kelayotgan urf – odat, marosim va bayramlar ham milliy mafkuraning asosiy g'oyalarni singdirishda muhim omil bo'ladi. Xususan, Mustaqillik, Navro'z, o'qituvchilar va murabbiylar, Xotira va qadrlash kuni kabi bayram va marosimlarimizning jamiyat hayotiga zamonaviy mazmun baxsh etish yo'lida oqilona foydalanish zarur.

Bugungi kunda milliy an'analarimizni o'rgatish, targ'ib etish bilan bir qatorda to'y – ma'rakalarni, odat va udumlarni ixchamlashtirish, bu borada isrofgarchilik va dabdabozlikka yo'l qo'ymaslikka alohida e'tibor qaratish darkor. Bu urf – odat va an'analarning asosiy qismi oilada va oila a'zolarining bevosita ishtirokida o'tkaziladi. Shuning uchun ham har bir oilaviy an'ana va udum mafkuraviy tarbiyaning muhim yo'nalishi hisoblanadi. Masalan, insonparvar, yuksak e'tiqodli, bag'rikeng, mehr – oqibatli odamlarni voyaga yetkazishda keng ma'nodagi tolerantlik, oilaviy munosabatlardagi insoniylik tamoyillari muhim o'rin tutadi. Har bir o'zbek oilasida muqaddas sanaladigan mehmonnavozlik, qiz va o'g'il bolalar tarbiyasi borasida maxsus an'analarning mavjudligi, yil mavsumiga ko'ra barcha oila a'zolari ishtirokida o'tkaziladigan hasharlar, chaqaloqning dunyoga kelishi bilan bog'liq marosimlar hamma – hammasi ezgulikka, ya'ni sog'lom mafkuraviy muhitni shakllantirishga xizmat qiladi.

Xalqimiz ma'naviy va milliy qadriyatlarga nihoyatda boy. Birgina nikoh to'yidan keyingi marosim hisoblangan kelin salomning o'zi har bir hududda o'ziga xos tarzda o'tkaziladi. Aslida kelin salom ham xalq og'zaki ijodining yorqin bir ko'ri-nishidir. Biz ertaklar, laparlar, ayti-shuvlar, topishmoqlar, allalar va maqol-larni eshitib ulg'ayganmiz.



Xalqimizning xayoliy dunyosi, yuksak tafakkuri mahsuli bo'lgan bu yanglig' xalq og'zaki ijodi namunalarini tinglab tafakkur olamimiz kengayib,

oqni qoradan, yaxshini yomondan farqlay oldik. Insonni ma'naviy yuksaklik sari etaklovchi bu boy madaniy merosimiz asrlar osha o'z qadr-qimmatini yo'qotmay, yillar o'tgan sari sayqal topib bormoqda. Agar alla misolida so'z yuritadigan bo'lsak, unda onaning farzandiga bo'lgan cheksiz mehri, jigarbandiga atalgan go'zal to'yg'ulari, xush tilaklari mujassam.


Alla – hayotbaxsh, huzurbaxsh, barcha yaxshiligu, ezguliklarning debochasi, boshlanish ohangidir. Bil'aks, uning o'zi yurakning nozik torlaridan yaralib, dunyolarga jon baxsh etadi. Ona alla aytar ekan, farzandining kelajakda baxtli, saodatli va shu bilan bir qatorda, sog'lom, qo'rqmas, shijoatli, botir bo'lib ulg'ayishini istaydi.

Alla tinglagan bola mehrni o'z tanasiga, shuuriga singdiradi. Bu go'zal ohang insonda, uning ong qatlamlarida bir umr nurli qo'shiq bo'lib saqlanib qoladi va farzandlar qalbiga mehr-oqibat, samimiylik, rahmdillik, yurtparvarlik, jasurlik kabi ijobiy xislatlarni jo qiladi. Alla nafaqat onaning bolaga mehri, balki bolaning onaga mehr-oqibatini ham ma'nau ta'minlaydi. Shu bois bu qo'shiqning umri boqiydir. U qaysi tilda yangramasin, dillarni titratadi, qablarga faqatgina ezgulik urug'ini sepadi.

Xalq og'zaki ijodining boshqa bir qator janrlari ham borki, ularga biz hayotimiz davomida ko'p bora duch kelamiz. Masalan bobo-buvilarimiz, ajdodlarimizning ko'rgan-kechirganlari asosida dunyoga kelgan ertaklardir.

Bolajonlarimiz uchun niho-yatda qiziqarli va maroqli bo‘lgan ertak-larning ham turli yo‘nalishlari mavjud. Jumladan, afsonaviy, sehrli ertaklar, sarguzasht ertaklar, hayotiy-maishiy ertaklar, hayvonlar haqidagi ertaklar, xalq qahramonlari hayoti tasvirlangan ertaklar...

Ular uzoq o‘tmishning belgilarini saqlagan holda, insonlarning bugungi hayoti bilan hamohang tarzda o‘z qadr-qimmatini asrlar osha yo‘qotmaydi. Folkloristik termin sifatida ertak, ayrim hududlarda esa matal deb nomlanuvchi, bolaligimizning beg‘ubor onlarida doimo bizga yo‘ldosh bo‘lgan “Chol bilan kampir”, “Ochil dasturxon”, “Ilon pari”, “Podachining qizi” kabi ertaklarni bir yodga olaylik.



Ertaklarni xalqimizning badiiy tarixi, jonli san‘ati deyish mumkin desak xato bo‘lmaydi. Xalq og‘zaki ijodining yana bir qirrasini bu latifa va loflardir. Kichik hajmdagi nasriy asarlar ichida latifalar va loflar insonlarga bir lahzalik kulgu hamda zavq bag‘ishlashi bilan ahamiyatlidir.

Qadimdan latifa aytuvchilar va lofchilar alohida iste‘dodga ega, hayotiy tajribasi katta insonlar bo‘lgan. Aytilayotgan latifada so‘zlarga alohida urg‘u berish, qochiriq va kosa tagida nimkosa borligiga sha‘ma qilish ular foydalanadigan usullardir. Hozirda Farg‘ona viloyatida xalq og‘zaki ijodining bu janridan foydalanishning o‘ziga xos maktabi yaratilgan, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Endi keksalarimiz tomonidan aytiladigan ayrim duolar haqida to‘xtalsak. Biror safarga otlanayotganimizda kattalar

“Oy borib, omon kel”, “Yo‘ling bexatar bo‘lsin”, “Olloh panohida asrasin”, deya duo qilishadi. Yoxud biror xayrli yumushni bajarganimizda “Boshing omon bo‘lsin”, “Olganing oltin bo‘lsin”, “Xonadoning farzandga to‘lsin”, deya duoga qo‘l ochishadi.

Albatta, ushbu ezgulikka yo'g'rilgan tilaklar insonga ruhiyatiga ijobiy ta'sir etadi va o'ziga bo'lgan ishonch tuyg'ularini uyg'otadi. Demak, xalq og'zaki ijodining har bir qirrasida hayotiy haqiqat, xalqimizning orzu-istak va kechinmalarini o'zida mujassam etgan. Yana shuni ta'kidlash kerakki, biz hali xalq ijodiyotining barcha jihatlarini o'rganib ulguranimiz yo'q. Uning hali bizga notanish qirralari bisyor. Hayot davom etar ekan, xalq og'zaki ijodi ham mazmun-mohiyatini boyitib, o'z tarbiyaviy ahamiyati jihatidan qadr topib boraveradi.

*Ona yurtning omon bo'lsa,
Rang-u ro'ying somon bo'lmas.
Betashvish bosh qayda,
Mehnatsiz osh qayda.
Bilmagandan bilgan yaxshi,
To'g'ri ishni qilgan yaxshi.
Olim bo'lsang, olam seniki.
Hunarmandning noni butun.
Aytar so'zni ayt,
Aytmas so'zdan qayt.
Ko'pdan quyon qochib qutilmas.
Haq so'zga o'lim yo'q.
Ko'k ko'ylakka qo'l etmas.
O'yib oldim izi yo'q.
Novcha yigit tom teshar.
Otlari har xil,
Yoshlari bir xil.*

*Suvga tushsa suv bo'lmaydi,
Loyga tushsa, loy bo'lmaydi.
Uzun terak yiqildi,
Uchi mening qo'limda,
Zag'izg'oni sayraydi,
Sochi mening qo'limda.
Tog'da talaymonni ko'rdim,
Suvda sulaymonni ko'rdim,
Dumalab yotgan toshni ko'rdim,
Tuzsiz pishgan oshni ko'rdim.*

Rivoyat va hayot

Bir qishloq chekkasidagi g'arib kulbada tul ayol Bibish ismli go'zal qizi bilan kun kechirar ekan. Bir kuni Bibish ertalab ko'za ko'tarib buloq boshiga borganicha, qaytib kelmadi. Yolg'iz farzandini kutaverib toqati tugayozgan ona buloq boshiga chiqsa, qizidan domdarak yo'q. Ovozi boricha qichqiradi, tog'lardan aks-sado keladi, ammo Bibishdan esa eshitilmaydi. Ona shu paytda daradan qo'y haydab kelayotgan cho'pon yigitdan so'raydi:

- O'g'lim, Bibishim suvga chiqib ketganicha darak- asari yo'q, mabodo ko'rmadingmi-a?

Cho'pon yigit:

- Begona besh-olti otliq qop ichida chinqirib yig'layotgan kimsani o'ngarib ketayotgandi. O'sha Bibish bo'lib chiqmasin tag'in,- debdi.

Onaizor uvvos tortib yig'lab, odam o'g'rilarini yer tepib qarg'abdi. Shunda bu mudhish xabarni eshitgan Bibishning sevgan yigiti o'g'rilaridan o'ch olish payida uni qidirib ketibdi. Ammo ma'shuqasini topolmay qaytib kelibdi. Onaizor yolg'iz jigARBANDINI istab kecha- kunduz "Vo Bibish" deb yig'lagandan ikki ko'zi ko'r bo'lib, oxiri omonatini topshiribdi. Zohidlar bo'lsa, qizni bachhaduzaklar emas, balki u juda suluv bo'lganidan dev-parilar olib ketishgan degan ovoza tarqatibdilar.

Shu-shu qishloq "Vobish", buloq esa "vobish bulog'i" deb atalibdi.

AFSONALAR**O'SH HAQIDA AFSONA**

Zangi ota ot- sigirlarning piri, g'amxo'r- mehriboni ekan. Zangi otaning mol- hollari ko'payib, hech qayoqqa sig'may ketibdi. Bunday paytlarda uning sigirlarini Qo'ng'ir buqasi boshqarar ekan. Vaqti-soati kelib Qo'ng'ir buqa qarib butun podani boshqarib borishga kuch- quvvati yetmay qolibdi. O'zi bilan o'zi ovora bo'lib qolibdi. Poda esa o'z holicha o'tlab, olis-olislariga tarqab ketibdi. Bir payt poda jila- jila boshi Farg'onadan o'tib, Andijondan ham oshib ketibdi. Xuddi shunday paytda Toshkentning shundoqqina biqinida istiqomat qilayotgan Zangi ota qattiq ovoz bilan: "Xo'sh, xo'sh" deb hayqirgan emish. Zangi ota pirlarining ovozini eshitgach, o'tlab yurgan sigirlar: "Qaytmasak bo'lmaydi, pirimizning qarg'ishlariga qolamiz", - deb orqalariga qaytibdilar.

Zangi otaning hayqirig'ini eshitib, sigirlar qaytgan manzil shu-shu "O'sh" deb atala boshlangan emish.

11.2 Ta'lim va tarbiya jarayonida ulug' mutafakkirlarning axloq va odobga oid ilmiy merosidan foydalanishning o'ziga xos jihatlari.

Markaziy Osiyo allomalarining ta'lim-tarbiyaga oid qarashlarida ma'naviy qadriyatlarga bo'lgan e'tibor asosiy o'rinda turadiki, bu bevosita inson kamolotini shakllantirishga omil bo'la oladigan hodisadir.

Sharq Renessansi deb nom olgan IX-XV asr Markaziy Osiyo ma'naviy madaniyatining eng yuksaklikka ko'tarilgan, boy davri bo'lib, bu davrda ilm-fanning ikki yo'nalishi (birinchisi) inson uchun tabiiy fanlardirki, u aql ko'zi bilan egallanadi, (ikkinchisi) bu fanlar inson tomonidan (boshqa) kishilardan taqlid qilib o'rganiladi, ular asosida shariat qonunlari yotadi. Bu fanlarning asosini Qur'onda va Sunnada bo'lga Alloh va uning elchisining oldindan belgilab bergan yo'l-yo'riqlari tashkil etadi.¹


Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy (780-850), Ahmad al-Farg'oniy (247-861), Ahmad ibn Abdulloh al-Marvaziy (IX asr), Abu Nasr Forobiy (870-950), Abu Ali Ibn Sino (980-1037), Abu Rayhon Beruniy (973-1050) va boshqalarning xizmatlari katta bo'lgan.

Bu davrda Sharq madaniyatini umuminsoniy qadriyat darajasiga ko'tarish markazi "Ma'mun akademiyasi" (IX asr, Bag'dod, "Baytul hikma") tashkil etildi. Akademiya ilmiy ijodkorlari faoliyatida Yaqin va O'rta Sharq xalqlari moddiy va ma'naviy madaniyatining qo'shilishi asnosida hozirgi Markaziy Osiyo madaniyatining maxsus bir-biridan ajratilmagan ko'p qirrali qorishiq turi vujudga keldi.² Bunday ko'p qirrali ilmiy qadriyatlarning madonga kelishida vatandoshlarimiz

Sharq mutafakkirlarining ma'naviy madaniyat sohasiga qo'shgan ulushlari nihoyatda boy bo'lib, mazmunan qadriyatlarning barcha yo'nalishlarini qamrab olganligi bilan xarakterlanadi. Ular:

¹ Избранные произведения мыслители стран Ближней И Средного Востока М.: Соцгиз, 1961.С.622

² Тиллашев Х.Х.Общейе педагогическийе И дидактическийе идеи ученных энциклопедистов Ближного И Средного Востока эпохи средновековая. Ташкент: Фан. 1989.С.10



Forobiy pedagogik qarashlarini, ta'lim-tarbiya haqidagi ta'limotini o'rganishda inson xislatlari to'g'risidagi falsafiy fikrlari nihoyat muhim ahamiyat kasb etadi. Forobiy o'zining falsafiy qarashlarida odamning tuzilishini, ruhiyatini, madaniy va ma'naviy olamini o'rganishga ahamiyat beradi. Uning ta'limotida, inson barcha boshqa jismlarda bo'lmagan qobiliyat va kuchga, ruhiy quvvatga, aql va so'zlash qobiliyatiga egaligi bu kuch uni tabiatdagi boshqa jismlardan ajratib turishi va uning ustidan hokim bo'lish imkoniyatini berganligi namoyon bo'ladi.

Forobiy bu dunyoqarashida narsa-hodisalarni bilish, inson aqlini bilim bilan boyitish uni ilmi, ma'rifatli qilish uchun xizmat qiluvchi ruhiy jarayonlarga alohida e'tibor beradi. U o'zining "Baxt-saodatga erishuv haqida", "Fanlarning tasnifi", "Falsafani o'rganishdan oldin nimani bilish kerakligi to'g'risida", "Ilmlar va san'atlar fazilati" kabi ko'plab risolalarida insonning ma'naviy rivojlanishi ilm-ma'rifatga bog'liqligini ta'kidlaydi.

Abu Rayhon Beruniy bilim umuminsoniy qadriyatlarni o'rganishning kaliti ekanligini alohida ta'kidlaydi. Ilm-ma'rifatli odam jamiyat taqdiri, insonlar taqdiri uchun kurashuvchan, barcha yomonliklardan uzoqdir. "Ilmning foydasi ochko'zlik bilan oltin-kumush to'plash uchun bo'lmay, balki u orqali inson uchun zarur narsalarga ega bo'lishdir"¹

Umuman, Abu Rayhon Beruniy ilm-fanning buyuk homiysi va muxlisi sifatida mamlakatning obodonchiligi ilm-fanning gullashida, odamning baxti esa uning bilim va ma'rifatida deb bildi. Yaratgan

¹ Abu Rayhon Beruniy. O'ylar, hikmatlar, naqllar, she'rlar. Toshkent. Yosh gvardiya. 1973.44-bet

asarlarida u ta'lim-tarbiyaga doir she'r va hikmatlardan misollar keltirib, ular orqali har bir inson o'z qalbining farmoyishiga ko'ra xayr-ezgulikka intilishi, sun'iy obro', shuhrat qozonish uchun muruvvat va sharofat ko'rsatmasligi kerakligini ta'kidlaydi.

Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida aqliy, axloqiy, mehnat, jismoniy va nafosat tarbiyasiga doir fikrlari katta tarbiyaviy ahamiyatga egadir. U insonni ulug'laydi. Uning fikricha, insonning ulug'ligi aql-idroki, so'zlash qobiliyati, bilimi, uquvi, hunarga egaligidadir.

Adib o'quv va bilimni farqlaydi: o'quv tug'ma ravishda inson ruhiyatida mavjuddir, bilim esa o'qish-o'rganish va mehnat tufayli egallanadi. Agar ularning har ikkisi o'zaro birlashsa, insonning qadri ortadi:

Zakovat qayerda bo'lsa, ulug'lik bo'ladi,

Bilim kimda bo'lsa, buyuklik bo'ladi.

Zakovatli uqadi, bilimli biladi,

Bilimli, zakovatli tilakka yetadi.

Yusuf Xos Hojib ta'lim va tarbiyaning uzviy bog'liq holda bo'lishini tavsiya etadi, o'g'il bolalarning bir necha san'at turlarini va hunarlarni tugal o'rganmog'i lozimligini ta'kidlaydi. Bu, ularning kelajak hayotlari, jamiyat rivoji uchun zarurligini aytadi.

Pedagogikaning fan sifatida shakllanishi yosh avlodni hayotga tayyorlash, ular tarbiyasini samarali amalga oshirish ehtiyojidan kelib chiqadi. Bu ehtiyoj tarbiya borasida orttirilgan tajribalar to'plangandan keyin o'sha tajribalarni umumlashtirish, yoshlar tarbiyasi haqida qonun-qoidalarni ishlab chiqish zaruratini taqozo etadi.


Avvalo pedagogikaning nazariy kurtaklari falsafa negizida paydo bo'ladi. Ta'lim-tarbiya masalalari hamisha mutafakkir, yozuvchi, olimlar xayolini band qilib kelgan. Ular o'zlarini bola tarbiyasi, ularni barkamol inson qilib tarbiyalash haqidagi yorqin mulohazalari bilan pedagogik fikrlar ravnaqiga ulush qo'shganlar. Masalan: Nizomulmulkning «Siyosatnoma», Nosir Xisravning «Saodatnoma», Ahmad Yugnakiyning «Hibatul-Haqoyiq», Alisher Navoiyning «Mahbub - ul qulub», Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asarlari bevosita odob, axloqqa daxldordir.

Bu asarlarda insonparvarlik, halol mehnat, do'stlik, chin muhabbat, sadoqat kabi yuksak axloqiy fazilatlar o'z aksini topgan. Yosh

avlodlarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish hamma davrlarda millatning ilg'or kishilari diqqat markazida bo'lib kelgan.

Kaykovusning «Qobusnoma», IV asrda yashab o'tgan hind faylasufi Beydaboning «Kalila va Dimna» asarlari, «Ramayana», «Mahobxorat» dostonlari, Sa'diyning «Guliston» va «Bo'ston», Jomiyning «Bahoriston», Ahmad Donishning «O'g'illarga nasihat», bundan tashqari Qur'oni Karim, Hadisi Sharif, «Chor darvesh», «Ming bir kecha» kitoblari ham qimmatbaqo ma'naviy-madaniy meros bo'lib, Sharq g'arb xalqlari ming yillar mobaynida bulardan bahramand bo'lganlar va komillik tog'risida uning qirralarini yoritib berganlar.

O'rta asrda Yaqin va O'rta Sharqda diniy o'quv muassasalari - madrasalar ta'lim va fan markazlari bo'lgan. O'zbekistonlik, Rossiyalik va chet el sharqshunos tadqiqotchilari tomonidan madrasa turidagi o'quv muassasalari aynan Markaziy Osiyoda yuzaga kelgani va shu yerdan boshqa mamlakatlarga tarqalgani isbotlangan.



Somoniylar davrida (X asr) faqat Samarqandning o'zida 20 ga yaqin madrasalar mavjud bo'lgan. Abu Ali ibn Sino (980-1037) o'zining «Donishnoma» («Bilimlar kitobi») nomli asarida mazkur madrasalarda faqat musulmonchilikka oid bilimlar berilibgina qolmay, balki dunyoviy ilmlar ham o'rganilganligi, ilmiy tadqiqotlar olib borilganligi, ularning negizida ilmiy maktablarning yuzaga kelganligi qayd etib o'tiladi. O'z davrida madrasalarda o'qitilishi yo'lga qo'yilgan fanlarni Abu Ali Ibn Sino quyidagi tizimlar bo'yicha ajratadi: odob (xulq etikasi), astronomiya, tibbiyotshunoslik, til va uning grammatikasi, fikx (musulmon qonunchiligi). Alloma tomonidan taklif etilgan tarbiya turlar esa quyidagilardan iborat:

Abu Ali Ibn Sino tomonidan taklif etilgan tarbiya turlari Markaziy Osiyoda Uyg'onish davridagi ta'limning insonparvarlik va shaxsning

barkamol rivojlanishi borasidagi g'oyalari asoslangan edi, deyishiga imkon beradi.

Sharqdagi Uyg'onish davri Sharq mutafakkirlari - *Muhammad Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniylar* o'zlarining ta'limiy qarashlarida birinchi o'ringa inson shaxsini qo'yadilar hamda bolalarni har tomonlama, Aqliy, axloqiy jismoniy va estetik, mehnat tarbiyasini shakllantirib, kamolotga erishishlari, shuningdek, tillarni bilishlarini zarur deb hisoblaydilar. Aqliy ta'limni tashkil etuvchi fanlar sirasiga matematika, astronomiya, mexanika va tabiatshunoslik kabi tabiiy-ilmiy fanlarni kiritadilar.


Allomalar bolaga hurmat bilan munosabatda bo'lish g'oyasini ilgari suradilar, sxolastik o'qitish va qat'iy intizomga qarshi chiqadilar. Ularning fikricha, o'qish bolada bilimlarga qiziqishni uyg'otishi kerak.

Muhammad Tarag'ay Ulug'bekning (1394-1449 yillar) Samarqanddagi faoliyati 14-15 asrlarda madrasalarning fanlar rivojini ta'minlovchi markazlari vazifasini bajarganligini ko'rsatadi. Muhammad Tarag'ay Ulug'bek Samarqandning hukmdori bo'lishi bilan birga astronom, matematik va tarixchi sifatida mashhur bo'lgan. Shuningdek, allomaning mohir pedagog ham bo'lganligini tarixiy dalillar qayd etadi. Chunonchi, alloma ko'plab iste'dodli yoshlarni tarbiyalagan. U odamlar, ayniqsa yoshlarning ilmiy bilimlarni o'rganishlariga katta ahamiyat bergan.

Alloma o'z davlatida ta'lim sohasidagi jiddiy islohotlarni tashkil etdi. U madrasalarni davlat ta'minotiga o'tkazdi, mudarris (o'qituvchi)larga oylik ish xaqi belgilagan, shogird (talaba)larga stipendiya ajratgan.

Muhammad Tarag'ay Ulug'bek madrasa o'quv rejasiga quyidagi fanlar: arab tili, adabiyot, Qur'on, Hadis, ritorika, mantiq, falsafa, fikx (qonunchilik), metafizika, matematika, astronomiya, tibbiyot, geografiya, tarix kabi fanlarni kiritadi.

Mutafakkir tomonidan barpo etilgan hamda o'zi bevosita ta'lim bergan madrasalarda o'qish quyidagi bosqichlardan iborat bo'lgan:



Bunday yondashuvda bugungi kun nuqtai nazaridan aytganda bakalavriyat va magistratura ko'zga tashlanadi. Ayni vaqtda ular o'rta asr yevropa universitetlari uchun ham xos bo'lgan.

Buyuk iste'dod egasi sifatida alloma o'z davridan bir necha asrlarga o'zib ketgan. Deyarli 600 yil avval Muhammad Tarag'ay Ulug'bek quyidagi aksiomani ilgari surgan: bilim olishga intilish davlat ravnaqiga yo'l demakdir. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarning hozirgi tajribasi mazkur fikrni to'la tasdiqlaydi.

XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib Turkiston rus mustamlakachilari tomonidan bosib olindi. Bu davrda milliy ma'naviy merosga, madaniyatga past nazar bilan qarovchi shovinistik siyosat hukmron edi. Shunday bo'lsada, bu davrda

Siddiqiy, Furqat, Muhimiy, Ahmad Donish, Avaz O'tar o'g'li, Hamza, Abdulla Avloniy, Ibrat, Fitrat, Behbudiy, Munavvarqori, Cho'lpon, Qori-Niyoziy va boshqalar bola tarbiyasiga, pedagogikasiga oid ko'plab asarlar vozdilar. voshlarni ilm-ma'rifatli qilishga intildilar.

Quvg'inlar, qatag'onlar, bosqinu yong'inlarga qaramay, ajdodlarimizdan bizga adabiy, ilmiy-falsafiy, pedagogik va boshqa sohadagi ming-minglab noyob kitob va qo'lyozmalarda bitilgan ma'naviy merosimiz etib kelgan. Ana shu durdona manbalarda bizning necha ming yillik tariximiz, madaniyatimiz, qo'yingki o'zligimiz mujassamlangan.

O'lkada ochilgan rus-tuzem maktablari, gimnaziyalari ta'sirida ta'lim- tarbiya ishlari hamda ta'lim metodlarini qayta qurish ishlari avj oldi. Natijada yerli xalq vakillarining yangi metodlariga suyangan usullari «*jadid*», «*usuli savtiya*» nomidagi maktablar paydo bo'la boshladi. Dastlabki ma'lumotlarga qaraganda, usuli jadid maktablari 1850 yillarda paydo bo'la boshlagan. Turkistonda yangi maktablarning karvonboshchisi M. Behbudiy edi. U jadid maktablari uchun ham nazariy, ham amaliy jihatlarida jonbozlik ko'rsatdi. Aslida jadid so'zi arabchadan olingan bo'lib «yangi» degan ma'noni beradi. Demak, usuli jadid ham, usuli savtiya ham yangi usul maktablari degan ma'noni bildiradi. Usuli jadid o'lkada ma'rifat nuri sari yetaklaydi. Ushbu maktabda o'qigan talabalar hatto, chet o'lkalarda o'qishni davom ettirganlar. Ushbu maktab ijodkorlari M. Behbudiy, S. Saidazizov, A. Avloniy, S.A. Siddiqiy, Munavvarqori, A. Shakuriy edi.

O'zbek pedagogikasi tarixi turli oqimlar, jarayonlar ta'sirida rivojlanib keldi. hozirgi zamon ta'lim-tarbiya kontseptsiyasi haqida so'z yuritadigan bo'lsak, yuksak umuminsoniy qadriyatlar asosida taraqqiy topib bormoqda. Bu Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi «Ta'lim tog'risida»gi qonunlarida ko'rsatib berilgan. Ushbu qonunlar milliy tajribaning tahlili, ta'lim tizimi jahon miqyosidagi yutuqlar asosida tayyorlangani hamda yuksak umumiy va kasb – hunar madaniyatiga ijodiy, ijtimoiy faollikka, ijtimoiy – siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo'ljalni to'g'ri ola bilish mahoratiga ega bo'lgan istiqlol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir. Yosh kadrlarni yangi avlodni shakllantirishga yo'naltirilgandir.

Milliy dasturning maqsadi, ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarash va sarqitlardan to'la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash milliy tizimini yaratishdan iborat. Prezidentimiz I.A. Karimov ta'kidlaganlaridek, milliy mafkurada «gap milliylik haqida ko'p gapirishda emas, balki milliylikni asosini tashkil qiluvchi tabiiy omillarni ishga tushirishda».

Jamiyat tomonidan o'qituvchi shaxsiga qo'yilayotgan talablar o'z davrida Sharq mutafakirlari hamda G'arb ma'rifatparvarlarining asarlarida o'z aksini topgan. Muhammad al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy hamda Abu Rayhon Beruniylar o'qituvchining ma'naviy-axloqiy jihatdan yetuk bo'lishlariga alohida ahamiyat qaratadilar. Ularning fikrlaricha, yaxshi o'qituvchi boshqalardan bir jihati bilan farq qiladi, ya'ni, u o'zi ega bo'lgan bilimlarni yoshlarga beminnat o'rgatadi, har bir ishda ularga namuna bo'la oladi.

Abu Ali ibn Sino o'z asarlarida, o'qituvchi bolalarga ta'lim berishdek mas'uliyatli burchni bajarishi zarurligini uqtirar ekan, ularga faoliyatda muvoffaqiyatga erishish garovi bo'lgan quyidagi tavsiyalarni beradi:

- bolalar bilan muomalada bosiq, jiddiy bo'lish;
- berilayotgan bilimning talabalar tomonidan o'zlashtirilishiga e'tiborni qaratish;
- ta'limda turli shakl va metodlardan foydalanish;
- talabaning xotirasi, bilimlarni egallash qobiliyati, shaxsiy xususiyatlarini bilishi;
- fanga qiziqтира olishi;

- berilayotgan bilimlarning eng muhimini ajratib bera olishi;
- bilimlarni talabalarga tushunarli, uning yoshi, aqliy darajasiga mos ravishda berish;
- har bir soʻzning bolalar hissiyotini uygʻotish darajasida boʻlishiga erishish.¹

Alisher Navoiy oʻz davrining ayrim maktabdorlari ega boʻlgan sifatlar, xususan, qattiqqoʻllik, taʼmagirlik va johilliklarni qoralar ekan, oʻqituvchining maʼnaviy qiyofasiga nisbatan jiddiy talablarni qoʻyadi. Xususan, «mudarris kerakki, gʻarazi mansab boʻlmasa va bilmas ilmni aytishga urinmasa, manmanlik uchun dars berishga havas koʻrgazmasa va olgʻirlik uchun gap-soʻz va qavqo yurgizmasa, nodonlikdan sallasi katta va pechi uzun boʻlmasa, gerdayish uchun madrasa ayvoni boshi unga oʻrin boʻlmasa. ... Yaramasliklardan qoʻrqsa va nopoklikdan qochsa, nainki, oʻzini olim bilib, necha nodonga turli xil fisq ishlarni mumkin, balki halol qilsa, qilmas ishlarni qilmoq uchun sodir boʻlsa va qilar ishlarni qilmaslik unga qoida va odat boʻlib qolsa. Bu mudarris emasdir, yomon odatni tarqatuvchidir». ² Ayni oʻrinda oʻqituvchi mehnatining mashaqqatli ekanligini taʼkidlab oʻtadi: «Uning ishi odam qoʻlidan kelmas, odam emas, balki dev ham qila bilmas. Bir kuchli kishi bir yosh bolani saqlashga ojizlik qilardi, u esa bir toʻda bolaga ilm va adab oʻrgatadi, koʻrkim bunga nima yetsin.

Shunisi ham borki, u toʻdada fahm-farosati ozlar boʻladi, unday kishiga yuzlarcha mashaqqat kelsa qanday boʻladi. har qanday boʻlsa ham, yosh bolalarga uning haqqi koʻpdir. Agar shogird podshohlikka erishsa ham unga (muallimga) qulluq qilsa arziydi.

11.3 Sharq allomalar merosida inson falsafasi masalalari. Dars jarayonlarida diniy va badiiy adabiyotlardan foydalanishning ahamiyati.

Zero Forobiy aytganidek -"Odamlar oʻzlarining xos xususiyatlariga va tabiiy ehtiyojlariga koʻra jamiyat tuzadilar. Ularning harakat va fe'llarini dastavval bora-bora odatlarga aylanadigan tabiiy qobiliyatlar belgilaydi". Oʻz-oʻzingni angla va shu orqali dunyoni anglaysan. Dunyoni insonning teran qatlamlariga kirmasdan sirtidan bilishga boʻlgan barcha urinishlar narsalar haqida faqat yuzaki tasavvur hosil qilish imkonini beradi. Insondan sirtga qarab harakat qiladigan boʻlsak,

¹ Rahimov S. Abu Ali Ibn Sino. Taʼlim va tarbiya haqida. – Toshkent, Oʻqituvchi, 1967. – 75 bet

² A.Navoiy Maxbub ul-qulub. Asarlar. Oʻn besh tomlik. 13tom, - Toshkent, Badiiy adabiyot nashriyoti, 1966. – 189-190-betlar

narsalar mohiyatini hych anglay olmaymiz, zero bu mohiyat insonning o'zida mujassamlashgan.

Demak, inson o'zini dunyodan oldinroq va ko'proq biladi, ayni shu sababli u dunyoni o'zidan keyin va o'zi orqali anglab yetadi. Falsafa dunyoni inson orqali ichdan bilishdir, fan esa insondan tashqaridagi dunyoni yuzaki bilish demakdir. Insonda mutlaq borliq, insondan tashqarida esa – nisbiy borliq namoyon bo'ladi. Darhaqiqat, antik davrdan boshlab insonga bo'lgan qiziqish dam kuchayib, dam ma'lum vaqt pasayib turgan, lekin hych qachon yo'qolmagan. «Inson nima?», degan savol bugungi kunda ham avvalgidek jahon falsafasidagi o'ta muhim masalalardan biri bo'lib qolmoqda, insoniyatning eng o'tkir aql-zakovat sohiblari e'tiboridan tushmay va ayni vaqtda o'zining uzil-kesil, umumiy e'tirof etilgan yechimini topmay kelmoqda.

Hadisi shariflardagi axloqqa oid ibratli, maslahatlar, hikoyatlar, asrlar davomida ajdodlarimiz hayotida tarkib topgan milliy urf-odatlar, an'analar *Beruniy, Forobiy, Ahmad Yassaviy, Amir Temur, Navoiy, Bobur* singari buyuk allomalar, olimlar, yozuvchilarning axloq haqidagi ko'plab fikr-mulohazalari bugungi kunda ham oilaviy hayot uchun, har bir inson uchun qadr-qimmatini yo'qotmagan muhim tarbiyaviy ahamiyatga molikdir. Jumladan, Amir Temur ahloqi husniya – yaxshi xulqlar egasi bo'lgan. U oqil va tadbirli sarkarda sifatida odamlarni ishga tayinlashda ham, vazifasidan ozod etishda ham shoshmashosharlik va adolatsizlikka yo'l qo'ymagan, balki yetti o'lchab bir kesgan. Amir Temur singari jahon ma'naviyati saltanatida o'z o'rinlariga ega bo'lgan buyuk bobokalonlarimizning ahloq, go'zal xulq haqidagi fikrlari bugungi kun talabi bilan yozilgandek tuyuladi. "O'g'illarim! Millatning ulug' martabasini, saodatini saqlamoq uchun sizlarga qoldirayotgan vasiyat va tuzuklarni yaxshi o'qing, aslo unutmang va tatbiq eting. Millatning dardlariga darmon bo'lmoq vazifangizdir. Zaiflarni qo'riqlang, yo'qsillarni boylar zulmiga tashlamang. Adolat va ozodlik dastingiz, rahbaringiz bo'lsin". Ismoil Al-Buxoriy "Ahloqning yaxshi bo'lishi, taomning pokizaligi, rostlik va omonatga xiyonat qilmaslik shart, dunyoviy ishlardan chetda qolgan bo'lsang ham zarari yo'qdir", - deb yozadi. O'rta Osiyo mutafakkirlarining ahloq haqidagi fikrlari, o'gitlari shunday kuchga egaki, ular o'quvchilar qalbida insoniylik urug'larining unib chiqishiga, katta hayot yo'liga olib chiqishga yordam qiladi, ma'naviy kuch-quvvat beradi. Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Yusuf Xos Hojib, Abu

Ali ibn Sino, Alisher Navoiy kabi ulug' mutafakkirlarning ahloqiy qarashlari va qadriyatlardan mustaqil O'zbekiston istiqlolini mustahkamlashda, o'quvchilarning ahloqiy madaniyatini shakllantirishda, kundalik turmushimizda keng foydalanishimiz maqsadga muvofiqdir. Abu Ali ibn Sinoning ahloq haqidagi qarashlari uning shoh asarlari bo'lmish "Tib qonunlari", "Ash-shifo" va boshqa asarlarida ham o'z ifodasini topgan. Ibn Sino ta'limotiga ko'ra, odamga do'st tutinishning uch xil yo'li bor: "Birinchidan, har qanday qiyinchilik bo'lishiga qaramay, kishi o'z do'stini falokatdan qutqarishni, ikkinchidan, g'oyaviy yaqinlik va dunyoqarashlar umumiy bo'lgan chinakam va doimiy do'stlikni va uchinchidan esa kishining mansabi, puli yoki mavqeiga qarab o'zining shaxsiy manfaatini qondirish ko'zda tutilgan do'stlik bo'ladi", - deb ta'kidlaydi Ibn Sino.

Inson har safar mutafakkirlar diqqat markazidan o'rin olar ekan, uning mohiyatini yangi tarixiy sharoitda va yangicha nuqtai nazardan anglab yetishga harakat qilib, uni qayta va qayta yangidan kashf etganlar. Pirovardida, falsafa fanida insondan murakkabroq va ziddiyatliroq predmet yo'q, desak, hech mubolag'a bo'lmaydi.

Mulohaza uchun

Hozir yangi va boshqa zamondir. Bu zamonga ilm va hunarsiz xalq boyligi, yeri va asbob-uskunalari kundan kun qo'ldan ketgandek, axloq va obro'yi ham qo'ldan chiqar. Buning uchun biz musulmonlarni o'qitmoqqa sa'y qilmog'imiz lozimdir.

Behbudiy. "Oyna" jurnali, 1913-yil

Barcha millatlarning harakat qilib o'tib olgan va hozir bizlarning harakat qiladigan maydon – ilm va maorif, hunar va iqtisod maydonidir. Bunga vosita bo'ladigan narsalar – maktab, keng ma'lumot, til va adabiyot islohidir. Bular kelajakda sodir bo'ladigan barcha narsalarning asosidir, boshidir, moyasidir.

I. Gasprinskiy

Nazorat savollari

1. Xalq og'zaki ijodi turlariga misol keltiring
2. Tarbiya fanini o'qitishda xalq og'zaki ijodi haqida ma'lumot bering
3. Ta'lim va tarbiya jarayonida ulug' mutafakkirlarning axloqqa oid qarashlarini yoriting
4. Sharq allomalar merosida inson falsafasi masalalarini tushuntiring
5. Dars jarayonlarida diniy va badiiy adabiyotlardan foydalanishning ahamiyati haqida fikr bildiring

Amaliy faoliyat

- O'qituvchi yozma ishni tahlil qila turib, baholarni izohlay boshladi: ,
- Farhod, senga yaxshi. Sening ishing har doimgidek. Ammo birgina xatoga yo'l qo'yibsan, afsus. Bilaman, bu albatta tasodifiy xato, lekin baribir xatoda.
- Hasanboy, senga ham «yaxshi» baho. Tabriklayman, barakalla, endi bu yog'ini bo'shashtirma!
- Jalil, bu safar senda xatolar kam. Avvalgi ishlaringga qaraganda ancha yaxshi. Buni sezilarli o'zgarish desa bo'ladi. Yana harakat qilsang o'rtoqlaringga yetib olasan, «qoniqarli».
1. O'qituvchining baholash mushohadasini tahlil qiling.
 2. O'qituvchi qoniqarsiz baho olgan o'quvchining nomiga o'zining ijobiy Imholash mushohadasini qaratish bilan qanday vazifani yechishga urinyapti?
 3. O'qituvchining turli baho olgan o'quvchilar nomiga biladigan baholash mushohadasi variantlaridan misollar keltiring (ijobiy, salbiy, neytral). a) Har vaqtdagiga nisbatan yuqori; b) Doimgidan past; d) Odatdagidek.
 4. Baholami shaihlab e'lon qilish va o'quvchilar bilimi haqida fikr yuritishdan pedagogning maqsadi nima edi?

Mustaqil faoliyat

1. "Tarbiya" fani o'qituvchisining innovatsion faoliyati mavzusida taqdimot tayyorlash.
2. "Tarbiya" fanini o'qitish jarayoniga qo'llanadigan innovatsion vositalar haqida referat tayyorlang
3. Tarbiya fanida tarbiya texnologiyasi va tarbiya san'atining ifodalanishi mavzusida loyiha tuzing

GLOSSARIY

- Adaptatsiya (ko'nikish)-** *Shaxs yoki guruhning ijtimoiy muhit bilan o'zaro ta'sir etish, moslashish jarayoni.*
- Akmeologiya -** *Kattalarning o'z-o'zini mustaqil rivojlanishi, mustaqil bilim egallashi, kasbni takomillashtirish haqidagi fan.*
- Akseleratsiya –** *Ijtimoiy – iqtisodiy o'zgarishlar ta'sirida bolaning intellektual va jismoniy rivojlanishining tezlanishi.*
- An'analar -** *Jamiyat hayoti turli sohalarining, moddiy va ma'naviy faoliyat shakllarining, kishilar o'rtasidagi aloqalar va munosabatlarning avloddan-avlodga o'tishi, ajdodlar hayoti, belgilari va xususiyatlarining takrorlanish tarzi.*
- Audirovanie –** *Nutqni og'zaki qabul qilish va tushunish, so'zlashuv, yozuv, o'qish bilan bir qatorda nutq faoliyatining bir turi.*
- Axloqiy tarbiya –** *Talabalarda umuminsoniy, axloqiy tamoyillariga sodiq bo'lish, jamiyat axloqiy talablari va me'yorlarini hisobga olgan holda o'z hatti-harakatlarini tanlay olish mahorati, axloqiy tafakkur tizimini shakllantirish.*
- Afsona –** *Fors so'zidan olingan bo'lib, fantastika, sehr-jodu hamda hayotiy uydirmalar asos bo'lgan nasriy hikoyalar.*
- Aqliy tarbiya -** *Talabalarning ongi va tafakkurini bilimlar, ongli ko'nikmalar hamda malakalar bilan boyitish. Aqliy kuchlar: sezgilar, ruhiy jarayonlar, iqtidorlar, biluvchanlik maqsadlari, dunyoqarash va faoliyat ozodligini shakllantirish.*
- Aqllilik–** *Biror ishni bajarishda shoshma – shosharlik qilishdan saqlovchi quvvat.*
- Bilim –** *Talabalar tomonidan mustaqil hayotda, faoliyatda, jumladan ishlab chiqarishda ijtimoiy munosabatda zarur bo'lgan fan asoslarining qonunlari, omillari va tushunchalarini o'zlashtirish natijalari.*

- Bilish qobiliyati** *Fanning tegishli sohalariga oid qobiliyatdir.*
-
- Vatanparvarlik** *Kishining o'zi tug'ilib o'sgan, kamol topgan joy, zamin, o'lkaga bo'lgan mehr muhabbati, munosabatlarini ifoda etadigan ijtimoiy va ma'naviy – axloqiy xislatlari, fazilatlaridir.*
-
- Vosita–** *Ma'lum o'qitish usulini muvaffaqiyatli amalga oshirmoq uchun zarur bo'lgan yordamchi o'quv materiallari – asbob, qurol va boshqa shu kabilardan foydalanishdir.*
- Global -** *To'liq, umumiy, universal.*
- Gnostik faoliyat** *Pedagogik faoliyatning natijalarini tekshirish va baholash, uning kechishi va samaradorligini tahlil qilish.*
-
- Diskussiya –** *O'quv jarayonining tarkibiy qismlaridan biri; muhokama, bahs yuritish.*
- Doston –** *Qissa, hikoya, sarguzasht, ta'rif va maqto'v ma'nolarida ishlatiladigan xalq orasidagi yirik hajmli etnik asar.*
- Jazolash –** *Bu tarbiyalanuvchining hatti – harakati va faoliyatiga salbiy baho berishdir.*
- Jamoa –** *Insonparvarlik va javobgarlik ma'suliyatlariga bog'liqligi bilan xarakterlanadigan munosabatlar hamda hamkorlikdagi ijtimoiy, ijobiy faoliyatga asoslangan kishilarning umumiyligidir.*
- Jismoniy tarbiya** *Bolaning jismoniy xususiyatlarini anatomik, fiziologik, asab va boshqa tizimlarini har tomonlama rivojlantirish, sog'lom hayot kechirishning afzalliklari, shart-sharoitlari asoslari hamda jismoniy madaniyatining odatdagi zarur elementlarini mustahkam tarzda shakllantirish.*
-
- Idrok–** *Borliqni odam ongida aks etishidir*
- Ijodkor shaxs -** *Faoliyat natijasida, yangiliklar yaratishga intiluvchan va imkoniyati bor shaxs.*
- Ilmiy bilimlar –** *Vogelikning haqqoniy in'ikosidir*
- Inson kamoloti –** *Bu insonning hayot yo'li davomida rivojlanishining o'ziga xos shakli bo'lib, maxsus*

- olib boriladigan tarbiyaviy ta'sir natijasi hisoblanadi.*
- Insonparvarlik -** (*“inson” – arabcha; “parvar”- fors-tojikcha; “lik”- o‘zbekcha – kishiga g‘amxo‘rlik, gumanizm) – odamzodning qadri, uning erkinligi, qobiliyatlari har tomonlama namoyon bo‘lishi uchun kurashish, insonning baxt-saodati, teng huquqliligi, adolatli hayotini ta‘min etishga intilish, insoniylikning barcha tamoyillari yuzaga chiqishiga shart-sharoitlar yaratish ma‘nosini anglatadi.*
- Intizom –** *Maqsadga erishishda, qilinayotgan ishlarda keragicha va maslahatga muvofiq tartibli ravishda bajariladigan hatti–harakat.*
- Irsiylik -** *Bolaning shaklan o‘ziga xosliklarini belgilab beruvchi anatomik, fiziologik, psixologik, tashkiliy jihatlari, qobiliyatlari va iqtidorlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan, talabalarga ota-onalari tomonidan o‘tadigan irsiy belgilardir.*
- Islahot–** *Islah qilish, tubdan o‘zgartirish, qaytadan qurish, yangidan tashkil qilish.*
- Istiqbol –** *Ta’sir ko‘rsatishning juda ta’sirchan usuli bo‘lib, u kishining hatti-harakatlari, oldiga maqsadlar qo‘yish yo‘li bilan ta‘minlaydi va intiluvchanlikni rivojlantirishga yordam beradi.*
- Istiqlol –** *(arabcha “istiqlol”- ko‘tarilish, qaddini rostdash, o‘sish, yuqori joyga erishish) – har bir inson, jamoa, davlat, millatning rivojlanishi uchun zarur erkinlik sharoiti.*
- Islom dini -** *(arabcha “aslama” – xudoga o‘zini topshirish, itoat, bo‘ysunish);*
- Ixtisos -** *Insonning hosil qilgan bilimlari va amaliy ko‘nikmalarining majmui. Kishiga turmushining moddiy va ma‘naviy sohasida muayyan ishni bajarish imkoniyatini beradi.*
- Iqtisodiy madaniyat –** *Jamiyat a‘zolarining iqtisodiy hayotdagi ommaviy ijodiy ishtirokining, ularning iqtisodiy bilimlari, xo‘jalik yuritishdagi mahorati va*

- malakasi, iqtisodiy fikrlashi va tafakkuri rivojlanganligining sifat tavsifi.*
- Iqtisodiy savodxonlik -** *Iqtisodiy faoliyatda ishtirok etishga tayyorgarlik, iqtisodiy aloqalar va munosabatlar mohiyatini tushunish, xo'jalik faoliyatining nazariy va amaliy asoslarini bilish, aniq iqtisodiy vaziyatlarni tahlil eta olish*
- Iqtisodiy savodxonlikni shakllantirish-** *Shaxsning mustaqil iqtisodiy faoliyat ko'rsatishida zarur bo'ladigan barcha iqtisodiy bilim, ko'nikma va malakalarni egallashi, jamiyatda sodir bo'layotgan iqtisodiy o'zgarishlarni va davlatning iqtisodiy siyosatini anglashi, o'z turmush tarzini yaxshilash hamda shaxsiy ehtiyojlarini qondirishga yordam beruvchi iqtisodiy ta'lim-tarbiya qoida va usullari, shakl va usullarini qo'llab, iqtisodiy bilim berish (olish).*
- Iqtisodiy tayyorgarlik -** *Shaxsning talab, ehtiyoj va imkoniyatiga qarab, tanlagan sohasi yoki kasbi bo'yicha nazariy va amaliy iqtisodiy bilimni egallashi hamda kasbiy-iqtisodiy faoliyatga tayyorgarlik holati.*
- Iqtisodiy tafakkur - Innovatsion ta'lim** *Iqtisodiy fikrlash tarzi bo'lib, iqtisodiy bilim, tushuncha va qonuniyatlarning o'quvchi ongida muayyan tizimda aks etishi, uning iqtisodiy ongi holati*
– bu bo'lajak mutaxassislarni joylarda ishlashga tayyorlovchi jarayon bo'lib, u avval olgan bilimlar asosida ta'limni takomillashtirish va samarali yangicha yondashuv qilishdan iborat.
- Iqtisodiy ta'lim -** *Ijodkor shaxs shakllanishiga ta'sir etuvchi iqtisodiy bilim, ko'nikma, malakalarni uzluksiz va izchil o'zlashtirishga yordam beruvchi, shaxs ehtiyoji hamda imkoniyatlarini hisobga olgan holda turli uslub, reja va dasturlar, metodikalar yordamida iqtisodiy bilim berish uchun maqsadga yo'naltirilgan pedagogik jarayon.*

- Iqtisodiy tarbiya** – *Talabalarni iqtisodiy tushunchalar bilan tanishtirish jarayoni bo‘lib, ularni ishlab chiqarish sohasidagi harakatlar ko‘nikmasi, malakasi, iqtisodiy tafakkurni rivojlanishi bilan qurollantirish.*
- Iqtisodiy tarbiyalanganlik** - *Shaxs barkamolligini belgilovchi axloqiy sifatlar, iqtisodiy faoliyatining ma'naviy, huquqiy va siyosiy yo'nalishlaridagi in'ikosi. Iqtisodiy tarbiyalanganlik darajasi ijtimoiy foydali mehnat natijasi bilan belgilanadi.*
- Kasb** – *Muayyan bilim va mahorat talab etadigan mehnat faoliyat turi. Unga umumiy yoki maxsus ma'lumotlar hamda amaliy tajriba yo'li bilan erishiladi.*
- Kreativ –** *Ijodiy.*
- Kriteriy (mezon)** – *Biror hodisaga baho berish uchun yoki biror narsani turkumlash (klassifikatsiya qilish) uchun zarur belgi; baholash va fikrlash uchun o'lchov.*
- Kuzatish** – *O'rganish lozim bo'lgan pedagogik hodisani ma'lum maqsad nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda kuzatuvchi kuzatish bayonnomasini olib boradi. Kuzatish ob'ektiga oid bo'lgan aniq dalilli material tayyorlanadi. Kuzatish belgilangan aniq reja asosida olib boriladi*
- Kuzatuvchanlik qobiliyati** - *Talabaning, tarbiyalanuvchining ichki dunyosiga kira olish qobiliyati, talaba shaxsini va uning vaqtinchalik ruhiy holatlarini juda yaxshi tushuna bilish bilan bog'liq bo'lgan psixologik kuzatuvchanlikdir.*
- Ko'nikma** - *Malakaning tarkibiy qismi bo'lib, harakatning ayrim qismlarini nihoyatda tez, aniq va maqsadga muvofiq ravishda o'z-o'zidan bajarilish qobiliyatini ifodalaydi va talabalarda ko'p marta takrorlanadigan mashqlar natijasida yuzaga keladi.*
- Madaniy meros** - *Avlodlar tomonidan yaratilgan amaliy tajriba, axloqiy, ilmiy, tafakkuriy, diniy va ruhiy*

- qarashlar, xalq madaniyati va ijodi kabi moddiy hamda ma'naviy boyliklar majmui.*
- Malaka –** *Ongli ravishda bajariladigan ishning bir xil mehnati, ko'p marta takrorlanadigan, avtomatlashib ketgan tarkibiy elementidir.*
- Maorif –** *Ta'lim sohasidagi ming yillik madaniyatimiz xazinalarini jamlagan eski yozuvni o'rganish ham didaktik ta'lim mazmunidagi yangilikdir*
- Mafkura -** *(arabcha “mafkura”- nuqtai nazarlar va e'tiqodlar tizimi, majmui) – jamiyatdagi muayyan siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, badiiy, falsafiy, ilmiy qarashlar, fikrlar va g'oyalar majmui.*
- Mashg'ulot o'tkazishning faol shakllari –** *Talaba va o'qituvchi faoliyatining o'zaro ta'sir etishini muhokama qilishiga mo'ljallangan ta'lim jarayonini tashkil etish shakllari.*
- Ma'lumot -** *O'qitish jarayoni va uning natijasi hisoblanib, talabada bilim, iqtidor va ko'nikmalarning o'zlashtirilganligi, bilish qobiliyatining o'sganligi va ular asosida ilmiy dunyoqarash, shaxsiy sifatleri shakllanganligi, ularning ijobiy kuchlari va qobiliyatlarini qay darajada rivojlanganligini anglatadi. U ikki ma'noda ishlatilib, ikkisi ham pedagogikaga tegishli:*
- 1. Xabar – o'qitish jarayonini amalga oshiruvchi vosita. Bilimli kishilarning unga talabdor bo'lganlarga bilim berishi, etkazishi. Ma'lum qilish deb, til va ko'rgazmalar yordamida uni boshqalarga bildirishdir. 2. Bilim darajasi. O'qish, bilish, borliqdan ob'ektiv mavjud qonuniyatlarni his qilish natijasida olingan bilimlar yig'indisi – past ma'lumotli, o'rta va yuqori ma'lumotli va hokazo.*
- Ma'naviyat –** *Arabcha “ma'naviyat” – ma'nolar majmui, “ma'no” yoki “ma'naviyatun”, “ma'naviy g'oya” so'zlaridan olingan bo'lib, “ruhiy holat” degan ma'noni anglatadi. Kishilarning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, diniy tasavvurlar,*

- tushunchalari yaqin va ular bir-birlarini taqozo etadilar.*
- Ma'rifat-** *(arabcha “arafa”- “bilmoq” so‘zidan) – ta’lim-tarbiya, iqtisodiy, siyosiy, falsafiy, diniy g‘oyalar majmui asosida kishilarning ong-bilimini, madaniyatini o‘stirishga qaratilgan faoliyat.*
- Mahalla -** *(Arabcha “mahalla” – joy, o‘rin, makon) – O‘zbekistonning muayyan tarixiy sharoitlarida, asrlar davomida shakllanib, faoliyat ko‘rsatayotgan, aholi yashaydigan ma‘muriy-hududiy birlik, uyushma.*
- Mahorat -** *Mahorat – bu murakkab ishni tez, aniq bajarishning engilligi, mehnatning yuqori sifati va barqaror ritmi uchun kafolat beruvchi ishonchlilikdir.*
- Mehnat -** *Kishilarning qobiliyatini amalga oshirish jarayonidir.*
- Mehnat tarbiyasi** – *Talabalarni umumiy mehnat bilimlari va ijtimoiy foydali mehnat malakalari bilan qurollantirish. Mehnatsevarlik, mehnatning har xil shakllarini tavsiya etish qobiliyatini namoyon etib, tadbirkorlik va ijodiy yondoshuvni namoyon etish xususiyatlarining egasi sifatida shakllantirish.*
- Millat -** *(arabcha “millat”- xalq) – kishilarning yagona tilda so‘zlashishi, yaxlit xududda istiqomat qilishi, mushtarak iqtisodiy hayot kechirishi, umumiy madaniyat va ruhiyatga ega bo‘lishi asosida tarixan tashkil topgan barqaror birligi.*
- Milliy an’analar** - *Millat hayotining turli sohalarida namoyon bo‘ladigan tushunchalar, belgilar, xususiyatlar, faoliyat turlari, odatlar va xislatlarning avloddan-avlodga o‘tish hamda meros bo‘lib qolish tarzi.*
- Milliylik -** *Tarixan tashkil topgan barqaror ijtimoiy-etnik birliklarni, ya’ni millatlar va elatlarni boshqa barqaror ijtimoiy birliklardan, masalan, ijtimoiy guruhlardan farqlovchi tomonlar, xususiyatlar,*

- ma'naviy, ruhiy va madaniy qirralar hamda tafovutlar majmui.*
- Milliy manfaatlar -** *Millatga, milliy davlatga moddiy, ma'naviy, ruhiy va jismoniy foyda, naf keltiruvchi omillar.*
- Milliy ong -** *Bevosita har bir millat yoki elatning uzoq tarixiy etnogenez davri, turmush tarzi, iqtisodiy ishlab chiqarish usuli, diniy e'tiqodlari, madaniyati, boshqa xalqlarning bevosita ta'siri tufayli shakllangan dunyoqarashi, iqtisodiy, siyosiy-ijtimoiy va madaniy-ma'naviy sohalarda faollik darajasi.*
- Milliy ruhiyat –** *Millatning ichki holati, kechinmalari, his – tuyg'ulari, ma'naviy dunyosi, o'y – fikrlari, maqsad va malakalari hamda kayfiyatlari bilan bog'liq mulohazalar majmui.*
- Milliy qadriyatlar –** *Millatning g'oyalari, qadriyatlari, e'tiqodlari, ma'naviy turmush tarzi, orzu-istaklari, kelajak maqsadini ifoda etadigan urf odatlar majmui.*
- Milliy ruhiyat –** *Millatning ichki holati, his – tuyg'ulari, ma'naviy dunyosi, o'y – fikrlari, maqsad va maslaklari hamda kayfiyatlari bilan bog'liq mulohazalar majmui.*
- Milliy til –** *Kishilarning tarixan tashkil topgan barqaror birligi – millatning, elatning umumiy tili. O'zaro fikr almashish, muloqot vositasi.*
- Milliy g'urur -** *Har bir millatning o'z – o'zini anglashi natijasida sodir bo'ladigan ichki ruhiy kayfiyati. Milliy g'urur mustahkam bo'lsa, millat vakillari orasidagi birlik ham kuchli bo'ladi.*
- Mimika -** *O'z fikri kayfiyati, sezgisini yuz muskullari harakati orqali aks ettirish san'ati.*
- Moddiy qadriyatlar –** *Insoniyatning yashashi, mehnat qilishi uchun zarur bo'lgan, ijtimoiy, iqtisodiy talabini qondiradigan barcha turdagi narsalar va ashyolar yig'indisi.*
- Muallim –** *Muayyan fan yuzasidan ta'lim berishga vakolatli, ta'lim – tarbiya bo'yicha oliy, maxsus tayyorgarlikdan o'tgan, pedagogik va psixologik*

- bilim, ko'nikma, malakalarni va talab darajasidagi mahoratni egallagan, ta'lim-tarbiya, usul, vosita uslubi asosida o'z metodikasi, ishlash qobiliyatiga ega ma'naviy etuk shaxs.*
- Muammo –** *Ilmiy bilishni rivojlantirish zarurligini ifodalashning sub'ektiv shaklidir. U muammoli vaziyatning, ya'ni jamiyat rivojlanishi jarayonida bilish va bilmaslik o'rtasida ob'ektiv ravishda vujudga keladigan ziddiyat.*
- Muammoli vaziyat –** *Talabaning ma'lum psixik holatidir. Bunday holat ma'lum topshiriqni bajarish jarayonida ziddiyatni anglash tufayli vujudga keladi.*
- Muomala -** *Yaxshilikka sabab bo'lgan ishlarda mayinlik, shirinso'zlik, yoqimtoylik asosidagi munosabat.*
- Murakkab malaka -** *Kasb mahoratining asosini tashkil etib, bilim, boshlang'ich malaka hamda ko'nikmalarni o'z ichiga oladi va ular asosida shakllanadi. Murakkab malaka shakllanishi shaxsda kasb mahoratini paydo bo'lishiga imkon yaratadi.*
- Muhit –** *Kishiga ta'sir etadigan tashqi voqelik.*
- Nutq qobiliyati –** *Nutq yordamida, shuningdek, imo – ishora vositasida o'z fikr va tuyg'ularini aniq va ravshan ifodalash qobiliyati*
- Ogohlantirish–** *Noma'qul xatti – harakatlarning oldini olish uchun qo'llaniladigan vosita*
- Odat –** *Xalqlarning ichki munosabatlarini tartibga soluvchi mezon va an'analar majmuasi. «Odat» so'zi udum, urf, an'ana va marosim tushunchalari o'rnida qo'llaniladi*
- Odob –** *Xulq-atvor, yurish-turish madaniyatining tashqi jihatini ifodalaydi.*
- Odob - axloq -** *Shaxsdan o'ziga va dunyoga munosabatlariga olib boruvchi hatti – harakatlarning belgilangan, aniqlangan usuli bo'lib, sababiyat, tasavvurlar va qarashlarni o'z ichiga oladi, ya'ni shaxs shakllanadigan manba hisoblanadi.*

- Oila –** *Kishilar hayotining eng muhim qismi, jamiyatning kichik hujayrasi, ijtimoiy – madaniy organizm.*
- Omil-** *Bir guruhga kiruvchi kamida ikkita ilk mahsul boisdan tashkil topgan ahamiyatli sababdir*
- Pantomimika -
Pedagogik
aksiologiya –** *Gavda, qo'l, oyoq harakati.
Ta'lim, tarbiya va shaxs rivojlanishidagi (pedagogik) qadriyatlarni o'rganadigan pedagogika bo'limi.*
- Pedagogik
jarayon –** *Ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan, kattalarning pedagogik faoliyati ta'sirida tashkiliy shakllantirilgan va mazmunan boyitilgan hamda tarbiyaning yo'naltiruvchi va olib boruvchi rahbarlik roli natijasida bolaning o'z-o'zini taraqqiy ettirishidir.*
- Pedagogning
mehnati –** *Bu behad izlanish va azob-uqubatli kechinmalar, ilhom va betakror nurlanish oni. Ko'pdan – ko'p kundalik ishlar, hafsalasi pir bo'lish va talabalar bilan birgalikda boshdan kechirilgan quvonchdan qanoat hosil qilishdir.*
- Pedagogik
reyting-** *Ta'lim muassasalarida o'qituvchining faoliyati, dasturi, o'quv rejasi, obro'sini baholovchi individual raqam ko'rsatkichi.*
- Pedagogik
tajriba –** *O'qituvchi tomonidan pedagogikaning tamoyillari va amaliy qonunlarini ijodiy faol ravishda o'zlashtirish hamda real sharoitlarni, talabalarning jamoasi, shaxsning o'ziga xosliklarini hisobga olgan holda amaliyotga tadbiq etishdir.*
- Pedagogik
texnika –** *O'qituvchining o'quv faoliyatida o'qitishdan tashqari zarur bo'lgan, umumiy pedagogik malakalar majmuidan tashkil topadi.*
- Pedagogik
qarama
qarshiliklar –** *Pedagogik amaliyot jarayonida vujudga keladigan, eskirgan pedagogik ko'rsatmalar, qarashlar, qonuniyatlar va pedagogik jarayonning tarbiyaviy samaradorligini pasaytiradigan, shaxsni shakllantirish tizimlari bilan vujudga kelgan nomuvofiqlikdir.*

- Pertseptsiya –** *Qabul qilish, sezish, ob'ektiv borliqning sezgi organlari orqali aks etishi.*
- Reyting –** *Hodisalarni diagnostika (tashxis) yo'li bilan o'lchash; fikr va bahoni tanlash.*
- Rivoyat –** *Hayotiy uydirmalar vositasida aks ettiruvchi og'zaki ijod janri.*
- Salohiyat-** *Aniq fan yo'nalishida aniq ishni samarali bajarish uchun zarur bo'lgan o'ziga xos xususiyatni bildiradi.*
- Sezgi–** *Kishini o'rab olgan moddiy dunyo, predmet va hodisalarning ongimizda aks etishidir.*
- Siyosiy madaniyat –** *Umumiy madaniyatning muhim turi, jamiyat a'zolari, millat, ijtimoiy guruhlar va qatlamlar hamda har bir fuqaroning, davlatning ichki va tashqi siyosatini tushuna bilish qobiliyati, tahlil qila olish darajasi va siyosiy vaziyatga qarab, mustaqil ravishda o'z hatti – harakatlarini belgilash hamda ularni amalga oshirish madaniyati.*
- Suhbat –** *Pedagogik muloqot usullaridan biri; u evristik, individual, axborot, mustahkamlash usullaridan farq qiladi.*
- So'rov, so'roq –** *Faqat o'zlashtirilgan ma'lumotlarni tiklabgina emas, balki uni isbotlab va tushuntirib berishdan iborat.*
- Talab –** *Ta'lim va tarbiya jarayonida pedagogning tarbiyalanuvchiga nisbatan shaxsiy munosabatining namoyon bo'lishidir.*
- Takomillashuv –** *Qarama – qarshiliklarning birligi va kurashuvidir, ana shu birlik hamda kurash natijasida ro'y beradigan o'z – o'zidan harakatlanishdir.*
- Tanbeh berish –** *Eng engil jazo chorasidir.*
- Tarbiya -** *Keng qamrovli tushuncha bo'lib, avloddan-avlodga ijtimoiy tarixiy tajribalarni etkazish borasidagi faoliyat, shaxs shakllanishiga uzluksiz, maqsadga muvofiq, izchil ta'sir etish orqali mustaqil harakatga, ishlab chiqarish, foydali,*

- unumli mehnatga tayyorlashdir. Tarbiya ta'limsiz amalga oshmaydi. Ta'lim berishdan maqsad, uning izidan tarbiya berishdir, ya'ni ta'lim orqali egallangan bilimlarni amaliyotda qo'llay olishga o'rgatiladi.*
- Tarbiyalovchi (ta'lim) –** *Dunyoqarashni shakllantiruvchi, axloqiy, estetik tasavvurlarni va e'tiqodni shakllantiruvchi ta'lim.*
- Tarbiyaning asosiy qonuni –** *O'sib borayotgan yosh avlodni katta yoshdagilar ijtimoiy tajribasining egasi qilish, ularning ijtimoiy hayotga qo'shilishini ta'minlab berishda amalga oshiriladigan zaruriy va majburiy faoliyatdir.*
- Tarbiyaning maqsadi –** *Jamiyatning alohida shaxsga bo'lgan ehtiyojlarini aks ettirish, uning mohiyati, ideal talablari, o'ziga xosligi va fazilatlari, hayotga munosabatining aqliy, jismoniy, axloqiy, estetik rivojlanishini nazariy va amaliy umumlashtirishidir.*
- Tarbiyaning ob'ektiv qonuniyatlari -** *O'quv - tarbiya jarayonini tashkil etish va ijtimoiy hayot, shaxsning o'ziga xosligi hamda sifatlarini shakllantirishdek talablaridagi turg'un bo'lgan an'analaridir.*
- Tarbiyaviy muhit –** *Inson shaxsini shakllantiruvchi tabiat, ijtimoiy munosabatlarning tizimi, ijtimoiy tafakkur, turmush va shaxslararo munosabatlarning doirasi kabi omillarning bir birini boyitishi va muvofiq kelishidir.*
- Tarbiyalash uslublari –** *Jamiyatda qabul qilingan hatti-harakatlar, muloqot, munosabatlar tizimi va talablarini talabalar ongiga singdirishga yo'naltirilgan pedagogik ta'sir.*
- Tarbiya qoidasi –** *Pedagog ta'lim va tarbiya jarayonini yaxshiroq tashkil etish maqsadida foydalanadigan boshlang'ich holat, rahbarlik asosidir*
- Ta'lim -** *Insoniyat tajribasining ma'lum tomonlarini, ya'ni ijtimoiy taraqqiyotning hozirgi talablariga muvofiq darajada bilimlarni tarbiyaga ega*

- bo'lishlarini ta'minlaydigan fan, texnika, axloq, madaniyat va san'atni o'zlashtirishga qaratilgan maxsus, uyushtirilgan faoliyat, o'qitish va o'qishdir. Ta'lim turlari ko'p: axloq-odob ta'limi, tabiiy bilimlar bo'yicha ta'lim, texnik ta'lim, kasb-hunar ta'limi, siyosiy ta'lim va hokazo.*
- Ta'limning tarbiyalovchi xarakteri –** *O'qitish jarayonida talabalar orttirgan bilim va ko'nikmalar bilan ularning dunyoqarashi, insoniy fazilatlarini rivojlantirish orasida bog'lanishlarga erishilishini ta'kidlovchi pedagogik qonuniyat.*
- Ta'limda faollik –** *Ta'lim jarayonida talaba shaxsining faolligi, ta'lim jarayonining sub'ekti ekanligini aks ettiruvchi didaktik jarayon.*
- Tizim -** *Yunoncha "systema" so'zidan olingan bo'lib, bo'laklarda hosil bo'lgan, birikish ma'nosini anglatadi. Ya'ni yaxlit, butunlikda faoliyat ko'rsatma oladigan o'zaro bog'liq elementlarning yig'indisidir.*
- Test –** *Aniq pedagogik tadqiqot uchun ishlatiladigan so'rovnomalar, sinalayotgan talabaning psixologik va intellektual tavsifi, uning bilim, tushunish, uddalash, ko'nikmalarini o'lchashga imkoniyat beruvchi standartlashtirilgan topshiriqlar.*
- Texnologiya-** *Ashyo yoki yarim xomashyoni tayyor mahsulotga aylantirish uchun holati, shakli, xossasi, xususiyatlarini o'zgartirish usullari majmuasi.*
- Tushuntira olish qobiliyati –** *O'quv materialini talabalarga tushunarli tilda bayon eta olish, talabalarda mustaqil ravishda faol fikrlashga qiziqish uyg'otish qobiliyatidir*
- Umuminsoniy qadriyatlar** *Barcha millatlar manfaatiga mos keladigan ma'naviy xazinadan iborat bo'lib, milliy qadriyatlar bilan tarbiyaviy asosga egadir.*
- Umumpedagogik tayyorgarlik –** *Pedagogik kategoriyalar va metodologik asoslar haqidagi bilimlarni shakllantirish, psixologik-pedagogik sezgirlik, kuzatuvchanlik, pedagogik va o'zini tuta olish, boladan hamda*

- yoshlardan yoshiga ko'ra rivojlanishidan, asosiy qonuniyatlari haqidagi bilimlarni, talabalardan individual o'ziga xosliklari, pedagogik ishlar bilan qiziquvchanligini shakllantirishdir.
- Uslub–** Ma'lum o'quv materiallarini o'tishda qo'llanilayotgan asosiy o'qitish usuli bilan birga ikkinchi bor o'qitish usulining ayrim elementlaridan foydalanib ish ko'rishdir.
- Usul (usul) –** Falsafiy va ilmiy bilimlarni yaratish va asoslash usuli: voqelikni amaliy va nazariy jihatdan o'zlashtirishga qaratilgan, ma'lum tarzda yo'naltirilgan usul va tajribalar yig'indisi.
- Xalq pedagogikasi –** Avlod-dan-avlodga og'zaki ijod namunalarida o'tib kelayotgan, tarixiy, iqtisodiy, ijtimoiy muhit ta'sirida to'plangan, to'planayotgan va hayot tajribasida juda ko'p sinalgan pedagogik qarashlar, bilim, ko'nikma, malakalar keltirib chiqargan tarbiyaning usul, uslub va uslubiyatlaridir.
- Huquqiy tarbiya –** Talabalarda huquqiy madaniyatni, qonunga bo'ysunuvchanlik hatti-harakatlarini shakllantirish.
- Shaxs -** Ijtimoiy va shaxslararo munosabatlarning mahsuli, ongli faoliyatning sub'ekti bo'lmish individdir. Shaxsga taaluqli bo'lgan eng muhim tasnif - uning jamiyatdagi murakkab ijtimoiy munosabatlarga bevosita aloqadorlik, ijtimoiy faoliyatga nisbatan ham ob'ekt, ham sub'ekt bo'lishlikdir.
- Shaxsning aqliy sifatleri -** Shaxsning aqliy jihatdan kamolotga etishuvi, uning aqliy, zehniy sifatleri, fazilatleri orqali namoyon bo'lishi. Bu darajaga olib boruvchi sifatlar: bilag'onlik, ob'ektivlik, fikrlovchilik.
- Shaxsni har tomonlama kamolga etishi –** Ma'lum bir real tarixiy shart-sharoitlarda amalga oshirish mumkin bo'lgan qobiliyatlar va iqtidorlarning, uning mohiyatini tashkil etadigan hamma kuchlarning to'liq va batamom rivojlanishidir.

- Ekologik tarbiya** – *Talabalarni ekologik (atrof –muhit muhofazasi) bilimlar bilan qurollantirish, shuningdek tabiatga nisbatan axloqiy-estetik, oqilona ekologik xatti-harakatlar ko'nikmalarini, ekologik tafakkurni hamda ekologiya uchun faol kurashish qobiliyatlarini shakllantirish.*
- Estetik did–** *Shaxsda uning shaxsiy va ijtimoiy xususiyatlarining qo'shilishi natijasida hosil bo'ladigan murakkab hodisadir.*
- Estetik ideal –** *Bu shaxsning tabiat, jamiyat va san'atdagi maqsad tarzida idrok etadigan, takomillashgan go'zallik borasidagi baxosining aks etishidir.*
- Estetik tarbiya –** *San'atdagi, tabiatdagi qurshab olgan hayot voqeligidan go'zallik vositalari asosida tarbiyalash, insonni garmonik tarbiyalash vositasidir.*
- Estetik tuyg'u –** *Bu shaxsning buyum yoki hodisaga estetik baho berish munosabatini boshdan kechirishidir.*
- O'z-o'zini anglash –** *Sub'ekt (shaxs) tomonidan ob'ektiv, real, hayotiy haqiqatni aks ettirish, uning sub'ektiv qiyofasi, obrazini yaratish va o'z hatti-harakatlari hamda faoliyatini o'z-o'zidan boshqaruvini o'zida namoyon etadigan, o'zini boshqalar bilan taqqoslash imkonini beruvchi ong shakli*
- O'qitish –.** *O'qituvchi va talabaning birgalikdagi faoliyati va bu jarayonda talabalarning ma'lumot olishi, o'quv, ko'nikma va malakasini egallashi, tarbiyalanib, rivojlanib borishi nazarda tutiladi*
- O'qish -** *Talabaning kishilar tajribasidan bilib olgan qonuniyatlarni o'zida aks ettirishdir.*
- Qadriyatlar –** *Inson va insonlar uchun ahamiyatli bo'lgan erkinlik, tinchlik, ijtimoiy tenglik, haqiqat, ma'rifat, go'zallik, yaxshilikdan iborat holatlar yig'indisidir. Borliq va jamiyat, narsalar, voqealar, hodisalar, inson hayoti, moddiy va ma'naviy boyliklarning ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llaniladigan tushuncha.*

Qonuniyat –

Bu barqaror, zaruriy, u yoki bu hodisalar va jarayonlar o'rtasidagi mutanosiblik va muhim aloqa.

Hadis–

Islom dinida Qur'onu karimdan keyingingi muqaddas manba, Muhammad payg'ambarning faoliyati va ko'rsatmalari haqida rivoyatlar majmui.

Test**1. Quyidagi ta'rif tarbiya fanini o'qitish jarayonidagi qaysi yondashuvga tegishli?**

Bixevioristik yo'nalganlik, tarbiyani shaxsning xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatadigan ijtimoiy pedagogic ta'sir sifatida qaraladi.

- A. Aksiologik yondashuv
- B. Faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv
- C. Sotsiumga doir yondashuv
- D. Ijtimoiy-kosmik yondashuv

2. Tarbiyaviy qadriyatlar nechta asosiy o'zaro uyg'un manbaga ega?

- A. 4ta (genetic, tabiiy, sotsiumga doir, ijtimoiy-kosmetik)
- B. 3ta (genetic, tabiiy, sotsiumga doir)
- C. 2ta (tabiiy, sotsiumga doir)
- D. 5ta (genetic, tabiiy, sotsiumga doir, aksiologik, ijtimoiy-kosmetik)

3. Uch taqdir o'yining davomiyligi qancha?

- A. 30-40 daqiqa
- B. 35-50 daqiqa
- C. 30-45 daqiqa
- D. 45-50 daqiqa

4. Kooperativ ta'lim texnologiyasiga qachon asos solingan?

- A. 1987-yil
- B. 1988-yil
- C. 1898-yil
- D. 1989-yil

5. Ta'limning maqsadi bolani kelgusida ustozning yordamisiz mustaqil

rivojlanishga layoqatli qilishdan iborat'' degan fikr kimga tegishli?

- A. E. Xabbard
- B. Amir Temur
- C. O. Kant
- D. Isaak Nyuton

6. Keys stadining asosiy kategoriyasi nima?

- A. Aniq vaziyatlarni o'rganish
- B. Tahlil etish
- C. Ijtimoiy ahamiyatga egaligi

D.Barcha javoblar to'g'ri

7.Refleksiya bosqichi necha daqiqa davom etadi?

- A. 10 daqiqa
- B. 12 daqiqa
- C.20 daqiqa
- D.15daqiqa

8.Keys stadi strategiyasidan foydalanish nechta algoritmit ketma ketlikka asoslanadi?

- A.VI ta
- B.IV ta
- C.X ta
- D.IX ta

9.” Ilm olishda misol qoidadan foydaliroq” degan fikrni kim bildirgan?

- A.Amir Temur
- B.Isaak Nyuton
- C.O.Kant
- D.E.Xabbard

10.O'quv turniri metodi nechta raqamlangan kartochkalardan iborat bo'ladi?

- A.30 ta
- B. 27 ta
- C. 35 ta
- D.25ta

11) Sinergetika atamasini fanga kim kiritgan?

- A. O. Kont
- B. E. Dyurgeym
- C. Xeken
- D. Rotshild

12) Tarbiya fanini o'qitish jarayoniga kirmaydigan yondashuvni toping.

- A. Sinergetik
- B. Faoliyatga yo'naltirilgan
- C. Aksiologik
- D. Absolut

13)Tarbiya texnologik jarayonning bosqichlari nechta ?

- A. 4 ta
- B. 5 ta

C. 6 ta

D. 10 ta

14) Tarbiya jarayoniga texnologik yondashuvga kirmaydigan qatorni toping?

A. Motivatsion

B. Mazmunli

C. Faoliyati

D. Kreativ

15) Koperativ ta'limni tashkil etish g'oyasi qanday?

A. O'qtuvchi sinfni kichik guruhlariga bo'lib ishlashi

B. O'quvchi va o'qtuvchi individual ishlashi

C. O'qtuvchi sinfni katta guruhlariga ishlashi

D. Noananaviy darslarni tashkil qilishi

16) Koperativ ta'limni tashkil etish texnologiyasini kim tatbiq etgan.

A. Slavin

B. Xeken

C. Kont

D. Dyurgeym

17) Tarbiyaning o'ziga xos bo'lgan xususiyatlariga mos bo'lmagan javobni toping?

A. Xususiyligi

B. Maqsadga yo'naltirilganligi

C. Bir tomonlamaligi

D. Ikki tomonlamaligi

18) Sinergetika atamasini fanga kim kiritgan?

A. O. Kont

B. E. Dyurgeym

C. Xeken

D. Rotshild

19) Tarbiya fanini o'qitish jarayoniga kirmaydigan yondashuvni toping.

A. Sinergetik

B. Faoliyatga yo'naltirilgan

C. Aksiologik

D. Absolut

20) Tarbiya texnologik jarayonning bosqichlari nechta ?

A. 4 ta

B. 5 taC. 6 ta

D. 10 ta

21) Tarbiya jarayoniga texnologik yondashuvga kirmaydigan qatorni toping?

A. Motivatsion

B. Mazmunli

C. Faoliyati

D. Kreativ

22) Koperativ ta'limni tashkil etish g'oyasi qanday?

A. O'qtuvchi sinfni kichik guruhlarga bo'lib ishlashi

B. O'quvchi va o'qtuvchi individual ishlashi

C. O'qtuvchi sinfni katta guruhlarga ishlashi

D. Noanaviy darslarni tashkil qilishi

23.Keys stadining asosiy kategoriyasi nima?

A.Aniq vaziyatlarni o'rganish

B.Tahlil etish

C.Ijtimoiy ahamiyatga egaligi

D.Barcha javoblar to'g'ri

24.Refleksiya bosqichi necha daqiqa davom etadi?

A. 10 daqiqa

B. 12 daqiqa

C.20 daqiqa

D.15daqiqa

25. Interfaol metodlarni qo'llashda o'qituvchida qanday asosiy omillarga ega bo'lishi talab qilinadi?

1.Ish tajribasi 2.metodik malaka 3.o'quvchilarning o'zlashtiriah darajasi 4.tashkilotchilik qobiliyati 5.o'quvchilarning darsga psixologik tayyorligi 6.tayanch pedagogik-psixologik bilimlar.

A) 1,2,3,4. B)1,2,4,6 C)3,4,5 D)1,3,6

26. "Rolli o'yin" metodining bayonini ketma-ketlikda joylashtiring.

1. Rollar taqsimlanadi 2.tahlil qilish va xulosa yasash 3. Senariy ishlab chiqiladi 4. Rollar ijro etiladi 5.o'yinning maqsadi va vazifalari tushuntiriladi.

A) 1,3,5,2,4 B)1,2,3,4,5 C)3,5,1,4,2

27. Yangi bilimlarni bayon etishda juda sekin jarayonlar bilan tanishish, bevosita kuzatish mumkin bo'lmagan, shuningdek, tez

sodir bo'ladigan jarayonlar, hodisalarni kuzatish imkonini beruvchi metod qaysi?

- A) charxpalak metodi
- B) bahs-munozara metodi
- C) INSERT metodi
- D) Videotopishmoq metodi

28. Faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv qanaday yonxdashuv?

- A) sinergetik yondashuv
- B) Germenevtik yondashuv
- C) Aksiologik yondashuv

29. Layoqatlilik qaysi yondashuvga tegishli?

- A) Aksiologik
- B) Kompentetsiya
- C) Psixoterapevtik

30. Maktab Muzeylar, kitoblar ko'rgazmasi tashkil etish qaysi ish usuliga taalluqli?

- A) og'zaki
- B) amaliy
- C) ko'rgazmali

31. Tarbiya jarayonining asosiy maqsadi nimadan iborat?

- A) shaxs tarbiyasi
- B) o'quvchi tarbiyasi
- C) har jihatdan barkamol shaxsni shakllantirish.

32. Yurtiga dushman bostirib kelgan paytda shogirdlariga o'z yurtingizga keting, joningizni saqlang degan vatandoshimiz kim?

- A. Jaloliddin Manguberdi B. Najmiddin Kubro S. Shiroq D. To'maris

33. Temuriy shahzodalarning tarbiyasi bilan asosan kimlar shug'ullangan?

- A. Amir Temur B. Saroy ayonlari S. Saroymulxonim D. Enagalar

34. Mahallada duv-duv gap kinosida Azimjonning onasinikim bo'lgan?

- A. Anziratxon B. Bahrixon S. Mehrixon D. To'xtaxon

35. "Yoshlarga nasihat qiladigan keksalar ko'chatlarni voyaga yetkazadigan bog'bon kabidir". Ushbu so'zlarni kim aytgan?

- A. Alisher Navoiy B. Ibn Sino S. Luqmoni Hakim D. Abdulla Avloniy

36. Oilada ota nima timsoli?

A. Mehr-muhabbat timsoli B. Fayz-baraka timsoli S. Shodlik timsoli D. Sahiylik timsoli

37. Inson hech qachon yolg'iz o'zi bahtiyor bo'lolmaydi, barcha insonlar baxtli bo'lgandagina u baxtlidir dep kim yozgan?

A. Abdulla Avloniy B. Alisher Navoiy S. Lev Tolstoy
D. Konfutsiy

38. Hayotda uchta mehmon vadalashmay ham keloveradi .Ular nimalar?

A. risq, muhabbat,
baxt B. ota-ona S. aka-ukalar D. mehnat, kasallik

39 . Bir tikan botsa oyoqqa shunchalar, Ne bo`lar, ayt, qalbga botsa u agar? Hadis muallifi kim?

A. Alisher Navoiy B. Lev Tolstoy S. Jaloliddin Rumiy
D. Amir Temur

40. Tarixchi olim Narshaxiy qaysi asarida bundan 1100 yil ilgari mahalla xalqning boshqaruv uslubi bo'lganligini yozgan?

A. "Shohnoma" asarida B. "Siyosatnoma" asarida S. "Buxoro tarixi" asarida D. "Mahalla" asarida

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari**

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: “O'zbekiston”, 2018. – 507 b.
4. Mirziyoev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. 3-jild.– T.: “O'zbekiston”, 2019. – 400 b.
5. Mirziyoev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O'zbekiston”, 2020. – 400 b.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

6. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2023.
7. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrda qabul qilingan “Ta'lim to'g'risida”gi O'RQ-637-sonli Qonuni.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF-60-sonli Farmoni.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 26 sentyabr“Oliy ta'lim muassasalariga kirish uchun nomzodlarni maksadli tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida”gi PQ-3290-sonli Qarori.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabr “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-5847-sonli Farmoni.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 oktyabr “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-6097-sonli Farmoni.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 3 dekabrda “Iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimi va akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” PQ-4910-son Qarori.
13. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil liyundagi “Akademik litseylar rahbar va pedagog xodimlarining

uzduksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risda” 296-son Qarori.

14. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 6 iyuldagi “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida “Tarbiya” fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 422-son Qarori.

15. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabrda “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1059-son Qarori.

16. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida Tarbiya fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora tadbirlari to‘g‘risidagi O‘zbekiston vazirlar mahkamasining 422- son qarori 2020 6-iyul.

III. Maxsus adabiyotlar

1. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: 2008.

2. Abduqodirov A.A., Pardayev A.X. Pedagogik texnologiyalarga oid atamalarning izohli lug‘ati. – T.: Fan va texnologiya, 2012.

3. Abduqodirov A.A., Pardayev A.X. Ta’lim jarayonini texnologiyalashtirish nazariyasi va metodologiyasi. – T.: Fan va texnologiya, 2012.

4. Azizxodjayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: Moliya, 2003.

5. Azimova N.E. Bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchisini ma’naviy-axloqiy tarbiyalash texnologiyasi. Monografiya. – T., 2009.

6. Айдагулова А.Р. Формирование воспитательной медиасреды педагогического вуза: автореферат дис. ... кандидата педагогических наук. – Уфа, 2012

7. Axborot asrida ta’lim-tarbiya / To‘plam. Tuzuvchilar: B.X. Daniyarov, A.E. Rahimov, F.H. Jabborov. – T.: Akadernashr, 2012.

8. Белкин А.С. Компетентность, профессионализм, мастерство. – Челябинск: ОАО «Южно-Уральский кн. изд-во», 2004.

9. Bodo Shefer. Pul alifbosi. G‘oliblik qonuniyati. Moliyaviy erkinlik sari yo‘l. Eng sara asarlari. Jahon bestsellerlari. –T.: Adabiyot uchqunlari, 2018

10. Clayton M. Justice and legitimacy in upbringing. – OUP Oxford, 2006.

11. Kulchayeva D. Boshlang'ich sinflarda "Tarbiya" fanini o'qitishning ilmiy-metodik asoslari // Academic research in educational sciences. 2021. №11.

12. Sherov D. Shaxga yo'naltirilgan talim texnologiyalarining ilmiy-nazariy asosi // Академические исследования в области педагогических наук. 2021

13. Erkayev A. Milliy g'oya va ma'naviyat. – T.: "Ma'naviyat", 2002-240-bet.

14. Xodjayev B., Artikova M. Tarbiya fanini o'qitish texnologiyasi. – Toshkent, 2020 y

15. Gulobod Qudratulloh qizi, R. Ishmuhamedov, M. Normuhamedova. An'anaviy va noan'anaviy ta'lim. – Samarqand: "Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi" nashriyoti, 2019. 312 b.

16. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). – T.: "Iste'dod" jamg'armasi, 2008. – 180 b.

17. Kodirov A., Quronov M. va boshq. Fazilatli avlod: 7-18yosh gacha bo'lgan bolalarni tarbiyalash bo'yicha qo'llanma. "Muharrir" nashriyoti 2019 y.

18. Komilov N. Komil inson millat kelajagi. Uzbekiston 2001. komponentlari.- T.: "Yangi nashr", 2019. – 27 b.

19. Kuponov M. Milliy Tarbiya ma'naviyat 2007-240 Bet

20. Mollenhauer K., Friesen N. Forgotten connections: On culture and upbringing. – Routledge, 2013.

21. Maxmudov M. Komil inson- ajdodlar orzusi adabiy falsafiy uylar. Risola ma'sul muxarruk R.J. Voxidov yozuvchi 2002- 288 bet

22. Muslimov N.A va boshqalar. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. O'quv-metodik qo'llanma. – T.: "Sano-standart", 2015. – 208 b.

23. Muslimov N.A va boshqalar. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. O'quv metodik qo'llanma. – T.: "Sano-standart", 2015. – 208 b.

24. Nishonova S. Komil inson tarbiyasi. "Istiqlol", 2003, 224 b.

25. Олимов Ш. Ш. Маънавий-ахлоқий тарбия асослари. (Монография) // Т.: "Fan va texnologiya", -2015. – 2015. – Т. 228.

26. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. Qarshi: "Nasaf", 2000.

27.Olimov Sh.Sh.. Ma’naviy-axloqiy tarbiya asoslari. (Monografiya). –T.: «Fan va texnologiya», 2015, 228 bet.

28.Jabborova O., Umarova Z. Boshlang‘ich ta’limda “tarbiya” fanini o‘qitish metodikasi. «Zebo print», Toshkent – 2022

29.Olimov Sh.Sh. Pedagogik texnologiyalar. - T.: “Universitet”, 2020. – 172-177 b.

30.Qodirov B. Komil inson Tarbiyasi "Mexnat" 2001-168 b

31.Qurbonov M. Milliy Tarbiya Respublika ma’naviyati va ma’rifat kengashi. Milliy g‘oya va mafkura ilmiy amaliy maruza. " Ma’naviyat" 2007-240 b

32.Quronov M. Milliy tarbiya. – T.: Ma’naviyat, 2007-240-bet.

33. Quronov M., Turaev Sh.va boshq. Milliy tarbiya va yoshlar dunyoqarashini shakllantirish. o‘quv qo‘llanma, "Muharrir" nashriyoti 2017y.

34.Sattorova Z. va b. Texnologiya: 9-sinf uchun darslik. –T.: “O‘zbekiston”, 2019.

35.Shomirzayev M.X. O‘zbek milliy hunarmandchiligida innovatsion jarayonlar. -T.: “Yangi nashr”, 2019. – 88 b.

36.Topildiev V. Ta’lim va tarbiya jarayonlarini tashkil etishning me’yoriy-huquqiy asoslari. - Toshkent: “Universitet”. 2015. – 245b.

37.Ziyomuhamedov B. Pedagogika: Oliy o‘quv yurtlari uchun o‘quv qo‘llanma- T.: “Turon-Iqbol”, 2006-112 bet.

38.Асекретов О.К., Борисов Б.А., Бугакова Н.Ю. и др. Современные образовательные технологии: педагогика и психология: монография. – Новосибирск: Издательство сРНС, 2015. – 318 с.

39.Асекретов О.К., Борисов Б.А., Бугакова Н.Ю. и др. Современные образовательные технологии: педагогика и психология: монография. – Новосибирск: Издательство сРНС, 2015. – 318 с.

40.Белогуров А.Ю. Модернизация процесса подготовки педагога в контексте инновационного развития общества: Монография. – М.: MAKS Press, 2016. – 116 s. ISBN 978-5-317-05412-0.

41.Кондратьев, С. С. Инновации в современном образовании / С. С. Кондратьев. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2021. — № 4 (346). — С. 346-347. — URL: <https://moluch.ru/archive/346/77841/> (дата обращения: 24.02.2024).

42. Xaydarova M.X. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini Tarbiya fanini o'qitishga metodik tayyorgarligini takomillashtirish. 13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang'ich ta'lim) pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. –Toshkent, 2023

43. Nazarova Z.T. Malaka oshirish jarayonida tarbiya fani o'qituvchilarining ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish (Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi asosida). 13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. –Samarqand, 2023

44. Tarbiya [Matn]: 10-sinf uchun darslik / N. Ismatova, Z. Zamonov, Z. Islomov, D. Rahimjonov, O. Maxmudov, D. Ro'ziyeva, S. Shermuxamedova, S. Akkulova, N. Xolmuxamedova, Z. Jabborova Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021. – 128 b.

45. Tarbiya [Matn]: 11-sinf uchun darslik / D. Kenjayev, N. Ismatova, Z. Islomov, D. Rahimjonov, D. Ruziyeva, Z. Zamonov, O. Mahmudov, S. Shermuhammedova, S. Akkulova, N. Xolmuxamedova, Z. Jabborova. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021. – 128 b.

46. Z. Zamonov, O. Maxmudov, Z. Islomov, D. Ro'ziyeva, D. Rahimjonov, Sh. Sattorov, N. Ismatova, S. Akkulova, S. Shermuxamedova, N. Xolmuxamedova, S. Madaliyeva, L. Mo'minova, S. Zokirova – 8-sinf Tarbiya, darslik. – Toshkent: «Zamin nashr», 2020. –112 b.

47. Tarbiya 7 [Matn]: darslik / Sh. Sattorov [va boshq.]. – Toshkent: «O'zbekiston» NMIU, 2020. – 120 b.

48. M. Quronov va b. Tarbiya, 6-sinf. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinf o'quvchilari uchun darslik. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2020. – 112 b.

49. www.ziyonet.uz

50. www.ziyouz.com

51. www.edu.uz

MUNDARIJA

KIRISH	3
1-MAVZU. IJTIMOIIY TARAQQIYOT VA UMUMIY O‘RTA TA’LIM MUASSASALARIDA “TARBIYA” FANINI O‘QITISHNING ILMIY – METODIK ASOSLARI	6
1.1. “Tarbiya” fanini o‘qitish ijtimoiy-pedagogik hodisa sifatida	6
1.2. “Tarbiya” fani barkamol avlodni shakllantirishning muhim omili.	12
1.3 Barkamol avlod –Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori	19
2-MAVZU: “TARBIYA” FANINI O‘QITISH METODIKASINING PREDMETI, MAQSAD – VAZIFALARI VA ILMIY TADQIQOT METODLARI	25
2.1. “Tarbiya” fanini o‘qitish metodikasining predmeti	25
2.2.“Tarbiya” fanini o‘qitish metodikasining maqsad va vazifalari	28
2.3.“Tarbiya” fanining boshqa fanlar bilan aloqadorligi	33
2.4. “Tarbiya” faning ilmiy tadqiqot metodlari	36
3-MAVZU: UMUMIY O‘RTA TA’LIM MUASSASALARIDA TARBIYA FANINI KONSEPTUAL ASOSLARI VA TARBIYA FANINI O‘QITISHNING TAMOYILLARI	44
3.1. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida tarbiya fanini o‘qitishning mazmuni	44
3.2. “Tarbiya” fanini o‘qitish tamoyillari va ularning tavsifi.	52
3.3 Tarbiyaning umumiy konsepsiyalari va ularning “Tarbiya” fanini o‘qitishdagi ahamiyati.	56
3.4.Yangi O‘zbekistonda tarbiyaning zamonaviy konsepsiyalari.	72
4-MAVZU: “TARBIYA” FANINING JAMIYAT TARAQQIYOTI VA YOSH AVLOD HAYOTIDAGI O‘RNI.	79
4.1.O‘zbekiston Respublikasida tarbiya fanini o‘qitish zaruriyati.	79
4.2.“Tarbiya” fanining jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni	83
4.3.“Tarbiya” fani yosh avlod kamolotini ta’minlovchi fan	87

5-MAVZU: UMUMIY O‘RTA TA’LIM MUASSASALARIDA TARBIYA JARAYONI VA TARBIYA FANI	97
5.1. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida tarbiya jarayoni va uning mohiyati	97
5.2 Tarbiya texnologiyalarning tarbiya jarayonini tashkil etishdagi o‘rni	102
5.3. Tarbiya jarayonining qonuniyatlari, prinsiplari va ularni “Tarbiya” fanini o‘qitishda e’tiborga olish qoidasi	104
6-MAVZU: “TARBIYA” FANINI O‘QITISH JARAYONIGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR	108
6.1. “Tarbiya” fanini o‘qitishga zamonaviy yondashuv davr talabi	108
6.2. “Tarbiya” fanini o‘qitishga doir yondoshuvlar va ularni turlari	109
6.3. “Tarbiya” fanini o‘qitish jarayoniga aksialogik, texnologik yondoshuvlar va ularga tavsif. “Tarbiya” fanini o‘qitishga psixoterapevtik, ijodiy tadqiqiy va faoliyatli yondoshuv	114
7-MAVZU: “TARBIYA” FANINI O‘QITISHDA QO‘LLANILADIGAN UMUMPEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR	119
7.1 O‘qitishning ananaviy va shaxsga yo‘naltirigan texnologiyalari.	119
7.2 Muammoli va modulli o‘qitish texnologiyalari va ularga tavsif	130
7.3 Hozirgi davrda o‘qitishning deferensial va rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyalari va ularni tadbiq etish yo‘llari	133
7.4. “Tarbiya” fanini o‘qitish jarayoniga faol o‘qitish va dasturlashtirilgan ta’limni tadbiq etish	136
8-MAVZU: “TARBIYA” FANINI O‘QITISHDA QO‘LLANILADIGAN INTERFAOL METODLAR VA ULARNI TADBIQ ETISH YO‘LLARI	143
8.1 O‘qitishning interfaol metodlari va ularga tavsif	143
8.2 O‘quvchi yoshlarni ijodiy fikrlashga o‘rgatuvchi interfaol metodlar va ularni qo‘llash yo‘llari	146
8.3 O‘qitishning tanqidiy fikrlash metodi va uni tarbiya fanini o‘qitish jarayoniga tadbiq etish	151

9-MAVZU: “TARBIYA” FANINI O‘QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR VA ULARNING MAZMUN MOHIYATI.	156
9.1 Ta’limda innovatsiya, uning mohiyati, nazariy asoslari va turlari	156
9.2 Ta’lim innovatsiyalari va ta’lim texnologiyalari	163
9.3. Tarbiya fanini o‘qitishda qo‘llaniladigon innovatsion ta’lim texnologiyalari	165
9.4. “Tarbiya” fanini o‘qitish jarayoniga qo‘llanadigon innovatsion vositalar.	169
10-MAVZU: “TARBIYA” FANI O‘QTUVCHISINI INNOVATSION FAOLIYATI	175
10.1. Innovatsion faoliyat tushunchasi.	175
10.2. Innovatsiyaning o‘qituvchi faoliyatiga tutgan o‘rni.	179
10.3. O‘qituvchi innovatsion faoliyatining funksiyalari, bosqichlari va shakllari	181
11-MAVZU: TARBIYA FANINI O‘QITISHDA XALQ OG‘ZAKI IJODI NAMUNALARI, TARIXIY BITIKLAR, SHARQ ALLOMALARI MEROSI, DINIY VA BADIY ADABIYOTLARDAN FOYDALANISH	186
11.1. Xalq og‘zaki ijodi turlari. Tarbiya fanini o‘qitishda xalq og‘zaki ijodi namunalaridan foydalanish	186
11.2 Ta’lim va tarbiya jarayonida ulug‘ mutafakkirlarning axloq va odobga oid ilmiy merosidan foydalanishning o‘ziga xos jihatlari	191
11.3 Sharq allomalar merosida inson falsafasi masalalari. Dars jarayonlarida diniy va badiiy adabiyotlardan foydalanishning ahamiyati	198
GLOSSARIY	202
TEST	218
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI	224

G.B. Saidnazarova

TARBIYA FANINI O‘QITISH METODIKASI

5120301 – Tarix (Islom tarixi va manbashunosligi) ta’lim yo‘nalishi
talabalari uchun o‘quv qo‘llanma

Muharrir:	E.Eshov
Tex. muharrir:	D.Abduraxmonova
Musahhih:	M.Shodiyeva
Badiiy rahbar:	M.Sattorov

Nashriyot litsenziyasi № 022853. 04.03.2022.

**Original maketdan bosishga ruxsat etildi: 06.07.2024. Bichimi
60x84. Kegli 16 shponli. “Times New Roman” garnitura 1/16.**

Elektrografik usulda. Oddiy bosma qog‘ozi.

Bosma tabog‘i 14,5. Adadi 100. Buyurtma № 409



KAMOLOT

“BUXORO DETERMINANTI” MCHJ

bosmaxonasida chop etildi.

Buxoro shahar Namozgoh ko‘chasi 24 uy

Tel.: + 998 91 310 27 22